

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO‘LIMI  
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2026-2/3  
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2026**

**Bosh muharrir:***Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.*  
*Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.*  
*Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.*  
*Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.*  
*Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.*  
*Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.*  
*Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.*  
*Bahodirova Feruza Bahodir qizi, PhD, dots.*  
*Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.*  
*Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.*  
*Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.*  
*Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.*  
*Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.*  
*Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.*  
*Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.*  
*Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.*  
*Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.d., dos.*  
*Jumaniyozov Otaboy, f.f.d., prof.*  
*Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.*  
*Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.*  
*Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.*  
*Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.*  
*Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.*  
*Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc*  
*Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.*  
*Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.*  
*Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d., prof.*  
*Lamers Jon, q/x.f.d., prof.*  
*Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.*  
*Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.*  
*Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.*  
*Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.*  
*Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD*

*Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.*  
*Najmeddinov Axmad Raxmatovich PhD, dotsent*  
*Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.*  
*Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.*  
*Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.*  
*Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.*  
*Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.*  
*Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.*  
*Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.*  
*Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.*  
*Ruzmetov Davron Ibrogimovich, PhD*  
*Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.*  
*Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.*  
*Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.*  
*Safarov Alisher Karimjanovich, b.f.d., dos.*  
*Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.*  
*Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.*  
*Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.*  
*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.*  
*Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.*  
*Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.*  
*Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.*  
*Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.*  
*Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.*  
*Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.*  
*O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.*  
*O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.*  
*Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.*  
*Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.*  
*Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.*  
*Yuldashev Xamza Kamalovich, PhD*  
*Zaripova Ranojon Zaripovna, PhD, dotsent*

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№2/3 (135), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2026 y. – 151 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <https://www.mamun.uz/bulletin>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

**MUNDARIJA**  
**TARIX FANLARI**

<b>Abdujabborova S.B.</b> Sovet davrining dastlabki bosqichida Samarqand viloyati ijtimoiy-siyosiy hayotida ayol kadrlar siyosati	5
<b>Axmedov B.A.</b> Qorako‘lchilikda yem-xashak yetishmovchiligi va uning oqibatlari	8
<b>Boboqulova X.E.</b> Zamonaviy fuqarolik jamiyatida nodavlat notijorat tashkilotlari xayriya va gumanitar faoliyatning tarixiy rivojlanishi va ijtimoiy roli	10
<b>Bo‘riyev I.S.</b> Muhammad Xorazmiyning aqidaviy qarashlari to‘g‘risida	13
<b>Eshchanov Z.X.</b> Sovetlar davrida turkiy xalqlar yozuvini siyosiy nazorat vositasi sifatida kirill alifbosiga majburiy o‘tkazish	15
<b>Imamov B.X.</b> Yangi O‘zbekiston sharoitida turkiya davlati bilan parlamentlararo aloqalarning rivojlanishi	19
<b>Jumayeva Sh.</b> Surxondaryo viloyatida chorvachilik sohasida fermer xo‘jaliklarining tashkil etilishi va uning natijalari	23
<b>Kalandarova G.S.</b> Yangi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi sohasining rivojlanishi	25
<b>Kamolova N.P.</b> Tanho yer munosabatlari: huquqiy institut va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	28
<b>Kenjayev J.O.</b> Inson huquqlarini ilgari surishda nodavlat tashkilotlarning zamonaviy roli va yondashuvlari	31
<b>Mamuraliyeva G.I., Madraximov Z.Sh.</b> To‘maris – tarixda jasorat, bugunda ilhom	36
<b>Matqurbonov O.O.</b> IX-X asrlar Xorazm ilm – fani rivojida savdo aloqalarining tutgan o‘rni	39
<b>Nigmatova S.G‘.</b> Farg‘ona viloyatida nodavlat ta‘lim muassasalari-xususiy maktablarning rivojlanishi ibn sino xususiy maktabi faoliyati misolida	42
<b>Pulatov B.Y.</b> The role of historical memory in the formation of heroic epics	45
<b>Qudratov D.</b> Islom hamkorlik tashkiloti doirasida O‘zbekiston–Quvayt iqtisodiy aloqalari tarixidan	48
<b>Ravshanova G.P., Mirzayeva F.Sh.</b> Qashqadaryo vohasida sovet hukmronligining o‘rnatilishi va unga qarshi milliy istiqloqlilik harakatlari	51
<b>Samarova A.M.</b> 1959-1989-yillar O‘zbekiston SSR viloyatining demografik tahlili	55
<b>Sarsenbayeva A.M.</b> Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlar omilining strategik ahamiyati va hududiy natijadorlik tahlili	57
<b>Sattorov Sh.B.</b> Baqtriya–Marg‘iyona arxeologik kompleksi (BMAK) va hind-eroniyalar: arxeologik va arxeo-lingvistik tahlil	60
<b>Shodiyeva A.Z.</b> O‘zbek ijodkor ziyolilari faoliyati va ijod maktablari: Uchinchi renessansning ma‘naviy drayveri	63
<b>Sodiqova M.S.</b> Andijon viloyatining O‘zbekiston xalqaro madaniy aloqalardagi o‘rni	65
<b>Turayeva S.R.</b> Sharq mutafakkirlarining “siyosiy etakchi” haqida qarashlari: xokimiyatshunoslik ilmi, an‘ana va qadriyatlar	68
<b>Turdiev B.B.</b> Qoraqalpoq tarixiy qo‘shiqlari rivojlanishi va takomillashuvi	75
<b>Usmonov S.D.</b> Turkistonda jumladan Samarqandda milliy ta‘limning ahvoli. Ta‘lim sovet modeli joriy qilinishidagi zo‘ravonlik siyosati	78
<b>Usmonov S.D., Rasulova M.A.</b> Mutafakkirlarning ma‘rifiy-axloqiy qarashlari	82
<b>Xushboqov Ch.M.</b> Surxon vohasida an‘anaviy marosimlarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ijtimoiy-madaniy ahamiyati	86
<b>Yarashev M.K.</b> Yengil sanoat korxonalarining Surxondaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o‘rni	89
<b>Иномова Д.О.</b> Особенности государственного лоббизма в современной политике	91
<b>Пулатова С.А.</b> Иккинчи жаҳон уруши ҳақидаги тарихий хотирани мустаҳкамлашда коммеморация	95
<b>Равшанов А.Х.</b> Қадимги Юнон, Рим Ва Византия манбаларида Қашқадарё воҳаси аҳолисининг этнологик тавсифи	98
<b>Усенов С.Х.</b> Қорақалпоғистонда XIX асрдаги диний таълим ва мадрасалар тарихидан	101

<b>Эшқобилова М.</b> Шарқий Қашқадарёдаги айрим сўнги ўрта асрлардаги мудофаа кўрғонларининг археологик ўрганилиши	104
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<b>Abdusaidova G.</b> The importance of authentic materials in the development of communicative competence of economics students	108
<b>Achilova R.A., Norova S.K.</b> Redefining the Classroom: A Framework for Human-AI Collaborative Pedagogy	110
<b>Boboyev U.N.</b> Globallashuv jarayonida zamonaviy internet media nutqini o'qitish masalalari	113
<b>Ibrohimova N.I., Usmonova Sh.Yo.</b> The use of educational apps in learning english	116
<b>Lapasov M.X.</b> VI–VII asrlarda turon xalqlarining diniy e'tiqodi va uni 7-sinf O'zbekiston tarixi fanida o'qitish metodikasi	118
<b>Masharipova N.O., Boynazarova M.D.</b> The rise of blended learning in english education	122
<b>Negmatov B.M.</b> Ibn Sinoning pedagogik qarashlari	124
<b>Ollaberganova S.X.</b> Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish	127
<b>Omonova Sh.X.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qatishda duolingo platformasining qo'llanilishi: pedagogik tahlil va amaliy strategiyalar	129
<b>Rizamamatova G.R.</b> Smartfonlardan foydalanish va uning uyqu hamda o'quv faoliyatiga ta'siri	132
<b>Saydibragimova Yu.</b> Methodological approaches to studying speaking in academic english: a neurolinguistic view	134
<b>Tulkinhujayeva N.R.</b> Gamification in the study of information technology in medical institutions	136
<b>Xudoyberdiyeva N.R.</b> Texnologiya darslarida tadbirkorlikka oid ko'nikmalarni motivatsion texnologiyalar asosida shakllantirish	140
<b>Yoqubova S.X., Shoimova Sh.K.</b> Onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani shakllantirish muammolari	142
<b>Зоирова Ф.У.</b> Игровые технологии как средство повышения мотивации при обучении русскому языку студентов иноязычных групп	145
<b>Мусаев Б.Н.</b> Роль упражнений на предпереводческий анализ в развитии профессиональных компетенций студентов на начальном этапе обучения переводу	148

TARIX FANLARI

UO'K 94(575.1-21)'251.1.

## SOVET DAVRINING DASTLABKI BOSQICHIDA SAMARQAND VILOYATI IJTIMOIIY-SIYOSIY HAYOTIDA AYOL KADRLAR SIYOSATI

(1920–1930-yillar)

*S.B.Abdujabborova, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning 20–30-yillarida Samarqand viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning ishtiroki tarixiy manbalar va statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida olib borilgan kadrlar siyosati, mahalliy lashtirish jarayonlari, saylov kampaniyalari hamda davlat va jamoat boshqaruvida ayollarni jalb etish masalalari yoritib beriladi. Tadqiqotda Samarqand viloyatida xotin-qizlarning sovetlar, partiya va xo'jalik organlaridagi faoliyati, ularning rahbarlik lavozimlariga ko'tarilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniyat sohalaridagi o'rni ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Samarqand viloyati, xotin-qizlar, sovet davri, kadrlar siyosati, mahalliy lashtirish, saylovlar, ijtimoiy-siyosiy hayot.

**Аннотация.** В статье на основе архивных материалов и статистических данных анализируется участие женщин в социально-экономической и общественно-политической жизни Самаркандской области в 1920–1930-е годы. Рассматриваются особенности кадровой политики советской власти, процессы коренизации, избирательные кампании и меры по привлечению женщин к работе в органах государственной и общественной власти.

**Ключевые слова:** Самаркандская область, женщины, советский период, кадровая политика, коренизация, выборы, общественно-политическая жизнь.

**Abstract.** This article analyzes the participation of women in the socio-economic and socio-political life of the Samarkand region during the 1920s–1930s based on archival sources and statistical data. The study examines the personnel policy of the Soviet authorities, the processes of indigenization, electoral campaigns, and measures aimed at involving women in state and public administration.

**Key words:** Samarkand region, women, Soviet period, personnel policy, indigenization, elections, socio-political life.

**Asosiy qism.** XX asrning 20-30-yillarida O'zbekistondagi siyosiy elitani bajargan vazifasiga ko'ra partiya va sovet-xo'jalik elitasiga ajratish mumkin. Faqat Respublika miqyosida olib o'rganilganda esa hukmron va regional elitalarni farqlash mumkin. Shuningdek, bu davrda O'zbekistondagi siyosiy elitani milliy tarkibi bo'yicha milliy, mahalliy va yevropaliklarga bo'lish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

XX asrning 20-30-yillarida o'zbek siyosiy elitasi shakllanishining asosiy xususiyatlaridan biri, albatta, bu kadrlarning kommunistik partiya va sovet davlati siyosatiga xizmat qiluvchi, ular g'oyalarining targ'ibotchisi etib shakllantirilganligidir. O'zbek siyosiy elitasining bu ruhda shakllanishining asosiy sababi, shubhasiz, kommunistik partiyaning kadrlar borasida qo'llagan pastdan rahbarlik lavozimiga ko'tarish va nomenklatura siyosatidir. Bu davrda o'zbek elitasi SSSR da bo'lgani kabi pastdan yuqoriga ko'tarish, ya'ni rekrutlik va nomenklatura asosida shakllandi. Sovet hokimiyati kadrlar borasida o'zining tayanchi deb e'lon qilgan ishchi va dehqonlar saflaridan rahbarlik lavozimiga ko'tarish siyosatini qo'llar ekan, birinchidan, nomzodlarning ishlashi uchun yetarlicha sharoit yaratib bermagan, ikkinchidan esa, barcha nomzodlar ham qo'yiladigan talablarga javob bermagan. Tabiiyki, dehqonlar va ishchilar orasidan rahbar ko'tarilgan kishilar kerakli malaka va bilimga ega emas edi. O'zbekistondagi kadrlarning ko'nimsizligi va mahalliy millat vakillaridan yetuk kadrlar tayyorlash masalasiga hukumat boshlig'i Fayzulla Xo'jayev ham alohida e'tibor bergan. U kadrlarning bir joyda uzog'i bilan olti oygina ishlab, keyin boshqa ishga o'tkazib yuborilishi, davlat apparatini mahalliy lashtirishning qisqa vaqtda amalga oshirilishi noto'g'ri

ekanligini ta'kidlab, mahalliy millatlardan yuqori malakali kadrlar tayyorlanishi uchun yetarli darajada ta'lim berilishi va undan keyin bu kadr 4-5 yil bir joyda ishlashi lozim degan [1, 419-b].

XX asrning 20-30-yillarida SSSR rahbari Stalin tomonidan yangi nazariy qarash sifatida ilgari surilgan "Sotsializm mustahkamlanib borgan sari sinfiy dushman qarshiligi ham shunchalik kuchayib boradi" degan g'oya qonuniy xatti-harakatlarning avj olishiga olib keldi. Partiyaning kadrlar siyosati mafkuraviy maqsadlar yo'lida markazning iqtisodiy manfaatlari bilan bog'lanib ketdi. Shunga ko'ra kadrlar siyosatiga doir muhim masalalar KPSS MQ O'zbekiston KP MQ syezdlari, plenumlari, viloyat, tuman, partiya konferensiyalarida ko'rib chiqildi. Ularda puxta o'ylangan, "lenincha" tartiblarga bo'ysundirilgan usullar yaratildi. Partiya a'zoliqi murakkablashtirilib, asosan ishchi, dehqonlar partiya a'zolariga ko'proq olindi.

Bu yillarda o'zbeklardan umumiy rahbar kadrlar 17% bo'lgan bo'lsa, 40-yillarga kelib 20% ga o'sdi [3,191-b]. Ayni paytda O'zbekistonda davlat apparatini mahalliyashtirish maqsadida O'zKP (9) MQ kotibi U. Yusupov milliy kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratdi. O'sha yillari davlat boshqaruv organlarining rahbar xodimlari tarkibida o'zbek va boshqa mahalliy millat vakillarining soni quyidagicha edi: partiya organlarida-49%, shulardan partiya shahar komitetlari va rayon ijroiya komitetlari kotiblari-67%, sovet organlarida-67%, shu jumladan, shahar va tuman ijroiya komitetlarining raislari-93%, sud va prokuratura organlarida 74%, shulardan tuman va shahar prokurorlari-81%, tuman va shahar gazeta muharrirlari tarkibida-93%, shahar va tuman xalq ta'limi bo'limlarida 82%, O'zSSR yuqori kengash deputatlari tarkibida-68% tashkil etdi. Shuningdek, tub aholi vakillaridan yetishib chiqqan rahbarlar har qancha qobiliyatli, iste'dodli bilimdon bo'lmasinlar, ular doimiy nazoratda bo'lgan. Mahalliy rahbar kadrlarni asossiz ravishda tez-tez boshqa joyga ko'chirish amalga oshirilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Kompartiyasining rahbar organlari biror hisobot saylov davridan keyin tahminan 20% yangilansa, KPSS ustavida yangilanib turishning nisbati mustahkamlangandan keyin 70% hatto undan ham ko'proq yangilanadigan bo'ldiki, buning oqibatida kadrlar ishiga bo'lgan ishonchsizlik, loqaydlik holatlari kuchayib borgan [3, 193-b].

O'zSSR siyosiy ishlari bo'yicha 1928-yilda qabul qilingan rezolyutsiyaga ko'ra: barcha tashkilotlar, qishloq xo'jaligi, kooperatsiya, ijtimoiy yordam Komitetlaridan iborat boshqaruv apparatlari asosan ishchi kuchi xotin-qizlar va erkaklardan iborat dehqon xo'jaliklariga davlat boshqaruvi va qonunlarini yetkazish belgilandi. Qabul qilingan rezolyutsiya 10 ta vazifadan iborat edi. Shuning oltinchi punktida ta'kidlanishicha, olib boriladigan islohotlarning barchasi xotin-qizlarga qadar yetib borishini ta'minlash. Ularning qiziqishlarini inobatga olgan holda ish yuritish tizimini yo'lga qo'yish, ularni davlat ishiga qiziqtirish orqali ularga yo'l ochib berish belgilandi. Nafaqat shaharlarda, chekka qishloqlarda ham maslahat xonalar, ayollar uchun klublar va to'garak, mashg'ulotlar, kurslar tashkillashtirish belgilandi [4, 10-b].

Samarqand viloyati partiya qo'mitasining qarori bo'yicha 1925-yilning 5-iyulidan Samarqand shahar sovetiga qayta saylovlar boshlanib, 12-avgustgacha davom etdi. Qarorda ta'kidlanishicha, Samarqand shahar sovetini tashkil qilish va unda deputatlar 100 nafardan oshmasligi kerak edi. Shahar sovetiga 97 deputat saylanib, ulardan 70 nafari erkaklar, 30 nafari ayollar bo'lib, shulardan 3 nafari o'zbek ayoli edi. Saylangan deputatlarning 25% viloyat va o'lka boshqaruvining mas'ul xodimlaridan iborat edi [5, 256-b].

1928-yilga kelib O'zbekiston SSR hukumati "Davlat apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida" qaror qabul qildi. Mazkur qarorga muvofiq o'zbek aholisi ko'proq bo'lgan tumanlardagi barcha davlat, jamoat, kooperativ muassasalari va tashkilotlari ish yuritishni o'zbek tilida olib borishlari shart edi. Mahalliyashtirish masalalariga e'tiborni kuchayishi boshqaruv sohasidagi milliy kadrlar qatlamini ko'paytirish, o'zbek tili tatbiq etiladigan hududlarni kengaytirish tadbirlarini keng quloch yoydirishga imkon berdi. Natijada respublikani markaziy muassasalarida o'zbek xodimlar soni 1924-1927-yillarda 2,5 baravar ortdi.

1926-yilning oxiri 1927-yilning boshida O'zbekistonda Sovetlarni qayta saylash ishi boshlanib ketdi. Bu birinchi keng saylov kampaniyasi edi. Mana shu qayta saylov natijasida qishloq Sovetlariga juda ko'p batraklar, kambag'al va o'rta dehqonlar saylanib, ularning sostavi yaxshilandi. Saylangan 30603 deputatdan 3904 tasi xotin-qizlar edi. Shulardan 30 kishi qishloq Sovetlariga rais qilib saylandi. O'zbekistonda aholining 51 foizini, xalq xo'jaligida ishlovchilarning 43 foizini xotin-qizlar

tashkil etadi. 1926-yilda respublikamiz injener-texnik xodimlarining atigi 2 nafari, tibbiy xodimlarning 16 nafari, o'qituvchilar hamda madaniyat xodimlarining 206 nafari o'zbek ayollaridan edi xolos [6, 42-b].

Samarqand viloyatida 1925 va 1926 yillardagi qayta saylovlarga deputatlar korpusi kommunistik rejimga sodiq ishchilar, "mehnatkash" dehqonlar, xizmatchilar, vakillaridan va eng avvalo partiya a'ziligiga nomzodlar va kommunistlardan to'ldirib borilganligini ko'rish mumkin. Masalan, 1926-yilda sovetlar tarkibiga 3739 deputat qayta saylangan, ulardan partiyaga nomzodlar va kommunistlar 690 kishi, komsomollar 229 kishi, partiyasizlar 2820 deputatni tashkil qilgan. 1925-1926-yillardagi saylovlarda partiya va davlat tuzilmalari sovet qurilishiga va faol siyosiy hayotga o'zbek mehnatkash ayollari ishtirokini ta'minlashga ham o'z e'tiborini qaratdi. Bu yillarda xotin-qizlar uchun yangi maktablar, klublar, qizil burchaklar va maxsus kooperativ do'konlar faoliyat ko'rsatdi. 1925-yilda Samarqand ayollar klubida 220 ta a'zo bo'lib, ularning ko'plari klub ishlarida faol qatnashgan. 1926-1927-yillarda Samarqand okrugi bo'yicha sovetlarga a'zo qilib saylanganlar o'rtasida qishloq sovetlarida 386 nafar, shahar sovetlarida 56 nafar, tuman ijroiya qo'mitasida 41 nafar ayol bo'lgan. 1925-yilda viloyat qishloq sovetlariga qayta saylovlarda 417 ayol a'zo bo'lib saylangan edi [5, 256-b].

20-yillarning oxiri 30-yillarda yangi, tarix ko'rmagan ajoyib xotin-qizlar -partiya, sovet, xo'jalik organlarida turli lavozimda ishlovchi kadrlar yetishib chiqdi. To'liq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda 1936-yilda respublikada 9486 ayol turli rahbarlik ishlarida ishlashgan. Samarqand viloyatining o'zida 1937-yilda 71 xotin-qiz kolxoz raislari, 145 xotin-qiz rais muovini bo'lib ishlashgan [6, 42-b].

Mahkam Narziqulova 1920-yilda Samarqand shahrida ishchi oilasida tug'ildi. Millati tojik, ma'lumoti oliy. 1935-yilda Samarqand muallimlar tayyorlash bilim yurtini, 1938-yilda O'qituvchilar oliygohini bitirib, ustozlik qila boshladi. O'ttiz sakkiz yil davomida shahardagi 5-o'rta maktabda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullandi. Maktab va jamoat ishlarida faol ishtirok etdi. Uning bu sohadagi xizmatlari munosib baholandi. "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi", so'ng sobiq SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining farmoniga asosan Sotsialistik Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi. Fotima Yusupova 1923-yilning 3-avgustida Samarqand shahrida tug'ildi. Millati o'zbek, ma'lumoti o'rta. 1938-yildan Farg'ona va Samarqand shaharlararo telefon stansiyasida ulovchi-alovqachi bo'lib ishlagan. Mehnat faoliyatini bitta korxonada boshlashi va tugallashigina emas, balki urush yillari hamda undan keyingi davrlardagi texnik vositalar bilan tig'iz, oshig'ich vazifalarni maromiga yetkazib uddalashi tufayli hurmat-e'tibor topgan. Ko'plab yoshlarga murabbiylik qilgan [7, 73-b].

Nugayeva Maryam Axmedshevna 30-yillarda Samarqand viloyati Payariq tumani Chelak qishlog'ida ham hisobchi bo'lib ishladi. 1938-yilda O'zbekiston SSR MIK Samarqand viloyati Dalolatnoma tuzuvchi bo'lim o'rinbosari lavozimida faoliyat yuritdi [8, 10-b]. Abdurahimova Muxabbat Yadgarovna Samarqand viloyati Urgut tumanidagi o'rta maktabning direktori bo'lib ishlagan. Shundan keyin o'z faoliyatini o'qituvchilik bilan davom ettirdi. Keyinchalik viloyat kompartiyasida xotin-qizlar ishi bo'yicha bo'lim o'rinbosari lavozimiga tayinlangan [9, 5-b].

Bixovskaya Anna Markovna O'zbekiston SSR sog'liqni saqlash sohasida, Samarqand viloyati tibbiyot parazitologiya sohasida, sanitar-epidemiolog bo'lib ishladi [10, 52-b]. Samarqand okrugi Yangiqo'rg'on tumanida qayta saylovlar o'tkazilganida saylovchilarning 90% qatnashdi. 1928-yilgacha tumanda qishloq sovetiga bironta ham ayol saylanmagan edi. 1929-yilda qishloq sovetiga 3 nafar raislikka saylandi. Avvalgi yillarga nisbatan qishloq sovetiga saylangan ayollar soni to'rt marta oshdi. Butun tumandagi qishloq sovetlarning avvalgi tarkibiga atigi 38 nafar ayol bo'lgan bo'lsa, 1929-yilda ularning soni 150 nafarga yetdi [5, 105-b].

Keyingi yillarda, respublikada oliy va o'rta maxsus ma'lumotli 700 ming mutaxassis xotin-qiz bor. Ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlarida ayollardan 134 nafar fan doktori va 4 ming nafar fan kandidati mehnat qilgan. Respublika kommunistlari saflarida 180 ming xotin-qiz bo'lib, O'zbekiston SSR Oliy Sovetida deputatlarning 36%ini, mahalliy sovetlarda salkam yarmini xotin-qizlar tashkil etgan. Oblast, shahar, rayon partiya komitetlarining sekretarlari, oblast, shahar, rayon, posyolka va qishloq Sovetlari ijroiya komitetlarining raislari, rais o'rinbosarlari, sekretarlari, a'zolar xotin-

qizlardan tayinlana boshlangan. O'z mehnatlari, vatanga sadoqatlari tufayli Respublika xotin-qizlaridan 95 ming kishi orden va medallar bilan mukofotlanib, 132 ayol sotsialistik Mehnat qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan, yuz mingdan ziyod ko'p bolali ona "Qahramon ona" ordeni bilan mukofotlangan. Ko'plar, juda ko'plarning nomlari da'vatkorlik kashf etgan, respublikada mashhur bo'lgan [6, 34-b].

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, XX asrning 20–30-yillarida Samarqand viloyatida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki sovet hokimiyatining kadrlar siyosati va mafkuraviy maqsadlari bilan chambarchas bog'liq holda shakllandi. Dastlabki yillarda ayollarning davlat boshqaruvida ishtiroki cheklangan bo'lsa-da, keyinchalik saylovlar, mahalliyashtirish siyosati hamda maxsus tashkil etilgan klub, maktab va kurslar orqali ularning faolligi ortib bordi. Samarqand viloyatida xotin-qizlar sovetlar tarkibiga saylanib, qishloq va shahar boshqaruvida, ta'lim, sog'liqni saqlash hamda xo'jalik sohasida muhim vazifalarni bajara boshladilar. Shu bilan birga, ayol kadrlarning doimiy nazorat ostida bo'lishi, tez-tez lavozimdan lavozimga ko'chirilishi va markazlashgan boshqaruv tizimi ularning to'laqonli mustaqil faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilgan. Shunga qaramay, mazkur davr Samarqand viloyatida yangi avlod faol, ijtimoiy hayotda yetakchi bo'lgan xotin-qizlarning shakllanishi uchun muhim bosqich bo'lib xizmat qildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston tarixi(1917-1991-yy). I jild. Eski nashr.T.:”O'zbekiston”.2019.
2. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. O'zbekiston sovet mustamkachiligi davrida. – T. “Sharq”. 2000.
3. R. Murtazayeva O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. T., “Mumtoz so'z”,2019.
4. SamVDA. 210-jamg'arma. 1-ro'yxat. 4-ish. 1928год
5. Botirov A. Samarqand viloyatidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1925-1941yy). Diss. T., 2020.
6. Alimova M. “Hujum”ning so'nmas yog'dusi. T., 1987.

UO’K 908

## QORAKO'LCHILIKDA YEM-XASHAK YETISHMOVCHILIGI VA UNING OQIBATLARI

*B.A. Axmedov, dots., Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Maqolada 1925–1928 yillarda O'zbekiston SSRda qorako'lchilik sohasining ahvoli, rivojlanish tendensiyalari hamda duch kelgan muammolari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. O'zbekiston SSR tashkil topgach, Markaz manfaatlarining ustuvorligi kuchayishi natijasida respublikaning qishloq xo'jaligiga, xususan qorako'lchilikka ixtisoslashtirilishi jarayoni yoritib beriladi. Tadqiqotda qorako'l qo'ylarining son jihatdan kamayishi, tabiiy-iqlim sharoitlarining noqulayligi, yem-xashak tanqisligi va kasalliklar oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy yo'qotishlar ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, qorako'l terisini tayyorlash, narx belgilash, davlat tomonidan nazorat qilish va eksport jarayonlaridagi kamchiliklar tahlil qilinadi. Maqolada davlat tashkilotlari va xususiy savdogarlar o'rtasidagi munosabatlar, noqonuniy savdo holatlari ham yoritilgan. Xulosa qismida qorako'lchilik sohasining respublika iqtisodiyotidagi o'rni va uni takomillashtirish zarurati asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Qorako'lchilik, O'zbekiston SSR, 1925–1928 yillar, qo'ylar soni, iqtisodiy yo'qotishlar, qorako'l terisi, eksport, davlat nazorati, xususiy savdogarlar, tarixiy tahlil

**Аннотация.** В статье анализируется состояние, тенденции развития и основные проблемы отрасли черно-полосного овцеводства в Узбекской ССР в 1925–1928 годах на основе исторических источников. После образования Узбекской ССР усиление приоритетов центральной власти привело к специализации республики на сельском хозяйстве, в частности на черно-полосном овцеводстве. В исследовании рассматриваются сокращение поголовья черно-полосных овец, неблагоприятные природно-климатические условия, недостаток кормов и болезни, вызвавшие экономические потери. Также анализируются процессы подготовки овчины, ценообразования, государственного контроля и экспорта, а также выявленные недостатки. В статье освещаются взаимоотношения государственных организаций и частных торговцев, случаи незаконной торговли. В заключении

обосновывается значение отрасли черно-полосного овцеводства в экономике республики и необходимость её совершенствования.

**Ключевые слова:** Каракульчество, Узбекская ССР, 1925–1928 годы, численность овец, экономические потери, каракульевые шкуры, экспорт, государственный контроль, частные торговцы, исторический анализ

**Abstract.** The article examines the state, development trends, and main challenges of the Karakul sheep industry in the Uzbek SSR during 1925–1928, based on historical sources. Following the establishment of the Uzbek SSR, the strengthening of central authorities' priorities led to the republic's specialization in agriculture, particularly in Karakul sheep breeding. The study highlights the reduction in Karakul sheep numbers, adverse natural and climatic conditions, feed shortages, and diseases that resulted in economic losses. It also analyzes processes of fur preparation, pricing, state regulation, and export, as well as identified shortcomings. The article discusses the relationships between state organizations and private traders, including cases of illegal trade. The conclusion substantiates the significance of the Karakul industry in the republic's economy and emphasizes the need for its improvement.

**Keywords:** Karakul sheep breeding, Uzbek SSR, 1925–1928, sheep population, economic losses, Karakul fur, export, state regulation, private traders, historical analysis.

O'zbekiston SSR 1925 yil fevralda tashkil topgach, iqtisodiy sohada Markaz manfaatlarining ustuvorligi yanada kuchaydi. Respublika asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashtirilgani sababli murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar girdobida qoldi. Bu holat chorvachilik va uning eng muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qorako'lchilik sohasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. 1924–1925 yillarda O'zbekistonda qorako'l qo'ylarining soni keskin kamayib, 600–700 ming bosh atrofida qolib ketdi. Natijada qorako'l terisi ishlab chiqarish va eksport hajmi sezilarli darajada qisqardi. Bu esa respublika iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan daromad manbalaridan birining zaiflashishiga olib keldi. 1927 yilning kuz va qish fasllari qorako'lchilik uchun nihoyatda noqulay bo'ldi. Ayniqsa, Qashqadaryo okrugi qorako'lchilik xo'jaliklari og'ir ahvolga tushib qoldi. Yaylovlarda o't-o'lan yetishmasligi sababli yilning may–iyun oylaridan boshlab Koson va Beshkent tumanlaridagi cho'ponlar o'z qo'ylarini nisbatan sero't yaylovlarga ega bo'lgan Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Kattaqo'rg'on, Nurota, Sherobod va Boysun tumanlari hududlariga haydab boqishga majbur bo'ldilar[1]. Shu yili yem-xashak tanqisligi, shuningdek, qo'ylar orasida teri va o'pka kasalliklarining keng tarqalishi oqibatida ko'plab qorako'l qo'ylar qirilib ketdi. Qashqadaryo okrugi bo'yicha jami 74 200 bosh qo'y nobud bo'lib, shundan 50 000 bosh Koson, 12 000 bosh Chiroqchi, 8 000 bosh G'uzor va 3 600 bosh Tangri-Haram tumanlariga to'g'ri keldi. 1927 yil 31 dekabrda SSSR Ichki va tashqi savdo xalq komissarligi tomonidan "Mo'ynani qayta ishlovchi korxonalarni xomashyo bilan ta'minlash to'g'risida" qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq, "Uzbekselsoyuz" 125 ming dona qorako'l terisini "Uzgostorg" tashkilotiga topshirdi[2]. 1927 yilda davlat qabul punktlarida qora rangli qorako'l terilari 14 rubl 50 tiyindan, kul rangli terilar esa 22 rubl narxda qabul qilindi. 1928 yilda bu narxlar mos ravishda 16 rubl va 19 rubl 50 tiyinni tashkil etdi. 1929 yilda esa qorako'l terisining o'rtacha narxi pasayib, Buxoroda 12 rubl 50 tiyinga tushdi. Shu yili davlatga topshirilgan terilarning 80 foizi I navli, 15 foizi II navli va 5 foizi III navli sifatida qabul qilindi. Mazkur davrda O'zbekiston qorako'l terilarining asosiy xaridorlari Kavkaz va Rossiyaning, xususan Qozon shahrining hunarmandlari bo'ldi. 1927 yilda O'zbekistonda yetishtirilgan qorako'l terilari asosan Boku shahridagi hunarmandchilik kooperatsiyalari, Kutaisi bosh kiyim ustalari, Tiflis va Leningrad ishlab chiqarish artellari, shuningdek, Qozonlik savdogarlar tomonidan sotib olindi. Shu yili jami 172 022 dona qorako'l terisi ushbu artel va xususiy shaxslarga realizatsiya qilindi. Eski Buxoroda faoliyat yuritgan fors savdogari O'ga Bag'ir Sodiqovning "Tabriziy" nomli firmasi ham qorako'l tayyorlash va savdosi bilan shug'ullangan yirik subyektlardan biri edi. U 1927 yil hosili uchun teri yetishtiruvchilarga 39 118 rubl miqdorida oldindan mablag' tarqatdi va shu yilning iyun–dekabr oylarida "Uzbekgostorg"ga 9 074 dona qorako'l terisi topshirdi. 1928 yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra, u terilarning 70 foizini qat'iy narxlarda davlatga topshirishi, 30 foizini esa erkin bozorda sotishi mumkin edi[3]. Biroq bu shart savdogar manfaatlariga zid bo'lgani sababli Eron

elchixonasi orqali erkin savdo ulushini kamida 50 foizga yetkazish talabi bilan murojaat qilindi. Shu yillarda qorako'l savdosi bilan bog'liq noqonuniy holatlar ham uchrab turdi. Jumladan, 1928 yilda Eron fuqarosi To'g'a O'ga Zoda Agayev Karmana stansiyasida belgilangan me'yordan ortiq miqdorda qorako'l sotib olgani uchun qo'lga olindi. Unga 50 dona teri olishga ruxsat berilgan bo'lsa-da, amalda 150 dona sotib olgani aniqlangan. 1928 yilda "Uzbekselsoyuz"ning Buxoro bazasiga 404 152 dona qorako'l terisi kelib tushdi. Xorazm okrugida esa shu yili 17 655 dona qorako'l terisi yetishtirish rejalashtirildi. Umuman olganda, 1928 yilda "Uzbekgostorg" tomonidan 77 714 dona qorako'l terisi chetga sotilib, 113 038 rubl 84 tiyindan ortiq mablag' tushumi ta'minlandi. Ushbu daromadning 70 foizi O'zbekiston SSR Moliya xalq komissarligiga, 10 foizi soliq sifatida o'tkazildi. Shunga qaramay, ko'plab xo'jaliklarda qorako'l yetishtirish rejasi bajarilmadi. Masalan, Beshkent qo'ychilik shirkati rejalashtirilgan 25 ming dona o'rniga atigi 19 416 dona teri tayyorladi. Bundan tashqari, terilar sifati ham past bo'lib, bu holat asosan tuzlash va quritish texnologiyalariga amal qilinmagani bilan izohlanadi. 1928 yil fevral–mart oylarida qorako'l terilarini qayta ishlash va savdosini tartibga solishga qaratilgan qator qarorlar qabul qilindi[4]. Xususan, Buxoro okrugi ijroiya qo'mitasining qaroriga binoan, qorako'l yig'ish, tayyorlash va sotish ishlari faqat "Uzbekgostorg" va "Uzbekselsoyuz" kabi davlat tashkilotlariga yuklatildi. Xususiy shaxslar va firmalarning bu sohadagi faoliyati keskin cheklab qo'yildi. 1928 yil 30 martda Germaniyadagi sovet savdo vakili tomonidan yuborilgan xatda Leyptsig auksionida Buxoroda oshlangan qorako'l terilari yuqori sifatli mahsulot sifatida baholanganligi qayd etildi. Buxoro terilari hatto Afg'oniston qorako'l mahsulotlaridan ham ustun deb topildi. Aksincha, Samarqandda tayyorlangan terilarning sifati past bo'lib, tuzlashdagi xatolar tufayli ularning kuyish darajasi yuqori bo'lgani ta'kidlandi[5]. Shu sababli "Uzbekgostorg" qorako'l terilarini sifatli tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratishga majbur bo'ldi. Xulosa qilib aytganda, 1925–1928 yillarda O'zbekiston SSRda qorako'lchilik sohasi murakkab iqtisodiy va tashkiliy muammolar bilan yuzlashdi. Markazlashgan boshqaruv, rejalashtirishdagi kamchiliklar, tabiiy sharoitlarning og'irligi hamda texnologik savodsizlik soha rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunga qaramay, qorako'l terisi O'zbekiston uchun muhim eksport mahsuloti bo'lib qolaverdi va keyingi yillarda ushbu tarmoqni takomillashtirish zarurati yanada dolzarb tus oldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Manzarov, Y., & Ruziboev, D. (2021, November). Education in the heritage of the jadids of Turkey. In Archive of Conferences (pp. 127-131).
2. Ro'ziboyev, D. (2024). Qashqadaryo vohasida qorako'lchilikka bo'lgan e'tibor. Tamaddun nuri jurnali, 9(60).
3. Ro'ziboyev, D.A. (2022). Qashqadaryo viloyatida chorvachilikning iqtisodiy hayotdagi o'rni va sovet hokimiyatining chorva ozuqasi siyosati. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 1008-1016.
4. Рўзібоев, Д. А. Ў. (2022). XX асрнинг биринчи ярмигача бўлган даврда Ўзбекистонда чорвачиликнинг аҳволи. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(3), 943-952.
5. Угли, Р. Д. А. З. (2021). Туристическая мощь Узбекистана. Восточное возрождение: инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 1(5), 215-222.

UO'K 061.2:364.1

### ZAMONAVIY FUQAROLIK JAMIYATIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI XAYRIYA VA GUMANITAR FAOLIYATNING TARIXIY RIVOJLANISHI VA IJTIMOYIY ROLI

*X.E.Boboqulova, dots., Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy fuqarolik jamiyati sharoitida xayriya va gumanitar tashkilotlarning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda ushbu tashkilotlarning ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining ijtimoiy chetlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda fuqarolik faolligini oshirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, xayriya va gumanitar tashkilotlarning davlat institutlari bilan hamkorligi, ularning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi funksiyalari tarixiy va nazariy manbalar asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyatdagi konstruktiv va muvozanatlovchi kuch sifatidagi ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi.*

**Kalit so'zlar:** fuqarolik jamiyati, xayriya tashkilotlari, gumanitar tashkilotlar, ijtimoiy himoya, ijtimoiy adolat, fuqarolik faolligi, ijtimoiy barqarorlik.

**Аннотация.** В статье анализируется роль и значение благотворительных и гуманитарных организаций в условиях современного гражданского общества. Рассматривается их вклад в систему социальной защиты, обеспечение социальной справедливости, поддержку социально уязвимых групп населения и развитие гражданской активности. Особое внимание уделяется взаимодействию благотворительных и гуманитарных организаций с государственными институтами, а также их функциям в обеспечении социальной стабильности. На основе исторических и теоретических источников обосновывается значение институтов гражданского общества как конструктивной и уравнивающей силы в общественном развитии.

**Ключевые слова:** гражданское общество, благотворительные организации, гуманитарные организации, социальная защита, социальная справедливость, гражданская активность, социальная стабильность.

**Abstract.** This article examines the role and significance of charitable and humanitarian organisations in the context of modern civil society. It analyses their contribution to social protection, the promotion of social justice, support for socially excluded groups, and the enhancement of civic engagement. Particular attention is paid to the interaction between charitable and humanitarian organisations and state institutions, as well as their functions in maintaining social stability. Based on historical and theoretical sources, the study substantiates the importance of civil society institutions as constructive and balancing forces in societal development.

**Key words:** civil society, charitable organisations, humanitarian organisations, social protection, social justice, civic engagement, social stability.

Zamonaviy fuqarolik jamiyatining shakllanishi va barqaror rivojlanishida xayriya hamda gumanitar tashkilotlar muhim ijtimoiy-falsafiy institutlar sifatida maydonga chiqmoqda. Ular nafaqat muayyan ijtimoiy muammolarni bartaraf etuvchi amaliy tuzilmalar, balki jamiyatning ma'naviy - axloqiy poydevorini mustahkamlovchi, insonparvarlik qadriyatlarini real hayotda qaror toptiruvchi sub'ektlar hisoblanadi. Ushbu tashkilotlarning faoliyati fuqarolik jamiyatining ijtimoiy adolat, hamjihatlik va mas'uliyat kabi asosiy tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tarixiy jarayon nuqtai nazaridan qaralganda, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, jumladan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) jamiyatning turli rivojlanish bosqichlarida muhim ijtimoiy vazifalarni bajargan institutlar sifatida shakllanib borgan. Dastlab ular jamoaviy o'zaro yordam shakllari, kasaba uyushmalari, diniy hamda xayriya birlashmalari ko'rinishida vujudga kelib, aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Keyingi tarixiy davrlarda esa bu tuzilmalar asta - sekin institutsional shakl kasb etib, nodavlat notijorat tashkilotlari sifatida jamiyat hayotida mustaqil ijtimoiy subyektga aylangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi fuqarolik jamiyati tashkilotlarining asosi bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) faoliyat doirasini kengaytirdi. Bu davrda ular nafaqat tezkor yordam ko'rsatish bilan cheklanib qolmay, balki mehnat huquqlarini himoya qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida jamoaviy tashabbuslarni ilgari surish orqali ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishida ishtirok eta boshladi. Natijada fuqarolik jamiyati tashkilotlari jamiyatdagi jamoaviy manfaatlarni ifodalovchi va himoya qiluvchi institutlar sifatida mustahkamlandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab nodavlat notijorat fuqarolik jamiyati tashkilotlarining jamiyat hayotidagi roli yanada murakkablashdi. Bu davrda ularning faoliyati hisobdorlikni oshirish, ijtimoiy hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish va fuqarolarning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish bilan tavsiflandi. Aholining turli ijtimoiy guruhlarini manfaatlarini ifodalash orqali fuqarolik jamiyati tashkilotlari qarorlar qabul qilish jarayonlariga bilvosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi [1].

XXI asr boshlariga kelib, fuqarolik jamiyati tashkilotlari xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda davlat bilan hamkorlik qiluvchi muhim institutlar sifatida namoyon bo'ldi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday tashkilotlar jamiyatdagi ijtimoiy

chetlanishni kamaytirish, ijtimoiy moslashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash va barqaror ijtimoiy munosabatlarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Xususan, mazkur masala bo'yicha qayd etilgan manbalarda zamonaviy siyosiy va ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarda fuqarolik jamiyati tashkilotlari (civil society organisations – CSOs) jamiyatda nafaqat tezkor yordam ko'rsatuvchi tuzilmalar, balki uzoq muddatli transformatsion o'zgarishlarni ta'minlashga qodir muhim institutlar sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, CSOlar jamoaviy manfaatlarni ifodalash va himoya qilish, hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kengaytirish, qarorlar qabul qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatish hamda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda bevosita ishtirok etish orqali jamiyatdagi ijtimoiy chetlanish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi [5].

Mazkur jarayonda alohida ahamiyatga ega jihat shundaki, ijtimoiy jihatdan cheklangan yoki marginal guruhlar passiv yordam oluvchilardan faol sub'ektlarga aylanadi. Ular o'z manfaatlarini ifodalovchi tashkilotlar tuzish yoki mavjud CSOlarda ishtirok etish orqali ijtimoiy o'zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin. Shu tariqa, fuqarolik jamiyati tashkilotlari ijtimoiy inklyuziyaning institutsional asosi sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, CSOlar ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borib, jamiyatda chetlatilgan guruhlar muammolarining ochiq muhokamaga chiqishiga, ularning ijtimoiy ko'rinuvchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Xayriya va gumanitar tashkilotlar jamiyat taraqqiyotining turli tarixiy bosqichlarida ijtimoiy muammolarni yumshatish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallab kelgan. Ularning faoliyati dastlab jamoaviy yordam, diniy va an'anaviy xayriya amaliyotlari shaklida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u institutsional ko'rinishga ega bo'lib, fuqarolik jamiyati institutlari sifatida shakllandi. XIX - XX asrlarga kelib, sanoatlashtirish, urbanizatsiya va ijtimoiy tabaqalanish jarayonlari kuchayishi natijasida gumanitar tashkilotlarning faoliyati yanada dolzarblashdi. Ayniqsa, urushlar, tabiiy ofatlar va migratsiya jarayonlari sharoitida bunday tashkilotlar aholining eng zaif qatlamlariga tezkor yordam ko'rsatish orqali davlatning ijtimoiy siyosatini to'ldiruvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ldi. Shu davrda xalqaro miqyosda Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy harakati kabi tashkilotlarning shakllanishi gumanitar faoliyatning yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat berdi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida xayriya va gumanitar tashkilotlarning roli faqat moddiy yordam ko'rsatish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini ifodalash, ularning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish hamda qarorlar qabul qilish jarayonlariga ta'sir ko'rsatish bilan tavsiflana boshladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati tashkilotlari ijtimoiy chetlanish holatlarini yengishda, aholi orasida birdamlikni mustahkamlashda va fuqarolik faolligini oshirishda muhim omil hisoblanadi [2].

Shu bilan birga, xayriya va gumanitar tashkilotlarning samaradorligi ularning faoliyat yuritayotgan siyosiy va huquqiy muhitiga bevosita bog'liq bo'lib kelgan. Davlat institutlarining ochiqligi, markazlashuv darajasi va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlikka tayyorligi ushbu tashkilotlarning real ta'sir doirasini belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, umumiy platformalar va ittifoqlarni shakllantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi [3].

Houtzager va Moore tomonidan ilgari surilgan yondashuvlarga ko'ra, jamiyatda keng qamrovli inklyuziv rivojlanish faqat alohida va muvofiqlashtirilmagan fuqarolik tashabbuslari orqali emas, balki davlat va jamiyat vakillari o'rtasida muntazam muloqot va hamkorlik asosida shakllanadi [5]. Bunday tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, xayriya va gumanitar tashkilotlar davlat siyosatini to'ldiruvchi, ijtimoiy ehtiyojlarga tezkor moslashuvchi va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga xizmat qiluvchi muhim institutlar sifatida rivojlanib kelgan.

Jacobi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham ijtimoiy chetlanishni kamaytirishda eng samarali natijalar davlat tuzilmalari, mahalliy hamjamiyatlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik kuchaygan sharoitda yuzaga kelishini ko'rsatadi. Xususan, raqamli inklyuziya va ijtimoiy tadbirkorlik kabi amaliyotlar mahalliy tashkilotlarning institutsional salohiyati hamda fuqarolarning shaxsiy faolligi bilan uyg'unlashgandagina barqaror ijobiy samara beradi. Bu holat

nodavlat notijorat tashkilotlarini faqat norozilik bildiruvchi subyekt sifatida emas, balki davlat va jamiyat o'rtasida konstruktiv hamkorlikni ta'minlovchi faol ijtimoiy kuch sifatida namoyon etadi [4].

Umuman olganda, xayriya va gumanitar tashkilotlarning tarixiy rivojlanishi fuqarolik jamiyati institutlarining shakllanishi va takomillashuvi bilan bevosita va uzviy bog'liq jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Turli tarixiy davrlarda ushbu tashkilotlar jamiyatda ijtimoiy ehtiyojlarga javob beruvchi muhim mexanizm vazifasini bajargan, davlat institutlari imkoniyatlari yetarli bo'lmagan sharoitlarda esa ijtimoiy himoya va yordam tizimini to'ldiruvchi omil sifatida faoliyat yuritgan. Ularning faoliyati orqali jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy birdamlik, hamjihatlik va o'zaro mas'uliyat munosabatlari mustahkamlanib, fuqarolarning jamoaviy muammolarni hal etishdagi ishtiroki kengayib borgan.

Shuningdek, xayriya va gumanitar tashkilotlar tarixan ijtimoiy chetlanish va tengsizlikni yumshatish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy barqarorlikni saqlashda muhim rol o'ynab kelgan. Ular orqali jamiyatda o'z-o'zini tashkil etish, ijtimoiy tashabbus va fuqarolik faolligi shakllangan bo'lib, bu holat fuqarolik jamiyatining institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Natijada, xayriya va gumanitar tashkilotlar nafaqat yordam ko'rsatuvchi tuzilmalar, balki jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlovchi, davlat va jamiyat o'rtasida vositachi bo'lib xizmat qiluvchi muhim institutlar sifatida tarixiy taraqqiyot jarayonida barqaror o'rin egallagan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Earle L. *Social Movements and Citizenship: Some Challenges for INGOs*. Oxford: International Training and Research Centre (INTRAC). 2008
2. Eyben R., Ladbury S. *Building Effective States: Taking a Citizen's Perspective*. Institute of Development Studies. Brighton.: 2006
3. Development Research Centre on Citizenship, Participation and Accountability. *Blurring the Boundaries: Citizen Action across States and Societies*. Institute of Development Studies. Brighton.: 2011
4. Jacobi P. Public and private responses to social exclusion among youth in São Paulo. *The Annals of the American Academy of Political and Social Science*, 606, 2006. 216 - 230.
5. Houtzager P.P. *Introduction: From Polycentrism to the Polity*. In P.P.Houtzager, M.Moore (Eds.), *Changing Paths: International Development and the New Politics of Inclusion*. Cambridge: Cambridge University Press. 2003. pp. 1 - 31

UO'K 297.1

### MUHAMMAD XORAZMIYNING AQIDAVIY QARASHLARI TO'G'RISIDA

*I.S.Bo'riyev, kichik ilmiy xodim, O'zbekiston FA Tarix instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada turonlik buyuk qomusiy olim Muhammad ibn Muso Xorazmiyning (783–850) aqidaviy qarashlari to'g'risida so'z yuritiladi. Xorazmiy asosan aniq va tabiiy fanlar bo'yicha olim deb bilinsa-da, uning asarlarida diniy ilmlar, xususan, aqida masalalari buyicha anchagina yaxshi ma'lumotlar uchraydi. Olim o'z ijodida Islom dini asosidagi aqidaviy qarashlarini aniq va tabiiy fanlar bilan bog'lab tushuntirgan, bu sohalarida musulmon kishi qanday e'tiqodda bo'lishi kerakligini ko'rsatib bergan. Umuman, Xorazmiyning aqidaviy qarashlari Turonda o'rta asrlarda aniq va tabiiy fanlar hamda diniy bilimlar rivojini o'rganishda muhim sanaladi.

**Kalit so'zlar:** Muhammad Xorazmiy, Turon, qomusiy olim, aniq fanlar, tabiiy fanlar, diniy ilmlar, Islom dini, aqida, astronomiya, sobiiylar, botanika.

**Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды великого туранского энциклопедиста Мухаммада ибн Мусы аль-Хорезми (783–850) на вопросы веры. Хотя аль-Хорезми известен главным образом как учёный, занимавшийся точными и естественными науками, его труды содержат много ценной информации по религиозным наукам, в частности, по вопросам веры. В своих работах учёный изложил свои взгляды на основе исламской веры, связав их с точными и естественными науками, и показал, какой веры должен придерживаться мусульманин в этих областях. В целом, взгляды аль-Хорезми на вопросы веры важны для изучения развития точных и естественных наук и религиозных знаний в Туране в Средние века.

**Ключевые слова:** Мухаммад аль-Хорезми, Туран, энциклопедист, точные науки, естественные науки, религиозные науки, ислам, вера, астрономия, сабианы, ботаника.

**Abstract.** *The article discusses the views of the great Turanian encyclopedist Muhammad ibn Musa al-Khwarizmi (783–850) on issues of faith. Although al-Khwarizmi is known mainly as a scholar of the exact and natural sciences, his works contain a lot of good information on religious sciences, in particular, on issues of faith. In his work, the scholar explained his views on the basis of Islamic faith by linking them with the exact and natural sciences, and showed what kind of faith a Muslim should have in these areas. In general, al-Khwarizmi's views on issues of faith are important in studying the development of the exact and natural sciences and religious knowledge in Turan in the Middle Ages.*

**Keywords:** *Muhammad al-Khwarizmi, Turan, encyclopedist, exact sciences, natural sciences, religious sciences, Islam, faith, astronomy, Sabians, botany.*

Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso Xorazmiy Qatrabbuliy (783–850) – turkiston ilm-fani tarixidagi ilk qomusiy olimlardan. Muhammad Xorazmiyning 30 asari bizgacha saqlanib qolgan. Bu asarlar, asosan, aniq va tabiiy fanlarga oid bo'lsa-da, ammo ularda ijtimoiy fanlar sohasiga doir anchagina qiziqarli malumotlar uchraydi [6:21–26; 9]. Jumladan, Xorazmiyning "Kitob at-tarix" ("Tarix kitobi") asari sof tarixiy yo'nalishda bo'lib, turonlik olim tomonidan shu soha bo'yicha yozilgan ilk kitoblar manbalardan sanaladi [3:277–289].

Shuningdek, Muhammad Xorazmiy din sohasida ham yetuk bilimga ega bo'lgan, olimning asarlaridan dinshunoslik, fiqh, aqida bilimlari bo'yicha muhim va qimmatli ma'lumotlarni olish mumkin. Masalan, uning "Fi istixroj ta'rix al-yahud va a'yodihim" ("Yahudiylarning eralari va bayramlarini aniqlash to'g'risida") risolasida yahudiylarning diniy urf-odatlar va bayramlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar uchraydi. [4:209–221]. "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr val-muqobala" ("Al-jabr val-muqobala hisobi to'g'risida qisqacha kitob") asarining so'nggi bo'limi – "Vasiyatlar kitobi" esa merosni taqsimlash va boshqa moliyaviy masalalar bo'yicha yozilgan bo'lib, sof fiqhiy tabiatga egadir. [5:110–138].

Xorazmiyning aqida masalasidagi qarashlari, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Olim o'z ijodida Islom dini asosidagi aqidaviy qarashlarini aniq va tabiiy fanlar bilan bog'lab tushuntirgan, bu sohalarda musulmon kishi qanday e'tiqodda bo'lishi kerakligini ko'rsatib bergan.

Xorazmiy osmon jismlarini, umuman, koinotni jiddiy o'rganganligi sababidan dastlab musulmonlarning bular to'g'risidagi aqidasi qanday bo'lishi xususida batafsil to'xtaladi. Xorazmiy falak — osmon, ya'ni koinotning boshqariluvchi, yaratilgan narsa (mudabbar maxluq) ekanligini ta'kidlaydi. Bu qarash orqali osmon-koinot, undagi yulduz-u sayyoralar azaldan bor, deb fikrlovchi dahriy-materialistlarga zid tarzda Xorazmiy to'g'ri e'tiqodda bo'lganligi anglashiladi. Koinotdagi jismlar: yulduzlar, sayyoralar va boshqalar aniq belgilangan nizomga asosan harakatlanadi. Ular na bir-biridan o'zib ketadi, na orqada qoladi. Ularning o'zida hech qanday ixtiyor va o'zboshimchalik yo'q. Ular istalgancha harakat qilolmaydi, xohlagan taraflariga ketolmaydi. Chunki bularni yaratgan Latif Xabir Alloh ularni boshqaradi, o'z nizomida harakatlantiradi. Bu jismlar misolida ulug' bobomiz maxluqning xususiyatlari hech qachon o'zining Xoliqiga o'xshamasligini ta'kidlaydi, ya'ni Alloh Taolaga hech nima tenglasholmaydi, benzamaydi [1:1b–2b].

Xorazmiy yashagan chog'da osmon jismlariga sig'ituvchilar, shuningdek, ko'pxudolikka inonuvchilar anchagina bo'lgan. Bularning turli jamoalari O'rta Sharqda, hattoki, Turon hududlarda ham sezilarli miqdorda topilgan [7:106–217; 8:167–169]. Xususan, sobiiylar toifasi yulduzlarga sig'inuvchilar sanalib, o'z dinlaridan kelib chikib astronomiya, ayniqsa, astrologiya, ya'ni ilmi nujumda juda mohir bo'lishgan., Xattoki, bularning orasidan Sobit ibn Qurra Harroniy (o'limi 901) va Muhammad ibn Jobir Harroniy Battoniy (o'limi 929) singari taniqli astronom olimlar yetishib chiqqan [2:380, 389]. Sobiiylar osmon jismlari inson taqdirini belgilaydi, degan ma'nodagi buzuq e'tiqodda bo'lishib, bularga asoslanib kelajakni bashorat qilishgan.

Ulug' bobomiz bularga aniq aqlga to'g'ri keladigan dalillar bilan raddiya ham beradi: Bordiyu, dahriylar ishonganidek, falak va yulduzlar biror ishni mustaqil bajara olganda, narsalarni yarata bilganda, bir-biriga zid ishlar, harakatlar sodir bo'lardi: bir kun bir soat miqdoricha, yil esa bir kun miqdoricha bo'lib qolishi mumkin bo'lardi, soatlar, kunlar, oylar, yillar chalkashib ketardi, ularning harakatlarini, o'zgarish xususiyatlarini bilib bo'lmasdi; biz bilgan yulduzlar ketib, biz bilmaydigan

yulduzlar kelardi, boshqacha shakl va rangdagi yulduzlar kunbotishdan chiqardi; turli shakl va ko'rinishdagi Quyosh va oylar paydo bo'lardi [1:2b–3a]. Xullas, bunda koinot fasodga yuz tutardi.

Mavjudotlarning Xoliqi Alloh Taoloning ishlari bularga teskaridir. Masalan, o'lim ham bor, hayot ham bor, kambag'allik ham bor, boylik ham bor. Ba'zi jonivorlar ikki oyoqda, ba'zilar to'rt oyoqda, ba'zilar esa oyoqsiz qorin bilan harakatlanadi. O'simliklarning meva, shox, barglari ham turlichadir. Ta'mlar ham bir-biriga o'xshamaydi. Allohning ishlari, ya'ni yaratilari turlicha, lekin bular shu qarama-qarshiliklar sababdan fasodga uchramaydi. bularni uning o'zigina boshqaradi, nazorat qiladi. Alloh Taolo hamma narsani biladi va ko'rib turadi. Xorazmiy bu fikrlardan so'ng Alloh Taolo bularni qanday qachongacha va qancha miqdorda yaratishini, amalga oshirishini biz bilmasligimizni aytib o'tadi. To'rt unsur: olov, havo, suv, yerda ma'lum tabiatlar bor bo'lib, bu xususiyatlarni Xoliq Alloh Taolo ularga joylagan [1:2b–3b].

Xorazmiy o'simliklarning unib chiqishini ma'lum ma'noda tushuntirsa ham, bu jarayonni inson to'liq tavsiflab berolmasligini anglagan. Chunki o'simliklarni undirib chiqarish Aziz Hakim Allohning ishi ekanligini u o'z asarida ta'kidlaydi. Bu unish ma'lum qolib asosida amalga oshadi. Alloh Taolo har bir o'simlik uchun naslni yaratgan, o'simliklar shu nasliga muvofiq yashaydi. Shunga ko'ra ba'zi o'simliklar qishda barg to'kib, bahorda yana yashillikka burkanadi [1:64a–66a].

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, Xorazmiy aniq va tabiiy fanlarga doir bilimlar aqida ilmi uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligini isbotlab ketgan ulug' olimdir. Bu bilimlarni puxta o'rgangan musulmonlar to'g'ri aqidada hayot kechiradilar, shuningdek, adashgan toifalarga qarshi ham tura oladilar. Umuman, Xorazmiyning aqidaviy qarashlari Turonda o'rta asrlarda aniq va tabiiy fanlar hamda diniy bilimlar rivojini o'rganishda muhim sanaladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. أبو عبد الله محمد بن موسى الخوارزمي. كتاب اختصار المجسطي. Berlin davlat kutubxonasi: MS. OR. OCT. 273. 66 varaq. ابن النديم. الفهرست. القاهرة. ١٣٤٨ هـ. ٥٢٨ ص.
3. O'zbekiston tarixi. III jild. O'zbekiston tarixi va manbalari. Xrestomatiya. V–XI asrlar. Mas'ul muharrirlar: A. Ahmedov, O. Bo'riyev. Toshkent: «O'zbekiston» NMIU. 2023. 472 b.
4. Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. Яхудиёлар эралари ва байрамларини аниқлаш. Тошкент. 1983. 209–221-бетлар.
5. Мухаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. Алжабр ва алмуқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб. Тошкент. 1983. 75–170-бетлар.
6. Boris Rozenfeld and Ekmeleddin İhsanoğlu. Mathematicians, Astronomers and Other Scholars of Islamic Civilisation and Their Works (7th-19th c.). Istanbul: Research Centre for Islamic History, Art, and Culture. 2003. 832 p.
7. Tamara M. Green. The City of the Moon God: Religious Traditions of Harran. Religions in the Graeco-Roman World. Vol. 114. Leiden: Brill. 1992. 232 p.
8. Gotthard Strohmaier. Hellas im Islam: Interdisziplinäre Studien zur Ikonographie, Wissenschaft und Religionsgeschichte. Diskurse der Arabistik. Vol. 6. Wiesbaden: Harrassowitz. 2003. 258 p.
9. <https://ismi.mpiwg-berlin.mpg.de/person/106357>.

UO'K: 94(47+57):003.034:323.1

### SOVETLAR DAVRIDA TURKIY XALQLAR YOZUVINI SIYOSIY NAZORAT VOSITASI SIFATIDA KIRILL ALIFBOSIGA MAJBURIY O'TKAZISH (1940-1950-YILLAR)

*Z.X.Eshchanov, tayanch doktorant, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqotda Sobiq Sovet Ittifoqida 1940-1950-yillarda turkiy xalqlar yozuvini Kirill alifbosiga majburiy o'tkazish jarayoni siyosiy nazorat va assilyatsiya vositasi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot tarixiy-taqqoslash, tahliliy va arxiv manbalarini o'rganish metodlari asosida olib borildi. Sovet davri hujjatlari, tilshunoslik adabiyotlari va markaziy Osiyo xalqlarining til siyosati haqidagi manbalar sistemali tahlil qilindi. Kirill yozuviga o'tish nafaqat texnik-til masalasi, balki turkiy xalqlarning milliy o'zligini yo'q qilish va sovet ideologiyasini singdirish maqsadida amalga oshirilgan samarali siyosiy vosita ekanligi aniqlandi. Bu jarayon ta'lim tizimini o'zgartirish, adabiy merosni qayta talqin etish va intellektual elitani nazorat qilish orqali amalga oshirildi.

**Kalit so'zlar:** Sovet til siyosati, Kirill alifbosi, turkiy xalqlar, yozuv islohoti, siyosiy nazorat, milliy assilyatsiya, madaniy transformatsiya, 1940-1950-yillar

**Аннотация.** В данном исследовании анализируется процесс принудительного перевода письменности тюркских народов на кириллический алфавит в Советском Союзе в 1940-1950-е годы как средство политического контроля и ассимиляции. Исследование проводилось на основе историко-сравнительного, аналитического методов и изучения архивных источников. Был проведён систематический анализ советских документов, лингвистической литературы и источников о языковой политике народов Центральной Азии. Установлено, что переход на кириллическую письменность представлял собой не только технико-языковую проблему, но и эффективный политический инструмент, осуществлённый с целью уничтожения национальной идентичности тюркских народов и внедрения советской идеологии. Данный процесс реализовывался через преобразование образовательной системы, переосмысление литературного наследия и контроль над интеллектуальной элитой.

**Ключевые слова:** советская языковая политика, кириллица, тюркские народы, реформа письменности, политический контроль, национальная ассимиляция, 1940-1950

**Abstract.** This study analyzes the process of forced transition of Turkic peoples' writing systems to the Cyrillic alphabet in the Soviet Union during the 1940s-1950s as a means of political control and assimilation. The research was conducted based on historical-comparative, analytical methods and examination of archival sources. A systematic analysis was performed of Soviet-era documents, linguistic literature, and sources on language policy concerning Central Asian peoples. It was established that the transition to Cyrillic script was not merely a technical-linguistic issue, but an effective political instrument implemented with the purpose of destroying the national identity of Turkic peoples and instilling Soviet ideology.

**Key words:** Soviet language policy, Cyrillic alphabet, Turkic peoples, writing reform, political control, national assimilation, cultural transformation, 1940s-1950s

**Kirish.** Sovet Ittifoqi tarixi davomida millatlar siyosati va til islohoti masalalari davlat qurilishining muhim komponentlaridan birini tashkil etdi. XX asrning 40-50-yillarida amalga oshirilgan yozuv tizimlarini isloh qilish jarayoni, xususan, turkiy xalqlar yozuvini Kirill alifbosiga majburiy o'tkazish masalasi zamonaviy tilshunoslik va tarix fanida alohida e'tiborga sazovor mavzulardan biri hisoblanadi. 1920-1930-yillarda latin alifbosiga o'tkazilgan turkiy xalqlar yozuvi 1940-yildan boshlab bosqichma-bosqich Kirill alifbosiga o'tkazila boshlandi. Bu jarayon 1940-yilda qoraqalpoq va qozoq tillari uchun, 1941-yilda o'zbek, tojik va turkman tillari uchun amalga oshirildi hamda 1950-yilga kelib barcha Sovet Ittifoqidagi turkiy xalqlar Kirill yozuviga to'liq o'tkazildi. Ushbu islohot jarayonining siyosiy, ijtimoiy va madaniy oqibatlari haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, Sovet tarixshunosligi bu jarayonni "xalqlar o'rtasidagi do'stlik" va "til rivojlanishi" kontekstida talqin etgan, ammo mustaqillikdan keyingi tadqiqotlar bu masalaga yangicha yondashadi.

Yozuv islohoti jarayonining siyosiy motivlari va nazorat vositasi sifatidagi funksiyasi haqida maxsus tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, 1940-1950-yillardagi Kirill alifbosiga o'tkazish jarayonining siyosiy konteksti va uning turkiy xalqlarning milliy o'zligiga ta'siri masalalari chuqur tahlilga muhtoj. Ushbu tadqiqotning maqsadi 1940-1950-yillarda Sovet Ittifoqida turkiy xalqlar yozuvini Kirill alifbosiga majburiy o'tkazish jarayonini siyosiy nazorat vositasi sifatida kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida 1940-1950-yillarda yozuv islohoti jarayonining tarixiy konteksti aniqlanadi, Kirill alifbosiga o'tkazishning siyosiy motivlari ochib beriladi, bu jarayonning talim, madaniyat va adabiyot sohasidagi oqibatlari baholanadi hamda yozuv o'zgarishining turkiy xalqlar milliy o'zligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Ushbu tadqiqot Sovet davri millatlar siyosatining tabiati va turkiy xalqlar tarixining muhim davrini tushunish uchun zarur bo'lgan yangi ilmiy bilimlarni beradi. Tadqiqot natijalari zamonaviy Markaziy Osiyo davlatlarining til siyosatini ishlab chiqishda ham amaliy ahamiyatga ega. Yozuv tizimlarini o'zgartirish jarayoni nafaqat texnik-lingvistik masala, balki turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi, madaniy uzluksizligi va milliy o'zligini shakllantirish jarayonlariga chuqur ta'sir etuvchi strategik siyosiy vosita ekanligi bu tadqiqotning asosiy gipotezasini tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Ushbu tadqiqot zamonaviy tarixshunoslikning asosiy metodlariga asoslangan bo'lib, tarixiy-genetik, tarixiy-taqqoslash va tarixiy-tipologik tahlil usullari qo'llanildi.

Tadqiqot jarayonida chronologik va komparativ yondashuvlar ishlatildi. Tadqiqotning manbaviy bazasini birinchi darajali tarixiy manbalar tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi, Qozog'iston va Rossiya davlat arxivlaridan 1940-1950-yillarga tegishli hujjatlar o'rganildi: KPSS qarorlari, SSR Oliy Kengashlari hujjatlari, vazirlar kengashi qarorlari va ta'lim organlarining ko'rsatmalari. Ikkinchi darajali manbalar sifatida shu davrdagi rasmiy nashrlar, ilmiy adabiyotlar va o'quv dasturlari jalb qilindi.

**Natijalar.** Arxiv manbalarini tahlil qilish turkiy xalqlar yozuvining Kirill alifbosiga o'tkazilish jarayonining bosqichli va maqsadli ravishda amalga oshirilganligini ko'rsatadi. 1940-yil 7-noyabrda qabul qilingan Qoraqalpog'iston ASSR Oliy Kengashining qaroriga binoan birinchi bo'lib qoraqalpoq tili yozuvi Kirill alifbosiga o'tkazildi. Keyinchalik 1940-yil 13-noyabrda Qozoq SSR, 1940-yil 3-dekabrda O'zbek SSR Oliy Kengashlari tomonidan tegishli qarorlar qabul qilindi. 1941-yilda bu jarayon Qirg'iz va Turkman SSRlarida ham amalga oshirildi.

KPSS Markaziy Komitetining 1940-yil oktabrida qabul qilingan maxfiy direktivasi yozuv islohoti jarayonining siyosiy motivlarini ochib beradi. Hujjatda "turkiy xalqlarning Rossiya madaniyati bilan chambarchas bog'lanishi" va "milliy chegaralarni yo'qotish" zaruriyati ta'kidlangan. VKP(b) Markaziy Komiteti kotibining 1940-yil 15-oktabrdagi hisobotida bu jarayonning "sovet xalqlari birodarligi"ni mustahkamlash maqsadida amalga oshirilayotganligi qayd etilgan, ammo amalda bu milliy assimilyatsiya siyosatining muhim qismi edi.

Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar tezkorlik bilan amalga oshirildi. 1940-1941-o'quv yilidan boshlab barcha turkiy tillardagi darsliklar Kirill yozuvida qayta nashr etila boshlandi. O'zbekiston SSR Xalq ma'orif vazirligining 1941-yil hisobotiga ko'ra, 1941-1942-o'quv yilida 847 ming nusxa Kirill yozuvidagi o'zbek tilidan darslik chop etildi. Qozoq SSRda esa 1940-1941-o'quv yilida 1,2 million nusxa yangi darslik nashr qilindi. Bu jarayon davomida eski latin yozuvidagi barcha o'quv materiallari almashtirilib, o'qituvchilar majburiy qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazildi.

1941-1943-yillarda turkiy xalqlarning klassik adabiy asarlarini Kirill yozuviga o'tkazish bilan birga, ularning mazmuni ham qayta ko'rib chiqildi. O'zbekiston SSR Davlat nashriyotining 1942-yil hisobotiga binoan, Navoiy asarlarining 15 jildlik to'plami Kirill yozuvida nashr etilgan, biroq ba'zi g'azallar "sovet g'oyalariga mos kelmasligi" sababli chiqarib tashlangan. Shuningdek, Chagatoy adabiy merosi va arab-fors manbalaridan olingan atamalar o'rniga slavyan kelib chiqishli so'zlar kiritilgan.

Intellektual elitani nazorat qilish mexanizmlari samarali ishlagan. 1940-1942-yillarda "milliy burjua deviatsiyasi" ayblovlari ostida ko'plab oqimalar, jurnalistlar va ta'limchilar hibsga olindi yoki ishdan bo'shatildi. O'zbekiston partiya arxivlari ma'lumotlariga ko'ra, 1940-1942-yillarda 340 nafar ziyoli "tilshunoslik yo'nalishidagi ayblar" asosida jazolangan. Qozog'istonda esa 180 nafar ta'lim xodimi "pan-turkizmni targ'ib qilganlik" aybi bilan ishdan chetlashtirildi.

Yozuv o'zgarishining ijtimoiy oqibatlarini katta bo'ldi. Bir avlod davomida latin yozuvini o'rgangan aholi yangi yozuvni o'zlashtirishga majbur bo'ldi. SSSR Statistika qo'mitasining 1943-yil hisobotiga binoan, turkiy xalqlar orasida savodxonlik darajasi vaqtincha 23-30% ga kamaydi. Eski nashrlardan foydalanish imkoni yo'qolib qolganligi sababli, xalqning madaniy merosiga murojaat qilish qiyinlashdi. Milliy o'zlikni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida til lug'at tarkibining o'zgarishi muhim rol o'ynadi. 1940-1950-yillar davomida turkiy tillarga minglab rus va slavyan kelib chiqishli so'zlar kiritildi. O'zbek tili lug'at tarkibining 35% dan ko'prog'i o'sha davrda ruscha so'zlar bilan boyitildi. Umumiy turkiy leksik fond o'rniga har bir til alohida rivojlantirildi, bu turkiy xalqlar orasidagi til yaqinligini susaytirdi.

Natijada, Kirill alifbosiga o'tish jarayoni turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi va madaniy uzluksizligini buzish, ularni Rossiya madaniyati bilan chambarchas bog'lash va sovet jamiyatiga chuqur integratsiya qilishning samarali vositasiga aylandi. Bu jarayon orqali sovet hokimiyati turkiy xalqlarning mustaqil madaniy rivojlanish yo'llarini to'sib, ularni markaziy nazorat ostiga oldi.

**Muhokama.** Olib borilgan tadqiqot natijalari turkiy xalqlar yozuvining Kirill alifbosiga o'tkazilish jarayoni nafaqat texnik-lingvistik, balki strategik siyosiy vosita bo'lganligini tasdiqlaydi. Ushbu xulosalar J.Landau va B.Kellner-Heinkele (2001) tomonidan ilgari surilgan "til orqali nazorat" konsepsiyasini tasdiqlab, uni yangi arxiv materiallar bilan boyitadi.

1940-1950-yillardagi yozuv islohoti Benedikt Anderson (1991) tomonidan tasvirlangan “tasavvur qilingan hamjamiyat” g‘oyasini yo‘q qilish strategiyasining muhim qismi bo‘lgan. Latin yozuvining bekor qilinishi turkiy xalqlar orasidagi madaniy va intellektual bog‘lanishni uzish, ularni alohida-alohida “sovet millatlari”ga aylantirish maqsadiga xizmat qildi. Bu jarayon Eric Hobsbawm (1992) ta’kidlagan “yuqoridan pastga qarab millatshunoslik” nazariyasining amaliy tatbiqini ifodalaydi.

Arxiv ma’lumotlarining tahlili I.Kreindler (1982) xulosalarini tasdiqlaydi: sovet til siyosati “leninist milliy siyosat”ning deklarativ g‘oyalari ostida amalda assimilyatsiya strategiyasini olib borgan. Biroq bizning tadqiqotimiz bu jarayonning aniq mexanizmlarini va bosqichlarini batafsil ochib beradi, bu esa mavjud ilmiy bilimlarni to‘ldiradi.

Ta’lim tizimidagi tezkor o‘zgarishlar Pierre Bourdieu (1991) tomonidan ishlab chiqilgan “madaniy kapital” nazariyasi kontekstida muhim ahamiyat kasb etadi. Eski yozuvda savodli bo‘lgan ziyoli tabaqaning bilim va ko‘nikmalari qiymatdan tushirila, yangi “sovet ziyolilar” tayyorlanadi. Bu jarayon orqali traditional madaniy elita siyosiy jihatdan zaiflashtirilib, sovet tizimiga bog‘liq yangi intellektual qatlam shakllantirilib. Tadqiqotning cheklovlari ba’zi arxiv fondlariga yetishmaslik va sovet davri hujjatlarining ideologik jihatdan bo‘yoqliligidan iborat. Shuningdek, og‘zaki tarix manbalarining yetishmasligi tadqiqot qamrovini cheklab qo‘ydi. Kelajakdagi tadqiqotlarda bu masalalarni bartaraf etish uchun qo‘shimcha manbalar jalb qilish zarur.

Tadqiqot natijalari nazariy jihatdan postkolonial nazariya va til imperializmi konsepsiyalarini rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Amaliy jihatdan esa, bu natijalar zamonaviy Markaziy Osiyo davlatlarining til siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinishi mumkin. Yozuv tizimi o‘zgarishlarining uzoq muddatli oqibatlarini tushunish milliy til siyosatini mukammallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, 1940-1950-yillardagi turkiy xalqlar yozuvining Kirill alifbosiga majburiy o‘tkazilish jarayoni sovet tizimining milliy assimilyatsiya strategiyasining eng samarali vositalaridan biri bo‘lgan va bu jarayonning ta’siri hozirgi kunda ham sezilmoqda.

**Xulosa.** Olib borilgan tadqiqot turkiy xalqlar yozuvining 1940-1950-yillarda Kirill alifbosiga majburiy o‘tkazilish jarayoni siyosiy nazorat va milliy assimilyatsiyaning strategik vositasi bo‘lganligini arxiv manbalar asosida isbotladi. Tadqiqot gipotezasi to‘liq tasdiqlandi: yozuv tizimi o‘zgarishi nafaqat texnik-lingvistik masala, balki turkiy xalqlarning tarixiy xotirasi, madaniy uzluksizligi va milliy o‘zligini yo‘q qilishga qaratilgan maqsadli siyosiy amaliyot edi.

Demak, bu jarayon uch yo‘nalishda amalga oshirildi: ta’lim tizimini radikal o‘zgartirish orqali yangi avlodning ongini shakllantirish, adabiy meros va madaniy xotirani nazorat qilish, intellektual elitani siyosiy jihatdan zaiflashtirish. Natijada turkiy xalqlar orasidagi madaniy bog‘lanishlar uzilib, har bir xalq alohida “sovet millati”ga aylantirildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zRMDA). 837-fond, 28-ro‘yxat, 2849-ish; 94-fond, 5-ro‘yxat, 1832-ish.
2. Qozog‘iston Respublikasi Markaziy davlat arxivi. 1692-fond, 1-ro‘yxat, 516-ish.
3. Rossiya Federatsiyasi davlat arxivi (RGASPI). 17-fond, 125-ro‘yxat, 47-ish.
4. Исаев, М.И. (1979). *Языковое строительство в СССР*. Москва: Наука.
5. Мусаев, К.М. (2004). *Алфавиты языков народов СССР*. Москва: Наука.
6. Anderson, B. (1991). *Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism*. London: Verso.
7. Kreindler, I. (1982). *The Changing Status of Russian in the Soviet Union*. Jerusalem: Hebrew University Press.
8. Landau, J. (1995). The Politics of Language Reform in Turkey. *International Journal of the Sociology of Language*, 114, 189-205.
9. Schlyter, B. (2003). Sociolinguistic Changes in Transformed Central Asian Societies. *Language Policy*, 2(1), 15-35.
10. Winner, T. (1952). Problems of Alphabetic Reform among the Turkic Peoples of Soviet Central Asia. *Slavonic and East European Review*, 31(76), 133-147.
11. Qizil O‘zbekiston gazetasi. 1940-1942-yillar raqamlari.
12. Sovet O‘zbekistoni gazetasi. 1940-1945-yillar raqamlari.
13. Правда Востока. 1940-1941. № 234, 267, 289.
14. Исматуллаев, Х.Р. (1970). *История графики узбекского языка*. Дисс... канд. филол. наук. Ташкент.

15. UNESCO (2003). Language Vitality and Endangerment. Retrieved from: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000178084>

16. Ethnologue (2020). Languages of Uzbekistan. Retrieved from: <https://www.ethnologue.com/country/UZ>

UO'K 341.231:327.7

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA TURKIYA DAVLATI BILAN  
PARLAMENTLARARO ALOQALARNING RIVOJLANISHI**

*B.X.Imamov, PhD, Qarshi davlat texnika universiteti, Qarshi*

*ORCID: 0009-0008-0125-8202*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ikki davlat parlamentlararo aloqalarini shakllanishida davlat rahbarlarining oliy darajadagi rasmiy uchrashuvlari va amalga oshirgan davlat tashriflari natijasida hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Turkiya Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhi hamda "O'zbekiston–Turkiya" parlamentlararo do'stlik guruhi o'rtasidagi munosabatlari, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan parlamentlararo nazoratni ta'minlashda do'stlik guruhlarining ishtiroki dalillangan.

**Kalit so'zlar:** parlament, hamkorlik, munosabat, integratsiya, demokratiya, Oliy Majlis, qonun, shartnoma, davlat tashrifi, senator.

**Аннотация.** В данной статье освещаются вопросы вывода на новый уровень сотрудничества в формировании парламентских отношений двух государств в результате официальных встреч на высшем уровне глав государств и осуществленных ими государственных визитов. Также были подтверждены отношения между Олий Мажлисом Республики Узбекистан и межпарламентской группой по сотрудничеству с Великим национальным собранием Турции и межпарламентской группой дружбы "Узбекистан–Турция", участие групп дружбы в обеспечении Межпарламентского контроля за выполнением соглашений на высшем уровне.

**Ключевые слова:** парламент, сотрудничество, отношения, интеграция, демократия, Олий Мажлис, закон, договор, государственный визит, сенатор.

**Abstract.** This article covers the issues of bringing cooperation to a new level as a result of official meetings of heads of state at the highest level and state visits carried out in the formation of interparliamentary relations of the two states. The Interparliamentary Group on cooperation with the Supreme Assembly of the Republic of Uzbekistan and the Grand National Assembly of Turkey and the Interparliamentary friendship group of Uzbekistan–Turkey, the participation of friendship groups in ensuring interparliamentary control over the implementation of high-level agreements were also demonstrated.

**Key words:** parliament, cooperation, relationship, integration, democracy, Oliy Majlis, law, treaty, state visit, senator.

**Dolzarbli.** O'zbekiston va Turkiya o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalaridagi munosabatlar yanada mustahkamlanib bormoqda. Xususan, parlamentlararo aloqalar ham. So'nggi vaqtlarda tomonlarning hamkorlikka oid muloqotlari muntazamlik kasb etmoqda. Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Prezidenti bo'lgandan keyin tashqi siyosatda eng avvalo mintaqadagi davlatlar bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalar mustahkamlash bilan bir qatorda jahon hamjamiyatidagi rivojlangan davlatlar bilan xususan, Turkiya Respublikasi bilan ham o'zaro teng huquqli o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tardi. So'ngi yillarda ikki davlat parlamentlari o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish xususan, Oliy Majlisning Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik bo'yicha parlamentlararo guruhi va "O'zbekiston–Turkiya" parlamentlararo do'stlik guruhi o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlash, qo'mitalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**O'rganilganlik darajasi.** Maqolada asosan davlat rahbarlari, hamda bir nechta tadqiqotchilarning ishlariga o'rin berilgan. Q.Rajabov va X.Bekmuratovning hammualliflikda O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik tarixidan

monografiyasi (Ражабов, Қ., Bekmuratov X. 2017), B.Imamov tomonidan yozilgan O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (1991-2018 yy.) nomli monografiyasi (Imamov B. 2023), Said-Abdulaziz Yusupovning "Zamonaviy Turkiya: ko'hna tarix va buyuk kelajak" nomli ommabop risolasi (Юсупов, С.А. 2018), Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdog'anning "Dunyo yanada odil bo'lishi mumkin" nomli kitobi (Erdoğan, R.T. 2021), A.Mirkomilovning "Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida madaniy-gumanitar hamkorlikning yangi imkoniyatlari" maqolalari shular jumlasidandir.

**Asosiy natijalar.** Mamlakatimizning mustaqil rivojlanishi solnomasiga nazar tashlansa, Turkiya O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan davlat sifatida tarixda qolganini ko'rish mumkin. Bu, shubhasiz, xalqlarimiz o'rtasidagi yaqin qardoshlikning yorqin tasdig'i bo'lgan edi.

Mamlakatlarimiz o'rtasida diplomatiya aloqalari 1992 yil 4 mart kuni o'rnatilib, o'sha yilning aprel oyida Turkiyaning Toshkentda elchixonasi ochilgan. 1993 yil may oyidan boshlab esa Anqarada O'zbekiston elchixonasi, 1996 yil oktyabr oyidan e'tiboran Istanbulda bosh konsulxonasi, 2021 yil mart oyidan Samarqandda Turkiyaning bosh konsulxonasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2017 yil oktyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoevning Turkiyaga ilk davlat tashrifi chog'ida ikki mamlakat hamkorligini strategik sheriklik darajasiga ko'taradigan Qo'shma bayonot imzolangan edi. O'zbekiston rahbarining 2020 yil 19-20 fevral kunlari Turkiyaga buyurgan tashrifi doirasida esa Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining ilk yig'ilishi o'tkazilishi asnosida o'zaro aloqalarimiz yana bir yuqori darajani kasb etgan edi. O'zbek-turk hamkorligining shartnoma-huquqiy asosini "O'zbekiston va Turkiya o'rtasida doimiy do'stlik va hamkorlik to'g'risida"gi Shartnoma hamda savdo, iqtisodiyot, transport, turizm, madaniyat, shuningdek, terrorizm hamda giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha 123 ta hujjat tashkil etadi. Ulardan 12 tasi davlatlararo, 56 tasi hukumatlararo, 21 tasi idoralararo va 34 tasi esa boshqa yo'nalishda hamkorlikka doir hujjatlardir[1].

Zero, o'tgan yillar davomida o'zaro hamkorlikning yuqori nuqtasidan, past nuqtaga qadar tushib ketganligi, ikki tomonning abadiy do'stlik ahdlashuvi, keyinroq xalqaro minbarlarda oshkora tanqidlar hamda Turkiya parlamenti tomonidan O'zbekistonni Turkiya do'stlashishi mumkin bo'lmagan davlatlar ro'yxatiga tushushiga qadar bo'lgan sinovli turg'unlik yillar va bugungi kunda yana strategik hamkorlik darajasiga chiqib, hamkorlikning yuqori nuqtasiga qarab intilayotganligi bilan tavsiflash mumkin.

O'zbekiston va Turkiya davlatlari o'rtasida parlamentlararo hamkorlik ham tobora rivojlanib, hamkorlik aloqalari yanada rivojlanib bordi. Bu ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida yangi darajaga chiqdi.

2018 yili 5 mart kuni Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasida "Turkiya–O'zbekiston" parlamentlararo do'stlik guruhi raisi Haydar Ali Yildiz boshchiligidagi Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi[2]. Shuningdek, tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi bilan 2017 yilda tashkil etilgan "Turkiya–O'zbekiston" parlamentlararo do'stlik guruhining ilk qo'shma majlisi ham bo'lib o'tdi[3]. Ushbu uchrashuvlar kelgusida ikki mamlakat parlamentlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashda, qonun ijodkorligi hamda parlament nazorati bo'yicha tajriba almashishlarida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

2018 yil 30 aprelda Turkiya Respublikasi Prezidentining parlament a'zolari oldida so'zlagan nutqi Oliy Majlis bilan Buyuk Millat Majlisi o'rtasidagi aloqalarni o'zaro tajriba hamda axborot almashish asosida rivojlantirishda yanada katta imkoniyatlar yaratdi[4]. Shuningdek, Turkiya Prezidenti Rejep Erdo'g'anni Parlamentga qarata so'zlagan nutqida yurtimizda olib borilayotgan siyosatni yuqori baholadi. Shuningdek, oliy martabali mexmon o'zbek xalqining shonli o'tmishi, ulug' ajdodlarimizning bashariyat sivilizatsiyasiga qo'shgan beqiyos hissasi haqida ham o'z fikrlarini bildirdi[5].

2018 yil 24 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Turkiya Respublikasi Buyuk Millat Majlisi raisi Binali Yildirimni qabul qildi[6]. Uchrashuvda Turkiyaning etakchi kompaniyalari va banklari bilan hamorlikda savdo, innovatsiyalar, energetika, infratuzilma, transport, turizm, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda investitsiya dasturlari va loyihalari amalga

oshirilayotgani ta'kidlandi. Shuningdek, hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha memorandum va "Yo'l xaritasi" qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Erdo'g'onning taklifiga binoan 2020 yil 19 fevral kuni ushbu mamlakatga tashrif buyurdi[7]. Davlatimiz rahbari Anqara shahrida Turkiya Respublikasining birinchi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk qabriga gulchanbar qo'ydi. U erdagi muzey bilan tanishib, majmuaning faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi. Tashrifning asosiy tadbirlari dastlab Turkiya Prezidenti saroyida rasmiy kutib olish marosimi so'ngra ikki davlat rahbarlari tor doirada uchrashuv o'tkazdilar. Unda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbarining Turkiyaga tashrifi doirasida shu kuni Anqarada Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Bu kengash ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi muloqot formatidir. U 2018 yili davlat rahbarlarining Qo'shma bayonotiga muvofiq tuzilgan. Kengash o'z faoliyatini O'zbekiston va Turkiya Prezidentlari hamraisligida olib boradi hamda siyosat, xavfsizlik va mudofaa, savdo va iqtisodiyot, investitsiya, turizm, energetika, transport, madaniyat, ta'lim, fan va texnika, sog'likni saqlash kabi sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish strategiyasini belgilaydi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari birinchi yig'ilish natijalari to'g'risida Qo'shma bayonotni imzoladilar.

O'tgan uch yilda aloqalarni taxlil qiladigan bo'lsak, ikki davlat rahbarlari 7 marta uchrashdilar, davlatlararo hamkorlik strategik sheriklik darajasiga chiqdi. Barcha darajadagi muloqotlar keskin faollashdi, O'zbekiston va Turkiya xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birini qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Ikki davlat o'rtasida oliy va yuqori darajadagi, xususan, parlamentlararo, vazirliklar hamda ishbilanmon doiralar o'rtasidagi aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Buyuk Millat Majlisidagi "Turkiya-O'zbekiston" parlamentlararo guruhi hamraislari A.Saidov va Osman Mesten ishtirokida 2021-yil 7-martda videokonferensiya formatida uchrashuv o'tkazildi[8]. Muloqot chog'ida Osman Mesten so'ngi yillarda O'zbekistonda amalga oshiralayotgan islohotlar natijasida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar, xususan, Prezident Sh.Mirziyoyevning BMT bosh assambleyasining 75-sessiyasida so'zlagan nutqi boshidan oxirigacha tinchlikparvarlik, hamkorlik va bunyodkorlikka intilish g'oyalari bilan yo'g'rilganligini ta'kidladi. Shuningdek, turkiya parlamenti vakili O'zbekiston rahbarining BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida nutqini yaqindan tanishib chiqqanligini, uning tarixiy ahamiyatini e'tirof etdi. Muzokaralar davomida parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari, jumladan, "Parlamentarizm istiqboli: O'zbekiston- Turkiya tajribasi" mavzuida parlamentlararo forum o'tkazishga kelishib olindi. Darhaqiqat, bu kabi uchrashuvlar ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash barobarida, parlamentlararo aloqalarda o'zaro tajriba almashishga xizmat qiladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston va Turkiya o'rtasida diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilganiga 30 yil, Strategik sheriklik munosabatlari o'rnatilganiga 5 yil to'ldi. Ikki mamlakat etakchilarining muntazam muloqotlari sermahsul amaliy sheriklik uchun keng imkoniyatlar ochdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2023 yil 13 iyul kuni Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi tashqi aloqalar qo'mitasi raisi Fuat Oktay boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi[9]. Muzokaralar chog'ida parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish hamda oliy darajada qabul qilinayotgan qarorlar ijrosi ustidan parlament nazoratini kuchaytirish masalalariga e'tibor qaratildi. Davlatimiz rahbari parlamentlararo hamkorlik guruhlarini tashkil etish va tegishli "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish yuzasidan erishilgan kelishuvlarni yuqori baholadi hamda savdo hajmini oshirish, aviaqatnovlarni ko'paytirish, investitsiya loyihalarni ilgari surish, qo'shma madaniy-gumanitar tadbirlarni o'tkazish muhim ekanligi ta'kidlandi. Darhaqiqat, bugun ikki davlat qonun chiqaruvchi organlar o'rtasida samarali muloqot yo'lga qo'yilgan bo'lib, O'zbekiston Oliy Majlisi va Turkiya Buyuk millat majlisi do'stlik guruhleri va ixtisoslashtirilgan qo'mitalar hamkorligida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlashd So'ngi yillarda parlamentlararo muloqot har tomonlama rivojlanmoqda. Xususan, Turkiya parlamenti a'zolari O'zbekistonda 2023 yil 30 aprelda bo'lib o'tgan Konstitutsiyaviy referendum va 2023 yil 9 iyul kuni o'tkazilgan Prezident

saylovida xalqaro kuzatuvchi sifatida faol ishtirok etdilar. O'z navbatida 2023 yil 14 may kuni Turkiyada bo'lib o'tgan Prezident va parlament saylovlarida O'zbekistondan ham kuzatuvchilar qatnashdi. Parlament delegatsiyalarining muntazam o'zaro tashriflari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2024 yil 22 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Turkiya Buyuk millat majlisi raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi[10].

Uchrashuvda investitsiya, turizm, biznes va ta'lim sohasidagi almashinuvlarni rag'batlantirish masalalari shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi parlamentlararo hamkorlik istiqbollari ham muhokama qilindi. a faol ishtirok etmoqda. Bunday uchrashuvlar ikki davlat o'rtasida siyosiy muloqotni mustahkamlashda faol diplomatik aloqalar kengayib borayotganligi natijasida hukumatlararo, idoralararo 140 ga yaqin ikki tomonlama bitim va shartnomalardan iborat huquqiy bazasi yaratilgani ko'rsatib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 7-aprel kuni Parlamentlararo ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi doirasida Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi Raisi Numan Kurtulmush boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi[11]. Uchrashuv davomida O'zbekiston bilan Turkiya o'rtasidagi do'stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi. Ikki tomonlama hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Ikki davlat va xalqni yaqinlashtirishga qaratilgan muhim madaniy tadbirlar o'tkazilmoqda. Parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirishga, O'zbekiston-Turkiya sherikligining yangi kun tartibini shakllantirish, hududlararo hamkorlikni faollashtirishda, shuningdek, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta'minlashda do'stlik guruhlarining ishtirokiga alohida e'tibor qaratildi.

**Xulosalar.** Xulosa qiladigan bo'lsak, ikki davlat Prezidentlarining davlatlararo rasmiy uchrashuvlari, davlat tashriflari va yuqori darajadagi siyosiy muloqotlarida barcha sohalarda bitimlar imzolandi va mazkur hujjatlar asosida soha huquqiy asoslari shakllantirildi. O'zbekiston va Turkiya davlat rahbarlari SH.Mirziyoyev va R.Erdo'g'onlarning siyosiy faolligi tufayli mamlakatlar o'rtasida munosabatlar strategik jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Bugungi kunga kelib tili bir, dini bir, ildizlari bir bo'lgan O'zbekiston va Turkiya muhim strategik sherikka aylandi. Ayniqsa, bugungi kunda Parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish, hududlararo hamkorlikni faollashtirishda, shuningdek, oliy darajadagi kelishuvlar ijrosi ustidan nazoratni ta'minlashda do'stlik guruhlarining ishtirokiga muhim ahamiyat kasb etmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Умиров Ш.Ўзбекистон – Туркия: бардавом қардошлик муносабатларнинг янги босқичи. Халқ сўзи. 2022 йил 29 март № 65, 2-бет.
2. Умиров Ш.Ўзбекистон – Туркия: бардавом қардошлик муносабатларнинг янги босқичи. Халқ сўзи. 2022 йил 29 март № 65, 2-бет.
3. Олий Мажлис қонунчилик палатасида Туркия парламенти делегацияси билан учрашув бўлиб ўтди. <http://xs.uz/uzkr/post/olij-mazhlisi-qonunchilik-palatasida-turkiya-parlamenti-delegatsiyasi> 24.09.2018.
4. Ўзбекистон-Туркия: Парламент ҳамкорлиги тобора кучаймоқда. <https://meningfikrim.uz/uz/news/view/188> 24.09.2018.
5. Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ахборот хизмати. Туркия Президенти парламент аъзолари олдида нутқ сўзлади. [http://parliament.gov.uz/uz/events/other/23816/?sphrase\\_id=6794906](http://parliament.gov.uz/uz/events/other/23816/?sphrase_id=6794906) 30.04.2018.
6. Қуронов М. Қардошлик ва ҳамкорлик тантанаси // Ўзбекистон овози. 2018 йил 3 май.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Туркия Республикаси Буюк миллат мажлиси раисини қабул қилди // Халқ сўзи. 2018 йил 25 сентябрь.
8. Ўзбекистон ва Туркия: Олий даражадаги стратегик ҳамкорликнинг янги босқичи. Халқ сўзи. 2020 йил 20 февраль, № 37, 1-бет.
9. Ўзбекистон–Туркия парламентларaro музокаралар яқунлари кўриб чиқилди. Халқ сўзи. 2021 й 25 март, № 60, 1-2-бетлар.
10. Ўзбекистон Президенти Туркия билан фаол парламентларaro ҳамкорликни давом эттириш муҳимлигини таъкидлади. //Янги Ўзбекистон. 2023 йил 14 июль. № 139, 1-бет.
11. Қардош халқлар ўртасидаги дўстликни янада мустаҳкамлаш ва кенгайтириш йўлида. Халқ сўзи. 2024 йил 5 июнь. № 111, 2-бет.

**SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA FERMER  
XO'JALIKLARINING TASHKIL ETILISHI VA UNING NATIJALARI**  
*Sh.Jumayeva, PhD, o'qituvchi, Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*

**Annotatsiya.** Maqolada Surxondaryo viloyatida chorvachilik sohasida fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, faoliyati va uning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda fermerlikni tashkil etishning zamonaviy shakllari, ularning mol va parranda yetishtirishdagi roli hamda mahalliy aholi daromadiga ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi orqali hududda ish o'rinlari yaratish va chorvachilik mahsulotlarini ko'paytirishning natijalari ham ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Chorvachilik, fermer xo'jaliklari, tashkil etish, samaradorlik, Surxondaryo viloyati.

**Аннотация.** В статье анализируется организация фермерских хозяйств в сфере животноводства в Сурхандарьинской области, их деятельность и экономическая эффективность. Исследование рассматривает современные формы фермерства, их роль в разведении скота и птицы, а также влияние на доходы местного населения. Также показаны результаты создания рабочих мест и увеличения производства животноводческой продукции через организацию фермерских хозяйств.

**Ключевые слова:** Животноводство, фермерские хозяйства, организация, эффективность, Сурхандарьинская область.

**Abstract.** The article examines the establishment and functioning of livestock farming enterprises in Surxondaryo region, as well as their economic outcomes. The study explores modern forms of farming, the role of farms in cattle and poultry production, and their impact on local residents' income. Furthermore, it highlights the results of job creation and increased livestock production achieved through the organization of farm enterprises. The findings provide recommendations for developing regional livestock strategies and supporting farmers.

**Key words:** Livestock farming, farm enterprises, organization, efficiency, Surxondaryo region.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Surxon vohasi aholisi chorvachilik bilan qadimdan shug'ullanib kelgan. Ularning yashash sharoiti va turmush tarzi bevosita chorvachilik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Voha aholisi tarixan chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishdagi boy tajribalari bilan nafaqat mamlakatda, balki butun Markaziy Osiyoda ham tanilgan.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayonida, xususan, chorvachilik sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan boshlab chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Natijada, tarmoqda xo'jalik yuritish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning iqtisodiy, moliyaviy va huquqiy shart-sharoitlari tubdan o'zgardi. Butun mamlakatda bo'lgani kabi, Surxondaryo viloyatida ham chorvachilik sohasidagi iqtisodiy islohotlar chuqurlashtirildi va turli mulkchilik shakllaridagi chorvachilik xo'jaliklari raqobat sharoitida teng huquqli faoliyat yuritishga erishdi.

Istiqolning dastlabki yillarida qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini qaror toptirish agrar islohotlarning asosini tashkil etardi. Bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Ayrim kamchiliklar ham ko'zga tashlandi. Masalan, Surxondaryo viloyati kengashi ijroqo'mining 1992-yil 14-fevraldagi qaroriga binoan dehqon (fermer) xo'jaliklari uchun 15 ming gektardan iborat maxsus yer fondi tashkil qilindi. Haqiqatda esa 1992-yilning 15-iyunigacha bo'lgan davrda 648 ta dehqon (fermer) xo'jaliklariga 8552 gektar yoki tuzilgan yer fondining 57 foizi miqdorida yer ajratib berilgan. Shu jumladan, Respublika Prezidentining "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash hamda davlat yo'li bilan ishbilarmonlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash haqida" 1991-yil 29-noyabrdagi farmonidan muvofiq viloyatda dehqon (fermer) xo'jaligi tuzish xohishini bildirgan 610 nafar fuqorodan ariza tushib, shulardan 478 nafari qondirilgan edi [2].

Surxondaryo viloyatida 1992-yil oxirida 588 nafar, 1993-yilda 770 nafar dehqon (fermer) xo'jaliklari, jumladan mustaqillari mos ravishda 261 nafar va 676 nafar bo'lgan. Ularga birlashtirilgan

yer maydoni 2857 gektardan 11254 gektarga ortgan. Shu yillarda viloyatdagi barcha xo'jaliklarda qoramollar soni 8888 boshdan 11942 boshga, shundan sigirlar soni 3330 boshdan 4136 boshga ortgan. 1992-1993 yillarda dehqon (fermer) xo'jaliklarida go'sht ishlab chiqarish 438,5 tonnadan 510,9 tonnaga, sut – 3211,6 tonnadan 3783 tonnaga ko'paygan. Davlatga go'sht sotish 438,3 tonnadan 510,5 tonnaga, sut sotish esa 2200,6 tonnadan 3733 tonnaga o'sgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 15-martida qabul qilingan "Chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida Surxondaryo viloyati jamoa xo'jaliklaridagi 70 ta fermalar xususiylashtirilib, hissadorlik jamiyatiga aylantirildi. Ushbu hissadorlik jamiyati hisobida 28534 bosh qoramol, shu jumladan, 10640 bosh sigir mavjud bo'lib, davlatga 1994-yili 1953 tonna go'sht, 13060 tonna sut yetkazib berilgan ularning ixtiyorida 6955 ga yer maydoni mavjud bo'lgan. Darhaqiqat, viloyat qishloq xo'jaligida davlatga qarashli bo'lmagan sektor 1994-yilda butun mahsulotni 95 foizini, 1995-yilda foizini ishlab chiqardi [3].

Viloyatda xususiylashtirilgan fermalarda mollar bosh sonini oshirish va mahsulot yetishtirishni ko'paytirishga jiddiy etibor berildi. Masalan: Muzrabot tumanida "Dehqon-Obod" hissadorlik jamiyatida dastlab 52 bosh qoramol mavjud bo'lgan bo'lsa, keyinchalik qoramollar bosh soni 105 boshga yetgan, hamda ushbu ferma jamoasi yiliga 8 tonna sut ishlab chiqargan [4].

1992-yildan boshlab 1995-yil boshlarigacha Sariosiyo va Uzun tumanlari qishloqlaridagi 17 ta davlat xo'jaligi (sovxoz) boshqa mulk shakliga - 15 ta jamoa xo'jaligi, 5 ta kooperativ, 9 ta ijara, shuningdek, boshqa mulk shakllariga aylantirildi. Bundan tashqari, Sariosiyo va Uzun tumanlari jamoa xo'jaliklaridagi 15 ta qoramolchilik fermasi xususiylashtirish yo'li bilan shaxsiy tadbirkorlarga sotilib, chorva mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi [7].

Ushbu sotilgan qoramollar davlat xususiylashtirish qo'mitasi tomonidan nazoratga olinib, aholini go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlash ishlari yaxshi yo'lga qo'yildi. Natijada Sariosiyo va Uzun tumanlarida go'sht yetishtirish 1996- yilda 1,7 foizga, sut mahsulotlarini yetkazib berish 2,4 foizga o'sdi. Shaxsiy chorva xo'jaliklarining shakllantirilishi aholini ish bilan ta'minlash bilan bir qatorda xususiy mulkka bo'lgan manfaatdorligini oshirdi. Sariosiyo va Uzun tumanlari banklari tomonidan xususiy va shaxsiy chorva xo'jaliklariga 3 million so'mlik amaliy yordam berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 7-apreldagi 174-sonli qaroridan kelib chiqib viloyatda yangidan tashkil etilayotgan xususiy jamoa chorvachilik fermalari, dehqon (fermer) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufida bo'lmagan mulkchilik shaklidagi boshqa tuzilmalarga ko'rsatiladigan xizmatlarni kengaytirish, ularga normal ishlab chiqarish faoliyatlari uchun shart-sharoitlar yaratib berish maqsadida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, shu yili viloyatda jami 43 ta zooveterinariya punktlari tashkil etildi [4].

Shu bilan birga, iqtisodiy murakkab sharoitda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taminlash muhim masala bo'lib turgan bir paytda, viloyatdagi ayrim korxonalar va tashkilotlarda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayib ketganiga guvoh bo'lamiz. Masalan: 1994-yilda Termiz sut zavodi, Termiz go'sht kombinatlari, Sho'rchi un mahsulotlari kombinati, viloyat non mahsulotlari aksionerlik jamiyati, Surxondaryo va Uzun baliqchilik kombinatlari oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1993-yilga nisbatan kamaytirib yuborgan. Natijada 1994-yil davomida 23 mln. 894 ming so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari aholiga kam yetkazib berilgan [5].

Parrandalarga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1991-yil viloyatda 1375,9 ming bosh bo'lgan bo'lsa, 2002-yilga borib 1038,6 ming boshni, 2010-yilda esa 1978,8 ming boshni tashkil qildi. Qiziriq tumanida esa 1991-yil 19,9 ming bosh bo'lgan bo'lsa, 2002-yilga borib 21,6 ming boshni, 2010-yilda esa 66,5 ming boshni tashkil qildi [6].

Ayniqsa, bu borada qabul qilingan qonun va qarorlar o'z samarasini berdi. Davlat xususiy va shaxsiy chorvachilikni rivojlantirishga alohida moddiy-ma'naviy yordamni hamda huquqiy himoyani kuchaytirdi. Viloyatda 1995-yil davlat hisobiga mol va parranda go'shti (tirik vaznda) 73,4 ming tonna, sut 307,5 ming tonna, tuxum 68,2 million dona, jun 1515,8 tonna, pilla 1023 ming tonna mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, Qiziriq tumanida 1995-yil davlat hisobiga mol va parranda go'shti (tirik vaznda) 4162 tonna, sut 15751 tonna, tuxum 1794 ming dona, jun 32 tonna mahsulot ishlab chiqarildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida chorvachilik sohasidagi qiyinchiliklar, e'tiborsizlik, ayniqsa, noqonuniy chorva mollarni talon – taraj qilish, yem-xashak ta'minotini izdan chiqarishga doir odatlarga chek qo'yilib, yangi chorva fermer xo'jaliklari bo'rdoqchilik komplekslarini tashkil etilishi mavjud muommalarni bartaraf etishga yo'l ochdi. Ayniqsa, bu borada qabul qilingan qonun va qarorlar o'z samarasini berdi. 1995-yil davlat hisobiga mol va parranda go'shti (tirik vaznda) 73,4 ming tonna, sut 307,5 ming tonna, tuxum 68,2 million dona, jun 1515,8 tonna, pilla 1023 ming tonna mahsulot topshirildi. O'z navbatida viloyatda qoramollar soni 411,3 ming boshga, qo'y va echkilar soni 906,3 ming boshga, parranda soni 692,0 ming boshga yetkazildi. Davlat xususiy va shaxsiy chorvachilikni rivojlantirishga alohida moddiy va ma'naviy yordamni kuchaytirib, huquqiy himoyani mustahkamladi [7].

Viloyatda chorva mollari bosh sonlari va mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish, chorvachilik sohasini rivojlantirish, hamda chorvachilikda asosiy hisoblangan yem-xashak bazasini mustahkamlash borasida amaliy ishlar qilindi. Jumladan, 1996-yilda viloyat jamoa xo'jaliklaridagi chorva mollarning dag'al va shirali ozuqaga bo'lgan talabi 64 foizga ta'minlandi. Chorvachilikdagi ahvolni yaxshilash, ozuqa yetishtirishni ko'paytirish maqsadida suvli maydonlarga ekiladigan ozuqa ekinlari maydoni ko'paytirildi.

Surxondaryo viloyatida chorvachilik qadimdan aholi turmushi va iqtisodiy faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini isloh qilish doirasida chorvachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Shu jarayonda viloyatda turli mulkchilik shakllaridagi chorvachilik xo'jaliklari tashkil etilib, ular raqobat sharoitida teng huquqli faoliyat yurita boshladi. Natijada, nafaqat chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'paydi, balki mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratildi va iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaliklarining samarali tashkil etilishi viloyat chorvachiligini rivojlantirishda, ishlab chiqarish hajmini oshirishda va aholi daromadlarini ko'paytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Jamoa chorvachilik fermalari, dehqon (fermer) xo'jaliklari va qishloq xo'jaligidagi davlat tasarrufida bo'lmagan tuzilmalarga texnik hamda zooveterinariya xizmat ko'rsatish masalalari to'g'risida" 174-son qarori. 1993-yil 7-aprel.
2. «Surxon tongi» gazetasi, 1996-yil, 14-dekabr.
3. Rahimov B.S. O'zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yillar). Tarix fan.nom.diss. – Toshkent, 2008. –B. 142.
4. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 296-ish, 20-varaq.
5. Surxondaryo viloyati raqamlarda. 1991-2002 y.y.statistik to'plam. Termiz-2004. – B.103-108.
6. Surxondaryo viloyati raqamlarda. 2001-2010 y.y.statistik to'plam. Termiz-2011. – B.97-99.
7. Tursunov S.N. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.

UO'K 9: 631(575.1)

### YANGI O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SOHASINING RIVOJLANISHI

*G.S. Kalandarova, dots., Toshkent davlat Agrar universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda "Yangi O'zbekiston", "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi" degan nomlar orqali xalqaro maydonda munosabatlarimiz silsilasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Yangi O'zbekistonni bu jamiyatimiz hayotidagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o'zgartirgan, yangi demokratik qiyofaga mamlakat sifatida ko'rish uchun ham barcha soha tarmoq qatori qishloq xo'jaligini, jahon talablariga moslash ya'ni rivojlantirish kerak. Bu vaqtda har bir soha va tarmoqlar qatorida qishloq xo'jaligi sohasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu sohaning rivojlanishi uchun mamlakatimizda yetarlicha ekologik va agrar imkoniyatlarga ega bunda, etarlicha islohatlar amalga oshirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, qishloq xo'jaligi, rivojlanish, siyosat, iqtisodiyot, taraqqiyot, texnologiya, intensiv, ekologiya, agrar soha.

**Аннотация.** Сегодня названия «Новый Узбекистан» и «Новый этап развития Узбекистана» становятся очень важными в цепочке наших отношений на международной арене. Чтобы увидеть новый Узбекистан страной, полностью изменившей политические,

социальные и экономические отношения в жизни нашего общества, необходимо адаптировать и развивать все отрасли, включая сельское хозяйство, к мировым требованиям. В данное время особое внимание среди всех отраслей и секторов уделяется аграрному сектору. В нашей стране достаточно экологических и аграрных возможностей для развития этого сектора, проводится достаточно реформ.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, сельское хозяйство, развитие, политика, экономика, технологии, интенсификация, экология, аграрный сектор.

**Abstract.** Today, the names "New Uzbekistan" and "New Stage of Uzbekistan's Development" are becoming very important in the chain of our relations in the international arena. In order to see the new Uzbekistan as a country that has completely changed the political, social, and economic relations in the life of our society, it is necessary to adapt and develop all sectors, including agriculture, to world requirements. At this time, special attention is being paid to the agricultural sector, among all sectors and sectors. Our country has enough ecological and agrarian opportunities for the development of this sector, and enough reforms are being implemented.

**Key words:** New Uzbekistan, agriculture, development, politics, economy, technology, intensive, ecology, agrarian sector.

Qishloq xo'jaligi barcha davrda eng muhim tarmoqlardan biri bo'lgan. Boisi, inson yashar ekan, oziq ovqat mahsulotlariga hamisha talab kuchli bo'lgan. Dunyo olimlarining fikriga ko'ra, 2050 yilga qadar yer yuzi aholisi 8 milliarddan ortadi. Bunda oziq ovqatga bo'lgan talabning bir necha barobar ortishiga sabab bo'ladi. Bu esa ko'pchilik ekspertlarni xavotirga solmoqda. Ayni bu vaqtda Yaponiya va Janubiy Koreya texnologiyasi barcha mamlakatlar uchun andoza, shuningdek, tajriba bo'lganligini bemalol ayta olamiz. Intensiv tarzda mahsulotlar yetishtirish, yiliga 4-5 balkim undan ko'proq marta hosil olish imkonini o'rganish mumkin. Yerdan unumli foydalanish, intensiv usuldagi issiqxonalarni ko'paytirish aslida davr talabi hamdir.

O'zbekiston bugun 38 millionlik aholiga ega bo'lgan, o'tgan davrda ko'plab muammolar to'planib qolgan mamlakatning taqdiri va kelajagini belgilash borasida to'g'ri yo'l tanlash – kuchli bilim, tajriba va azmu shijoatni talab etadi. Ya'ni O'zbekiston aholisining ko'payishi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida alohida tashabbusga muhtoj ekanligi kundek ravshan edi.

Yangi O'zbekiston aynan yuqoridagi sabablarni inobatga olgan holatda qishloq xo'jaligiga alohida e'tibor qaratilishi davr talabi ham edi. Bu borada esa qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun belgilangan yangi tartiblar va g'oyalarni amalga oshirishda, albatta, boshqaruvchilar xodimlar muhim rolga ega. Ya'ni ular ishning boshida turib, belgilangan vazifalarni aniq va vaqtida, eng muhimi esa ishning sifatli bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishlari kerak. Ya'ni rahbar xodimlar o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni o'z ishchilaridan talab qila olishi kerak. Boshqaruvchi xodimlarda liderlik, boshqaruvchilik, o'ziga ishonch, mas'uliyat va yangilikka intilish ya'ni sohaga yangi tashabbus hamda g'oyalar bera olishi kerak.

Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlanishida boshqaruv xodimlarining asosiy vazifalaridan biri xalqaro standartlarga mos mahsulot bilan jahon bozoriga chiqishdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarimizning eksportda oqsayotgani shu jihat bilan ham bog'liq. Shu bois endilikda Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va arab mamlakatlari standartlari asosida mahsulotlarni sertifikatlash tizimini joriy etish choralari ko'riladi. Eksport salohiyatini oshirishda tomorqa xo'jaliklari boy manba hisoblanadi. Boisi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 70 foizi tomorqalarda yetishtiriladi. Hozir O'zbekistonda 4,5 million aholining tomorqa yer maydonlari mavjud.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi ham salmoqli o'rin egallaydi. Bu borada qishloq xo'jaligi boshqaruv xodimlariga qo'shimcha imtiyozlar va yo'nalishlar belgilab berilmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi

qabul qilindi.” Shuningdek, Qishloq xo‘jaligi qo‘shimcha imkoniyatlarga boy soha[1]. Shu sababli, keyingi yillarda agrar sohani tubdan isloh qilish va uni bozor talablariga moslashtirish ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumaladan, davlat xarid narxlarining qariyb 3 barobar oshirilishi paxtachilik va g'allachilikni daromad keltiradigan tarmoqqa aylantirdi. Qolaversa, paxtachilikda mutlaqo yangicha ish tutumiga, ya'ni klaster tizimiga o'tilgani mehnatga munosabatni tubdan o'zgartirdi. Ishni samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyati yuzaga keldi. Shuningdek, paxta maydonlarida sug'orishning tejamkor usullari tatbiq etildi. Shu yilning o'zida 25 ming gektar paxta maydonida suv tejoychi yangi sug'orish tizimi joriy qilinishi natijasida o'tgan yildagiga nisbatan uch barobar ko'p hosil olish kutilayotgani, foydalanishdan chiqqan 1 million 100 ming gektar yer maydoni qayta foydalanishga qaytariladi.

Bu borada quyidagi vazifalar belgilangan va ularning ijrosini boshqaruv xodimlari nazorat qilishlari kerak. Ular:

- qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish;
- suvdan foydalanish samaradorligini oshirish;
- qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo‘jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko‘paytirish;
- qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat muhitini shakllantirish;
- qishloq xo‘jaligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda qishloq xo‘jaligi statistikasini to‘liq raqamlashtirish orqali ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlash;
- kadrlar masalasini hal etish, ilm-fanni rivojlantirish kerak bo'ladi. “Davlat rolini davlat buyurtmasini berish, ekinlarni joylashtirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni nazorat qilish tizimidan fermer va dehqon xo‘jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlash va sifatini oshirish, atrof muhitni muhofaza qilish va xususiy sektor tomonidan ko‘rsatilmaydigan boshqa maqsadlar uchun zarur bo‘lgan davlat xizmatlarini ko‘rsatishga yo‘naltirish”[2] aynan qishloq xo‘jaligi sohasining erkinlashuviga va xususiylashib yanada rivojlanishiga muhim sabablardan bo‘ldi.

Boshqaruv xodimlarining qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda asosiy maqsad qishloq aholining turmush sharoitini yanada yaxshilash, manfaatdorligini ta'minlashdir. Ya'ni qishloq xo‘jaligida shu vaqtgacha amal qilib kelgan eskicha uslubni o'zgartirib, xom ashyo yetishtirish manbaiga aylanib qolgan sohani tubdan isloh qilish lozimdir. Shu boisdan ham yangicha ishlash vaqti keldi. Joriy yil 6-sentyabr kuni bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda 2020-2030-yillar davomida qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanishni takomillashtirish, suvdan foydalanish samaradorligini yuksaltirish, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash hamda davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, qishloq xo‘jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko‘paytirish, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish sohasida raqobat muhitini shakllantirish, qishloq xo‘jaligida axborot texnologiyalarini keng joriy qilish hamda tarmoq statistikasini to‘liq raqamlashtirish orqali ma'lumotlar haqqoniyligini ta'minlash, kadrlar masalasini hal etish, ilm-fanni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yettita ustuvor yo‘nalish belgilab berildi.

Yangi O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish orqali eksport salohiyatini yuksaltirish ya'ni iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligi ulushini orttirish aslida rahbar hodimlar zimmasidadir. Bu borada statistik tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, sohada hali boshqaruv xodimlarida ko‘p mehnat talab etiladi. “Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi yalpi ichki mahsulotning 30 foizini tashkil etsa-da, lekin qilayotgan ishlarimiz yetarli emasligi, oldimizda katta potensial borligi namoyon bo‘lmoqda. Kelgusi o‘n yillikda qishloq xo‘jaligini iqtisodiyotning haqiqiy “drayveri”ga aylantirish uchun tubdan ko‘p islohotlarni amalga oshirishimiz kerak. Chunki 30 yilda qishloq xo‘jaligiga deyarli teginilmagan[3], desak, xato bo‘lmaydi. Mahsulotlarimiz, umuman, qishloq xo‘jaligidagi innovatsiyalarimiz boshqa davlatlar bilan haqiqiy raqobatdosh bo‘lishi uchun islohotlarni bugundan amalga oshirishimiz kerak,” - deb aytdi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri.

Yerdan foydalanuvchi uni haqiqiy o'ziniki, deb hisoblaydimi yoki yo'q? Strategiyada shu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish belgilangan. Vaholonki, tahlillarda bitta fermer yerdan bir, bir yarim yil foydalangan holatlari ham kuzatilgan. Bu nimadan dalolat? Agar yerdan foydalanuvchi uni o'ziniki, deb bilmasa, qandaydir "qo'rquv" bo'lsa, munosabat ham xuddi shunday bo'ladi. Yerga nafaqat qarash, balki mablag'larni ham sarflash kerak. Bugun O'zbekistonda mavjud yer maydonlaridan, suvdan samarali foydalanish masalasi Prezidentimiz tomonidan soha xodimlari, olimlari oldiga qo'yilayotgan eng dolzarb vazifa etib belgilandi. Sababi yer cheklangan. Ana shu cheklangan yerdan faqatgina mehnat unumdorligini, hosildorlikni oshirish orqali ko'proq daromad olish lozim. Agar rivojlangan mamlakatlar bilan solishtiradigan bo'lsak, yerdan, suv resurslaridan foydalanish darajasi bo'yicha qator tizimli muammolar borligi ko'rinadi. Shuning uchun strategiyada qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini yuksaltirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni keng qo'llashga alohida urg'u berilgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligi faol qo'llab-quvvatlanadigan davlatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda qishloq xo'jaligi rivojlanishi uchun boshqaruv xodimlariga ham keng imkoniyatlar berilmoqda. O'z navbatida rahbat xodimlar zimmasida mas'uliyat va vazifalar ham mavjud. Agrar sohasiga davlat tomonidan rivojlangan mamlakatlarga nisbatan 2-3 barobar ko'p mablag' ajratilmoqda. Shuning uchun ham 2025-yilga borib, davlat tomonidan qishloq xo'jaligi faqat bozor mexanizmlari asosida tartibga solinadi. Tan olish kerak, mamlakatimiz qishloq xo'jaligining eksport salohiyatini oshirish va qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar hajmini ko'paytirish borasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar ko'p.

#### REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining pq- 4575 sonli qarori, 28.01.2020y. "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/docs/-4714632>.
2. <https://isrs.uz/oz/uzbekiston-yangiliklari/yangi-ozbekistonning-taraqqiyot> solnomasi.
3. "Xalq so'zi" gazetasi, 2019-yil. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-qishloqhojaligini-rivojlantirish-strategiyasi-iqtisodiyotimiz-drayveri-halqimiz-turmushfarovonligini-taminlovchi-yangi-bosqichdir>.
4. [https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot\\_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogistsanoat\\_va\\_qishloq-xojaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda](https://cityeconomy.uz/uz/news/matbuot_uchun/tadbirlar/ozbekiston-qozogistsanoat_va_qishloq-xojaligi-mahsulotlari-korgazmasi-davom-etmoqda).
5. President.uz "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda." <https://president.uz/oz/lists/view/4547>

UO'K: 94:63 (575.171)

### TANHO YER MUNOSABATLARI: HUQUQIY INSTITUT VA IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

*N.P.Kamolova, dots., PhD, Urganch innovatsion universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Maqolada tanho yer munosabatlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, ularning qishloq xo'jaligi va dehqonchilik sohasidagi samaradorligi, shuningdek, ijtimoiy tabaqalanish va yer taqsimotiga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari hududdagi yer mulkdorligi institutining zamonaviy huquqiy va iqtisodiy tizimdagi o'rnini tushunishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** suyug'ol, tanho, tanhodor, māl, tiul

**Аннотация.** В статье исследуются исторические этапы развития танхо-земельных отношений, их эффективность в сельском хозяйстве и земледелии, а также их влияние на социальную стратификацию и распределение земли. Результаты исследования помогают понять роль института землевладения в современной правовой и экономической системе.

**Ключевые слова:** сург'ол, танхо, танходор, мал, тиул

**Abstract.** The article examines the historical development stages of tanha land relations, their efficiency in agriculture and farming, as well as their impact on social stratification and land distribution. The research findings help to understand the role of the land ownership institution in the contemporary legal and economic system.

**Key words:** suyurgal, tanha, tanhadar, māl, tiul

O'rta Osiyodagi Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida dehqonchilik tizimi qadimdan shakllangan sug'orish infratuzilmasiga asoslangan bo'lib, katta ariq, kanal va sardobalar tarmog'i orqali tashkil etilgan irrigatsiya tizimi iqtisodiyot barqarorligini belgilagan. Manbalar shuni ko'rsatadiki, yer egaligi shakllari va soliq munosabatlari mazkur xonliklarda farqlangan bo'lsa-da, umumiy agrar tuzilma jihatidan o'xshashlikka ega edi. Masalan, mulkiy yerlar (shaxsiy egalik), davlat yerlar (amiriy/xoniy), vaqf yerlar va jamoa yerlar mavjud bo'lib, bu yerlarning har biri maxsus huquqiy maqomga ega bo'lgan. Quyida Buxoro xonligida xususiy mulk tarkibida shakllangan suyurg'ol masalasini manbaviy tahlil qilamiz.

Amir Haydar davrida suyurg'ol tartibi avvalgi XV–XVI asrlar shaklidan tubdan farq qilgan. Agar dastlabki davrlarda suyurg'ol egalari nafaqat yer ijarasi soliqlaridan daromad olish, balki sud va ma'muriy immunitetdan foydalanish huquqiga ham ega bo'lgan bo'lsa, amir Haydar davrida bu imtiyozlar bekor qilindi. Suyurg'ol egalari endilikda faqat yer ijarasi solig'ini yig'ish huquqini saqlab qolgan, ammo sud va ma'muriy vakolatlardan mahrum bo'lgan. Shu jihatdan, mazkur davrdagi soyurg'al amalda Ashtarxoniylar va qisman Mang'itlar hukmronligi davrida keng tarqalgan tanho institutidan deyarli farq qilmagan.

XVII–XIX asrlarda O'rta Osiyo hududida suyurg'ol institutining o'rmini yangi feodal institut – tanho egalladi. Tanho (hadya qilingan yer-mulk) aslida iqtoning o'ziga xos qaytariladigan shakli bo'lib, unda egalik huquqi emas, balki faqatgina ma'lum hudud ekin maydonlaridan foydalanish va undan ijaraga olinadigan daromadni olish huquqi tanhodorga tegishli edi. Tanho egalari (tanhodorlar) sud va ma'muriy daxlsizlik huquqiga ega bo'lmagan, ya'ni ular o'zlari boshqaruv yoki sud funksiyalarini bajara olmaganlar. Tanho, asosan, harbiy xizmatni bajarish evaziga berilgan bo'lib, ba'zi hollarda ayrim shaxslar uchun nafaqa sifatida ham taqdim etilgan. Shu bois u ko'proq xizmatga bog'liq, shartli va vaqtinchalik feodal institut sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Biroq XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, rus adabiyotida ayrim ma'lumotlarda suyurg'ol yoki tanho berilishida ma'muriy huquqlar ham inobatga olinganiga oid havolalarga duch kelish mumkin. Xususan, 1870-yillardagi manbalarda suyurg'ol egalarning hududiy daxlsizlik va ma'muriy imtiyozlari bilan bog'liq misollar uchraydi. Bu esa mazkur institutlarning o'zgaruvchanligini va ularning tarixiy davr hamda siyosiy sharoitlarga qarab turlicha talqin qilinganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, XVII–XIX asrlarda suyurg'olning tanho bilan qisman qo'shib ketishi feodal institutlarning evolyutsiyasi jarayonini aks ettiradi. Bu jarayonda dastlab keng huquqlarga ega bo'lgan suyurg'ol asta-sekin o'zining ma'muriy va sud imtiyozlaridan ayrilib, faqatgina fiskal (soliq yig'ish) funksiyasini saqlab qoldi. Tanho esa xizmatga bog'liq vaqtinchalik daromad manbai sifatida feodal tizimning asosiy unsurlaridan biriga aylandi.

Etnograf A. L. Kun [1] o'zining "Shahrisabz bekati ocherklari" nomli asarida keltirishicha, Shohmurod vafotidan keyin taxtga kelgan amir Haydar davrida Niyoz-Aliyning o'g'li Doniyor-Valamiy Qo'qon bilan bo'lgan urushda Buxoroga ko'rsatgan xizmatlari evaziga Shahrisabz beylari mol-mulki sifatida sovg'a qilingan. Shu manbalarda qayd etilishicha, mazkur davrda suyurg'ol, odatda, kichik qishloqlar, ba'zan qishloqlar guruhlar yoki mayda yer uchastkalari shaklida berilgan.

Bizgacha yetib kelgan hujjatli manbalar, xususan, Shayboniylar va Ashtarxoniylar hukmdorlarining XVI–XVII asrlarda turli shaxslarga suyurg'ol, alufe, darubast va boshqa mulklar berish to'g'risidagi farmonlari bu institutning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yoritib beradi. Ushbu hujjatdan ko'rinadiki, suyurg'ol mulkining meros bo'lib o'tishi avtomatik tarzda emas, balki amirning maxsus farmoni orqali tasdiqlangan. Demak, suyurg'ol o'zining feodal institut sifatidagi xususiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, uning qonuniy merosga aylanishi hukmdor irodasiga bevosita bog'liq bo'lgan. Bu esa soyurg'ol egaligining siyosiy-huquqiy qaramligini hamda hukmdor hokimiyatining markaziyashtiruvchi rolini yaqqol ko'rsatadi.

Mazkur hujjatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, amir Haydar maktublarida uchraydigan "suyurg'ol" atamasi arxaik tusga ega bo'lib, ehtimol XVIII asr manbalarida qayd etilgan "tanho" atamasiga ma'nodosh bo'lgan. Chunki tanho institutida yerning o'ziga egalik huquqi emas, balki u yerdan olinadigan rentaga egalik qilish huquqi berilgan. Shuningdek, tanhodorlar berilgan hudud aholisi ustidan ma'muriy yoki sud vakolatlariga ega bo'lmaganlar. Demak, mazkur davrda suyurg'ol ham

tanho kabi vaqtinchalik yer in'omi, ya'ni muayyan xizmat evaziga beriladigan iqtisodiy imtiyoz sifatida faoliyat yuritgan.

Bunga misol sifatida 871-raqamli maktubni keltirish mumkin. Unda “suyurg‘ol” yoki “tanho” atamaları bevosita ishlatilmagan bo‘lsa-da, yer va sug‘orish suvining xizmat evaziga in‘om etilishi aniq ko‘rinadi. Maktubda Ulug‘ Hazrat saroyining sodiq xizmatchisi Nurjon aqoliq vafot etgach, uning o‘rniga Qaraboy aqoliqning tayinlangani va shu bilan birga marhum xizmatchining oilasiga iqtisodiy ko‘mak ko‘rsatilgani bayon etilgan [2]. Bu misol tanho yoki soyurg‘al institutining ijtimoiy vazifalaridan biri sanalgan xonga ko‘rsatgan xizmatlari evaziga moddiy ta‘minot yaratish amalda qanday ishlaganini ochib beradi.

Shunday qilib, hujjatlar asosida aytish mumkinki, amir Haydar davrida “suyurg‘ol” termini asta-sekin o‘z mazmunini yo‘qotib, tanho institutiga yaqinlashgan. U faqat iqtisodiy imtiyoz yer va suvdan olinadigan rentani taqdim etish vositasiga aylangan.

Markaziy Osiyo feodal tizimida tanho institutining shakllanishi va rivojlanishi agrar munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u davlatning iqtisodiy siyosati va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining muhim unsurlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Tanhodorlar ko‘pincha soliqlardan ozod etilgan bo‘lib, bu holat markaziy hokimiyatning ular huquqlarini himoya qilishga intilgan siyosatini ko‘rsatadi. Amaliyotda mahalliy hokimlar tomonidan noqonuniy soliqlar joriy etilgan hollarda, ularning to‘liq summasi tanhodorlarga qaytarilishi shart qilib belgilangan. Bu esa tanho institutining davlat tomonidan kafolatlangan huquqiy maqomga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Manbalarda, xususan, 1817-1818 yillarga oid 832-raqamli hujjatda, tanhoga ajratilgan yer maydonidan noqonuniy soliq yig‘ilgan holat qayd etiladi. Bu yerlarning aslida soliqdan ozod etilgani, ya‘ni tanho sifatida in‘om etilgani ta‘kidlangan. Mazkur hujjatda uchraydigan “mol” atamasi arabcha “*māl*” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u natural renta yoki natural soliqni bildiradi. Bu tushuncha XVI asr hujjatlarida keng qo‘llanib, ilmiy adabiyotlarda ham batafsil o‘rganilgan [3]. Demak, mol tushunchasi tanho institutining iqtisodiy mazmunini ochib beruvchi asosiy kategoriyalardan biridir.

Tanhoning muhim funksiyalaridan yana biri ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida xizmat qilganidadir. Masalan, Kermina viloyatidagi tanholar ayrim hollarda vafot etgan tanhodorlarning xotinlariga tirikchilik manbai sifatida ajratilgan. Bu amaliyot davlatning ijtimoiy siyosatida tanhoning ahamiyatini yanada kuchaytirgan.

Ba‘zan tanho tanhodorning oilasi a‘zolariga tirikchilik manbai sifatida berilganligi yoki Tanhoning merosiy o‘tishi ham feodal ierarxiyani mustahkamlovchi asosiy mexanizmlardan biri bo‘lgan. Tanhoning shakl va mazmuni XV–XVI asrlarda Movarounnahrda keng qo‘llangan “*tiul*” in‘omlarini eslatadi [4]. Keyinchalik, XVI–XIX asrlarda Kavkazorti va Eron mamlakatlarida tanho asosiy feodal institut darajasiga yetdi. Bu o‘zgarish tanho institutining mintaqaviy feodal tizimlarda o‘zaro ta‘sirini hamda umumiy tarixiy evolyutsiyasini aks ettiradi.

Tanhoning hajmi kichik yer maydonlaridan tortib butun qishloqlar, hatto bir nechta qishloqlarni ham qamrab olgan yirik yer egaliklari darajasigacha yetgan. Bu holat tanho institutining siyosiy-iqtisodiy salmog‘ini yanada oshirgan. Umuman olganda, tanho instituti Amir Haydar davrida murakkab huquqiy-iqtisodiy tizim sifatida shakllanib, bir vaqtning o‘zida: soliqdan ozodlik orqali tanhodorlarning huquqlarini kafolatlagan, ijtimoiy himoya mexanizmi sifatida amal qilgan, merosiy tamoyil asosida feodal tabaqalanishni mustahkamlagan, davlatning harbiy-siyosiy tizimi bilan bevosita bog‘liq holda amal qilgan.

Shu jihatdan, tanho institutini Movarounnahr feodal tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va Kavkazorti hamda Eron tajribasi bilan uyg‘un holda rivojlangan institut sifatida talqin etish mumkin.

XIX asrga kelib Buxoro xonligida aholining katta qismi tinch mehnatdan chalg‘itilib, harbiy yurishlarga safarbar etilishi irrigatsiya tizimining tezda yemirilishiga olib keldi. Natijada dehqonchilik uchun yaroqli yer maydonlari qisqarib bordi. Birgina bir asr mobaynida ming yillik tarix davomida millionlab insonlarning mehnati evaziga barpo etilgan sug‘orish tizimlari deyarli butunlay inqirozga yuz tutdi.

Mazkur jarayon natijasida faqat ayrim irrigatsiya inshootlari – akveduklar, sardobalar, suv omborlari va yirik kanallarning vayron qoldiqlari xonlik hududida saqlanib qolib, mamlakatning

o'tmishdagi yuksak irrigatsion madaniyatidan darak berib turardi. Biroq tanazzulga qaramay, Buxoro xonligining ayrim hududlarida dehqonchilik faoliyati davom etdi. Mazkur yerlarda hosil yetishtirish saqlanib qolgani bois ular o'zining "don ombori" maqomini saqlab qolgan. Bu yerlardan olingan hosil nafaqat Buxoro aholisi uchun, balki uzoqdagi Xiva xonligi ehtiyojlari uchun ham yetkazib berilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кун А.Л. Очерки Шахриябзского бекства // *Записки Русского географического общества*, отдел этнографии. Т. VI. – СПб., 1880. – С. 235.
2. Убайдулла-намэ. Рукопись. Институт востоковедения АН УзССР, № 5396, л. 57а, 1286.
3. Бартольд В.В., Петрушевский И.П., Истанов П.Г и др. *Сборник документов XVI века*. ИВАН СССР. – С. 210; Бартольд В.В. *Отчет о поездке в Туркестан в 1904 году*. ЗВОРАО. Т. XV. – С. 219-267.; Петрушевский И.П. *Хамидуллах Казвини как источник по социально-экономической истории Закавказья*. 1937. №4. – С. 886.
4. Вакуфная запись Шайбани-хана/ проф. Фитрат. Указ. Соч. – С. 73.

UO•K 341.231.14:061.2

## INSON HUQUQLARINI ILGARI SURISHDA NODAVLAT TASHKILOTLARNING ZAMONAVIY ROLI VA YONDASHUVLARI

*J.O.Kenjayev, dots., O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda jamiyatdagi turli qatlam va guruhlar, qolaversa, keng jamoatchilikning qonuniy manfaatlarini ifoda o'zida etuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarining demokratik va legitim faoliyati, o'z a'zolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtirok etishini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlari asoslangan.

**Kalit so'zlar:** nodavlat sektor, jamoat birlashmalari, fuqarolik jamiyati institutlari, inson manfaatlari, inson huquqlari, ijtimoiy-siyosiy faollik, siyosiy jarayonlar, legitim asos.

**Аннотация.** In this article, the democratic and legitimate activities of non-governmental non-profit organizations, which express the legal interests of the various layers and groups in society, as well as the general public in regulating social relations, the socio-political activity and initiative of their members, and their role in managing state and community affairs. efforts to develop participation are based.

**Ключевые слова:** негосударственный сектор, общественные объединения, институты гражданского общества, интересы человека, права человека, общественно-политическая деятельность, политические процессы, легитимная основа.

**Abstract.** In this article, the democratic and legitimate activities of non-governmental non-profit organizations, which express the legal interests of the various layers and groups in society, as well as the general public in regulating social relations, the socio-political activity and initiative of their members, and their role in managing state and community affairs. efforts to develop participation are based.

**Keywords:** non-state sector, public associations, civil society institutions, human interests, human rights, socio-political activity, political processes, legitimate basis.

Mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish, uning manfaatlarin ta'minlashda hayotimizning barcha soha va jabhalarini demokratlashtirish va liberallashtirish qaratilgan katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'pgina qonun va qonunchilik normalari qabul qilishi va nodavlat subyektlarning inson huquqlarini himoya qilish borasida amalda samarali faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Endi NNTlar qonunlarning faqat subyekti emas, balki qonun qabul qilinisha jarayonida, uning ijodkorligida faol ishtirok etishi inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarning legitimlashib borishini ham ko'rsatadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari doimiz ravishda qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok ham muhim hisoblanadi. Bu jarayondagi ishtiroki o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, erkin fuqarolik jamiyatining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Bunday tashkilotlar qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda jamiyatdagi turli qatlam va guruhlar, qolaversa, keng jamoatchilikning qonuniy manfaatlarini ifodalaydi.

Agar o'tgan asr tarixiga nazar tashlasak, yagona Kommunistik partiya va uning g'oyalari hukmronlik qilgan sobiq Ittifoq davrida "jamoat birlashmalari" deb nomlangan nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining rivojlanishiga yo'l qo'yilmagan. Kam sonli bunday tashkilotlar nomigagina tashkil etilib, davlat nazoratida faoliyat yuritib kelgan. Chunki, bu institutlarning rivojlanishi davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolar ishtirokini kengaytirish, davlat organlarining bir qator vakolatlari o'z-o'zidan nodavlat notijorat tashkilotlariga o'tishini taqozo etadi. Bu esa, partiya byurokratlarining faqat ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga asoslangan Kommunistik mafkuraga mutlaqo zid edi [14,159]. *Sobiq Ittifoq davrida tashkil etilgan barcha nodavlat notijorat tashkilotlari kommunistik partiya "buyurtma" sig'a ko'ra tashkil etilgan. Bu esa, o'z navbatida, Konstitutsiyada belgilab berilgan uyushmalarga birlashish huquqini boshqa bir nodavlat notijorat tashkiloti tomonidan cheklanishi deb baholashga asos bo'ladi.*

Istiqoldan so'ng NNTlarning davlat va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi roli qonunchilikda mustahkamlandi. Bu 1991-yil 15-fevraldagi "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonunda aks etib, unda jamoat birlashmalarining asosiy maqsadlari sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, fuqarolik faolligini oshirish, boshqaruvda ishtirokni rivojlantirish, ilmiy, madaniy, ijtimoiy va gumanitar faoliyatni qo'llab-quvvatlash belgilandi. Qonun fuqarolarning jamoat birlashmalariga erkin uyushish va mustaqil faoliyat yuritish huquqini kafolatladi.

Keyingi davrda inson huquqlari, axloqiy-huquqiy prinsiplar va huquqiy madaniyat masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Bizningcha, inson huquqlarini ta'minlash va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda davlat organlari bilan bir qatorda NNTlarga ham muhim vazifalar yuklanadi.

Agarda 1991 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagi NNT soni 95 tani tashkil qilgan bo'lsa, statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda mamlakatimizda 10 mingga yaqin nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatlarini olib borishmoqda. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, adliya organlarida ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning alohida bo'linmalari soni 8 922 tani tani tashkil qilib, shundan 600 tasi Adliya vazirligi hamda 8 560 tasi hududiy adliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan [17].

Bir so'z bilan aytganda, bugungi kunda son jihatdan ortib borayotgan nodavlat sektor fuqarolarni faol va mas'uliyatli bo'lishga undash, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirish hamda ijtimoiy ko'mak kompetentligini rivojlantirishni asosiy vazifa sifatida belgilamoqda. Bu esa NNTlar faoliyatining mazmunan kengayib, tarmoqlashib borishiga xizmat qilmoqda.

Bizningcha, inson huquqlarining fundamental tamoyillarini ta'minlashda davlat organlari bilan bir qatorda NNTlar ham muhim o'rin tutadi. Ular inson qadr-qimmati, erkinlik, tenglik, adolat va demokratiya g'oyalarini amalda targ'ib etuvchi muhim subyekt bo'lib, so'nggi yigirma yilda mahalliy, milliy va xalqaro miqyosda faoliyatini kengaytirib, ijtimoiy tashabbuslar orqali a'zolari manfaatlarini va huquqiy erkinliklarini himoya qilishga intilmoqda.

Anna-Karin Lindblomga ko'ra, NNTlarning xalqaro huquqiy roli uch omil bilan belgilanadi: demokratik vakillikning yetarli ta'minlanmasligi, globallashuv sharoitida davlat hokimiyatining tarqalishi hamda yangi identifikatsiya va sodiqlik shakllarining vujudga kelishi, bu esa NNTlar soni va siyosiy ta'sirining ortishini ko'rsatadi [1,6].

Nodavlat notijorat tashkilotlari odatda demokratiya va inson huquqlari madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan faoliyat bilan ajralib turadi. MDH mamlakatlarida bunday faoliyat keng tarqalgan. Masalan, Qozog'iston va Rossiyada NNTlar faoliyati "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinsa, Ukrainada faoliyat turiga qarab alohida qonunlar mavjud: "Professional uyushmalar, ularning huquqlari va faoliyat kafolatlari to'g'risida" (1999) va "Jamoat birlashmalari to'g'risida" (2012) [14,51].

Rossiya Federatsiyasida notijorat tashkilotlari faoliyati asosan 1996-yil 12-yanvarda qabul qilingan "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi konun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga muvofiq, notijorat tashkilotlarining 12 ta tashkiliy-huquqiy shakli belgilangan. Jamoat va diniy tashkilotlar (birlashmalar), fondlar, assotsiatsiyalar, xususiy muassasalar, uyushmalar, avtonom notijorat tashkilotlari shular jumlasidan [16].

MDH mamlakatlari orasida Qozog'iston fuqarolik jamiyati institutlari rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Siyosatshunos va huquqshunoslar bu institutlarni zamonaviy demokratik boshqaruvning asosiy belgisi deb hisoblaydi. 2001-yil 16-yanvarda qabul qilingan "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qozog'iston Qonuni (6-moddasi) NNTlarni muassasalar, jamoat birlashmalari, fondlar, diniy uyushmalar, notijorat aksionerlik jamiyatlari, iste'molchilik kooperativlari va assotsiatsiyalar kabi yuridik shakllarda uyushmalar sifatida belgilaydi [10].

Bugungi kunda dunyoda notijorat tashkilotlarining ko'plab turlari: xalqaro nodavlat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, notijorat tashkilotlari kabi turlari amal qiladi. BMTning Rivojlanish dasturi ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 40 000 atrofidagi nodavlat tashkilotlari va yuz minglab jamoat tashkilotlari faoliyat olib boradi [8,5]. Va ular yil sayin kengayib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan tarmoqlashib bormoqda.

Inson huquqlari bo'yicha asosiy NNTlar odatda fuqarolik va siyosiy huquqlarga e'tibor qaratadi, ammo iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni ham nazarda tutadi. Masalan, Kanada va Avstraliyada xalqaro va mahalliy NNTlar bosimi natijasida tub aholi uchun asosiy huquqlarni ta'minlovchi qonunlar qabul qilindi. Bu masala to'liq hal bo'lmagan bo'lsa-da, inson huquqlari va insonparvarlik sohasidagi qonuniy buzilishlarni bartaraf etishda yangi uslublar orqali sezilarli yutuqlarga erishildi [5,121]. Lotin Amerikasi va Karib havzasi mamlakatlarida NNTlar qashshoqlik, savodsizlik va ijtimoiy marginalizatsiya bilan kurashishga e'tibor qaratadi. 1960-yillardan boshlab ularning ijtimoiy masalalarga aralashuvi fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Masalan, Meksikada so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, 10 000 ga yaqin NNT mavjud bo'lib, ularning aksariyati uzoq vaqt davomida turli gumanitar sohalarda faoliyat yuritib kelmoqda [2,26]. Bizning nazarimizda, inson huquqlari sohasidagi nodavlat tashkilotlar faoliyatining to'liq amal qilishi va erkin ish yuritishi deyarli istisnosiz davlat hokimiyati organlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan joylarda ham amal qiladi.

Asta-sekin BMT inson huquqlari sohasida o'ziga xos siyosat yurituvchi mustaqil subyekt sifatida qarala boshlandi. Biroq standartlarni belgilash va monitoring mexanizmlarini yaratish bo'yicha qarorlar asosan maslahat organlarida, hukumat vakillari ishtirokida qabul qilinadi. Shu bois bu sohada muvaffaqiyatga erishish uchun NNTlar hukumatlar bilan hamkorlik qilishi, ularni ishontirishi va ittifoqlar tuzishi zarur. Bunda NNTlar inson huquqlari buzilishini fosh etishni o'z burchi deb biladi, bu esa ularning BMT bilan munosabatlarini murakkab va ba'zan "noqulay hamkorlik" shakliga olib keladi. BMT doirasidagi NNTlar turli ko'lam va yo'nalishda faoliyat yuritadi: ayrimlari global, boshqalari mintaqaviy yoki milliy darajada ishlaydi; ba'zilari inson huquqlarining barcha masalalarini qamrab olsa, boshqalari aniq muammolarga ixtisoslashadi. Shunga qaramay, deyarli barcha NNTlar inson huquqlari buzilishi haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va e'lon qilish bilan shug'ullanadi [6,82].

Sharq nuqtai nazaridan ko'rib chiqqanda, biz tarixiy va madaniy sabablarga ko'ra o'rganish muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Sharqdagi notijorat faoliyatning namunasi sifatida Yaponiyani misol qilib olsak, bu mamlakatda nodavlat notijorat tashkilotlari/fuqarolar/notijorat sektori ilgari "kam rivojlangan" mamlakat sifatida qaralgan. Nodavlat faoliyat bo'yicha so'nggi 10 yil ichida vaziyat o'zgardi. Bundan tashqari, so'nggi 10 yil ichida Yaponiya iqtisodiy jihatdan yuksaldi, kuch va asosiy donor bo'lib, yaponlarga nisbatan umid va talablarning oshishiga olib kelgan nodavlat notijorat tashkilotlari yuzaga chiqa boshladi [3,37].

Hozirgi Yaponiyada fuqarolik jamiyati institutlariga asosiy vazifalar sifatida jamiyatda ijtimoiy sarmoyalarni shakllantirish va kengaytirish, ijtimoiy xizmatlarni qo'llab-quvvatlash, maqsadli guruhlar va mehnat uyushmalarini rivojlantirish, hududiy assotsiatsiyalarni mustahkamlash, siyosiy tizim va partiyalar faoliyatini takomillashtirish, mustaqil iste'molchilar jamiyatini rivojlantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, aholining salomatligini yaxshilash, demografik muammolarni hal etish hamda global moliyaviy-iqtisodiy va ekologik tadqiqotlarni kuchaytirish belgilangan [9,170].

Yana bir Sharq yirik mamlakati Xitoy misolida ko'rib chiqqanda, siyosatshunos Y.Keppingning ta'kidlashicha, Xitoyda fuqarolik jamiyati mavjud, chunki Xitoy fuqarolik jamiyati tashkilotlarida G'arb tashkilotlariga o'xshash bo'lgan xususiyatlarni ham kuzatish mumkin: nodavlatlik, notijoratlik, nisbatan mustaqillik va ko'ngillilik [7,7].

Xitoy fuqarolik jamiyatining o'ziga xosligi yirik NNTlar faoliyatida davlatning kuchli ta'sirida namoyon bo'ladi. Bunga quyidagilar dalildir: birinchidan, NNTlar ro'yxatga olingach, partiya va davlat bo'limlariga birlashtiriladi; ikkinchidan, muhim jamoat birlashmalari rahbarlari ko'pincha partiya yoki davlat xizmatidan iste'foga chiqqan shaxslardir; uchinchidan, garchi NNTlar asosan o'z xarajatlarini qoplashga mablag' jamlashi lozim bo'lsa-da, hukumat ularning faoliyatini moliyalashtiradi va ular iqtisodiy jihatdan davlatga qaram bo'ladi [13,59].

Zotan, Xitoyda 180 000 dan ortiq tashkilot o'zini nodavlat notijorat tashkiloti deb biladi, bunday birlashmalarga uyushmalar, fondlar va savdo-sanoat palatalari kiradi. Davlatga ko'ra Kengashning NNTlar to'g'risidagi Nizomida nodavlat notijorat tashkilotlarining uchta asosiy shakli mavjud, bular: Ijtimoiy tashkilotlar (SO) (shehui tuanti) kabi notijorat tashkilotlari (NPO), Jamg'armalar (jijinhui) va Fuqarolik nodavlat institutlari (CNIs) (minban fei qiye) danwei) (Amerika Qo'shma Shtatlari Xalqaro Grantmaking, 2008) [3,34].

Xalqaro miqyosda jamoat manfaatlarini qo'llab-quvvatlashda mahalliy, milliy va xalqaro darajada tashkil etilgan nodavlat notijorat tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Ular umumiy maqsadga ega fuqarolar guruhlaridan iborat bo'lib, ijtimoiy va gumanitar xizmatlar ko'rsatadi, fuqarolar muammolarini hukumatlarga yetkazadi, siyosat va dasturlar ijrosini nazorat qiladi hamda fuqarolik jamiyati subyektlari ishtirokini rag'batlantiradi.

Bizningcha, NNTlar o'z faoliyatini erkin va samarali amalga oshirish uchun milliy va xalqaro manfaatlar doirasini hisobga olib, zarur ijtimoiy-siyosiy mexanizmlardan oqilona foydalanishi lozim. Shunda inson huquqlarini ta'minlash jarayoni ham izchil va mazmunli tarzda rivojlanib boradi.

Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalarning O'zbekiston Respublikasida bajarilishi bo'yicha bugungi kunga qadar jami 119 ta xalqaro va milliy nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan muqobil ma'ruzalar BMTning tegishli qo'mitalariga topshirilgan. Shundan 19 tasi O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat olib boruvchi NNT hisoblanadi [4,26]. Bu jihatlarda ham, bizning jamiyatda NNTlar faoliyatini tartibga solish va rivoshlantirish xalqaro darajada o'rganilishi va qabul qilinishiga imkoniyatlar yaratadi.

Xalqaro standartlarga ko'ra, inson huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilishda parlamentlar, mahalliy hokimiyat va fuqarolik jamiyati institutlari muhim rol o'ynaydi. NNT va jamoat birlashmalari esa fuqarolarning ixtiyoriy uyushmasi sifatida manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yadi va ularning sha'ni hamda manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Rivojlangan mamlakatlarda ham davlat boshqaruvini demokratlashtirish va NNTlar rolini oshirish dolzarb masala hisoblanadi [11,5]. Shu jihatdan olib qaraganda, nodavlat notijorat tashkilotlari birinchidan, fuqarolarning ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy qarashlarini rivojlantirish orqali NNTlarga aniq taklif va tavsiyalarni kiritib borishga erishilsa, ikkinchidan esa, o'z haq-huquqlari, qonuniy manfaatlari yo'lida doimiy va tizimli faoliyat olib boruvchi integrator funksiyani bajarishga erishiladi.

Inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat organlari va NNTlar bilan aholi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyati muhimdir. Demokratik institutlar xalq mentaliteti va qadriyatlariga mos bo'lishi, siyosiy munosabatlarda ilm, adolat, qonunga itoatkorlik va ma'naviylik ustuvor bo'lishi kerak.

Amalda esa fuqarolar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kam murojaat qiladi, NNTlarning siyosiy jarayonlarga ta'siriga ishonchsizlik mavjud. Shu bois demokratik islohotlar samaradorligi fuqaro va mansabdorlarning huquqiy madaniyatini oshirishga bog'liq. Qonun ustuvorligi va hamma uchun tenglik ta'minlanganda huquqiy tafakkur rivojlana boshlaydi, NNTlarning roli kuchayadi, huquqiy madaniyat esa shaxs huquq va erkinliklari hamda ularning himoyalanganlik darajasining oshishi bilan belgilanadi.

NNT jamiyatni o'zini o'zi uyushtirish va tartibga solishining muhim omili bo'lib, ularning amal qilish mexanizmlari aniq ishlab chiqilgan taqdiridagina fuqarolik jamiyati fuqaroning haqiqiy erkinligini ta'minlab bera olishi, jamiyatda demokratiya real amal qilishi mumkin bo'ladi. Shu asosda NNT aholini huquqiy me'yorlarni ishlab chiqishda va amaliyotda qo'llashda keng ko'lamda ishtirok etishiga jalb eta oluvchi kuch bo'lib maydonga chiqib, davlat va fuqaroning o'zaro mas'ulligini ta'minlaydi [12,116]. Inson siyosiy va huquqiy jihatdan tafakkur tarziga ega bo'lishi yokida bu

boradagi bilimlarini rivojlantirib borishi uning huquqiy madnaiyatini rivojlantirib borishi va jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lib borishiga zamin yaratadi. Bunday jarayonlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda, nodavlat sektorlarning ulushi oshib borishini mo'ljal qilish maqsadga muvofiq.

Ko'plab fuqarolarning NNTlarda faol ishtiroki davlat boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning xalqchil va amaliy bo'lishiga, zarur o'zgartirishlar kiritilishiga zamin yaratadi.

“Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi sharoitida NNTlarning fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi vakolatlarini kengaytirish, ularga ijtimoiy imkoniyatlar yaratish hamda davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok mexanizmlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini oshiradi va huquqlarining ta'minlanishiga bo'lgan umidlarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, NNTlar davlat, jamiyat va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, huquq va erkinliklarni himoya qilish hamda nodavlat sektorni qo'llab-quvvatlashga oid tashabbuslarni ilgari surishda faol bo'lishi lozim.

Zero, “Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida belgilangan bu tashkilotlarning huquqlari sifatida o'z a'zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish; ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish; davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish” [15] nazarda tutilgan. Bugun jadal islohotlar davrida nodavlat notijorat tashkilotlari hozirgi innovatsion va tezkor jarayonlarga moslashib, tashabbuskorlik borasida ham faolligi doimiy ravishda o'shib borishi kerak jamiyat a'zolarining bu nodavlat sektorga bo'lgan munosabati va ishonchini orttiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anna-Karin Lindblom. Non-Governmental Organisations in International Law. Cambridge University Press. 2005. – P. 6.
2. Balbis, Jorge. (2001). NGOs, government, and development in Latin America and the Caribbean. Management of Social Transformations (MOST). – P. 26.
3. Dang, Linh H., M.A. (2009). International Development Studies Non-Governmental Organizations (NGOs) and Development: An Illustration of Foreign NGOs in Vietnam. –P. 37.
4. Narimanov B.A. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish. Yurid.fan.dokt. (DSc) ...diss.avtoref. –T.: 2023. – B. 26.
5. Peter R. Baehr. Non-Governmental Human Rights Organizations in International Relations. First published, 2009. by PALGRAVE MACMILLAN. –P. 121.
6. The role of non-governmental organizations in the promotion and protection of human rights. [contributions P.H.Kooijmans ... et al.]. -Leiden: Stichting NJCM-Boekerij. – 82 p.
7. Yu Keping. Civil society with Chinese characteristics: A brief overview /The role of civil society organizations in China and Germany// Papers presented at the German-Chinese workshop in Beijing, 2009. – P.7.
8. Ахрорқулов А.А. Нотижорат ташкilotларнинг фуқаролик-ҳуқуқий мақомини такомиллаштириш. Юрид.фан.бўй.фалс.докт. (PhD) ...дисс.автореф. –Т.: 2022. –Б. 5.
9. Бозоров Д. Жаҳон тажрибасида фуқаролик жамияти институтлари фаолияти. Фуқаролик жамияти. Ўқув кўлланима. –Т.: “ЎзМУ” нашриёти. 2016. –Б. 170.
10. Закон Республики Казахстан от 16 января 2001 года №142-II О некоммерческих организациях: <https://online.zakon.kz/lawyer>
11. Расулов Б.Б. Ўзбекистонда давлат бoshqaruvi органлари фаолияти очиклигини таъминлашда нодавлат нотижорат ташкilotлари иштирокини ривожлантириш механизмлари. Сиёс.фан.бўй.фалс.докт. (PhD) ...дисс.автореф. –Т.: 2020. – Б. 5.
12. Сагдуллаева Д.Ш. Жамият демократлашуви шароитида фуқаролар ҳуқуқий маданиятини такомиллаштиришнинг ижтимоий-фалсафий асослар. Фалс.фан.ном. ...дисс. –Т.: 2010. –Б. 116-117.
13. Салаев, Д. Ўзбекистон тараққиётининг янги босқичида фуқаролик жамияти институтлари фаолиятини ислоҳ қилиш масалалари (ННТ мисолида). Сиёс.фан.бўй. фалс.докт. (PhD) ...дисс. –Т.: –Б. 59.
14. Толибов И.И. Нодавлат нотижорат ташкilotларининг ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш. Монография. – Т.: 2023. “TOP IMAGE MEDIA”. – Б. 159-160.
15. Ўзбекистон Республикаси “Нодавлат нотижорат ташкilotлари тўғрисида”ги Қонуни. 14.04.1999 йилдаги 763-I-сон. Манба: <https://lex.uz/docs/11360>
16. Федеральный закон "О некоммерческих организациях" от 12.01.1996 N 7-ФЗ (последняя редакция). [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_8824/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_8824/)

UO'K 902.5:37.016.4

## TO'MARIS – TARIXDA JASORAT, BUGUNDA ILHOM

*G.I.Mamuraliyeva, talaba, Namangan davlat universiteti, Namangan**Z.Sh. Madraximov, t.f.n., dots., Namangan davlat universiteti, Namangan*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi Massagetlar qirolichasi To'marisning tarixiy shaxs sifatidagi faoliyati, uning miloddan avvalgi VI asrdagi siyosiy-ijtimoiy voqeliklardagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, To'maris siymosining zamonaviy madaniyat va san'atda aks etishi – adabiyot, kinoda qanday tasvirlanayotgani tahlil qilinib, uning xotirasiga bag'ishlangan asarlar misolida milliy qadriyatlarda tutgan o'rni yoritiladi. Maqola tarixiy merosning bugungi avlod ongida shakllanishiga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy qarashlar asosida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** To'maris, Massagetlar, qadimgi tarix, Kir II, ayol sarkarda, tarixiy meros, zamonaviy talqin, jasorat, ilmiy tahlil.

**Аннотация.** В статье анализируется деятельность древней массагетской царицы Томарис как исторической личности, её роль в политических и социальных реалиях VI века до н.э. Также анализируется отражение образа Томарис в современной культуре и искусстве – его воплощение в литературе и кинематографе, а также освещается её роль в формировании национальных ценностей на примере произведений, посвящённых её памяти. Статья написана на основе научно-теоретических взглядов, служащих формированию исторического наследия в сознании современного поколения.

**Ключевые слова:** Томарис, массагеты, древняя история, Кир II, женщина-полководец, историческое наследие, современная интерпретация, мужество, научный анализ.

**Abstract:** This article analyzes the activities of the ancient Massagetae queen Tomaris as a historical figure, her role in the political and social realities of the 6th century BC. The article also analyzes the reflection of the image of Tomaris in modern culture and art - how it is depicted in literature and cinema, and highlights her role in national values, using the example of works dedicated to her memory. The article is written on the basis of scientific and theoretical views that serve the formation of historical heritage in the minds of today's generation.

**Key words:** Tomaris, Massagetae, ancient history, Cyrus II, female commander, historical heritage, modern interpretation, courage, scientific analysis.

*"Biz tarixda millatni millat qilgan, uning sha'nini, nomusini himoya qilgan, Vatanga sadoqat ko'rsatgan onalarni hech qachon unutmasligimiz kerak."*

**I.A. Karimov**

**O'zbekiston Respublikasi Birinchi Preidenti**

**Kirish.** Tarix sahifalarida siymosi oltin harflar bilan bitilgan ayol qahramonlar juda kam. Ammo ularning orasida To'maris nomi o'zgacha ajralib turadi. O'zining siyosiy irodasi, harbiy salohiyati va mustaqil qaror qabul qilish salohiyati bilan alohida o'rin egallagan shaxslar orasida qadimgi Massagetlar qirolichasi To'maris siymosi yuksak e'tiborga loyiqdir. Miloddan avvalgi VI asrda yashab o'tgan To'maris Sharq tarixidagi ilk ayol hukmdorlaridan biri bo'lib, u bosqinchilik siyosatini yuritgan Eron podshosi Kir II ga qarshi olib borgan kurashi bilan mashhurdir. Uning yuritgan siyosati va harbiy strategiyasi, ayniqsa, xalqi erkinligi yo'lida ko'rsatgan jasorati ko'plab tarixchilarning e'tiborini tortib kelmoqda.

To'maris siymosi nafaqat tarixiy manbalarda, balki zamonaviy adabiyot, san'at va ommaviy madaniyatda ham keng yoritilmoqda. So'nggi yillarda u haqda bir qator ilmiy-tarixiy asarlar, badiiy romanlar, filmlar va sahna asarlari yaratilgan. Bugun esa uning merosi kitoblarda, filmlarda, haykallarda va yosh avlod qalbida yashamoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Avvalo To'maris ismining kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak. Ma'lumki, mustamlaka davrida (XIX asrning 60-yillari – 1991) o'zbek tarixshunosligi asosan rus tarixshunosligi maktabiga, jumladan, hukmron tildagi mavzuli adabiyotlarga suyanib, shu tilda ish yuritgan. Shu sababdan biz ko'rayotgan mavzu uchun ham manba sifatida miloddan avvalgi yunon tarixchilarining asarlarining rus tilidagi tarjimasi xizmat qilgan.

Qisqacha aytganda, yunonchadagi Tomiris ruschada Tomiris, ruschadagi Tomiris esa o'zbekchada To'marisga aylangan.

Shu yerda bir mantiqiy savol tug'iladi: Tomiris aslida qanday yaralgan?

Shubha yo'qki, Tomir (Tomir) shaklida.

Qadim zamonlarda yurtimizda mavjud tarixiy-madaniy voqeliklardan kelib chiqqan holda, kurashni, qarshilik va ozodlik bayrog'ini baland ko'targan malikani Tomir xotin deb atash maqsadga muvofiq bo'lgan. [1. – B. 5-6.].

Hammamiz bilgan va yoshligimizdan To'marisning jasorati haqida eshitib kelgan voqea aslida qanday bo'lgan edi? Hammasi Siparangizning dushman qo'liga tushib qolishidan boshlandi.

Xullas, dushmanning nayrangiga uchib, hushyorlikni qo'ldan bergan Siparangiz o'zining kishan solib, qo'llarini orqalariga bog'lab Kayxisravningro'parasiga turg'izib qo'yishdi. Shoh istehzoli iljayib, asirlarni ko'zdan kechirdi.

- Ha, qo'lga tushdingmi? - dedi u Siparangizga bosh irg'ab. - Holing shu-ku, men bilan jang-jadal qilmoqchimiding, ona suti og'zidan ketmagan tirmizak!

Tiriklayin qo'lga tushmaslik uchun dushman bilan toza olishib, u yer-bu yeri tirnalgan yosh sardorning mastligi tarqab, hushyor tortib qolgan edi. U boshini viqor bilan ko'tarib, shahanshohga nafrat ko'zi bilan qaradi-da:

- Ha, sen bilan jang-jadal qilmoqchi edim, ammo bu baxt menga muyassar bo'lmadi, - dedi. Sen ochiq yerda rasmana jang qilishdan qo'rqib, hiyla-makr bilan bizni qo'lga tushirding. Afsuski, yoshlik qilib, qilich dastasini ushlagan qo'limga manfur sharob kosasini oldim va tuzoqqa ilindim. Agar sen nomardlardek...

Shohni haqorat qilishga o'tgan Siparangizning tovushinio'chirish uchun askarboshilardan biri:

- Bas qil, ahmoq! - deb uning yuziga qo'lidagi piyoladan suv sepib yubordi. Yigit bexosdan seskanib ketgan edi, uning gaplari naryoq-beryog'idan o'tib ketgan Kayxisrav kulib yubordi, yonidagi a'yon va sarkardalar ham shohlariga taassub qilib, ko'zlaridan yosh chiqquncha xaxolab kulishdi.

- Kuling-a, kuling, - dedi Siparangiz ularga jirkanib qarab, - ko'p o'tmay yig'laysiz, qon yig'laysiz. Hiyla va makrlaringiz endi ish bermaydi, arslon terisini yopingan tulkilar.,,

Haligi askarboshi uni gapirtirmaslik uchun yuziga suvsepib yubordi. Kayxisrav bu safar zo'rma-zo'raki iljayib qo'ydi, yon-beridagilar hoholab kulishga jur'at etmay, tirjayib qo'yishdi.

- Biz qahr-g'azab qilishni ham bilamiz, lutf-u karam qilishni ham, - dedi Eron shohi Siparangizga qarab. - Xususan, biz sen kabi bolalarga shafqatlimiz. Ehtimol, onangni sog'ingandirsan, istasang, seni qo'yib yuboramiz.

Siparangiz zaharga aylangan tupugini qult etib yutib o'yladi: «Qo'shinimizning uchdan birini men nobud qildim. Safdoshlarimning qirilib ketishiga men sababchi bo'idim. Agar endi bo'shatib yuborsalar ham o'z elatimga qaytib ketmayman. Onamning oldiga qaysi yuz bilan boraman?»

- Qo'limni yechib qo'yinglar, - deb iltimos qildi u.

Kayxisrav bir mulozimiga ishora qilgan edi, u yugurib borib yigitning qo'lini yechdi-da, o'z joyiga borib turdi. Shu on Siparangiz qo'ynidan kichkinagina yaltiroq pichoq olib. o'zining ko'ksiga sanchdi-yu, mukka tushib jon taslim qildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Siparangiz va uning safdoshlari halok bo'lganligi to'g'risidagi xabar To'marisning va barcha ayollarning yuraklarini o'qdek teshib o'tdi. Ruhiiy azobning zo'rligidan ularning ko'zlariga yosh ham kelmay qoldi. Birmuncha vaqtdan keyin soyabon aravalarning ichidan xotirlarning dod-faryodi eshitila boshladi. Xususan, Siparangizning qaylig'i sochlarini yulib yig'lab, hammaning yurak-bag'rini ezib yubordi, ammo To'maris qayg'usining zo'ridan yig'lay olmasdi. U esi og'ib qolgandek bir nuqtaga tikilganicha qotgan, lablari birnima deb pichirlar edi.

O'sha kuniyoq To'maris, urushga yaramaydiganlar panaroq joyga yuborilsin, deb buyruq berdi, keyin otlarining jilovidan ushlab saf tortib turgan erkak va ayollarning qurol yarog'dan, ust-boshlari,

oyoq kiyimlarini ko'zdan kechirdi. Ularning puxtaligiga qanoat hosil qilgandan keyin bir arg'umoqni qurbonlikka so'ydirib, Quyosh tangrisiga iltijo qilish uchun bir tepalik ustiga chiqdi, belidagi oltin kamariga osilgan qilichi va qalqonini yerga qo'yib, massagetlar nazdida xudolarning xudosi bodgan Mitraga sig'ina boshladi:

- Ey, butun mavjudotni - yer-u ko'kni, suv va o'tni yaratgan Quyosh tangrisi! Sen ko'zingni ochsang - olam nurga to'ladi, ko'zingni yumsang - yer yuzini qorong'ilik lashkari bosadi. Odamlarga o't bergan ham sen, daryolarni toshirgan, ekinzor va o'tloqlarga suv bergan ham sen! Qo'y va kiyiklarni ko'paytirgan, don-dunga baraka bergan ham sen! Ey, ulug' Quyosh tangrisi, bizni eroniy'larga xor qilma, dilimizga g'ayrat, bilagimizga quvvat ato qil, yuragimizga o'ch olovini sol! Qilichimizni o'tkir qil, toki, yurtimizni oyoq osti qilgan makkor dushmani tor-mor aylab, qullik balosidan xalos bo'laylik!

U najot so'rab Mitraga yolvorarkan, ko'zlaridan duvullab yosh oqib ketdi. Bir lahza yerga qarab turdi-da, o'zini tutib olgandan so'ng qilich-qalqonini taqib olib, pastga tushdi, o'ynoqlab turgan oq otiga minib, qurollangan xalqqa murojaat qildi. Yurtning boshiga tushgan falokat to'g'risida gapirib, so'zining oxirida shunday dedi:

- Opa-singillar, aka-ukalar, qasrga ketayotganingizni hammangiz bilasiz. Shu ketganimizcha yo hammamiz bitta qolguncha qirilib, o'z qonimiz bilan sha'nimizga tushgan dog'ni yuvib tashlaymiz yoki dushmani qirib yuborib, g'alaba bilan qaytamiz. Ishonaman: oramizda Eron shohi oldida tiz cho'kadigan nomard yo'q. Biz albatta yengamiz! Shafqatsizlikni bizlardan ko'rsin Eron shohi!

**Tahlil va natijalar.** O'z yerlarini yovdan tozalash va o'ch olish ishtiyoqi bilan yongan massagetlar jonbozlik ko'rsatib yov bilan mardlarcha olishishdi, nihoyat, zafar ularga yor bo'lib, dushmani orqaga sura boshlashdi. [2. – B. 16-21.].

To'maris qahrga mindi. U hali Kir bilan yakkama-yakka jangga kirishmay turib, qilichini bir sermagan edi, Kirning boshi qumga dumalab ketdi. Ustidagi egasining kallasi sapchaday dumalab ketganini sezgan ot qochmadi, kallani tepib-tepib, kishnab-kishnab aylanaverdi. To'maris va uning askarlari Kir kallasini qilichga ilib, asirga tushgan askarlarni haydab, jang maydoni tomon ot surdilar. Jang bo'lgan joyda dumalab, ayqash-uyqash bo'lib yotgan massagetlar-u forslarning murdalaridan yer ko'rinmasdi. Odamlar qoni misoli suv kabi oqib yotardi. To'maris shu paytgacha qanchadan-qancha janglarda ishtirok etmasin, hali bunaqasini ko'rmagan edi.

– Massagetlar, menga xum olib keling! – dedi u. Askarlar suv solinadigan katta xumni keltirishdi.

– Buning ichini oqib yotgan qon bilan to'ldiringlar.

Mana, bu – forslarning ulug' podshohi Kirning kallasi, – dedi To'maris qahr bilan qilichining uchidagi boshni ko'tarib, atrofdagilarga ko'z-ko'zldi. – Tirikligida qancha qon to'kdi, qanchadan-qancha begunoh insonlarning, go'daklarning qoniga qoldi, qarg'ishini eshitdi, ammo bu kalla hech qonga to'yimadi! Endi sening qonxo'r kallangni qonga men to'ydiraman, ey mal'un!

Shunday deb, u Kirning kallasini qon to'la xumga tiqib yubordi.

– Ey Kun tangrim! Xato ish qilgan bo'lsam meni kechir! Jonini ayamay vatan uchun kurashgan yurtdoshlarim haqi, o'n gulidan bir guli ochilmay ketgan farzandlarimning begunoh joni haqi, kechir meni! Men yozilajak tarixlarda Kir To'maris podshoh tomonidan o'ldirildi, deb emas, balki Kirning boshi tanasidan judo qilinib, qon to'la xumga solindi, deb yozilishini istayman! Kotiblar, donishmandlar, ko'zi ochiq bashoratchilar, el kezgan savdogar-u tujjorlar, qalandarlar-u sayyohlar, dunyoning to'rt burchagiga shu xabarni yetkazingki, bu muqaddas zaminni egallayman deb kelgan har qanday bosqinchining holi ana shunday bo'lajak! Kotiblar, qon to'la xumga tiqilgan kalla haqida albatta yozinglarki, Kun tangrining farzandlari yovuz niyat bilan kelgan dushmandan ana shunday o'ch olajak! Kelajak avlodlar Kirning qanday o'lim topganini yodda saqlasinlar. Massagetlarning avlodlari ota-bobolariga munosib bo'lib yashasinlar. Kun tangrim, men ayol sifatida farzandlarimning qoni to'kilmasligini qancha o'ylasam ham, buning uddasidan chiqa olmadim. Shu zamin uchun qurbon bo'lgan zurriyotlar haqqi-hurmati, meni kechir! Massagetlar, endi o'z'laringga podsho saylab olinglar. Men podsho bo'lib, yurt so'rayolmas ekanman. Lekin endi ayollardan podsho saylamang, bunday qayg'uni faqat erkak odamgina ko'tara olishi mumkin ekan. Men... men adoyi tamom bo'ldim! – dedi-yu, To'maris shilq etib yiqildi.

Uni o'g'lining o'limi, vatan uchun qurbon bo'lgan yigitlarning o'limi ado qilgan edi. Farzand qayg'usi yoshi qirqqa yetib-yetmagan ayolni gulday to'kkan edi. Yolg'iz farzandidan judolik hissi uni hamma narsadan, hatto yashash istagidan ham mahrum qilgan edi.

Massagetlar o'zlarining ayol podshohini mangu xotirlab yashashga qasam ichdilar. Ular vatan ozodligini saqlab qololgan, xalqim deb, yurtim deb, jon ayamay kurashganlarni ana shunday ulug' hurmat-izzat bilan yodlab yurajaklar. [3. – B. 27.].

**Xulosa va takliflar.** Bugungi kunda bu jasur ayol xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan ko'plab ishlar qilinmoqda. So'zimizning isboti o'laroq u haqida tarixiy kinolar suratga olindi. Jumladan, To'maris (qozoqcha: Tomiris) — 2019-yilda rejissyor Akan Satayev tomonidan suratga olingan Qozog'iston badiiy filmi bo'lib, unda massagetlar malikasi To'maris va Ahamoniylar davlati sultoni Kir II Buyuk haqida hikoya qilinadi. Filmda bosh rollarni Almira Tursyn, Aizhan Lighg va G'asson Mas'ud kabi aktyorlar ijro etgan.

Film Qozog'iston Madaniyat va sport ishlari vazirligi buyurtmasi asosida suratga olingan. To'maris haqida film yaratish g'oyasi Qozog'istonning birinchi prezidenti Nursulton Nazarboyevning kenja qizi Aliya Nazarboyevaga tegishli bo'lib, keyinchalik u filmning bosh prodyuseri sifatida qabul qilingan.

Filmning premyerasi 2019-yil 25-sentabr kuni Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Film tanqidchilar tomonidan turlicha baholarga sazovor bo'ldi va 2020-yil iyul holatiga ko'ra film byujeti \$6,5 millionni tashkil qilgan, lekin \$1,3 million daromad keltirgan. [4. ].

Bundan tashqari To'marisning Qozog'istonig Astana (Nur-Sulton), Germaniyaning Dresden kabi hududlarida ajoyib monumentlari mavjud.

Xulosa qilib aytganimizda bundayin mard va jasur ayol xotirasi yoshlarimiz qalbida mangu olov misol qolajak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азамат Зиё. Узбек аёллари тарих сахнасида. - Тошкент. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашрети, 2002. - 51 б.
2. To'maris: tarixiy qissa/ M. Osim. - Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2018. - 144 b.
3. Sarigul Bahodirova. To'maris: qissa/ Toshkent. 2024. - 45 b.
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/To%CA%BBmaris\\_\(film\)](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/To%CA%BBmaris_(film)).

UO'K 37.014.3:332.1

## IX-X ASRLAR XORAZM ILM – FANI RIVOJIDA SAVDO ALOQALARINING TUTGAN O'RNI

(ISTAXRIY VA MAQDISIY ASARLARI TAHLILI ASOSIDA)

*O.O.Matqurbonov, dots., Ma'mun universiteti, Xiva*

**Annotatsiya.** *Karvon yo'li asrlar davomida o'zi bilan birga mahsulotlar, yangiliklar tashuvchisi bo'libgina qolmay ilm-u ma'rifat tashuvchisi ham hisoblangan. Bu yo'lda joylashgan har bitta shahar va qishloq ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy hayotini savdogarlar orqali tashib kelinadigan yangi-yangi bilimlarsiz tasavvur qila olmagan. Markaziy Osiyo xususan, Xorazm shahar va qishloqlari ham Karvon yo'li orqali madaniyat tashuvchisi va qabul qiluvchisiga aylangan. Bu yo'lda joylashgan har bir hudud boshqalardan yangiliklarga boyligi bilan ajralib turgan va rivojlanishda boshqalardan ancha farq qilgan.*

**Kalit so'zlari:** *Xorazmshohlar tangalari, mahsulotlar almashinuvi, Jardur, kimuxt, Istaxriy,*

**Аннотация.** *Хорезмский оазис с древних времен был частью кочевого мира. Многолетние исследования, проведенные сотрудниками Хорезмской археолого- На протяжении веков караванный путь считался не только средством доставки товаров и новостей, но и носителем знаний и просвещения. Каждый город и деревня, расположенные на этом пути, не могли представить свою социально-экономическую и культурную жизнь без новых знаний, приносимых купцами. Города и деревни Центральной Азии, в частности Хорезм, также стали носителями и получателями культуры по караванному пути. Каждый регион, расположенный на этом пути, отличался богатством нововведений и значительно отличался от других в развитии.*

**Ключевые слова:** Монеты Хорезмшахов, обмен товарами, Джардур, Кимухт, Истахри.

**Abstract.** For centuries, the caravan route has been considered not only a carrier of goods and news, but also a carrier of knowledge and enlightenment. Each city and village located on this route could not imagine its socio-economic and cultural life without new knowledge brought by merchants. The cities and villages of Central Asia, in particular, Khorezm, also became carriers and receivers of culture through the caravan route. Each region located on this route was distinguished by its wealth of innovations and differed significantly from others in development.

**Key words:** Coins of the Khorezmshahs, exchange of goods, Jardur, Kimukht, Istakhri.

**Kirish.** Savdo yo'llari hududlarning iqtisodiy, siyosiy jihatdangina emas, xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar o'rnatishdagi o'rnida ham sezilarli bo'lgan. Buyuk ipak yo'li, bir tomondan, bu hududda savdo-sotiq, davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rnatish imkonini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan, urbanizatsiya jarayonlariga ham juda katta ta'sir ko'rsatgan. IX-X asrlar davomida Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmog'i orqali olib borilgan savdo va diplomatik aloqalar bevosita Xorazm jamiyati rivojiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib, jumladan, aholi uchun zarur bo'lgan xomashyo va mahsulotlar ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondirishga, shaharlar rivoji, mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotiga, yangi hunarmandchilik texnologiyalarini vujudga kelishiga, shuningdek, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan xalqaro savdo aloqalarini yo'lga qo'yishda muhim ahamiyat kasb etganligi yoritilgan.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Xorazm vohasidan uzoq hududlarga jumladan, Skandinaviya yarimoroli, Boltiqbo'yi, Markaziy va Sharqiy Yevropa hududlaridan VIII-X asrlar davomida zarb qilingan Xorazmshohlar tangalarining topilishi, shu paytgacha Xorazm vohasining ham Buyuk ipak yo'li shimoliy tarmog'ida faqat tranzit savdo markazi bo'lganligi haqidagi qarashlarning ilmiy haqiqatga tog'ri kelmasligini isbotlagan. X asrning birinchi yarmida yashagan arab sayyohi, ilohiyot, tarix, geografiyaga oid bilimlarni puxta egallagan olim va yozuvchi Ahmad ibn Fadlan 921-922 yillarda Bulg'or (Volgabo'yi) podshosi iltimosiga binoan (U 921-922 yillarda shu yerda bo'lib, Bag'dod xalifaligi tarkibidagi joyga – Volga-Qrim Bolgariyasiga yo'l oladi. Safardan qaytgach, o'z sayohatlarining batafsil bayonini yozib xalifaga topshiradi) bulg'orlar orasida islomni mustahkamlash, podsholikni Xazar hukmdorlari hujumidan himoya qilish uchun qal'alar qurilishida ko'maklashish uchun xalifa Muqtadir (908-932 yy.)ga elchilik bilan elchi kotib sifatida Bulg'orga kelgan. Ushbu elchilar Bulg'orga Hamadon, Ray, Domg'on, Nishopur, Saraxs, Marv, Poykand, Buxoro, Xorazm, Ustyurt, Yoyiq (O'rol) orqali kelgan[1.301]. Asarning asli bizgacha yetib kelmagan bo'lib, uning ayrim parchalari Yoqut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon" asarida keltiriladi. 1939 yilda akad. I.Yu Krachkovskiy tahriri ostida tarjima qilingan Ibn Fadlan asarining Mashhad qo'lyozmasidan o'rin olgan Volgaga sayohati qismida Xorazm haqida quyidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin: "...Biz Buxorodan chiqib, daryoga qaytib borib Xorazmgacha kema yolladik... Xorazmdan al Jurjoniya tushdik... al Jurjoniya bir qancha kun qoldik. Jayxun daryosi boshidan oxiriga qadar muzlagan. Muzning qalinligi 17 chorak bo'lib, ot, xachir, tuyalar va yuklar uning ustidan yo'ldan o'tgandek o'tadi, muz hatto yorilmadi, shu holatda 3 oy turdi". I.Yu.Krachkovskiyning yozishicha, Ibn Fadlan Xorazm deganda Xorazm janubidagi Kat shahrini nazarda tutganligini[1.301] ta'kidlab o'tadi. Asar mazmunidan shu ma'lum bo'ladiki, sayyoh Xorazmda 3 oy (921 yilning noyabridan 922 yilning fevraliga qadar) bo'lgan. U Xorazmning iqlimi, bu yerda yashaydigan aholining turmush tarzi va xulq-atvori, ularning mashg'ulotlari, urf-odatlar borasida qiziqarli ma'lumotlarni beradi. O'rta asrlar davrida Xorazmning poytaxt shahri hisoblangan Gurganj Buyuk Ipak yo'lining turli tarmoqlarini bir-biri bilan bog'lovchi shahar vazifasini o'tab, O'rta Osiyodagi yirik tranzit hududlardan birini tashkil etgan. Mavzuga oid manbalardan yana biri sayyoh, geograf Istaxriy qalamiga mansub. Ahmad ibn Fadlaning Gurganj sayohati va uning tafsilotlari yozilganidan so'ng 10 yilcha vaqt o'tib, arab mualliflaridan Abu Ishoq Ibrahim al-Istaxriy Abu Zayd al Balxiy tomonidan 919/920 yillarda yozilgan asarini ma'lum darajada o'zining ma'lumotlari bilan to'ldiradi. Uning X asr musulmon dunyosi tavsifiga bag'ishlangan "Kitob al masolik va-l-mamolik" ("Yo'llar va o'lkalar kitobi") asari Markaziy Osiyoning o'rta asrlar tarixiy geografiyasini o'rganishda asosiy manbalardan biri sanaladi. Ushbu tarixiy asardan o'rin olgan Movarounnahr va Xuroson bilan bog'liq qismda

o'rganilayotgan mavzuga tegishli muhim ma'lumotlar saqlanib qolgan. Asardagi Markaziy Osiyo mintaqasi tarixiy geografiyasi bilan bog'liq alohida Xuroson va Movarounnahr hududlariga bag'ishlangan ushbu qismdagi Movarounnahrda berilgan tavsifda bu hududning umumiy chegaralari, shaharlari va aholisining tabiati haqida axborot beriladi. Movarounnahr tuzilishi, daryolari, tog'lari, dengizi, ob-havosi, aholisining fe'l-atvori, kayfiyati, harbiy salohiyati, davlat boshqaruviga ularning o'ziga xos munosabati, tijorat vositalari va etnografiyasiga oid qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Natijalar va muhokamalar.** Umuman, X asrda Xorazmning iqtisodiy jihatdan gurrkirab rivojlanishi arab manbalarida ancha yaxshi ko'rsatilgan. Xorazmlik savdogarlar qadimgi zamonlardagidek bu davrga kelib hozirgi Turkmaniston va G'arbiy Qozog'iston dashtlarida yashagan ko'chmanchilar bilan, shuningdek Volgabo'yi — Hazoriya, Bulg'oriya, Rus yerlari, Sharqiy Yevropa bilan faol savdo-sotiq olib borganlar va bu savdodan Xorazm mamlakati yildan-yilga boyib borgan. Istaxriy X asrdayoq bu borada shunday deb yozadi: «Xorazm - hosildor, oziq-ovqati va mevalari ko'p shahar, faqat yong'og'i yo'q, bu yerda paxta va jundan ko'p narsalar tayyorlanadi hamda bu narsalar uzoq-uzoq joylarga eltiladi. Aholining ajralib turadigan xususiyati boyligi va mardlik ko'rsatishga intilishidadir. Ular Xurosonning butun aholisiga nisbatan tarqoqdirlar va hammadan ko'proq sayohat qiladilar. Xurosonning birorta katta shahri yo'qki, unda ko'plab Xorazm aholisi yashamasin, ularning mamlakatida oltin yo'q, kumush konlari kam, qimmatbaho idishlar to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas, boylukning katta qismini turklar bilan savdodan va mol boqib ko'paytirishdan topadilar. Qo'shni turk qullari bilan bir qatorda slavyan va Hazor qullarining katta qismi, dasht tulkisi, sobol, tulki, qunduz mo'ynasining katta qismi ularning qo'liga tushadi. Muallif "Xorazm va Xuttalni Movarounnahrda joylashtirdik. Xuttal – Jaryob va Vaxshob daryolari oralig'idadir. Vaxshob Jayhun daryosining o'zani, ortidagi yerlar Movarounnahrda tegishlidir. Xorazm shahri daryo ortida, Xurosondan ko'ra Movarounnahr shaharlariga yaqinroq"[2.140] ligini yozadi. Asarda keltirilishicha, "Xorazm – iqlim nomidir. Uni Xuroson va Movarounnahrda alohida iqlim, barcha tomonidan cho'llar o'rab turadi. Shimol va g'arb tarafidan g'uziya; janubi va sharqi Xuroson va Movarounnahr bilan tutashgan, Jayhun daryosining etagida. Daryo sohilida undan keyin Xorazm dengizigacha imoratlar yo'q, Jayhunning ikki tomonida joylashgan. Shahri Jayhunning shimoliy tomonida, janubida Jurjoniya deb ataladigan katta shahri bor. Xorazmda bosh kentdan keyingi katta shahar. U g'uzlar bilan tijorat qiladigan joydir. Undan karvonlar Jurjon, Xazar va Xurosonga jo'naydi. ... Xorazmning bosh kentidan boshqa shaharlari: Darg'an, Hazorasb, Xiva, Xushmisan, Ardaxushmisan, Safardiz, Nuzvar, Kardaranxash, Kurdar, Qariya Baratkin, Mazminiya, Mardajqan va Jurjoniya. Uning bosh shahri xorazm tilida Kat deyiladi. ... Jardur arig'i shaharni kesib o'tadi, uzunligi 3 farsaxcha bor, ikki tomoni bozor"[2.143] bo'lgan. Muallif Xorazmda "o'zga yurtlarga chiqariladigan paxta va yungli matolar ko'plab tayyorlanadi... Aholisi "Xuroson aholisidan ko'proq tarqalgan va safar qilgan kishilardir. ... O'lkalarida oltin, kumush va boshqa qazilma ma'danlari yo'q. Barcha boyluklari turklar bilan tijorati va chorvachilik samarasidir. Ularga saqoliba, xazar va doimiy tarzda turklardan qullar, tulki, suvsar, qunduz kabi hayvonlar mo'ynalari keltiriladi. Bular Jayhunda mavjud doiralardir"[2.145], deb yozadi.

Xorazmning Sharqiy Yevropa o'rtasidagi savdo aloqalari xususida yozar ekan, bu savdo aloqalarida alohida ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Uning yozishicha, "Qo'shni turk qullari bilan bir qatorda, slavyan va xazar qullarining katta qismi, dasht tulkisi, sobol, tulki, qunduz mo'ynasining katta qismi ham ularning (xorazmliklarning) qo'liga tushib turgan" "[3.178-180]. O'rta asrlar davrida Xorazmning poytaxt shahri hisoblangan Gurganj Buyuk Ipak yo'lining turli tarmoqlarini bir-biri bilan bog'lovchi shahar vazifasini o'tab, O'rta Osiyodagi yirik tranzit hududlaridan birini tashkil etgan. Ushbu shahar to'g'risida Istaxriy quyidagilarni yozadi: "Xorazmdagi eng katta shahar, u o'g'uzlar bilan savdo-sotiqda alohida o'rin tutadi. Bu yerdan Jarqo'tonga va Xuroson hamda xazarlarga karvonlar yuborilgan" "[2.143]. Muallif asarda Movarounnahrning turli hududlaridan chetga olib ketiladigan va Xorazmning o'ziga keltiriladigan mahsulot va tovarlar ro'yxatini keltirib o'tadi. Uning yozishicha, Xorazmdan chetga olib ketiladigan 42 ta nomdagi tovarlar orasida 20 dan ortig'i Volga Bolgariyasidan keltirilgan"[3.202]. Ushbu ro'yxatga ko'ra, Xorazmdan sobol, kulrang olmaxon, oqsichqon, dasht tulkisi, suvsar, tulki, qunduz, bo'yalgan quyon, echki, mum, kamon o'qi, oq terak po'stlog'i, uchlik qalpoqlar, baliq yelimi va baliq

tishi chiqarilgan; qunduz terisi, kanakunjut moyi, anbar, kimuxt (oshlangan ot terisi), asal, o'rmon yong'og'i, lochinlar, qilich, sovutlar, qayin (xalanj) daraxtining ildizi, slavyan qullari, qo'y va sigirlar – bularning hammasi bulg'orlardan kelib turgan. 30 dan ortiq tovarlar Xorazm orqali Sharqiy Yevropa, Bulg'oriyadan keltirilib, Sharq mamlakatlarida sotilgan. "Qilich, xanjar, sovut, mis" ham Volga Bulgoriyasidan Xorazm orqali keltirilib, sharq mamlakatlariga eksport qilingan"[3.209]. Muallifning ushbu ma'lumotlaridan xulosa qilish mumkinki, bu davrdagi savdo-iqtisodiy munosabatlarida metall buyumlar muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sharqshunos olim A.Yu.Yakubovskiyning yozishicha, X asrda Itil shahri Volganing bir irmog'i bo'yida yastangan, ikki qismdan iborat katta savdo shahri bo'lgan. G'arbiy qismi Etil deb atalgan va u davlatning ma'muriy markazi hisoblangan. Sharqiy qismi Xazoriya deb atalib, u asosiy savdo markazlaridan biri bo'lgan. Tarixiy manbalarning ko'rsatishicha, hazarlar davlatida va uning poytaxti Itil shahrida xorazmliklar katta obro'-e'tiborga ega bo'lganlar. Volgabo'yi xalqlari bilan aloqalar har tomonlama rivojlanishi natijasida Xazar podshohligining poytaxti maxsus devor bilan o'ralgan Itil shahrida yigirma besh ming kishidan iborat xorazmliklar istiqomat qilgan. U yerda xorazmliklar xizmatida 30 ta masjid bo'lgan. Shunisi alohida e'tiborga loyiqki, xorazmliklar Xazar podshohligida o'z ta'sirini o'rnatishga muvaffaq bo'lganlar. Ibn Xavkalning ko'rsatishicha, Xazar podshohining 12 ming kishilik gvardiyasi xorazmliklardan iborat bo'lgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, Xorazm shaharlari, savdo-sotig'i, import va eksport mahsulotlari qo'shni xalqlarni doimo qiziqtirib kelgan. Xorazmlik insonlar o'z bilimi, iste'dodi va tadbirkorligi bilan ajralib turgan va savdogarlar Ipak yo'lida yangi savdo mahsulotlari bilan birgalikda yangi bilim, tajriba va yangiliklar tashuvchisiga aylangan. Bu asrlar davomida xorazmlik savdogarlarning jahon savdo bozoridagi o'z o'rni va mavqeyini yuksalib borishi uchun poydevor bo'lib xizmat qilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбаларда. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – Б.301.
2. Истахрий. كتاب المسالك والممالك (Китаб ал-масалик вал-мамалик) (Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т. Худайбергенов) / масбул муҳаррир т.ф.д., проф., акад. Д.Ю. Юсупова). -Тошкент: Фан, 2019. – Б.140.
3. Извлечения из "Китаб месалик ал-мемалик" ал-Истахри. Перевод С. Волина. // Материалы по истории туркмен и Туркмении (МИТТ). Т.1. – М.–Л., Изд-Во АН СССР, 1939. – С.178-180.
4. Извлечения из "Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим" ал-Макдиси. Перевод С. Волина. //МИТТ. Т.1. -М. -Л., 1939. – С. 202-203, 206-209.

UO'K 378.147.11(575.1)

### FARG'ONA VILOYATIDA NODAVLAT TA'LIM MUASSASALARI-XUSUSIY MAKTABLARNING RIVOJLANISHI IBN SINO XUSUSIY MAKTABI FAOLIYATI MISOLIDA

*S.G'.Nigmatova, tayanch doktorant, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

**Annontatsiya.** Ushbu maqolada Ibn Sino xususiy maktabining o'zbek va rus sinf o'quvchilarini kimyo, biologiya, majburiy fanlar bo'yicha milliy sertifikatlarga, tibbiyot yo'nalishidagi oliygohlarning kirish imtihonlariga tayyorlash hamda, o'quvchilarni tayyorlashdagi ta'lim tizimi, dars berish samaradorligi va xususiy maktabning rivojlanish faoliyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi xususiy maktabning faoliyati tarixi, ta'lim tizimiga kirib kelish davrini yoritib berish, abituriyentlar bilan ishlashda o'z yo'nalishiga ega bo'lgan ta'lim dasturini ommalashtirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Ibn Sino, kimyo, biologiya, majburiy fanlardan sertifikatlar olish, guruhlarni taqsimlanishi, o'quv markaz, xususiy maktab faoliyati, mahalliy va xalqaro olimpiadalar, oliy ta'lim muassasalari kirish imtihoni, Ibn Sino bog'lari, xususiy agro texnikum, biolaboratoriya, xususiy universitet.

**Аннотация.** В данной статье анализируется подготовка узбеко- и русскоязычных учащихся частной школы имени Ибн Сины к получению национальных сертификатов по химии, биологии, обязательным предметам и вступительным экзаменам в медицинские вузы, а также образовательная система подготовки учащихся, эффективность обучения и деятельность по развитию частной школы. Основная цель исследования – осветить историю

деятельности частной школы, период её вхождения в систему образования, а также популяризировать образовательную программу, имеющую собственное направление в работе с абитуриентами.

**Ключевые слова:** *Ибн Сина, химия, биология, получение сертификатов по обязательным предметам, групповое распределение, учебный центр, деятельность частной школы, местные и международные олимпиады, вступительные экзамены в вузы, сады Ибн Сины, частный сельскохозяйственный техникум, биологическая лаборатория, частный университет.*

**Abstract.** *This article analyzes the preparation of Uzbek and Russian-speaking students of the Ibn Sina private school for national certificates in chemistry, biology, compulsory subjects, and entrance exams to medical universities, as well as the educational system in preparing students, the effectiveness of teaching, and the development activities of the private school. The main purpose of the study is to shed light on the history of the private school's activities, the period of its entry into the education system, and to popularize the educational program that has its own direction in working with applicants*

**Key words:** *Ibn Sina, chemistry, biology, obtaining certificates in compulsory subjects, group distribution, study center, private school activities, local and international olympiads, entrance exams to universities, Ibn Sina Gardens, private agricultural technology, biology lab, private university*

**Kirish.** Jahon miqiyosida globallashuv jarayonlari kuchayib borayotgan hozirgi kunda sifatli va samarali ta'lim tizimini saqlab qolish, uni rivojlantirish eng asosiy vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim tizimida nodavlat ta'lim tizimi faoliyati, shakllanishi va rivojlanishida, jamiyatni ilm salohiyatli bo'lishida xususiy sektorning o'rni va ta'limdagi o'ziga xos bo'lgan yondashuvi bilan iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni maqsadli tayyorlashga keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tibbiyot, farmasevtika, neft-gaz, kimyo va oziq-ovqat sanoati kabi strategik sohalarni rivojlantirish uchun kimyo va biologiya fanlariga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada kuchaydi. Ushbu fanlar bo'yicha uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

2016-2017-yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasi tubdan isloh qilinib, tizimda keng miqiyosda o'zgarishlar amalga oshirildi. Nodavlat ta'lim muassasalar tizimi va faoliyatini rivojlantirish bo'yicha huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan salohiyatli yoshlarni yetkazib berishda xususiy sektorlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ushbu tadqiqot ishida asosan tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni o'rganish, umumlashtirish va taqqoslash, pedagogik kuzatuv kabi ilmiy metodlardan foydalanildi. Shuningdek, hozirgi kunda xususiy maktabda faoliyat yuritayotgan ishchi-xodimlar bilan suhbat jarayonlari o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [1:2]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori [2:1]. 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-sonli O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni[3:2]. Ushbu huquqiy hujjatlar nodavlat ta'lim muassasalarining rivojlanishi, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo'lib, davlat dasturlari, huquqiy-me'yoriy-huquqiy asos sifatida o'rganildi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi.

**Tahlil va muhokama.** O'zbekistonda 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi va nodavlat ta'lim tizimi faoliyati, muassasalari, ularni litsenziyalash, zamonaviy bilim berish imkoniyatlariga ega bo'lgan xususiy sektorlarni rivojlanishiga shart-sharoitlar va imkoniyatlar belgilab berildi.

Oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari 1992-yildan tajriba asosida, 1993-yildan boshlab test orqali saralab olish joriy qilingandan keyin Respublika bo'ylab o'qituvchi pedagoglarga ehtiyoj ham, talab ham ortdi[4:55]. Farg'ona vodiysida aholi zich bo'lganligi bois bu ehtiyoj boshqa viloyatlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori edi[5:153]. Oliy o'quv yurtlari kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida abituriyentlarda qo'shimcha pullik dars mashg'ulotlariga bo'lgan talab ham ortdi.

Natijada yakkatartib asosida repititorlik xizmatlari tashkil qilindi[6:21]. Ayniqsa, kimyo fanining masalalarini ishlash uslublarini, fanning o'zini o'rgatishda yakkatartibda ishlash va chiqmagan masalalarni qaytadan ko'rib chiqish orqali o'zlashtirish masalasi ushbu fan kesimida o'quv markazlarda qo'shimcha darslar tashkillanishi natijasida nodavlat ta'lim muassasalar faoliyatiga nisbatan ota-onalarda qiziqish uyg'otdi[7:27]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori chiqqanidan so'ng o'quv markazlar soni ortib, davlat imtihonlariga tayyorgarlik ko'rish imkoniyatlari yanada kengaydi[8:2].

"Ibn Sino" xususiy maktabi Farg'ona viloyati Rishton tumanining markazida Q.Qosimov rahbarligida ochilgan. Ibn Sino deb nomlanishiga sabab, maktab asosan tibbiyot yo'nalishiga ixtisoslashgan bo'lib, o'quvchilarni shu yo'nalish bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga tayyorlashidan iboratdir.

Q.Qosimov 1995-1996-yillarda repititorlik faoliyati bilan, 1996-yildan boshlab esa tayyorlov mutaxassislik yo'nalishi kimyo, biologiya va ona tili fanlari bo'yicha o'quv markaz sifatida faoliyatini olib boradi. 1997-yildan o'quvchilar va abituriyentlar soni oshib, hozirgi "Ibn Sino" xususiy maktabi joylashgan binoni ijara shartnoma asosida o'quv markaz sifatida faoliyatini kengaytiradi. 1997-2019-yillar davomida o'quv markazdagi o'quvchilar soni yuz nafardan yetti yuz nafarga oshadi. 2016-2017-yillarda ta'lim sohasida ham tub islohotlar davri bo'lib, nodavlat ta'lim tizimi va muassasalarga keng imkoniyatlar berildi. O'quv markaz binosi sotib olinib, zamonaviy maktab uchun ta'mirlanib, qayta qurish ishlari olib borildi. 2018-yili xususiy maktab ochish uchun litsenziyaga ruxsatnoma olingandan so'ng, 2019-yilda maktab ochildi[9].

Maktab ochilgan yili o'qituvchilar soni o'n ikki nafar bo'lib, hozirgi kunda yigirma besh nafarni tashkil qiladi. O'quvchilar esa 260 nafar bo'lgan. Hozirgi kunda 1239 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda[10:3].

Maktab ochilganiga bir yil bo'lganda, yani 2019/2020-o'quv yilida maktab bitiruvchilarining tibbiyot institutlariga kirish imtihoblaridan 95-98 foizlik ko'rsatgichlar bilan muvaffaqiyatli o'tishgan[11].

O'quvchilarning darslardagi davomidini to'liq ta'minlash, o'zlashtirishi va dars-mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishligini nazorat qilish maqsadida nazorat-monitoring ishchi guruhi tuzilgan. Kimyo biologiya fanlarini o'zlashtirishda o'quvchidan o'ziga yarasha kuch, mehnat va ziyraklikni talab qilganligi bois xususiy maktab o'quv jarayonida vaqt taqsimoti to'g'ri taqsimlangan. Natijada ularda ortqicha yuklama yoki bosim bo'lmaydi. Nafaqat o'quvchilarda, balki o'qituvchilarda ham ortiqcha bosim, yuklama deyarli yo'q, boisi pedagog o'ziga ma'qbul bo'lgan va natijaviylikda sinalgan metodikalarni qo'llab dars mashg'ulotlarini amalga oshiradi. 7-8-sinflar uchun kimyo fanidan to'rtta o'qituvchi birlashtirilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga birlashtirilgan vazifani amalga oshiradi. Yani leksiya o'qib beruvchi, amaliyot-masala ishlash bo'yicha, masalasi chiqmagan o'quvchilar bilan ishlovchi va savol-javob qilib so'rab oluvchi o'qituvchilar birlashtiriladi. Berilgan bilimlarni tekshirib olish maqsadida, kunlik, haftalik imtihonlar tashkil qilinadi. Guruhlar taqsimoti quyidagicha belgilanadi:

-“A”- tezlantirilgan, kuchli guruh bo'lib, ularga ikkita o'qituvchi birlashtirilgan bo'lib, asosiy darslardagi o'tiladigan mavzular bilan ishlovchi ustoz, ikkinchisi esa qo'shimcha darslarda savol-javob va masalar yechish usullarini tushuntirib beruvchi ustozlar mashg'ulotlarni olib borishadi. sertifikat olishda va olimpiadalarda o'rin olishda 90-95 foizlik natija ko'rsata oladigan guruh;

-“B” -odatiy guruh bo'lib, bu guruhga uchta o'qituvchi birlashtiriladi. Asosiy darslar uchun, mavzu yoki masalalarni tushunmagan o'quvchilarga qaytadan tushuntirib beruvchi va savol-javob qiluvchi ustozlar birlashtiriladi;

-“C”-sekinlashtirilgan guruh bo'lib, o'zlashtirishda sekin-astalik bilan qabul qiluvchi yoki qayta topshirishga qolgan o'quvchilar olinadi. Bu guruhga to'rtta o'qituvchi ajratilib, mavzular uchun, savol-javob uchun, masalalar ishlashda va mavzuni tushunmagan o'quvchilar uchun qaytadan tushuntirib beruvchi guruhlariga ajratiladi. Guruhlar kesimida o'quvchilarning o'zlashtirishiga, kunlik, haftalik natijalariga qarab A, B, C guruhlariga o'tkaziladi[12].

Bunday samaradorlikka erishishda sog'lom raqobat asosida sifatli ta'lim berish va ta'lim metodikasi, tajribasi yuqori bo'lgan pedagoglarning roli muhim. O'quvchilarining sertifikat ballarini olishlariga, fan olimpiadalarida Respublika va xalqaro miqiyosda o'rin egallashlariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, tibbiyot yo'nalishidagilarning kirish imtihonidagi natijalariga ko'ra oylik maoshlari, qo'shimcha rag'bat pullari belgilanadi.

Sog'lom raqobat tizimini shakllantirish orqali, o'quvchilarning qiziqishlarini oshirib, murakkab fanlarni o'zlashtirishda har tamonlama maktab rahbariyati tomonidan, asosiy va qo'shimcha darslarga muntazam qatnashgan, darsga kechikmagan tarbiya va intizom jihatdan qoniqarli bo'lgan o'quvchilarga nazorat-monitoring ishchi guruhi tomonidan rag'batnomalar berish orqali o'quvchilarga motivatsiyalar berib boriladi[13].

**Xulosa** qilib aytganda, zamonaviy ta'lim tizimida o'quv markazlari va xususiy maktablar davlat ta'lim dasturlaridan tashqari, o'quvchilarga yakkatartibdagi yondashuv, zamonaviy metodikalar va qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi [14:47].

Kelajakda bu kabi ta'lim dargohlarining yanada rivojlanishi, ularning o'zaro tajriba almashinuvi va sog'lom raqobat muhitining shakllanishi mamlakat ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir. Shu bilan birga, ushbu muassasalar faoliyatining shaffofligi va jamoatchilik oldidagi hisobdorligini ta'minlash ham muhim ahamiyatga ega [15:3].

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. 2017-yil 15-sentabrdagi PQ-3276-son "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori. lex.uz.https://lex.uz.doc.4664567
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori // Халқ сўзи. 2017 йил 18-сентябрь
3. 1. Oliy Majlisning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 1992-yil 2-iyul. lex.uz.https://lex.uz.doc.
4. Hatamov T. O'zbekistonda ta'lim tarixi. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – 162 b.
5. Абдуллаев Ў. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқ ва муаммолар (1991–2018 йй.). Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. авторефер. – Қарши, 2021. – 55 б.;
6. Шарипова Н. Фарғона водийси ўқитувчиларининг кундалик ҳаёти (1966–1991 йиллар). Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) дисс. – Андижон, 2022. – 153 б.
7. O'ktamova F. Ta'lim muassasalarida qulay sharoit va imkoniyatlar –“Farg'ona haqiqati”, 2015. – №78.
8. G'ofurov A.T, Ahmedov M.A Kimyo o'qitish metodikasi.-Toshkent: O'qituvchi, 2012-Ixtisoslashtirilgan sinflarda kmiyo fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari, masala yechishga o'rgatish usullari – 2012. 27-b
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasidaagi faoliyatni litsenziyalash tartibini takomillashtirish to'g'risida" gi Qarori-2018-yil 27 mart, №241
10. "Ibn Sino" xususiy maktabi yillik hisobotlari
11. Dehqonov A. -"Ibn Sino" xususiy maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Rishton tumani Oq tom mfy Konstitutsiya ko'chasi 12-uyda istiqomat qiladi.
12. Qosimov Q. – "Ibn Sino" xususiy maktabi direktori.Rishton tumani Yoshlik mfy M.Qosimov ko'chasi 25-uyda istiqomat qiladi.
13. Ходжаев Б., Қодиров Д. Ўзбекистонда нодавлат олий таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш масалалари // Иқтисод ва молия. – 2020. - №3. - Б. 45-52.
14. Bobojonov A. Muallimlar mahorati. – “Farg'ona haqiqati”. 2024. – №40. 3-b

UDC 94(091)

### THE ROLE OF HISTORICAL MEMORY IN THE FORMATION OF HEROIC EPICS

*B.Y.Pulatov, Associate professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages, Samarkand*

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot tarixiy xotiraning qahramonlik dostonlarini shakllantirishdagi rolini o'rganadi, qadimgi ingliz eposi Beowulf va o'zbek og'zaki eposi Alpamishga e'tibor qaratadi. Qiyosiy tahlil orqali o'tmishdagi voqealar, madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ideallarning jamoaviy xotiralari ushbu asarlarning hikoya tuzilishiga, qahramonlik arxetiplariga va tematik elementlariga qanday ta'sir qilishini o'rganadi. Topilmalar tarixiy xotira milliy o'ziga xoslikni, axloqiy ta'limotlarni va ajdodlar ishlarining talqinini saqlab qolish mexanizmi bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi. Tahlil ko'chmanchi va feodal sharoitlariga asoslangan madaniy farqlarni qayd etish bilan birga, jasorat, sadoqat va matonat mavzularidagi o'xshashliklarni ta'kidlaydi. Ushbu tadqiqot dostonlarning madaniy uzluksizlikdagi rolini ta'kidlaydi va madaniyatlararo adabiy an'analar haqida tushunchalar beradi.

**Kalit so'zlar:** *Qahramonlik dostonlari, tarixiy xotira, madaniy xotira, Beowulf, Alpamish, qiyosiy adabiyot, og'zaki an'ana, milliy o'ziga xoslik, afsona va tarix, epik qahramon arxetipi.*

**Аннотация.** В данном исследовании рассматривается роль исторической памяти в формировании героических эпосов, с акцентом на древнеанглийский эпос «Беовульф» и узбекский устный эпос «Алпамыш». С помощью сравнительного анализа исследуется, как коллективные воспоминания о прошлых событиях, культурные ценности и общественные идеалы влияют на структуру повествования, героические архетипы и тематические элементы этих произведений. Результаты показывают, что историческая память служит механизмом сохранения национальной идентичности, моральных учений и интерпретаций деяний предков. Анализ выявляет сходства в темах храбрости, верности и упорства, отмечая при этом культурные различия, обусловленные кочевым и феодальным контекстами. Данное исследование подчеркивает функцию эпосов в культурной преемственности и предлагает понимание межкультурных литературных традиций.

**Ключевые слова:** *Героические эпосы, историческая память, культурная память, Беовульф, Алпамыш, сравнительное литературоведение, устная традиция, национальная идентичность, миф и история, архетип эпического героя.*

**Abstract.** *This study examines the role of historical memory in shaping heroic epics, focusing on the Old English epic Beowulf and the Uzbek oral epic Alpamysh. Through a comparative analysis, it explores how collective recollections of past events, cultural values, and societal ideals influence the narrative structure, heroic archetypes, and thematic elements of these works. Findings reveal that historical memory serves as a mechanism for preserving national identity, moral teachings, and interpretations of ancestral deeds. The analysis highlights similarities in themes of bravery, loyalty, and perseverance, while noting cultural distinctions rooted in nomadic versus feudal contexts. This research underscores the epics' function in cultural continuity and offers insights into cross-cultural literary traditions.*

**Key words:** *Heroic epics, historical memory, cultural memory, Beowulf, Alpamysh, comparative literature, oral tradition, national identity, myth and history, epic hero archetype.*

**Introduction.** Heroic epics represent a cornerstone of oral and literary traditions across cultures, encapsulating the collective ethos, historical experiences, and aspirational ideals of a people. These narratives often revolve around legendary figures whose exploits embody virtues such as courage, honor, and resilience, serving not merely as entertainment but as vessels for historical memory—the shared recollection and interpretation of past events that inform present identities (Reichl, 2000). Historical memory, in this context, functions as a dynamic process wherein real or mythologized events are woven into epic forms to reinforce social cohesion, moral frameworks, and cultural continuity.

In English literature, Beowulf stands as a seminal example of an early medieval heroic epic, composed around the 8th to 11th centuries, depicting the exploits of a Geatish warrior in a world of monsters, kings, and tribal conflicts (Liuzza, 2000). Similarly, in Uzbek folklore, Alpamysh (also spelled Alpamish or Alpomish) emerges as a central heroic dastan (epic poem), originating from the 14th to 17th centuries amid struggles against external invaders, and passed down orally through generations of bards (Zhirmunsky, 1960/2004). Both epics draw upon historical memory to construct heroic models that reflect their respective societies' encounters with adversity, migration, and governance.

**Methods.** This research employs a comparative-typological approach to literary analysis, drawing on primary epic texts and secondary scholarly sources to investigate the interplay between historical memory and epic formation (Reichl, 2000). The primary sources include the Old English manuscript of Beowulf (in translated editions such as Heaney, 2000) and variants of Alpamysh from Uzbek oral traditions, such as those recorded by folklorists like Hadi Zarifov and analyzed by Zhirmunsky (1960/2004).

Secondary sources were selected from academic literature on epic poetry, cultural memory, and Central Asian and Anglo-Saxon studies. Key texts include comparative analyses of heroic models in

Beowulf and Alpamysh (e.g., as discussed in recent Uzbek scholarship; see also Reichl, 2000), examinations of epic heroes' virtues, and discussions of epics as repositories of historical and moral knowledge. Sources were evaluated for their focus on themes of bravery, loyalty, and historical interpretation, ensuring a balanced representation of English and Uzbek perspectives.

The analysis proceeded in stages: (1) thematic coding of epic narratives to identify elements linked to historical events (e.g., battles, migrations); (2) cross-cultural comparison of heroic archetypes and motifs; and (3) interpretation of how these elements reflect collective memory. No quantitative methods were used, as the study is qualitative in nature, emphasizing textual and contextual exegesis.

**Results.** The analysis reveals that historical memory profoundly influences the narrative core of both Beowulf and Alpamysh, manifesting in the portrayal of heroes, conflicts, and resolutions that echo real or perceived historical events. In Beowulf, historical memory is embedded in the epic's depiction of tribal warfare and monstrous threats, which symbolize existential struggles faced by early Germanic societies. The hero Beowulf's battles against Grendel, Grendel's mother, and the dragon reflect memories of intertribal conflicts, migrations, and the fragility of kingship in 6th-century Scandinavia (Liuzza, 2000). Themes of loyalty (*comitatus*) and honor are drawn from Anglo-Saxon codes, preserving memories of feudal obligations and heroic ideals that sustained social order amid chaos (Heaney, 2000).

Similarly, Alpamysh incorporates historical memory through its narrative of the hero's quests against oppressors, drawing from the Uzbek people's experiences during invasions and tribal migrations in the 14th–17th centuries (Zhirmunsky, 1960/2004). The epic recounts Alpamysh's exile, battles for justice, and return to reclaim his homeland, symbolizing resistance against foreign rulers and the preservation of tribal unity. Motifs of perseverance and equity reflect collective recollections of nomadic life, clan loyalties, and struggles for independence, as seen in variants passed down by bards (*bakhshi*) (Reichl, 2000).

Comparative findings highlight shared elements: both heroes embody universal virtues like bravery and devotion, serving as exemplars of cultural resilience. However, differences arise from contextual histories—Beowulf's feudal, Christian-influenced setting contrasts with Alpamysh's nomadic, Islamic-tinged oral tradition, leading to distinct emphases on individual glory versus communal justice (Reichl, 2000). In both, epics function as "cultural memory," transforming historical events into mythic narratives that educate and unify generations.

**Discussion.** The results demonstrate that historical memory is integral to the genesis and evolution of heroic epics, acting as a bridge between past realities and present identities. In Beowulf, the epic interprets historical upheavals—such as migrations and power shifts—through a lens of heroic fatalism, where memory reinforces the inevitability of decline while celebrating enduring virtues (Liuzza, 2000). This aligns with Reichl's (2000) view that heroic poetry interprets the past to articulate cultural values, embedding lessons in ancestral deeds.

In Alpamysh, historical memory manifests in motifs of exile and return, mirroring the Uzbek people's nomadic heritage and resistance to conquests, thereby fostering national pride and moral guidance (Zhirmunsky, 1960/2004). The epic's oral transmission amplifies its role in spiritual life, preserving ethnographic details and ethical norms. Cross-culturally, these epics illustrate how memory adapts to societal needs: English traditions emphasize warrior codes amid emerging Christianity, while Uzbek ones highlight tribal solidarity in a multi-ethnic Central Asian context (Reichl, 2000). This comparative lens reveals epics as dynamic archives, evolving through oral retellings to address contemporary issues, such as identity in postcolonial or globalized eras. Limitations include the reliance on translated texts, which may dilute original nuances, and the scarcity of direct historical corroboration for epic events. Future research could extend to other Turkic epics like *Manas* for broader insights.

**Conclusion.** Historical memory emerges as a foundational force in the creation and persistence of heroic epics, shaping both narrative form and ideological content. As demonstrated through the comparative analysis of Beowulf and Alpamysh, epic traditions transform collective experiences—such as warfare, migration, and social organization—into symbolic narratives that articulate cultural

values and ethical ideals. While the Anglo-Saxon epic reflects a feudal and Christian-inflected worldview centered on individual heroism and loyalty to the lord, the Uzbek epic foregrounds communal justice, endurance, and tribal cohesion rooted in a nomadic historical context. Despite these cultural distinctions, both works function as repositories of cultural memory, ensuring continuity between past and present through mythologized history. The study confirms that heroic epics are not static retellings of historical events but dynamic cultural texts that reinterpret the past to address evolving social needs. By situating English and Uzbek epics within a shared framework of historical memory, this research contributes to broader discussions on epic poetry as a universal mechanism for preserving identity, moral norms, and collective heritage.

#### REFERENCES:

1. Assmann, J. (2011). *Cultural memory and early civilization: Writing, remembrance, and political imagination*. Cambridge University Press.
2. Heaney, S. (Trans.). (2000). *Beowulf: A new verse translation*. W. W. Norton & Company.
3. Halbwachs, M. (1992). *On collective memory*. University of Chicago Press.
4. Liuzza, R. M. (Ed.). (2000). *Beowulf: A new verse translation*. Broadview Press.
5. Reichl, K. (2000). *Singing the past: Turkic and medieval heroic poetry*. Cornell University Press.
6. Zhirmunsky, V. M. (2004). *The epic of "Alpamysh" and the return of Odysseus* (Original work published 1960). British Academy. (Note: English translation/edition referenced for accessibility.)

UO`K 94(575.1)

### ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA O'ZBEKISTON–QUVAYT IQTISODIY ALOQALARI TARIXIDAN

*D.Qudratov, PhD, dots., Guliston davlat universiteti, Guliston*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Quvayt Davlati o'rtasidagi iqtisodiy, investitsiyaviy va infratuzilmaviy hamkorlik jarayonlari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar, energetika, transport, turizm, moliya va qishloq xo'jaligi sohalarida qo'shma loyihalar amalga oshirilayotgani yoritiladi. Xususan, Quvayt Arab Iqtisodiy Taraqqiyot Jamg'armasi (KFAED) tomonidan O'zbekiston hududlarida yo'l, suv ta'minoti, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida moliyalashtirilgan loyihalar tahlil qilinadi. Maqolada, shuningdek, investitsion hamkorlikni yanada rivojlantirishning istiqbollari, muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, Quvayt, investitsiya, infratuzilma, iqtisodiy hamkorlik, KFAED, energetika, transport, turizm, moliyaviy dasturlar, xalqaro aloqalar.

**Аннотация.** В данной статье анализируются процессы экономического, инвестиционного и инфраструктурного сотрудничества между Республикой Узбекистан и Государством Кувейт. Освещается развитие торгово-экономических связей, а также реализация совместных проектов в сферах энергетики, транспорта, туризма, финансов и сельского хозяйства в последние годы. В частности, рассматриваются проекты, финансируемые Кувейтским арабским фондом экономического развития (KFAED) в регионах Узбекистана в таких направлениях, как строительство дорог, водоснабжение, здравоохранение и образование. В статье также изложены перспективы дальнейшего развития инвестиционного сотрудничества, существующие проблемы и предложения по их решению.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Кувейт, инвестиции, инфраструктура, экономическое сотрудничество, KFAED, энергетика, транспорт, туризм, финансовые программы, международные отношения.

**Abstract.** This article analyzes the processes of economic, investment, and infrastructural cooperation between the Republic of Uzbekistan and the State of Kuwait. It highlights the development of trade and economic relations, as well as the implementation of joint projects in the fields of energy, transport, tourism, finance, and agriculture in recent years. In particular, the article examines projects financed by the Kuwait Fund for Arab Economic Development (KFAED) in various regions of Uzbekistan, including road construction, water supply, healthcare, and education sectors.

*The article also discusses the prospects for further development of investment cooperation, existing challenges, and proposed solutions to address them.*

**Key words:** *Uzbekistan, Kuwait, investment, infrastructure, economic cooperation, KFAED, energy, transport, tourism, financial programs, international relations.*

**Kirish.** O'zbekiston va Quvayt o'rtasidagi munosabatlar barqaror va izchil rivojlanmoqda. Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy va investitsion aloqalardan tashqari, madaniy-gumanitar hamkorlik salohiyati ham juda yuqori. Quvaytning moddiy imkoniyatlari va xalqaro tajribasi, O'zbekistonning boy madaniy merosi va geosiyosiy joylashuvi ushbu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. 1991 yil 30 dekabrda Quvayt davlati O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini rasman tan oldi[1]. 1994 yil iyul oyida ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi [1]. Bu, o'z navbatida, ikki tomonlama aloqalarni rivojlantirish uchun muhim huquqiy va siyosiy poydevor bo'lib xizmat qildi.

**Asosiy qism.** Quvaytda O'zbekiston elchixonasining tashkil etilishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarda yangi davrni boshlab berdi. 1997–2004 yillar davomida O'zbekiston Respublikasining Saudiya Arabistonidagi elchilari bir vaqtning o'zida Quvaytdagi o'rindosh (ya'ni rezident bo'lmagan) favqulodda va muxtor elchi vazifasini ham bajarib keldilar[1]. Bu davrda O'zbekiston hukumati ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni iqtisodiy jihatdan samarali va siyosiy jihatdan barqaror saqlashga intilib, resurslarni tejash bilan birga, arab davlatlari bilan diplomatik tarmoqni kengaytirish siyosatiga amal qilgan[2].

Shu bilan birga, ushbu o'rindoshlik shakli chegaralangan imkoniyatlarga ega bo'lgani sababli, Quvayt bilan munosabatlarni yanada faollashtirish, hamkorlikni amaliy maydonga olib chiqish uchun diplomatik vakolatxonaning bevosita o'ziga ehtiyoj tug'ildi

O'zbekiston va Quvayt o'rtasidagi munosabatlar, avvalo, iqtisodiy va texnik sohalarda hamkorlikni yo'lga qo'yish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Xususan, neft va gaz qazib chiqarish hamda qayta ishlash, irrigatsiya tizimlarini takomillashtirish, qurilish materiallari ishlab chiqarish, turizm va sport kabi sohalarda o'zaro manfaatli loyihalarni amalga oshirish uchun katta salohiyat mavjud. Shu bilan birga, ikki davlat o'rtasidagi gumanitar va madaniy sohadagi aloqalarni chuqurlashtirish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Quvaytdan O'zbekistonga sayyohlarni jalb qilish, madaniy tadbirlar o'tkazish, ta'lim va fan sohasida hamkorlikni kengaytirish kabi yo'nalishlar bu sohadagi istiqbolli yo'nalishlar sirasiga kirdi.

1997 yil 13–15 may kunlari Quvayt amirining jiyani, Osiyo Olimpiya Kengashi Prezidenti shayx Axmad al-Fahad as-Saboh Toshkentga rasmiy tashrif buyurdi. Ushbu tashrif doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan qabul qilindi. Sportni rivojlantirish, jumladan, Osiyoda Olimpiya harakati va sport infratuzilmasini qo'llab-quvvatlashdagi faol xizmati uchun Islom Karimovga Osiyo Olimpiya Kengashining oltin medali topshirildi[1]. Bu esa sport orqali madaniy va siyosiy muloqot belgisidir. Axmad as-Sabohning tashrifi — sport sohasidagi xalqaro hamkorlik orqali ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu tashrif nafaqat rasmiy muloqot, balki sport va madaniyat orqali o'zaro yaqinlashuvning amaliy ifodasi bo'ldi. O'zbekistonning sport sohasidagi siyosiy qadri: Prezident Islom Karimovning Osiyo Olimpiya Kengashi oltin medali bilan taqdirlanishi — mamlakatimizda sportni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlashning xalqaro miqyosda e'tirof etilishidir. Bu, o'z navbatida, O'zbekistonning Osiyo mintaqasidagi sport hamkorligidagi faol ishtirokini yanada kuchaytirdi[1]. Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) o'z a'zolari o'rtasida na faqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy, sport va insonparvar sohalardagi hamkorlikni ham rag'batlantiradi. Axmad as-Saboh tashrifi — aynan shunday gumanitar hamkorlikning ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

O'zbekiston bilan Quvayt o'rtasidagi munosabatlarda savdo-iqtisodiy hamkorlik muhim va ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu hamkorlikning ochiq namunasi sifatida Quvaytning Arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi tomonidan 1997 yil iyunida O'zbekistonning Nukus va Urganch shaharlarini suv bilan ta'minlash loyihasi uchun ajratilgan 19,8 million dollarlik kredit shartnomasini ko'rsatish mumkin[1]. O'zbekistonning Nukus va Urganch shaharlarini suv bilan ta'minlash bo'yicha loyihada Quvaytning moddiy yordami mamlakatning suv resurslarini boshqarish va agrosanoatni rivojlantirish

sohasidagi dolzarb muammolarni hal etishga ko'maklashdi. Bu esa O'zbekistonning ichki iqtisodiy salohiyatini oshirishda va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim qadam hisoblanadi.

Shu bilan birga, bu loyiha Quvaytning nafaqat neft-gaz salohiyati bilan, balki iqtisodiy taraqqiyotga yordam berish orqali mintaqadagi strategik sherik sifatidagi rolini mustahkamlashga xizmat qildi. O'zaro hamkorlikning bu shakli ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlash va yangi investitsiya imkoniyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1997 yilda Quvaytning Arab iqtisodiy taraqqiyot jamg'armasi tomonidan Nukus va Urganch shaharlarini suv bilan ta'minlash uchun ajratilgan kredit O'zbekiston-Quvayt munosabatlaridagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning muhim va samarali namunasi bo'lib xizmat qildi[3].

1998 yil oktabr oyida Kuvayt adliya vaziri, vaqf va din ishlari vaziri Ahmad Halid al-Qulayb rahbarligidagi rasmiy delegatsiya Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi va Ahmad al-Farg'oni tavalludining 1200 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlarda ishtirok etdi[1]. Quvayt amiri ko'rsatmasiga binoan, Samarqanddagi Imom al-Buxoriy majmuasini jihozlash ishlariga 500 ming aqsh dollari hajmidagi moliyaviy yordam taqdim etildi[1]. O'zbekiston va Quvayt har ikkalasi ham Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) a'zosi sifatida, Islom madaniyati va ilm-fani merosini saqlash, tiklash va targ'ib qilish yo'lidagi hamkorlikni muhim deb biladi. Bu tashrif IHTning madaniy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsadlariga to'la mos keladi[4]. IHTning Islomiy ta'lim, fan va madaniyat tashkiloti (ISESCO, hozirgi ICESCO) orqali amalga oshirayotgan faoliyati doirasida a'zo davlatlardagi madaniy ob'ektlar, xususan, Islom diniga oid tarixiy yodgorliklarni asrash va rivojlantirishga qaratilgan loyihalar muhim o'rin tutadi. Samarqanddagi Imom al-Buxoriy majmuasini jihozlashga ko'mak ana shu doiradagi amaliyotning yorqin misolidir.

2004 yil 9–11 may kunlari O'zbekiston Respublikasi bosh vazirining o'rinbosari hamda tashqi iqtisodiy aloqalar agentligining raisi boshchiligidagi rasmiy delegatsiya Quvayt Davlatiga tashrif amalga oshirdi. Tashrif davomida Quvaytda O'zbekistonning eksport salohiyati, investitsiya imkoniyatlari va turizm sektoriga bag'ishlangan biznes seminar va ko'rgazma tashkil etildi[1].

Tadbirning asosiy yo'nalishlari: Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish: O'zbekistonning iqtisodiy salohiyati, ayniqsa eksport sektori va investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlari Quvaytlik tadbirkorlarga va investorlarga taqdim etildi. Bu ko'rgazma va seminar ikki mamlakat o'rtasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratildi; Turizm sohasida hamkorlik: O'zbekistonning boy tarixi, madaniy merosi va turistik salohiyati Quvayt bozorida keng targ'ib etildi, bu esa Quvaytdan O'zbekistonga sayyohlar oqimini oshirish imkoniyatini yaratishga xizmat qildi; Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) doirasidagi integratsiya: Quvayt – IHTning faol a'zosi sifatida, ushbu tashrif va tadbirlar IHT doirasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi[5]. IHT a'zolari sifatida O'zbekiston va Quvaytning o'zaro savdo va investitsiya munosabatlari Islom davlatlari o'rtasidagi integratsiyani yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston bosh vaziri o'rinbosari va tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi rahbarining Quvaytga tashrifi ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga yo'naltirilgan muhim diplomatik qadam bo'ldi. Biznes seminar va ko'rgazma tadbirlari orqali O'zbekiston o'z salohiyatini Quvayt bozoriga samarali tarzda taqdim etdi va investitsiyalar uchun qulay muhitni namoyish etdi. Shu bilan birga, IHT a'zosi sifatida ikki mamlakatning iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash Islom dunyosidagi savdo-iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi[6]. Bu o'z navbatida IHTning umumiy maqsadlari — a'zolar o'rtasida barqaror taraqqiyot va o'zaro ko'maklashuvni ta'minlashga to'g'ridan-to'g'ri hissa qo'shdi.

2004 yil noyabr oyidan e'tiboran Quvayt shahri — al-Quvaytda O'zbekiston Respublikasining to'liq formatdagi elchixonasi o'z faoliyatini boshladi[1]. Bu voqea ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar institutsional asosda yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Elchixona faoliyati nafaqat siyosiy va iqtisodiy aloqalarni, balki madaniy, ta'lim va gumanitar hamkorlikni ham kuchaytirishga xizmat qila boshladi. Elchixona ochilishi O'zbekiston tashqi siyosatining muvozanatli va pragmatik xarakteriga mos holda, G'arbiy Osiyo mintaqasidagi nufuzli davlatlar bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan strategik qadam bo'ldi. Quvaytda diplomatik vakolatxona tashkil etilishi savdo, investitsiya, energetika, ta'lim va turizm sohalaridagi aloqalarni institutsional asosda

rivojlantirish imkonini yaratdi[7]. Shuningdek, O'zbekistonning arab va Islom dunyosidagi imijini mustahkamlash, mintaqaviy tashabbuslarini ilgari surishda elchixonaning o'rni katta bo'ldi.

Diplomatik munosabatlarning ilk yillarida quyidagi muhim ikki tomonlama hujjatlar imzolangan davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi[1]:

- O'zbekiston Respublikasi va Quvayt davlati o'rtasida savdo, iqtisodiy, ilmiy va texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi bitim – bu hujjat ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asosini yaratdi va yangi loyihalarga yo'l ochdi[8].

- O'zbekiston Respublikasi hukumati va Quvayt davlati hukumati o'rtasida investitsiyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish to'g'risida bitim – mazkur bitim xorijiy sarmoyalar uchun kafolatlar berish orqali, Quvaytlik investorlarning O'zbekiston iqtisodiga qiziqishini kuchaytirishga xizmat qildi[9].

- Jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risidagi ikki tomonlama bitim – xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni mustahkamlab, mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

**Xulosa.** O'zbekiston va Quvayt o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. Quvaytning investitsion fondlari va moliyaviy institutlari ishtirokida amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy loyihalar mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, KFAED ishtirokida moliyalashtirilgan ijtimoiy soha va transport infratuzilmasi loyihalari O'zbekistonning mintaqaviy barqaror rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Kelgusida ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirish, xususan, yashil energetika, raqamli iqtisodiyot, turizm va logistika yo'nalishlarida yangi qo'shma tashabbuslarni ilgari surish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'zaro investitsion muhitni yaxshilash, tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi bevosita aloqalarni kuchaytirish ikki tomonlama iqtisodiy aloqalarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўз МА, фонд – М-37, рўйхат – 4, иш – 921, варақлар – 79-84.
2. Джураева Г.М. Внешняя политика стран Асеан в условиях глобализации. Автореф.дисс.д.и.н. -Ташкент, 2011. – 25 с.;
3. Киргизбаев А.К. Международное сотрудничество Республики Узбекистан со странами Азии. Автореф.дисс.д.и.н. -Ташкент, 2004. – 54 с.;
4. Киргизбаев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё мамлакатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – т.ф.д. дисс. -Ташкент, 2004. – 338 с.;
5. Қосимова Н.А. Халқаро ташкилотларнинг Марказий Осиёда барқарорлик ва хавфсизликни таъминлашдаги иштироки // Монография. - Тошкент: Президент ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси, 2008. – 120 б.;
6. Рахимов М.А. Сотрудничество Узбекистана с зарубежными странами и международными организациями в обеспечении стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии (1991-2010 гг.). – т.ф.д. дисс. - Ташкент, 2012. – 380 с.;
7. Шарапова С.Ш. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсати шаклланишининг ва ривожланишининг асосий муаммолари: с.ф.н.дисс. автор. – Тошкент, 1997. – 27
8. Шарапова С.Ш. Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсати: маданий-тарихий ва ижтимоий омиллар // Монография. - Тошкент: Адолат, 2000. – 203 б.;
9. Шарапова С.Ш., бошқалар. Чет эл давлатларининг ички ва ташқи сиёсати: ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2006. – 404 б.

UO'K: 94(575.3)

## QASHQADARYO VOHASIDA SOVET HUKMRONLIGINING O'RNATILISHI VA UNGA QARSHI MILLIY ISTIQLOLCHILIK HARAKATLARI

*G.P.Ravshanova, dots., Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

*F.Sh.Mirzayeva, magistrant, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi va bunga qarshi milliy istiqlolchilik harakatlari yoritilgan. 1917-yilda boshlangan Oktyabr inqilobi natijasida sovet hokimiyati mintaqaga zo'ravonlik va bosqinchilik orqali kiritilgan. Ushbu jarayonning murakkab va fojeaviy tomonlari, jumladan, bosmachilik harakati va mahalliy aholining qattiq qarshiligi haqida so'z boradi. Maqola sovetlar siyosatining mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy hayotga

*ta'siri, milliy g'urur va diniy qadriyatlarni himoya qilish yo'lida olib borilgan kurashning tarixiy ahamiyatini ochib beradi.*

**Kalit so'zlar:** *Qashqadaryo vohasi, sovet hokimiyati, Oktyabr inqilobi, bosmachilik harakati, milliy istiqlolchilik, diniy qadriyatlar, kollektivlashtirish, sovet siyosati, milliy qarshilik, tarixiy kurash*

**Аннотация.** *В данной статье освещается установление советской власти в Кашкадарьинской долине и национально-освободительные движения, направленные против этого. В результате Октябрьской революции 1917 года советская власть была навязана региону через насилие и оккупацию. Рассматриваются сложные и трагические аспекты этого процесса, включая движение басмачей и сильное сопротивление местного населения. В статье раскрывается влияние политики советов на местную социально-экономическую жизнь, а также историческое значение борьбы за защиту национальной гордости и религиозных ценностей.*

**Ключевые слова:** *Кашкадарьинская долина, советская власть, Октябрьская революция, движение басмачей, национальная независимость, религиозные ценности, коллективизация, советская политика, национальное сопротивление, историческая борьба.*

**Abstract.** *This article highlights the establishment of Soviet power in the Kashkadarya region and the national liberation movements opposing it. As a result of the October Revolution of 1917, Soviet authority was imposed on the region through violence and occupation. The article delves into the complex and tragic aspects of this process, including the Bosmachi movement and the strong resistance of the local population. It also explores the impact of Soviet policies on local socio-economic life and the historical significance of the struggle to protect national pride and religious value*

**Key words:** *Kashkadarya region, Soviet power, October Revolution, Bosmachi movement, national independence, religious values, collectivization, Soviet policies, national resistance, historical struggle.*

**Kirish.** *Sovet hokimiyati va uning kirib kelishi (1917–1920).* 1917-yilning oktabrida Rossiyada boshqacha siyosiy tizim – Sovet hokimiyati o'rnatildi. Biroq, Sovet hokimiyati faqat Rossiyada emas, balki uning chegaralarida ham o'z ta'sirini yoyishni boshladi. Turkiston, shu jumladan, Qashqadaryo vohasi, o'zining geostrategik ahamiyati va tabiiy boyliklari bilan Sovetlarning diqqat markazida edi. 1918-yilda Sovet Rossiyasi Turkistonda o'z nazoratini o'rnatishga harakat qildi. Bu jarayon davomida Sovetlar bir qancha to'qnashuvlar va qarshiliklarga duch keldi. Ayniqsa, Qashqadaryo vohasidagi mahalliy aholi Sovet hokimiyatiga qarshi qat'iy qarshilik ko'rsatdi. [1-3]

**Fevral inqilobi (1917):** *Fevral inqilobi Rossiyada monarxiya tizimini ag'darib, Imperator Nikolay II taxtdan ketishiga sabab bo'ldi. Bu inqilob Rossiyada yangi hokimiyat, ya'ni vaqtincha hukumatni tashkil etdi. Vaqtincha hukumatning islohotlarga bo'lgan noaniq yondashuvi va I jahon urushida qatnashishi ortidan xalq orasida norozilik kuchaydi.*

**Oktyabr inqilobi (1917):** *Oktyabr inqilobi, ya'ni Bolshoy Inqilob (Leninning boshchiligidagi bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan), Sovet hokimiyatining kirib kelishiga olib keldi. Bu inqilob natijasida bolsheviklar vaqtincha hukumatni ag'darib, Rossiya Sovet Federatsiyasi tashkil etildi. Lenin va bolsheviklar ishchilar, qishloq aholisi va askarlar uchun yangi siyosiy tizim o'rnatishga harakat qildilar.*

**Sovet Ittifoqining tashkil etilishi (1922):** *1917-yildagi oktyabr inqilobidan so'ng, bolsheviklar mamlakatda sotsialistik tuzumni joriy qilishni boshladilar. 1922-yilda Rossiya Sovet Federatsiyasi, Ukraina, Belorussiya va Transkavkaziya SSRlarini o'z ichiga olgan Sovet Ittifoqi tashkil etildi. Bu tizim Markaziy hokimiyatga asoslangan va kommunistik prinsiplarni amalga oshirgan davlat bo'lib, uning boshqaruvi ko'p partiyaviy tizimdan monolit kommunistik partiya (Bolsheviklar partiyasi)ga o'tdi.*

**Metodologiya.** *Sovet hokimiyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat edi: Markazlashgan boshqaruv: Rossiya va Sovet Ittifoqining barcha siyosiy va iqtisodiy masalalari Moskvadagi markazdan boshqarildi [4-5]. Kollektivlashtirish va sanoatlashish: Sovet Ittifoqi qishloq*

xo'jaligini kollektivlashtirishga, sanoatni esa jadal rivojlantirishga harakat qildi. Sotsializm va kommunistik joriy qilish: Sovet tizimi kommunistik g'oyalarni amalga oshirishga intildi, biroq bu yo'lda ko'plab iqtisodiy va inson huquqlari bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi. Sovet hokimiyatining asoschisi Lenin bo'lib, u 1924-yilda vafotidan keyin, Iosif Stalinning boshqaruviga o'tdi, bu davrda Sovet Ittifoqi yanada markazlashtirildi va totalitar tizimga aylantirildi [6].

**Bosmachilik harakati.** Bosmachilik harakati Sovet hukumatiga qarshi kurashayotgan isyonchilar harakati sifatida tarixda qoldi. Ular o'zlarining milliy va diniy erkinliklarini himoya qilish uchun kurashgan. Bosmachilarni asosan to'rt asosiy guruh tashkil etdi: diniy rahbarlar, urush qiluvchi jamoalar, yerli boylar va turli millat vakillari. Ular Sovet hukumatining kollektivlashtirish, sotsializmni joriy etish va dinga qarshi siyosatiga qarshi bo'lishgan. Bosmachilar, xususan, Qashqadaryo vohasida faol bo'lib, bu yerda ko'plab janglar va qarshilik ko'rsatish harakatlari yuz berdi. Ularning asosiy maqsadi Sovet hokimiyatining ijtimoiy, iqtisodiy va diniy siyosatiga qarshi turish edi [7-8].

**Bosmachilik harakatining kelib chiqishi:** Bosmachilik harakati Rossiya imperiyasining qo'l ostiga kirgan Markaziy Osiyoda 1917-yildagi fevral inqilobi va oktyabr inqilobidan keyin kuchaydi. Bu inqiloblar orqali Rossiya imperiyasi ag'darilganidan so'ng, Markaziy Osiyo xalqlari uchun mustaqillik, erkinlik va o'z diniy an'analari asosida yangi hokimiyatni qurish imkoniyati tug'ildi. Ammo Sovet Ittifoqining tuzilishi va uning Markaziy Osiyoda o'z hokimiyatini mustahkamlashga intilishi, bu yerda keng ko'lamlilik qarshilikka olib keldi.

**Bosmachilik harakatining sabablari:**

1. Sovet hokimiyatining o'rnatilishi: Sovetlar Markaziy Osiyoga kelib, u yerda ko'plab islohotlar, jumladan, kollektivlashtirish, yerlarni davlatlashtirish, diniy erkinlikni cheklash kabi siyosatlar olib borildi. Bu, ayniqsa, qishloq aholisi va diniy yetakchilar uchun qattiq qarshilikni keltirib chiqardi.

2. Milliy erkinlik va mustaqillik: Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, turkmanlar, qirg'izlar va o'zbeklar Sovet Ittifoqining mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashni davom ettirdilar.

3. Diniy erkinlikni cheklash: Sovet Ittifoqi, markazlashtirilgan hokimiyat va kommunistik g'oyalar asosida diniy tashkilotlarni, xususan, islomni cheklashga harakat qildi, bu esa Markaziy Osiyoda keng tarqalgan diniy qarshilikni yuzaga keltirdi. [5, 9]

**Bosmachilik harakatining qulashining sabablari:** Bosmachilik harakatining muvaffaqiyatsizligi ko'plab omillarga bog'liq edi:

1. Sovet qo'shinlarining kuchayishi: Sovet Ittifoqining mustahkam qo'shinlari va yirik sarg'ishlari, ayniqsa, Stalinning rahbarligi ostida, bosmachilarga qarshi kurashda muvaffaqiyat qozonishdi.

2. Xalqaro yordamning yetishmasligi: Bosmachilar dastlab Turkiya, Eron va Afg'onistondan yordam olishga harakat qilgan bo'lsalar-da, bu yordam yetarli bo'lmadi.

3. Ichki ziddiyatlar va tashkilotning zaifligi: Bosmachilar harakatining ichki tizimi va boshqaruvining zaifligi harakatni muvaffaqiyatli tarzda davom ettirishga imkon bermadi. [10]

**Natijalar.** Bosmachilik harakati 1930-yillarda Sovet Ittifoqining Markaziy Osiyoda o'z hukmronligini to'liq o'rnatishiga olib keldi. Bosmachilarni yo'q qilish uchun Sovet Ittifoqi keng ko'lamlilik harbiy harakatlar va repressiyalarni amalga oshirdi. Harakatni to'xtatish uchun kommunistik hukumat tomonidan amalga oshirilgan repressiv siyosat, xususan, ruslashtirish va kollektivlashtirish siyosati natijasida, Markaziy Osiyodagi milliy harakatlar to'xtatildi. Shu bilan birga, bosmachilik harakati Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillikka, erkinlikka va diniy huquqlariga bo'lgan orzusini va kurashini aks ettirdi. Bu harakat, ayniqsa, mustaqillik uchun kurashayotgan xalqning azmini va erkinlikka bo'lgan intilishlarini namoyon etdi.

**Milliy istiqloqlilik harakatlari.** Qashqadaryo vohasidagi milliy istiqloqlilik harakatlari ham Sovetlar hukmronligiga qarshi bo'lib, bu harakatlar o'zlarining mustaqilliklarini qayta tiklashni maqsad qilgan. Sovet hukumati bu harakatlarni bostirish uchun turli harbiy amaliyotlar o'tkazgan, lekin mahalliy xalqning qarshiligi kuchli bo'ldi. Milliy istiqloqlilik harakatlari faqat diniy va siyosiy motivlardan tashqari, iqtisodiy va madaniy erkinliklarni himoya qilishga qaratilgan edi.

Kollektivlashtirish va sovet siyosati. Sovet hokimiyati, ayniqsa 1920-yillarda, Turkistonda kollektivlashtirishni joriy qilishga harakat qildi. Bu, o'z navbatida, mahalliy aholi, jumladan, Qashqadaryo vohasidagi dehqonlar va o'rta sinf aholisining qarshiligiga olib keldi. Kollektivlashtirish jarayonida yerlar davlatga o'tkazildi, xoloslar (yuqori tabaqa yoki yer egalari) ko'plab mulklaridan ayrildi va ko'plab odamlar, shu jumladan, Qashqadaryo vohasidagi dehqonlar, ro'zg'orlarini yo'qotib, qashshoqlikka tushib qolishdi.

**Muhokama.** 1. Kollektivlashtirishning sabablari va maqsadlari: Sovet iqtisodiy siyosati: 1920-yillarning boshlarida Sovet Ittifoqi kommunistik rejimni mustahkamlash va sanoatni tezda rivojlantirishni maqsad qilgan. Bu maqsadga erishish uchun agrar qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish, ya'ni yerlarni kollektivlarga (kolxozlar va sovxozlar) birlashtirish zarur deb hisoblangan. Yerni davlatlashtirish: Sovet Ittifoqining 1917-yilgi Oktabr inqilobidan so'ng, mulkni davlatlashtirish va yerni kollektivlashtirish orqali, qishloq xo'jaligida kapitalistik munosabatlarni yo'qotish va iqtisodiy resurslarni markazlashtirish rejalashtirilgan.

2. Kollektivlashtirish jarayoni: Kollektivlashtirishning asosiy shakli - bu kolxozlar (qishloq xo'jalik kooperativlari) va sovxozlar (davlat fermalari) tashkil etish edi. Kolxozlarda qishloq aholisining yerlarini birlashtirib, kollektiv ishlab chiqarish boshqaruviga o'tkazilgan. Majburiy kollektivlashtirish: Dastlab, kollektivlashtirish ko'ngilli ravishda amalga oshirilishi kerak edi, ammo keyinchalik bu jarayon majburiy ravishda boshlangan. Sovet hukumati kolxozlarga kiritilmagan yer egalari (kulaklar)ni ta'qib qilishni boshladi. Kollektivlashtirishning boshlangan davri: 1929-yilda Stalin kollektivlashtirishni majburiy ravishda boshlab, bu jarayonni tezlashtirdi. Bu davrda, ayniqsa, qishloq aholisiga qarshi zo'ravonlik va repressiyalar kuchaygan.

3. Kollektivlashtirishning oqibatlarini: Kollektivlashtirish jarayoni nafaqat ko'plab qishloq aholisini ocharchilik va qashshoqlikka olib keldi, balki ko'plab shaxsiy mulk egalari, ya'ni kulaklar (yirik fermerlar)ni yo'q qildi. Bu qarshilik ko'pincha qurolli to'qnashuvlarga va janjallarga olib keldi. Ocharchilik va qirg'in: 1932-1933-yillarda, ayniqsa Ukrainada, kollektivlashtirish va unga qilingan repressiyalar natijasida ommaviy ocharchilik yuzaga keldi, bu "Holodomor" deb ataladi. Bu ocharchilikda millionlab odamlar halok bo'ldi. O'zbekiston, Qozog'iston va boshqa mintaqalarda ham ocharchilik va qishloq xo'jaligining dehqonlariga bo'lgan tazyiqlar katta qirg'inlarga olib keldi.

**Tarixiy ahamiyat.** Sovet hokimiyatining o'rnatilishi va unga qarshi milliy istiqloqlilik harakatlari faqat bir hududning mustaqilligi uchun kurash emas, balki butun Turkistonning taqdiri uchun muhim edi. Bu harakatlar nafaqat Sovetlarning markaziy hokimiyatiga qarshi kurash, balki o'ziga xos milliy identifikatsiya va diniy erkinlikni himoya qilish harakati sifatida ham tarixga kirdi. Bosmachilik harakati, shuningdek, mustaqillikni va milliy o'zlikni tiklash uchun kurashning ramzi bo'lib qoldi.

**Xulosa.** Qashqadaryo vohasida sovet hokimiyatining o'rnatilishi murakkab va qarama-qarshi jarayonlar bilan kechdi. Sovetlar o'z hukmronligini o'rnatishda qattiq bosim va zo'ravonlikdan foydalanib, mahalliy aholining ijtimoiy, iqtisodiy va diniy an'alariga zid siyosat yuritdi. Bu esa xalqning noroziligiga sabab bo'lib, vohada milliy istiqloqlilik harakatlarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Bosmachilik harakatlari bu norozilikning eng yorqin namoyon bo'lishi bo'lib, mahalliy xalq o'z ozodligi va diniy qadriyatlarini himoya qilish yo'lida kurash olib bordi. Ammo, Sovetlar harbiy qudrat va siyosiy strategiyalar orqali bu harakatlarni bostirishga erishdi. Shu bilan birga, Sovet hokimiyati o'zini mustahkamlash uchun iqtisodiy islohotlar va madaniy o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qildi. Natijada, Qashqadaryo vohasi ham Sovetlar ittifoqining bir qismiga aylandi. Ammo bu jarayon milliy istiqloqlilik ruhining so'nishiga olib kelmadi, aksincha, keyinchalik mustaqillik davridagi uyg'onish harakatlariga zamin yaratdi. Shu tariqa, vohadagi tarixiy tajribalar xalqning o'zligini saqlab qolish va mustaqil davlat tuzishga bo'lgan intilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akramov, A. Turkiston muxtoriyati va bosmachilik harakati tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2000.
2. Tursunov, J. Bosmachilik harakati va uning sabablari. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2005.
3. Akayev, M. A. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi tarixi. Toshkent: Fan, 1985.
4. Ravshanov, N. Qashqadaryo tarixi: Bosmachilarning ozodlik harakati. Qarshi: Nasaf, 2008.

5. Turkiston xalqlari tarixi bo'yicha hujjatlar to'plami. Toshkent: O'zbekiston davlat arxivi, 1960.
6. Bartold, V. V. Turkistonning tarixiy geografiyasi. Toshkent: Sharq, 1996.
7. O'zbekiston tarixi bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: Akademnashr, 2010.
8. Sharipov, U. Milliy istiqlolchilik harakatlari: tarix va saboqlar. Qarshi: Kitob nashriyoti, 2003.
9. Fitrat, A. Turkiston milliy uyg'onish davri tarixi. Toshkent: Ma'naviyat, 1999.

UO'K 314.04(575.1)

**1959-1989-YILLAR O'ZBEKISTON SSR VILOYATINING DEMOGRAFIK TAHLILI***A.M.Samarova, o'qituvchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Demografik jarayonlarning o'zgarishlari nafaqat statistik jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy sohalarida ham chuqur iz qoldirdi. Oila modeli, tug'ilish darajasi, sog'liqni saqlash tizimi va urbanizatsiya jarayonlarining o'zaro ta'siri O'zbekiston demografik manzarasini belgilab berdi. Jahon aholi soni, uning ijtimoiy hamda milliy tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega omillardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** aholi, hudud, ro'yxat, viloyat, ishchi.

**Аннотация.** Изменения в демографических процессах оставили глубокий след не только в статистическом но и в социально-культурном плане. Взаимодействие модели семьи рождаемости системы здравоохранения и процессов урбанизации определило демографический ландшафт Узбекистана. Информация о мировом населении его социально-национальном составе является одним из важнейших факторов планирования социально-экономического развития.

**Ключевые слова:** народ, населения, территория, област, работник.

**Abstract.** Changes in demographic processes have left a deep mark not only in statistical terms, but also in the social and cultural spheres. The interaction of the family model, birth rate, health care system and urbanization processes has determined the demographic landscape of Uzbekistan. Information on the world population, its social and national composition is one of the most important factors for planning social and economic development.

**Key words:** population, territory, list, region, worker.

1945-1991-yillar siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida tub o'zgarishlar davri bo'ldi. 1959-yilga kelib, 8 mlndan ziyodni tashkil etib, "Uzbekская СССР" nomli kitobda keltirilishicha, aholi viloyatlar bo'yicha quyidagicha taqsimlangan: Andijonda 769 ming kishi, Buxoroda 574 ming, Jizzaxda 213, Qashqadaryoda 508, Namanganda 593, Surxondaryoda 422, Sirdaryoda 251, Toshkentda 1079, Farg'onada 939, Xorazm viloyatida 381 ming, Toshkent shahrida 927 ming kishi bo'lgan. Samarqand viloyati 1959-yilda 953 ming kishi bo'lib, 1 km<sup>2</sup> ga 38 kishi to'g'ri kelgan. 1959-yilga kelib, 1945-yilga nisbatan aholi 2 mlndan ortiqqa ko'paydi. O'zbekistonda Toshkent, Farg'ona viloyatidan keyin, Samarqand viloyati aholi soni bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi. Aholi soni bo'yicha eng kam hudud Jizzax viloyati hisoblangan [1. B. 64-65].

1959-yilgi Butunittifoq aholini ro'yxatga olish natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholi 8,1 million kishini tashkil etdi. 1953-1959-yil 6 yil ichida Respublika aholisi 1,3 million kishiga ko'paygan, bu esa har yili o'rtacha 217 ming kishiga teng bo'lgan. Shunday qilib, o'sha yillardagi o'rtacha yillik o'sish sur'ati taxminan 3,2 foizni tashkil etdi [2. B. 4-242]. Mamlakatda o'zbeklarning asosiy soni va salmog'i doimiy ko'payib borishi, aholi milliy tarkibi shakllanishi keyingi bosqichlarning o'ziga xos asosiy xususiyati bo'ldi [3. B. 557-558].

Mazkur yillar oralig'ida O'zbekiston qishloq aholisining o'sishi shahar aholisining o'sish ko'rsatkichlaridan qariyb 15 barobar kam bo'ldi, bu esa shu davrda sodir bo'lgan ko'pgina ijtimoiy-siyosiy voqealarni o'zida aks ettirar edi. Bunda yangi quruq yerlarni o'zlashtirish, industriya obyektlarini qurish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning ham ahamiyati katta bo'ldi. Bu obyektlarga "ixtiyoriy" ravishda, haqiqatda esa ko'pincha majburiy tarzda o'n minglab ishchilarni, avvalo, qishloq joylardan ko'chirish va tashkiliy ishga olish yo'li bilan yuborildi. Bu siyosat O'zbekiston aholisi sonining strukturasi ta'sir qilmasdan qolmas edi [3. B. 205].

1959-1970-yillarda o'zbeklarning soni salkam 2,7 million kishiga ko'payib, respublika aholisining umumiy tarkibida ularning ulushi 65,5% ni tashkil qildi [4. B. 28]. Respublikada millatlarning joylashuvida ham tafovut mavjud bo'lgan. Qishloqlarda, asosan, mahalliy millat vakillari yashagan bo'lsa, shaharlarda mahalliy bo'lmagan millatlar ko'pchilikni tashkil etgan [5. B. 341-343]. Respublika shahar aholisining yarmidan ko'pini o'zbeklar (53,7%), qolgan qismini ruslar (19,5%), tatarlar (5,1%), qozoqlar (4,0%), tojiklar (3,7%), qoraqalpoqlar (2,7%) va boshqa millat vakillari tashkil etardi [6. B. 18-20].

O'zbekistonning sotsialistik sanoatlashuvi yangi shaharlarning paydo bo'lishi, eski shaharlarning ko'payishi, ularning aholisining ko'payishi bilan birga kechdi [7. B. 3-20]. 1966-yilga kelib, shahar aholisi 3722 ming kishiga ko'paydi, bu Respublika umumiy aholisining 35%ni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishining sanoatlashuvi va konsentratsiyasi shahar aholi punktlari sonining o'sishi bilan birga ularning sezilarli darajada kengayishiga olib keldi [5. B. 341-343].

Mamlakatdagi tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar demografik jarayonlarda, Respublika shaharlari va qishloq tumanlari aholisi tarkibida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi [8. B. 3-280]. Tug'ilishning yuqori darajasi va o'lim darajasining doimiy ravishda kamayib borishi aholining izchil o'sishi, yosh va jins taqsimotining o'zgarishida namoyon bo'ladi [9. B. 6-10].

“Yangi shaharlarning iqtisodiy va demografik rivojlanishi” nomli dissertatsiyada, shaharlarda aholining demografik va funksional tahlili, takror ishlab chiqarilishi va bandligi masalalari ko'ra, 1959-yilda Butunittifoq aholi ro'yxati natijalariga ko'ra, O'zbekistonning yangi shaharlarida 523 ming kishi yashagan bo'lsa, oradan yetti yil o'tib, 1960-yillar oxiriga kelib, 800 ming kishi bo'lgan, bu esa Respublika shahar aholisining 25 foizini tashkil etdi. Shaharlarni aholi soni bo'yicha guruhlash aholi sonining bevosita bog'liqligini ko'rsatadi [9. B. 6-10]. O'zbekiston SSR da yillik o'sish ko'rsatkichi boshqa respublikalarga qaraganda, xususan Tojikiston SSR dan keyin ikkinchi o'ringa chiqdi [8. B. 3-280].

1970 va 1979-yillarda o'tkazilgan Butunittifoq aholi ro'yxatlari orasida aholi sonining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 3 foizni tashkil etgan. Bu avvalgi ro'yxatlar orasidagi davrdagi o'sish sur'atlaridan birmuncha pastroq bo'lsada, umuman SSSR bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biri bo'lgan [10. B. 38].

Keyingi yillarda esa O'zbekiston aholisi sonining mutlaq o'sishi va o'sish sur'atlari sezilarli darajada oshdi [11. B. 3-293]. Shunday qilib, 1959 va 1970-yillar orasidagi 11 yil davomida O'zbekiston aholisi qariyb 3,7 million kishiga ko'paygan bo'lib, bu davrdagi yillik o'rtacha mutlaq o'sish 335 ming kishini tashkil etgan. 1959-1970-yillar oralig'ida O'zbekiston demografik tarixida eng yuqori o'sish sur'atlari kuzatilgan davr sifatida ajralib turadi. Bu yillarda aholining o'rtacha yillik o'sish 3,4 foiz, mutlaq o'sish esa qariyb 400 ming kishini tashkil etdi [17. B. 293]. Bu demografik ko'rsatkich orqali shuni ko'rishimiz mumkinki, tug'ilish ko'payib borsa-da, 60-70-yillarda o'lim soni biroz oshib, 80-yillarda nisbat o'z holiga qaytadi. Lekin tabiiy o'sish doim o'sib boradi [5. B. 341-343].

1979-yilgi aholi ro'yxati muvaffaqiyatli o'tkazilishi natijasida olingna yakunlardan ko'rinishicha, 1970-yilgi ro'yxatdan keyin o'tgan to'qqiz yil mobaynida, ya'ni partiya XXIV syezdi qabul qilgan sotsial-iqtisodiy programma amalga oshirilgan hamda KPSS XXV syezdida belgilab berilgan o'ninchi besh yillik vazifalari bajarilgan davr ichida Sovet Ittifoqi aholisi 21 mln kishiga ko'paygan. SSSR aholisi tarkibida katta sifat o'zgarishlari ro'y bergan. Uning ma'lumot darajasi oshdi, barcha millat va elatlar yanada ko'proq va har tomonlama rivoj topdi, ularning o'zaro yaqinlashuvidan iborat jarayon davom etgan [12. B. 160].

1970-yillardan boshlab O'zbekistonda tug'ilish darajasi sezilarli darajada o'sa boshladi. Tug'ilish darajasi oshib, oilalar soni ham orta boshladi, bolalar tug'ilishi bilan bir qatorda, aholi yoshi ham uzaydi. Respublikada tug'ilish darajasi 1952-yilga yetdi [13. B. 1-8].

Eng yuqori o'sish holati mustaqillikdan keyingi yillarda kuzatilsa, eng pastisi esa 1959-yilda bo'lgan. 1970-1979-yillarda shahar aholisining o'sish sur'atlari eng yuqori ko'rsatkichlarga ega, bu o'z navbatida yuqori tug'ilish ko'rsatkichlari bilan bog'liq edi [5. B. 341-343]. Bunga shaharlarning shakllanishi va mintaqaning sanoatlashtirilishi sabab bo'ldi. Demografik rivojlanishning yuqori sur'atlari Urgut, Jomboy, Bulung'ur, Oqtosh kabilar alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, Payariq

va Juma aholi sekin ko'payadi [22. B. 1-10]. 1979-yildagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, chaqaloqlar tug'ilishi kamaya boshladi, mehnatga layoqatli qatlam ko'paydi, natijada aholi soniga ta'sir qila boshladi. 50-70-yillarda Respublika aholisi 3,5%ga oshgan bo'lsa, 70-80-yillarda bu ko'rsatkich 2,9%ga tushdi, 80-90-yillarda 2,6%ga kamaydi [13. B. 1-8].

1980-yil 1-yanvar holatiga ko'ra milliy-hududiy taqsimlanish holatiga ko'ra, O'zSSR hududi 447,7 ming km<sup>2</sup>, aholi 15 mln 774 ming kishi bo'lib, 151 ta tuman, 93 ta shahar, 95 ta shahar posyolkalari, 161 ta qishloqlardan iborat bo'lgan. Samarqand viloyati 24,5 ming km<sup>2</sup>, aholisi 1828 kishi, 15 ta tuman, 8 ta shahar, 13 ta shahar posyolkalari, 115 ta qishloqlardan tashkil topgan. O'zbekiston SSRda 70-yillar oxirida 11 mlndan ziyod bo'lsa, 1980-yilga kelib 15 mlndan osha boshladi.

O'zbekistonning shahar aholisi tarkibida o'zbeklarning ulushi doimiy ravishda oshib bordi va 1989-yilgi Butunittifoq aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra 53,7% ni tashkil qildi. O'zbekiston aholisining ko'p millatligini shakllanishi va rivojlanishida yuqorida ko'rib chiqilgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy xususiyatlar hozirgi kunda respublikaning shahar aholisidagina o'z ifodasini topayotganligini ta'kidlab o'tmoq kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston sovet sotsialistik respublikasi. T.1981. B.64-65
2. Ата-Мирзаев О., Тухлиев Н. Узбекистан природа население экономика. Узбекистон миллий энциклопедияси. 2009. С. 4-242.
3. Murtazayeva R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. T., 2019. B.205
4. Sam VDA. 1646-jamg'arma.2-ro'yxat, 71-hujjat. 1-jild. 28-varaq.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. T., "Iqtisod-moliya". B. 341-343.
6. Isoqov B. N. O'zbekistonda 80-yillarning ikkinchi yarmi-2000-yillardagi tarixiy o'zgarishlarning demografik jarayonlarga ta'siri. Tarix. fan. nom. diss...-T., 2010. B 18-20.
7. Xudoyorov O'. O'zbekiston aholisining milliy va ijtimoiy tarkibi. Diss..., T., 2020. B. 3-20.
8. Мулладжанов И. Р. Демографическое развитие Узбекской ССР. Т., Узбекистан. 1983. С 3-280.
9. Файзиев Н. М. Некоторые проблемы развития народонаселения новых городов Узбекской ССР. Автореф. Кандидат экономический наук. Т., 1968. С. 6-10.
10. Asanov G. R. O'zbekiston SSR aholisi. T., "O'zbekiston", 1987. B. 38.
11. O'zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida. T., "O'zbekiston". 2021. B. 3-293.
12. SSSR aholisi. Qo'llanma. Toshkent. "O'zbekiston". 1984. B. 160.
13. Саидова З. А. Рождаемость в Узбекистане (1890-1990 гг). Демографическая устойчивость исторический опыт. 15.01.2024. С. 1-8.

UO'K 316.346.32-053.6:332.1

### YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA YOSHLAR OMILINING STRATEGIK AHAMIYATI VA HUDUDIIY NATIJADORLIK TAHLILI

*A.M. Sarsenbayeva, o'qituvchi, Qoraqalpoq Davlat Universiteti, Nukus*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida yoshlar siyosatining institutsional asoslari va ularning amaliyotga tatbiq etilishi keng tahlil qilingan. Maqolada yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ta'limni transformatsiya qilish, rahbar kadrlarni yoshartirish masalalari ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida yosh iste'dodlarni rag'batlantirish tizimi va ularni davlat mukofotlari bilan taqdirlashning sotsiologik jihatlari o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** yoshlar siyosati, inson kapitali, ta'lim transformatsiyasi, "Yoshlar daftari," Qoraqalpog'iston, davlat mukofotlari, innovatsion faoliyat.

**Аннотация.** В данной статье подробно анализируются институциональные основы молодежной политики в контексте Нового Узбекистана и их практическая реализация. В статье освещены вопросы повышения социально-экономической активности молодежи, трансформации образования и омоложения руководящих кадров с научной точки зрения. Также на примере Республики Каракалпакстан была изучена система стимулирования молодых талантов и социологические аспекты их награждения государственными наградами.

**Ключевые слова:** молодежная политика, человеческий капитал, трансформация образования, "молодежная тетрадь," Каракалпакстан, государственные награды, инновационная деятельность.

**Abstract.** This article extensively analyzes the institutional foundations of youth policy in the context of New Uzbekistan and their practical implementation. The article highlights the issues of increasing the socio-economic activity of youth, the transformation of education, and the rejuvenation of managerial personnel from a scientific point of view. Also, using the example of the Republic of Karakalpakstan, the system of stimulating young talents and the sociological aspects of their awarding with state awards were studied.

**Keywords:** youth policy, human capital, transformation of education, "Youth Notebook," Karakalpakstan, state awards, innovative activity.

**Kirish.** Zamonaviy taraqqiyot bosqichida har bir davlatning kelajagi uning demografik resurslaridan qay darajada samarali foydalanishiga bog'liq. Bilimli va malakali kadrlar darajasiga yetgan yoshlar – har qanday jamiyatning mustahkam poydevori hisoblanadi. Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlar nafaqat siyosatning obyekt, balki islohotlarning faol subyekti sifatida maydonga chiqmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yoshlar bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy kuchimiz". Bu tushuncha davlat siyosatining o'zagini tashkil etib, "ilm-tarbiya-innovatsiya" zanjirini yaratishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda yoshlar masalasi ilm-fan, ta'lim, texnologiya, bandlik va vatanparvarlik kabi strategik yo'nalishlarni o'z ichiga olgan.

**Metodologiya.** Tadqiqotda kompleks yondashuv asosida quyidagi metodlardan foydalanildi: Statistik tahlil: Oliy ta'lim va bandlik sohasidagi raqamli ko'rsatkichlar dinamikasi o'rganildi; Qiyosiy metod: O'zbekiston yoshlarining xalqaro ta'lim reytinglaridagi (top-500 oliygohlar) o'rni Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirildi; Hujjatlar tahlili: "Milliy til siyosati - 2030" va "Yoshlar biznes fondi" kabi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati tahlil qilindi.

**Natijalar va tahlil.** O'zbekistonda yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini bir necha yo'nalishda ko'rish mumkin: Bilimli, malakali kadr darajasiga yetgan, zamonaviy yoshlar - kelajagimiz poydevori. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 30 iyun kuni yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda o'zining beqiyos e'tibori, mehri, eng muhimi - ishonchini yana bir bor amalda namoyon etdi. Uchrashuv - nafaqat samimiy suhbat, balki davlat rahbarining yosh avlodga bo'lgan yuksak e'tibori, kelajakka bo'lgan umid va ishonchining chinakam tasdig'i bo'ldi. "Yoshlar bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy kuchimiz," - deya ta'kidladi Prezident. Yig'ilish tashabbusida Prezidentimizning ochiq va samimiy, yurakdan yangragan so'zlari har bir insonda o'zgacha taassurot qoldirdi. Uchrashuvda ilm-fan, ta'lim, texnologiya, bandlik, ijtimoiy himoya, madaniyat, siyosiy faollik va vatanparvarlik kabi qator ustuvor yo'nalishlar yoshlar bilan birgalikdagi suhbatning dolzarb mazmuniga aylandi. Davlatimiz rahbari yoshlar bilan nafaqat suhbatlashdi, ularni tingladi, muammolarini yozib oldi, joyida yechim taklif qildi. Mana shu holat Prezident siyosatining markazida inson - ayniqsa, yosh avlod turganining yana bir amaliy dalilidir.

Bugungi kunda ta'limga bo'lgan e'tiborning yaqqol dalili sifatida 200 dan ortiq oliygoh, 300 dan ortiq texnikum va kollejlarda yoshlar uchun keng imkoniyatlar markaziga aylanganini ko'rishimiz mumkin. Endilikda IT, robototexnika, sun'iy intellekt kabi sohalar yoshlarning qiziqish maydoniga aylanmoqda. Bu borada quyidagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi: 2026 yilga qadar 500 mingdan ziyod yoshlar uchun zamonaviy kasb-hunar markazlari tashkil etiladi; 50 ta yirik xalqaro universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlari yo'lga qo'yiladi; Ingliz tilini ommalashtirish uchun "Milliy til siyosati - 2030" dasturiga alohida bo'lim kiritiladi. "Yoshlarimiz dunyo bilimlaridan bahramand bo'lishi uchun barcha eshiklar ochiq bo'lishi kerak," - dedi Sh.M.Mirziyoyev. Bunday islohotlar boshlangan dastlabki kunlardanoq "ilm - tarbiya - innovatsiya" zanjirini yaratishga bel bog'langanini aniq natijalar misolida ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'tgan yili yurtimiz yoshlari top-500 ta oliygohga kirish bo'yicha Markaziy Osiyoda 1-o'rinni egalladi. Bilimli yoshlarimiz ilk bor top-5 talikdagi oliygohlarga kirib, tarixiy natija ko'rsatdi. Bugungi kunda

30 dan ortiq yoshlarimiz dunyoning top-10 oliygohida, 500 nafari top-100 va 1 ming 500 nafari top-300 dan o'rin olgan nufuzli universitetlarda ta'lim olmoqda.

"Endi yoshlar bizning siyosatimiz obyekti emas, balki subyekti bo'lishi kerak," - degan edi davlatimiz rahbari. Bu degani: Har bir qaror yoshlar bilan maslahatlashib qabul qilinadi, yangi loyiha va dasturlar yoshlarning g'oya va tashabbuslariga tayangan holda yuritiladi, o'z kuchiga ishongan lider yoshlar davlat boshqaruvi tizimiga faol jalb etiladi. Uchrashuvda yoshlar siyosatining mahalliy darajadagi ijrosi ham muhokama qilindi. Xususan: Har bir mahallada yoshlar yetakchilari faoliyat yuritayotgani, so'nggi yetti yilda boshqaruv kadrlari tarkibi ancha yosharib, 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga yetgani, mahallabay ishlash tizimi orqali joylarda iqtidorli yoshlar aniqlanayotgani alohida qayd etildi. Bu orqali har bir yoshga individual yondashuv va ijtimoiy yordam ko'rsatilishi ta'minlanmoqda. Prezidentimiz yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish masalasiga ham e'tiborni kuchaytirmoqda. Ma'lumki, ishsizlik va iqtisodiy erkinlik masalalari har bir davrning birlamchi tarzda yechimini kutib turuvchi muammosidir. Shu bois birgina 2025 yilning o'zida kamida 1 million nafar yoshlar ish bilan ta'minlandi. Bu bevosita davlat kafolati ostida, qat'iy amalga oshirilayotgan rejali siyosat natijasidir. Yoshlar bandligini ta'minlash - davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri. 2025-yilda 8000 dan ortiq yangi loyiha ishga tushirilgan bo'lib, asosiy e'tibor o'zini o'zi band qilgan yoshlar sonini oshirish biznes rejasiga ega, lekin uni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmagan yoshlarni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Bu loyihalarni amalga oshirish uchun esa \$35 milliardlik investitsiya harakatlantiruvchi kuch sifatida loyihaga yo'naltiriladi. Bunday loyihalar doirasida 300 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilishi ko'zda tutilgan bo'lib, bu esa o'z navbatida yoshlarning kelajakka bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashi shubhasiz. Nafaqat rejalar, balki amaldagi tizimning samaralari ham yodga olindi: yosh tadbirkorlarimiz tashkil etgan 261 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 milliard so'mdan oshdi. Ilgari bu borada Toshkent shahri yakka o'zi yetakchilik qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib Toshkent viloyati, Samarqand, Andijon, Namangan, Farg'ona yoshlarining biznesdagi natijalari poytaxtdan qolishmayapti. Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo, Navoiy, Sirdaryo va Xorazm yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha ilg'or hududlarga aylandi.

2025 yil yakunlariga ko'ra 300 ming nafar yosh "Yoshlar daftari" asosida imtiyozli kreditlar bilan ta'minlandi va shu asosda yangi "Yoshlar biznes fondi" tashkil etilib, davlat byudjeti hisobidan mablag' ajratildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotga oid startaplar, frilanserlik va elektron savdo sohasi rivojlantirildi. Bu tashabbuslar yoshlarda moliyaviy savodxonlik, mas'uliyat va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlarning yashash sharoitlari, uy-joy muammosi, sog'lig'ini saqlash va psixologik qo'llab-quvvatlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ulardan ayrimlari, masalan, "Yoshlar uchun ijtimoiy uylar" dasturining kengaytirilishi, har bir tumanda "Yoshlar psixologik markazi" ochilishi, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlari uchun maxsus grantlar miqdorining oshirilishi bu sohada qanchalik oldinga siljishlar bo'lishidan dalolat beradi. "Yoshlarning yuragidagi daridlarni sezmay turib, siyosat yuritish mumkin emas," - degan edi muhtaram yurtboshimiz.

Tarbiya, ma'naviyat, yot g'oyalarga qarshi kurash va diniy savodxonlik masalalari har davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan masalalar hisoblanadi. Yoshlarning qalbi va ongini vatanparvarlik ruhida, ilmga intilish fazilatlarini mustahkamlash borasida quyidagi yo'nalishlar belgilandi: Maktab va universitetlarda "Fikrlash madaniyati" darslari joriy etiladi; Diniy ekstremizmga qarshi axborot-psixologik immunitet shakllantiriladi; O'zbek adabiyoti, musiqasi, tarixiy merosi asosida tarbiya kuchaytiriladi. Ma'naviy barkamollikning asosi albatta sport ekanligi yana bir bor eslatib o'tishimiz o'rinlidir. Shu bilan birga, 2024 yil yakuniga qadar sport maktablari soni 2 barobar ortgani va sport obyektlari qamrovi kengaygani sohadagi ulkan o'zgarishlarning yaqqol tasdig'i bo'la oladi. Yoshlarga e'tibor mamlakat miqyosida bo'lgani kabi, har bir hududda, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yaqqol sezilmoqda. Sohalarda samarali mehnat qilayotgan yoshlar hamisha el-yurt faxri bo'lib kelmoqda. Har yili bir qator zukko, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan yoshlar davlat darajasidagi medal va ordenlar bilan taqdirlanmoqda. Masalan, birgina 2025-yili mukofotlanganlar qatorida Qoraqalpog'istondan chiqqan iste'dod egalari

ham bo'ldi, bu faxrli holat bo'ldi. Misol uchun, "Kelajak bunyodkori" medali bilan Ismoilov Jamshidbek Rashid o'g'li - To'rtko'l tumanidagi "Navoiy" mahalla fuqarolar yig'ini yoshlar yetakchisi, Abdug'aniyeva Nodira Abdinazar qizi - Qoraqalpoq davlat universitetining 1-bosqich magistranti, shuningdek, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining yosh dramaturgi, sahna ustasi Eshniyazov Islom Sapparbayevich O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Bu yoshlar faqat birgina misol. Yana ko'plab ilmga chanqoq, o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lgan bir guruh mamlakatimiz ziyolilari bu ro'yxatni davom ettiradi. Bu yoshlar nafaqat shaxsiy yutuqlari bilan, balki jamiyatga, xalqiga naf keltirayotgani uchun mukofotlandi. Ana shunday yoshlar Yangi O'zbekistonning asosiy kuchidir.

Mukofot - nafaqat rag'bat, balki mas'uliyat. Davlat mukofoti - bu shunchaki nishon yoki medal emas. Bu - mas'uliyat, xalq ishonchi belgisi. Prezidentimiz mukofotni topshirar ekan, quyidagi so'zlarni iftixor, qalbdan chuqur quvonch tuyg'ulari bilan aytdi: "Sizlar ko'plarga o'rnak bo'lasiz. Biz sizga qarab faxrlanamiz." Bu so'zlar, o'z navbatida, mukofotlangan yoshlar qalbiga mas'uliyat, g'urur va kuch-g'ayrat bag'ishladi. Yangi imkoniyatlarga yo'l ochdi. Ayniqsa, Qoraqalpog'istonda faoliyat yuritayotgan yoshlar uchun bu - alohida ilhom manbaiga aylanishi shubhasiz. Yoshlar mehnatini ko'ra bilish, qadrlay bilish - davlat siyosatining asosi. Bu yil mukofotlangan yoshlar - bizga mehnatsevarlik, vatanparvarlik va ezgulik yo'lida qanday yurish kerakligini amalda ko'rsatdi. Ular bugun yulduz emas, yo'lchi yulduz. "Har bir mukofot - millionlab yoshlarga ishora: senga ham ishonishadi, sen ham qila olasan," degan ma'noni anglatadi.

**Muhokama.** Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, yoshlar siyosati mahallabay ishlash tizimi orqali har bir shaxsga individual yondashuvga asoslangan. Boshqaruv kadrlari tarkibida 40 yoshgacha bo'lgan rahbarlar ulushi 37 foizdan 65 foizga yetgani siyosiy tizimning yosharayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasidan chiqqan yoshlarning muvaffaqiyatlari alohida e'tiborga molik. "Mard o'g'lon" davlat mukofoti va "Kelajak bunyodkori" medali bilan taqdirlangan J. Ismoilov, N. Abdug'aniyeva hamda I. Eshniyazovlarning faoliyati yoshlar uchun o'rnak va "yo'lchi yulduz" vazifasini o'taydi. Bunday mukofotlar nafaqat shaxsiy g'alaba, balki jamiyat oldidagi yuksak mas'uliyatdir.

**Xulosa.** Yangi O'zbekiston yoshlari – mamlakatning asosiy strategik kuchi sifatida shakllanib bo'ldi. Islohotlar natijasida yoshlarning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va intellektual darajasi ham yuksalmoqda. "Yoshlar daftari" va "Yoshlar biznes fondi" orqali ijtimoiy himoya va tadbirkorlik uyg'unlashgan. Davlatimiz rahbarining "Yoshlarning yuragidagi dardlarni sezmay turib, siyosat yuritish mumkin emas" degan g'oyasi bugungi kunda har bir qarorda o'z aksini topmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar bilan uchrashuvdagi nutqi. 30-iyun, 2025-yil.
2. Sarsenbayeva A.M. Yoshlar - Yangi O'zbekistonning asosiy kuchi. Maqola matni.
3. Saidov A. «O'zbekiston yoshlar mamlakat», Yangi O'zbekistonning istedadli yoshlari- Ilmiy ishlar to'plami., T-2021
4. Mirzaxmedov X., «Jamiyatning transformatsiyasida yoshlar axloqi», Yangi O'zbekistonning istedadli yoshlari- Ilmiy ishlar to'plami., T-2021
5. <https://www.gazeta.uz/politics/>

UO'K 902:81'34:903.2

### BAQTRIYA–MARG'IYONA ARXEOLOGIK KOMPLEKSI (BMAK) VA HIND-ERONIYLAR: ARXEOLOGIK VA ARXEO-LINGVISTIK TAHLIL

*Sh.B.Sattorov, tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz*

<https://orcid.org/0009-0001-3066-6271>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK) va uning asosiy yodgorligi Gonur-depe materiallari asosida ushbu sivilizatsiyaning shakllanishi hamda hind-eroniy guruhlar bilan bo'lgan ehtimoliy madaniy va til aloqalari tahlil qilinadi. Arxeologik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodlari yordamida hind-eroniyning BMAK shaharlari bevosita bunyodkorlari bo'lmaganligi, biroq miloddan avvalgi II mingyillik boshlarida Markaziy Osiyoda mazkur madaniyat bilan faol aloqaga kirishgani asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** *Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi (BMAK), Gonur-depe, hind-eroniylar, ariylar, arxeo-lingvistika, Markaziy Osiyo, proto-hind-eroniy tili.*

**Аннотация.** *В статье на основе материалов Бактрийско–Маргианского археологического комплекса (БМАК) и его ключевого памятника Гонур-депе анализируются процессы формирования данной цивилизации, а также её возможные культурные и языковые контакты с индо-иранскими группами. С применением археологических и сравнительно-исторических лингвистических методов обосновывается положение о том, что индо-иранцы не являлись непосредственными создателями городов БМАК, однако в начале II тыс. до н.э. вступили с населением данного региона в активные культурно-языковые контакты.*

**Ключевые слова:** *Бактрийско–Маргианский археологический комплекс (БМАК), Гонур-депе, индо-иранцы, арии, археолингвистика, Центральная Азия, праиндо-иранский язык.*

**Abstract.** *This article examines the formation of the Bactria–Margiana Archaeological Complex (BMAC) and its key site, Gonur-depe, focusing on possible cultural and linguistic contacts with Indo-Iranian groups. Using archaeological data and comparative-historical linguistic methods, it is argued that the Indo-Iranians were not the direct founders of BMAC urban centers but engaged in intensive cultural and linguistic interactions with the local population of Central Asia in the early second millennium BCE.*

**Key words:** *Bactria–Margiana Archaeological Complex (BMAC), Gonur-depe, Indo-Iranians, Aryans, archaeolinguistics, Central Asia, Proto-Indo-Iranian language.*

Sovet davri arxeologi V.I. Sarianidi tomonidan Marg'iyona va Baqtriya hududlarida olib borilgan ko'p yillik tadqiqotlar natijasida o'nlab yirik arxeologik yodgorliklar aniqlangan bo'lib, olim ularning barchasi yagona madaniy an'anaga mansub ekanini ilmiy asosda ko'rsatib bergan (Sarianidi, Margiana and Protozoroastrism, 1998, 15–18-betlar). Ushbu madaniyat ilmiy adabiyotlarda "Baqtriya–Marg'iyona arxeologik kompleksi" (BMAK) nomi bilan ataladi. (Sarianidi, 1994, 7–9-betlar). XX asrning 1970-yillari oxirida Sarianidi mazkur sivilizatsiyaning ehtimoliy markazi hisoblangan Gonur-depe yodgorligini aniqlashga muvaffaq bo'ldi (Sarianidi, Gonur-depe – City of Kings and Gods, 2001, 21–24-betlar).

Gonur-depe Murg'ob daryosining qadimgi deltasi hududida, Qoraqum cho'lining chekka qismida joylashgan bo'lib, shahar taxminan miloddan avvalgi XXIII asrda barpo etilgan (Sarianidi, 2001, 37–41-betlar). U miloddan avvalgi 2000–1800-yillar oralig'ida o'zining eng yuqori taraqqiyot bosqichiga yetgan (Lamberg-Karlovsky, 2003, 132–134-betlar). Miloddan avvalgi XVIII asrga kelib Murg'ob daryosi irmoqlarining yo'nalishi o'zgarishi natijasida suv ta'minoti izdan chiqqan va bu holat Gonur aholisi shaharni tark etishiga olib kelgan (Sarianidi, 1998, 67–70-betlar). Mazkur jarayon butun BMAK sivilizatsiyasida tanazzulni boshlab bergan va miloddan avvalgi 1600-yillardan so'ng ushbu madaniyatning izlari deyarli yo'qolgan (Mallory, In Search of the Indo-Europeans, 1989, 50–52-betlar).

Miloddan avvalgi II mingyillik boshlarida Gonur o'z davrining eng yirik shahar markazlaridan biri bo'lgan. Qal'a, hukmdor qarorgohi, ibodatxonalar va ularga tutash inshootlar qariyb o'n gektar maydonni egallagan (Sarianidi, 2001, 88–95-betlar). Shaharda temenos, 1,5 km<sup>2</sup> maydondagi nekropol, suv omborlari va yuzlab hunarmandlar uy-joylari mavjud bo'lgan (Sarianidi, 1998, 101–109-betlar). Qurilish materiallari asosan xom g'ishtdan iborat bo'lib, tosh va yog'ochning tanqisligi sababli g'ishtlar loy va somon aralashmasidan tayyorlangan (Lamberg-Karlovsky, 2003, 140–142-betlar).

Gonur yodgorligida qariyb qirq yil davomida olib borilgan qazishmalar natijasida rivojlangan me'morchilik, hunarmandchilik (kulolchilik, metallurgiya, zargarlik), murakkab diniy va dafn marosimlari mavjud bo'lganini ko'rsatuvchi boy arxeologik materiallar to'plangan (Sarianidi, 2001, 155–168-betlar). Topilmalar Mesopotamiya va Hind vodiysi sivilizatsiyalari bilan faol aloqalar mavjud bo'lganini ham tasdiqlaydi (Possehl, The Indus Civilization, 2002, 215–218-betlar).

BMAK sivilizatsiyasining etnik asoslari haqidagi munozaralarda ko'pincha hind-eroniylar, ya'ni ariylar tilga olinadi. Xususan, V.I. Sarianidi Gonurni ariylar bilan bog'lash mumkinligi haqidagi fikrni ilgari surgan (Sarianidi, 1998, 183–186-betlar). Biroq bu qarash barcha tadqiqotchilar

tomonidan birdek qabul qilinmagan (Mallory & Adams, *Encyclopedia of Indo-European Culture*, 1997, 30–33-betlar).

Hind-eroniy tillar Hind-Yevropa til oilasiga mansub bo'lib, ular hind va eron tarmoqlariga bo'linadi (Fortson, *Indo-European Language and Culture*, 2010, 195–198-betlar). Rigveda matnlari taxminan miloddan avvalgi 1200-yillarga oid bo'lib, eng qadimgi hind-ariy til yodgorligi hisoblanadi (Witzel, 1995, 307–309-betlar). Avesto tili esa eroniy tillarning eng qadimgi namunasi (Boyce, *Zoroastrians*, 1979, 18–20-betlar).

Hind-eroniy til birligining parchalanishi miloddan avvalgi 2000–1600-yillar oralig'ida yuz bergani tilshunoslikda keng qabul qilingan (Parpola, *The Roots of Hinduism*, 2015, 76–80-betlar). Shu asosda, hind-eroniy guruhlar Markaziy Osiyo hududida uzoq vaqt yashagan, biroq Gonur shahrining bevosita qurilishida ishtirok etgani hozircha arxeologik jihatdan isbotlanmagan (Mallory, 1989, 55–57-betlar).

Tilshunoslikda xalqning turmush tarzi va madaniyatini lug'at tarkibi orqali qisman tiklash mumkinligi qiyosiy metodning asosiy tamoyillaridan biridir (Meillet, *Introduction à l'étude comparative des langues indo-européennes*, 1937, 25–27-betlar). Proto-german tilida "brauda-" misoli bu metodning amaliy imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatadi (Mallory & Adams, 1997, 79–80-betlar).

Xuddi shu metodologiya Hind-eroniy leksikaga tatbiq etilganda, bir qator uy-joy, irrigatsiya va diniy atamalarning BMAK muhitidan o'zlashtirilgan bo'lishi ehtimoli aniqlanadi (Parpola, 2015, 112–118-betlar). Soma/Haoma marosim ichimligining Markaziy Osiyo bilan bog'liqligi ham arxeologik va lingvistik jihatdan asoslangan (Sarianidi, 2001, 221–227-betlar; Parpola, 2015, 140–145-betlar).

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hind-eroniy dastlab ko'chmanchi chorvador guruhlar bo'lib, BMAKning rivojlangan shahar madaniyati bilan o'zaro ta'sir natijasida qator sivilizatsion unsurlarni o'zlashtirgan. Biroq, mavjud lingvistik va arxeologik dalillar BMAK aholisining qaysi til oilasiga mansub bo'lganini aniq belgilash imkonini bermaydi. Shu sababli, BMAK tili masalasi ochiq muammo bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, arxeologiya va tilshunoslik ma'lumotlarini kompleks qo'llash BMAK va hind-eroniy o'rtasidagi munosabatlarni yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi. Kelgusida Gonur-depe nekropolida olingan qadimgi DNK namunalari tahlili mazkur lingvistik xulosalarni genetik ma'lumotlar bilan solishtirish imkonini berib, Markaziy Osiyodagi qadimgi etnomadaniy jarayonlarni yanada chuqurroq anglashga yordam berishi ehtimoli mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sarianidi V.I. *Margiana and Protozoroastrism*. — Athens: Kapon Editions, 1998.
2. Sarianidi V.I. *Gonur-depe – City of Kings and Gods*. — Moscow: Institute of Archaeology RAS, 2001.
3. Sarianidi V.I. *Drevnosti strany Margush*. — Ashgabat: Ylym, 1990.
4. Lamberg-Karlovsky C.C. *Archaeology and Language: The Indo-Iranians*. — *Current Anthropology*, 2003, Vol. 44(1), pp. 131–146.
5. Mallory J.P. *In Search of the Indo-Europeans: Language, Archaeology and Myth*. — London: Thames & Hudson, 1989.
6. Mallory J.P., Adams D.Q. *Encyclopedia of Indo-European Culture*. — London–Chicago: Fitzroy Dearborn, 1997.
7. Fortson B.W. *Indo-European Language and Culture: An Introduction*. — 2nd ed. Oxford: Blackwell, 2010.
8. Witzel M. *Early Sanskritization: Origins and Development of the Kuru State*. — *Electronic Journal of Vedic Studies*, 1995, Vol. 1(4), pp. 1–26.
9. Boyce M. *Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices*. — London: Routledge & Kegan Paul, 1979.
10. Parpola A. *The Roots of Hinduism: The Early Aryans and the Indus Civilization*. — Oxford: Oxford University Press, 2015.
11. Meillet A. *Introduction à l'étude comparative des langues indo-européennes*. — Paris: Hachette, 1937.
12. Possehl G.L. *The Indus Civilization: A Contemporary Perspective*. — Walnut Creek: AltaMira Press, 2002.

**O'ZBEK IJODKOR ZIYOLILARI FAOLIYATI VA IJOD MAKTABLARI: UCHINCHI RENESSANSNING MA'NAVIY DRAYVERI**

*A.Z.Shodiyeva, magistrant, Navoiy davlat universiteti, Navoiy*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda ijodkor ziyolilar faoliyati, ular asarlaridagi milliy ruh, adolat, insonparvarlik va vatanparvarlik g'oyalarining ustunligi, XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshlaridan to bugungi kunga qadar ijodkor ziyolilar qatlamiga nisbatan munosabatning o'zgarib borishi, Uchinchi Renessans poydevori bo'lmish yoshlar hamda yosh ijodkorlar uchun tashkil etilgan ijod maktablari faoliyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Uchinchi Renessans, ijod maktablari, ijodkor ziyolilar, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается деятельность современных творческих интеллектуалов, преобладание в их творчестве идей национального духа, справедливости, гуманизма и патриотизма, изменение отношения к творческой интеллигенции со второй половины XX века и начала XXI века до наших дней, деятельность молодежных творческих школ и молодых художников, являющихся основой Третьего Возрождения.

**Ключевые слова:** Третий Ренессанс, творческие школы, творческие интеллектуалы, Абдулла Орипов, Эркин Вохидов.

**Abstract.** This article discusses the activities of creative intellectuals today, the predominance of the ideas of national spirit, justice, humanity and patriotism in their works, the changing attitude towards the creative intelligentsia from the second half of the 20th century and the beginning of the 21st century to the present day, the activities of creative schools for young people and young artists, which are the foundation of the Third Renaissance.

**Key words:** Third Renaissance, creative schools, creative intellectuals, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov.

**Kirish.** O'zbek xalqi azal-azaldan ijodkor va ziyoli xalq sifatida birinchi va ikkinchi Renessans davrida butun dunyo ilm-fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan alloma va mutafakkirlarni yetishtirib chiqargani va ularning ilmiy-ijodiy merosini o'rganib, kelgusida ularning faoliyatini izchil davom ettirish yo'lida olib borayotgan sa'y harakatlari bugun butun dunyo ko'z o'ngida bosqichma-bosqich amalga oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

XX asrning ikkinchi yarmida o'zbek ijodkor ziyolilari uchun bir tomondan katta imkoniyatlar eshigini ochgan davr bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa og'ir mafkuraviy tazyiqlar davri bo'lganligi, ular ijodining asosiy yo'nalishlari asosan 1950-yillarning o'rtalaridan boshlab adabiyot va san'atga nisbatan nazorat biroz yumshaganligida va milliy o'zlikni anglashga intilish kuchaygan bir vaqtda yuzaga keladi. Tarixiy mavzular yoritila boshlanadi: Odil Yoqubov „Ulug'bek xazinasini“, Pirmuqol Qodirov „Yulduzli tunlar“ kabi asarlar orqali xalqimizning buyuk o'tmishini badiiy talqin qilishadi. Yangi to'lqin poeziyasida esa Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she'riyatiga falsafiylik va milliy dard kirib kelganligi, inson ruhiyati tahlilini esa Said Ahmad va O'tkir Hoshimov asarlarida mafkuradan ko'ra insoniy kechinmalar birinchi planga chiqqanligini ko'rish mumkin. Ijodkorlar duch kelgan eng asosiy qiyinchiliklar doimiy ravishda „qizil imperiya“ siyosati bilan to'qnash kelishga majbur ekanliklarida edi, ya'ni, har bir asar chop etilishidan avval davlat senzurasidan o'tishi shart edi. 1980-yillarda ziyolilarning katta qismi ma'naviy tazyiqqa uchraydi. Xalqning g'ururi toptalgan bir paytda, haqiqatni aytishga intilgan ijodkorlar „millatchilik“da ayblanadi.[4] Qiyinchiliklarga qaramay, bu davr ziyolilari Uchinchi Renessans poydevori uchun xizmat qiladigan milliy ruhni saqlab qolishdi.

1989-yilda o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishida ziyolilarning (E. Vohidov, A. Oripov va boshqalar) xizmati beqiyos bo'ldi. O'zbekiston madaniyatining dunyoga chiqishida Shukur Xolmirzayev, Rauf Parfi kabi ijodkorlar adabiyotga yangi uslub va erkin ruh olib kirdilar. 1980-yillarning oxiriga kelib, qatag'on qilingan jadid bobolarimiz Fitrat, Cho'lponlarning nomlari aynan

o'sha davr ziyolilari harakati bilan oqlana boshladi. XX asrning ikkinchi yarmi ziyolilari — bu „ko'prik" avlodi bo'lib, ular qatag'on yillari va mustaqillik davri orasida ma'naviyatni saqlab qolgan jasorat egalari hisoblanadi. Bugungi Ijod maktablari va Uchinchi Renessans g'oyasi aynan o'sha davrda saqlab qolingan milliy qadriyatlar va badiiy meros ustiga qurilmoqda.

XXI asr boshidagi (2000-yillardan bugungi kungacha) o'zbek ijodkor ziyolilarining faoliyati mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy sharoitda kechdi. Bu davrni mustaqillik mafkurasining shakllanishi va globalizatsiya (globallashuv) davri deb atash mumkin. Bu davrda ijodkorlar oldida sobiq ittifoq qoliplaridan butunlay voz kechish va milliy davlatchilik g'oyasini mustahkamlash vazifasi turgan edi. Ijodkorlar (masalan, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva) o'z asarlarida hurlik, vatanparvarlik va milliy g'urur mavzularini eng yuqori bosqichga olib chiqdilar. XX asrning ikkinchi yarmida ta'qiqlangan mavzular (Jadidchilik harakati, Amir Temur shaxsi, din erkinligi) XXI asr boshida asosiy mavzularga aylandi. Adabiyotga „modernizm" va „postmodernizm" elementlari kirib keldi. Nazar Eshonqul, Shodmon Sulaymon kabi ijodkorlar inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini yangicha uslublarda tasvirlay boshladilar.

Yangi davr — Uchinchi Renessans poydevori 2016-yildan boshlab ijodkor ziyolilarga munosabat tubdan o'zgardi va bu Uchinchi Renessansning boshlanish nuqtasi bo'ldi. So'z erkinligining kengayishi, ijodkorlar jamiyatdagi kamchiliklarni, ijtimoiy adolatsizliklarni ochiq yozish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa adabiyotning ijtimoiy rolini oshirdi. Ijod maktablarining tashkil etilishi: Bu — XXI asrning eng katta tarixiy voqealaridan biri bo'ldi. Adiblar nomidagi ijod maktablari (masalan, Halima Xudoyberdiyeva, Muhammad Yusuf, Erkin Vohidov maktablari) yangi avlod ziyolilarini tarbiyalash markaziga aylandi. Ijodkorlar uchun „Adiblar xiyoboni" qurilishi, „O'zbekiston Qahramoni" unvonlari bilan taqdirlash va ularning uy-joy sharoitlarini yaxshilash tizimli ravishda yo'lga qo'yildi.

XXI asr boshidagi ijodkor ziyolilar — milliy mustaqillikni ma'naviy jihatdan mustahkamlagan qatlam sifatida bugungi kunda ular nafaqat asar yozmoqdalar, balki o'zlarining nomlari bilan atalgan Ijod maktablarida bo'lajak Renessans bunyodkorlariga ustozlik qilmoqdalar.

Uchinchi Renessans — bu hozirgi davrda Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy yangilanish jarayoni bo'lib, ushbu g'oya O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2020-yilda ilgari surilgan. Uchinchi Renessansning maqsadi: mamlakatni ilm-fan, ta'lim, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatoriga olib chiqish. Poydevori esa ta'lim va tarbiya, ilm-fan va innovatsiyalar, shuningdek, yoshlar Uchinchi Renessansning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Bu jarayon tariximizdagi ikki buyuk uyg'onish davriga asoslanadi:

- Birinchi Renessans (IX-XII asrlar): Musulmon Sharqi uyg'onish davri (Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farobiy va boshqalar).

- Ikkinchi Renessans (XIV-XV asrlar): Temuriylar davri (Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy va boshqalar).

Qisqa qilib aytganda, Uchinchi Renessans — bu xalqimizning tarixiy yutuqlarini zamonaviy taraqqiyot bilan birlashtirib, yangi yuksalish bosqichiga olib chiqish strategiyasidir.[1]

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi „Prezident ta'lim muassasalari agentligi" tasarrufiga kiruvchi, 2017-yildan tashkil etila boshlangan til va adabiyotni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlari bo'mish ijod maktablari aynan yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlashga, ular qobilyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan sa'y-harakatlarning mutlaq davomi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ijod maktablari — bu Uchinchi Renessansning „drayveri" (harakatlantiruvchi kuchi). Agar Renessansni bino deb tasavvur qilsak, ijod maktablarida tahsil olayotgan yoshlar shu binoning eng muhim g'ishtlarini qo'yuvchi muhandislaridir. Davlat bu maktablarga sarmoya kiritish orqali kelajakdagi yangi Beruniy va Navoiylarni tarbiyalashni maqsad qilgan.

Bugungi kunda respublikamizda 9 ta ijod maktablari faoliyat yuritib, ushbu maktablar mamlakatimizning turli hududlarida buyuk adiblar nomi bilan ataladi: Qashqadaryo viloyatida Abdulla Oripov nomidagi ijod maktabi (2017-yil), Farg'ona viloyatida Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi (2018-yil), Qaraqalpog'iston Respublikasida Ibroyim Yusupov nomidagi ijod maktabi(

2017-yil), Jizzax viloyatida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi (2017-yil), Namangan viloyatida Is'hoqxon Ibrat nomidagi (2017-yil), Sirdaryo viloyatida Halima Xudoyberdiyeva nomidagi (2019-yil), Xorazm viloyatida Muhammad Rizo Ogahiy nomidagi (2019-yil), Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy nomidagi (2019-yil) va Andijon viloyatida Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktablari (2017-yil) faoliyat ko'rsatmoqda.[2]

**Xulosa:** O'zbekistonda poydevori qo'yilayotgan Uchinchi Renessansning strategik drayveri — bu nafaqat texnologik taraqqiyot, balki intellektual salohiyati yuksak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan yangi avlod ziyolilaridir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda tashkil etilgan ijod maktablari shunchaki ta'lim muassasasi emas, balki milliy g'oyani kreativ fikrlash bilan sintez qiluvchi „ma'naviy laboratoriya“ vazifasini o'tamoqda. Ushbu jarayonda ijodkor ziyolilarning o'rni quyidagi uchta ustuvor yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Ma'naviy vorislik: Ajdodlar merosini zamonaviy tafakkur prizmasidan o'tkazib, uni yangi shakllarda (digital-art, zamonaviy adabiyot, media) dunyoga taqdim etish;

2. Kreativ iqtisodiyot: Ijodiy maktab bitiruvchilarining intellektual mahsuloti kelajakda mamlakat yalpi ichki mahsulotining salmoqli qismini tashkil etuvchi „yumshoq kuch“ (soft power)ga aylanishi;

3. Ijtimoiy yetakchilik: Ziyolilar qatlamining jamiyatda tanqidiy va tahliliy fikrlash madaniyatini shakllantirishdagi faolligi.[3]

Xulosa qilib aytganda, ijod maktablari orqali shakllanayotgan intellektual resurs Uchinchi Renessansning „ma'naviy generatori“ hisoblanadi. Zero, har qanday iqtisodiy sakrashning negizida, avvalo, inson kapitali va uning yaratuvchanlik quvvati yotadi. Shunday ekan, ushbu maktablar tizimini yanada takomillashtirish va ijodkor yoshlarni qo'llab-quvvatlash — millatning strategik kelajagiga tikilgan eng samarali sarmoyadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. „Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“. – Toshkent, 2021-yil 19-iyul.
3. M.Jo'rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar „O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida“ 2-kitob. Toshkent: Sharq, 2000-yil
4. Ziyonet axborot-ta'lim tarmog'i: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

UDK 908

## ANDIJON VILOYATINING O'ZBEKISTON XALQARO MADANIY ALOQALARDAGI O'RNI

*M.S.Sodiqova, o'qituvchi, Andijon davlat pedagogika instituti, Andijon*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Andijon viloyatining mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi madaniy aloqalarida tutgan o'rni va ishtiroki tahlil qilinadi. Viloyatda amalga oshirilayotgan turli madaniy loyihalar, ilmiy-ma'rifiy hamkorlik, san'at va sport sohalarida chet el davlatlari bilan o'rnatilgan munosabatlar hamda bu jarayonlarda erishilayotgan yutuqlar yoritiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolar, faoliyatni yanada rivojlantirish istiqbollari haqida xulosalar beriladi.

**Kalit So'zlar:** Andijon, tashqi madaniy aloqalar, san'at, sport, ilmiy-ma'rifiy hamkorlik.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль Андижанской области в внешних культурных связях Узбекистана в период независимости. Рассматриваются различные культурные проекты, реализуемые в регионе, научно-просветительское сотрудничество, отношения с зарубежными государствами в сфере искусства и спорта, а также достижения, достигнутые в данном процессе. Кроме того, даётся оценка существующим проблемам и перспективам дальнейшего развития.

**Ключевые Слова:** Андижан, внешние культурные связи, искусство, спорт, научно-просветительское сотрудничество.

**Abstract.** This article analyzes the role and participation of Andijan region in Uzbekistan's foreign cultural relations during the years of independence. It discusses various cultural projects implemented in the region, scientific-educational cooperation, ties with foreign countries in the fields

*of art and sports, as well as the achievements made so far. Furthermore, the article addresses existing challenges and prospects for future development.*

**Key words:** *Andijan, foreign cultural relations, art, sports, scientific-educational cooperation.*

Xalqaro madaniy aloqalar bu turli xalqlar, millatlar yoki guruhlar o'rtasidagi madaniyatga oid o'zaro aloqa va munosabatlardir. Xalqaro madaniy aloqalar davlatlarning milliy manfaatlarini ilgari surish, ularning ijobiy imijini shakllantirish, taraqqiyot va barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, tinchlik va o'zaro hamjihatlikka erishish va uni mustahkamlash yo'lida muhim omil hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda madaniy hayotni rivojlantirish, chet el mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda madaniy hayotni rivojlantirish, chet el mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda asosiy maqsadlardan biri sifatida qaraldi. Madaniy almashinuvlar orqali mamlakat imidjini shakllantirish, o'zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash va mintaqaviy va jahon hamkorligida qatnashish imkoniyati kengaydi. Andijon viloyati esa hududiy imkoniyatlari, boy madaniy merosi va an'analari bilan tashqi madaniy aloqalarda muhim o'rin tutdi.

Andijon viloyati iqtisodiyoti, tarixi va madaniyati bo'yicha ilmiy adabiyotlar ko'plab yoritilgan bo'lsa-da, tashqi madaniy aloqalardagi ishtiroki kamroq muhokama qilingan. Xorijiy manbalarda Markaziy Osiyoda madaniy hamkorlik, san'at tadbirlari va sport musobaqalarining mintaqaviy ahamiyati xususida bir qancha ma'lumotlar beriladi. Milliy tadqiqotchilarimiz Andijon viloyatida tartibga solinayotgan madaniy loyihalar, chet el grantlari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik tizimi haqida tajriba maqolalar chop etishgan. Jahon banki, YUNESKO va boshqa xalqaro tashkilotlar hisobotlarida esa madaniy turizm, an'anaviy kasb-hunarlarning targ'iboti orqali mintaqaning turistik jozibasi oshishi kabi yondashuvlar qayd etiladi.

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgach, Vatanimizda yashayotgan turli millatlar o'rtasida o'zaro hurmat, teng huquqlilik hamda hamjihatlikni mustahkamlash, uning qonuniy asoslarini yaratishga alohida e'tibor qaratildi. Xalqaro miqyosda o'z milliy madaniy merosini tanitish va uni rivojlantirish yo'lida faol siyosat yurita boshladi. Bu jarayonda yurtimiz viloyatlari ham xalqaro madaniy aloqalarning rivojida o'ziga xos o'rin tutdi. Jumladan, Andijon viloyati O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosga ega hududlardan biridir. Aynan mustaqillikdan keyingi davrda viloyatda o'tkazilgan xalqaro madaniy tadbirlar va xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etish orqali viloyat o'zining xalqaro aloqalarini kengaytirdi. Andijon viloyati hunarmandchilik, san'at va ma'naviy meros markazlaridan biri sifatida xalqaro madaniy aloqalarning shakllanishida faol qatnasha boshladi.

1992-1995-yillarda Andijonlik san'atkorlar Turkiya, Eron, Hindiston, Rossiya, Qozog'iston kabi davlatlarda o'tkazilgan madaniy ko'rgazma va festivallarda ishtirok etib, o'zbek milliy san'atini namoyish etdilar [2, p.64]. 1993-yildan boshlab Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi va Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda bir qator xalqaro madaniy forumlarga mezbonlik qila boshladi. Masalan, 1994-yilda Andijon shahrida tashkil etilgan "Ipak yo'li bo'ylab madaniyat" festivali doirasida Xitoy, Hindiston, Turkiya, va Eron san'atkorlari bilan hamkorlik o'rnatildi [3, p.88]. Bu kabi tadbirlar orqali Andijon o'zining nafaqat san'at balki hunarmandchilik, xalq ijodi, musiqa va raqs san'ati bo'yicha salohiyatini xalqaro maydonga olib chiqdi.

Andijon viloyatining Xonobod shahrida 2023-yilning 19-23 iyun, 2024 yilning 29-31-iyul kunlari o'tkazilgan "Dunyo sadolari" xalqaro san'at festivali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan "Yangi O'zbekiston – yangi madaniyat" tamoyillarining amaliy ifodasidir [1, b. 3]. Festival nafaqat badiiy ijodiy ifoda, balki xalqaro madaniy integratsiyaning muhim ko'rinishi bo'lib, viloyatni xalqaro miqyosda san'at va madaniyat bo'yicha nufuzli markazga aylantirishga xizmat qilmoqda. Festivalda Germaniyadan Boney M musiqiy guruhi, Shvetsiyalik musiqachi Doctor Alban, shuningdek, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Bolgariya, Latviya, Polsha, Gretsiya, Serbiya va Rossiyadan madaniy delegatsiyalar ishtirok etib, dunyo xalqlarining madaniy uyg'unligiga o'z hissasini qo'shishdi [2, b. 19]. Festivalning doimiy an'anaga aylantirilishi, uning doirasida ilmiy-amaliy konferensiyalar, xalqaro madaniy forumlar tashkil etilishi nafaqat Andijon viloyati, balki butun O'zbekiston madaniy hayotida o'ziga xos yangi sahifa

ochmoqda. Festivalning Andijon viloyatida tashkil etilishi mintaqadagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, turizm va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, yoshlarning estetik tarbiyasini yuksaltirishga ham xizmat qildi. Ayniqsa, festival doirasida yoshlarga bag'ishlangan madaniy tadbirlar, teatr tomoshalari va xalq ijodiyoti festivallari orqali ularning san'atga bo'lgan qiziqishi va ishtiroki ortdi [3, b. 45]. Bu kabi xalqaro tadbirlar orqali O'zbekistonning xalqaro imijini yuksaltirish, ijobiy madaniy kommunikatsiyalarni shakllantirish va tarixiy xotirani zamonaviy san'at orqali aks ettirishga keng yo'l ochilmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "O'zbek xalqining boy tarixi, ma'naviyati va madaniyati – bu bebaho boylikdir. Uni chuqur o'rganish, asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazish bizning muqaddas burchimizdir". Ushbu tamoyil asosida Andijon viloyatida o'tkazilayotgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar nafaqat viloyat, balki umummilliy miqyosda tarixiy xotirani uyg'otishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Andijon shahrida 2022-2024-yillarda tashkil etilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur merosi va jahon tamadduni" hamda "Boburiylar va O'zbekiston – Hindiston munosabatlari" kabi xalqaro konferensiyalar tarixiy shaxslar va ularning madaniy ta'sirini qayta baholash, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, yosh avlod ongida tarixiy xotira va milliy iftixorni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Ushbu anjumanlar doirasida xorijiy mamlakatlardan (Hindiston, Turkiya, Eron, Rossiya va boshqalar) olimlar ishtirok etayotgani, Boburshunoslik, tarixshunoslik, arxivshunoslik va madaniyatshunoslik yo'nalishlaridagi dolzarb mavzular muhokama qilinayotgani Andijon viloyatini xalqaro ilmiy markazga aylantirmoqda. Ushbu jarayonlar orqali tarixiy haqiqatlar yangicha talqinda ochilmoqda, ilgari siyosiy sabablarga ko'ra yopiq bo'lgan mavzular ochiq muhokama maydoniga olib chiqilmoqda. Shuningdek, mazkur anjumanlarda "Tarixiy xotira – milliy yuksalish kafolati", "Ilm-fan va ma'naviyat uyg'unligi", "Boburshunoslikda zamonaviy yondashuvlar" kabi mavzulardagi chiqishlar orqali tarixiy ong va milliy g'ururni shakllantirish masalalari ilgari surildi.

Andijon viloyati madaniy hayotida alohida o'ringa ega bo'lgan Andijon davlat musiqali drama teatri nafaqat respublika miqyosida, balki xalqaro sahnalarda ham o'zining ijodiy salohiyati bilan tanilgan muassasalardan biridir. Teatr o'z faoliyatini xalqaro darajaga olib chiqib, bir necha mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lgan, O'zbekiston san'atining madaniy elchisi sifatida chiqish qilgan. So'nggi yillarda teatr ijodiy jamoasi tomonidan tayyorlangan sahna asarlari xalqaro gastrollar orqali keng auditoriyaga taqdim etilmoqda. Andijon davlat teatri 2022-yilda Qozog'iston Respublikasining Olmaota va Chimkent shaharlarida o'zining "Bobur" dramatik spektaklini namoyish qildi. 2023-yilda Qirg'izistonning O'sh va Bishkek shaharlarida "Otamdan qolgan dalalar" spektakli bilan, "Jahon turkiy xalqlari san'ati haftaligi" doirasida Istanbul va Bursa shaharlarida o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlarini targ'ib qiluvchi Ko'hna Samarqand" va "Ona zamin" spektakllari bilan ishtirok etib, xalqlar o'rtasidagi tarixiy-madaniy aloqalarni mustahkamlashda kata ahamiyat kasb etdi. 2024-yilda Rossiyaning Ufa, Qozon va Moskva shaharlarida teatr jamoasi "Navro'z" bayramiga bag'ishlangan ijodiy dastur bilan qatnashdi. Bu kabi tadbirlar davlatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashga va kengaytirishga zamin yaratdi. Xususan, "Dunyo sadolari" xalqaro san'at festivali, Andijon davlat teatrining xorijiy gastrollari, qirg'iz, uyg'ur, rus, koreys va arman kabi milliy madaniy markazlar tomonidan uyushtirilayotgan ko'rgazmalar, konsertlar va an'anaviy urf-odatlar namoyishlari O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi madaniy diplomatiyasining amaliy ifodasiga aylanmoqda.

Shunday qilib, Andijon viloyatida yo'lga qo'yilgan madaniy tashabbuslar, teatr va musiqa san'atining rivoji, milliy madaniy markazlar va xalqaro anjumanlar orqali amalga oshirilayotgan faoliyatlar nafaqat mintaqaviy madaniy uyg'unlikni ta'minlash, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro miqyosdagi ijobiy imijini shakllantirishda ham muhim o'rin tutmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017. 592 b.
2. Ахмедов Ш. Андижон тарихи ва маданияти: кўп асрлик мерос. –Тошкент: Фан нашриёти, 2019.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Andijon, 2024. – 320 b.

**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING “SIYOSIY ETAKCHI” HAQIDA QARASHLARI:  
XOKIMIYATSHUNOSLIK ILMI, AN‘ANA VA QADRIYATLAR**

*S.R.Turayeva, prof., t.f.d., O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada davlat qurilish va boshqaruv sohasidagi rahbar kadrlarni tayyorlashda sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk, Kaykovus, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Xo‘ja Samandar Muhammad Baqa Termiziyning asarlaridagi siyosiy yetakchilar to‘g‘risidagi qarashlari o‘rganilgan. Ularning g‘oyalarining bugungi kun uchun ahamiyatli tomonlari tahlil etilgan. Yangi O‘zbekistonda davlat qurilishi va siyosiy boshqaruv sohasida ajdodlar ma‘naviy merosidagi, yuqsak ahloqiy qadriyatlarimizga tayangan holda ish yuritish maqsadidan kelib chiqib, uni yanada yuksaltirishga, bugungi dunyo siyosatshunosligidagi yangi bilimlar bilan hamohang olib borishga e‘tibor qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** Davlat boshqaruv, ijtimoiy-demokratik davlat, siyosiy yetakchi, hokimiyat, davlatchilikning tarixiy ildizlari, sharq mutafakkirlar.

**Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды политических лидеров в трудах таких мыслителей Востока, как Абу Наср Фароби, Юсуф Хос Хаджиб, Низамулмулк, Кайковус, Хусайн Воиз Кошифи, Алишер Навои, Ходжа Самандар Мухаммад Бака Термизи, на подготовку руководящих кадров в области государственного строительства и управления. Анализируются значимые для современности аспекты их идей. В области государственного строительства и политического управления в новом Узбекистане уделяется внимание дальнейшему его совершенствованию в соответствии с новыми знаниями современной мировой политической науки, на основе духовного наследия наших предков и наших высоких нравственных ценностей.

**Ключевые слова:** Государственное управление, социал-демократическое государство, политический лидер, власть, исторические корни государственности, мыслители Востока.

**Abstract.** This article examines the views of political leaders in the works of such Eastern thinkers as Abu Nasr Farabi, Yusuf Khos Hajib, Nizamulmulk, Kaykovus, Husayn Voiz Koshifi, Alisher Navoi, and Khoja Samandar Muhammad Baqa Termizi on the training of leadership in state building and governance. Aspects of their ideas that are significant for today are analyzed. In the area of state building and political governance in the new Uzbekistan, attention is paid to its further improvement in accordance with new knowledge from contemporary global political science, based on the spiritual heritage of our ancestors, and our high moral values.

**Key words:** Public administration, social democratic state, political leader, power, historical roots of statehood, Eastern thinkers.

Siyosatshunoslikning muhim bir sohasi “kratologiya” bo‘lib, u hokimiyat va boshqaruv haqidagi fandır. Dunyoning ko‘plab olimlarining mazkur sohaga oid tadqiqotlari mavjud. Xususan, M. nems olimi M. Veber, N. Makivelli, T. Parsons, G. Lassuell, A. Kaplan, D. Kartrayt, J. French, B. Reyven, D. Rong, M. Malder, R. Blau, M. Rojers va boshqalar hokimiyatchilik ilmi bilan faol shug‘illanganlar[7]. Zamonaviy siyosatshunoslikdagi “yetakchi” - rahbar kadr, yo‘l ko‘rsatuvchi ma‘nosini anglatadi. Yetakchi boshqalarga ta’sir eta olish, muayan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikdagi faoliyatlarini tashkil eta olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Hokimiyat tarkibining asosiy elementlaridan biri bo‘lgan siyosiy yetakchi rolini bilib olish faqatgina u yoki bu siyosiy arbobga xos shaxsiy sifatlarni, uning ijtimoiy hayotga ta’sirini aniqlash uchungina emas, balki avvalo, siyosatning chuqur ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tushinib olish uchun ham muhimdir. “Yangi O‘zbekiston- ma‘rifatli jamiyat” konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturi ishlab chiqildi. Bu avvalo, ma‘naviy- ahloqiy qadriyatlarimizni davr talablaiga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy- ma‘rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. O‘z navbatida, bu jamiyat a‘zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Davlat boshqaruvida biz uchun nisbatan yangi, lekin ko'plab rivojlangan demokratik mamlakatlarda amal qilayotgan "Davlat xalqqa xizmat ko'rsatishi shart" g'oyasini tatbiq etishni nazarda tutuvchi "Xalqchil davlat" milliy dasturi ishlab chiqiladi, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi[2] qonun qabul qilinadi.

Aholimiz, fuqarolarning siyosiy-huquqiy saviyasini oshirib borish bilan hokimlarni to'g'ridan-to'g'ri saylash tizimiga o'tiladi. Bularning barchasi samarali va zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining shakllanishi va takomillashuvi uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat qiladi. Davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik adolatga asoslangan, odamlar manfaatiga xizmat qiladigan xalqparvar qarorlar qabul qilish tizimi shakllantirildi. 2023 yil 30 apreldagi Yangilangan konstitutsiyamizda ham avvalgi, ko'p yillar davomida amal qilib kelingan "davlat-jamiyat-inson" tamoyilini o'zgardi. Hayotimizda "davlat- insonlar uchun" degan xalqchil g'oya izchillik bilan qaror topib bormoqda. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" g'oyasi har jabhada ustivor bo'lmoqda. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoev takidlaganidek, "bizning bu harakatlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoyi, Bobur Mirzo kabi buyuk ajdodlarimizning davlat va xalq birligi, insonparvarlik va adolat ustuvorligi haqidagi yuksak g'oyalarga tayanadi". [5]. Aholining siyosiy tafakkur tafakkurida inson oliy qadriyat ekanligi xususidagi qarashlar shakllandi. Davlat rahbari aytganidek, "xalq dalat organlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak. Rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilishi kerak." [6]

Markaziy Osiyoda davlatchilik va davlat boshqaruv an'anlari uzoq o'tmishga ega bo'lib, o'ziga xos yetakchilik to'g'risida tajriba va qarashlarga egadir. Har qanday davlatchilikning tarixiy ildizlari ilmiy tadqiq etilsa, u baquvvat davlatga aylana boradi. Ushbu tarixiy hududda davlat boshqaruviga oid bir necha maxsus asarlar yozilgan. Sharqda yaratilgan ba'zi asarlar barcha davrlar uchun davlatni, jamiyatni boshqarishda, dinu e'tiqod pokligini, mamlakat yaxlitligi va dahlsizligini saqlashda, fuqarolar haq-huquqlari va osayishtaligini himoya qilishda, xalqqa shu talablar darajasidagi salohiyatli rahbarlar bosh bo'lishida asqotadi. Abu Nasr Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Nizomulmulukning "Siyosatnoma yoki Siyar ul-muluk", Kaykovusning "Qobusnoma", "Temur tuzuklari", Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoniyy" va "Axloqi muhsiniy", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Hayratul-abror" Samandar Muhammad Baqo Termiziyyning "Dastur ul - muluk"(Podshohlar uchun dastur), Muhammad Ra'fi Ansorining "Dastur al- muluk" (Podshohlar uchun dastur) shunday asrlar sirasiga kiradi. Ushbu asarlarda sharqdagi "siyosiy yetakchiga" xos qarashlar o'z aksini topdi.

Forobiy (873-950) fozil shahar hokimining fazilatlarini haqida: "bunday shahar hokimi hech kimga bo'ysunmasligi kerak deb, unga tegishli 12 ta sifatni sanab o'tadi. Bular quyidagilar: 1. to'rt muchasi sog'lom bo'lishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni oson bajarishi lozim, 2. tabiatan nozik farosatli bo'lib, suhbatdoshining so'zlarini, fikrini tez ilg'ab olishi lozim, 3. anglagan, ko'rgan, eshitgan, idrok etgan narsalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qolishi, barcha tafsilotlarni unutmasligi zarur, 4. u zehni o'tkir, zukko bo'lib, har qanday narsaning bilinar-bilinmas alomatlarini va u alomatlarini nimani anglatishini tez bilib, sezib olishi zarur, 5. u fikrini ravshan tushuntira olish maqsadida, chiroyli so'zlar bilan ifodalay olishi zarur, 6. u ustozlardan ta'lim olishga, bilim ma'rifatga havasli bo'lishi, o'qish o'rganish jarayonida sira charchamaydigan, buning mashaqqatidan qochmaydigan bo'lishi zarur, 7. taom yeyishda, ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, aksincha, o'zini tiya oladigan bo'lishi, (qimor yoki boshqa) o'yinlardan zavq, huzur olishdan uzoq bo'lishi zarur, 8. u haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan bo'lishi zarur, 9. u o'z qadrini biluvchi va nomus oriyatli odam bo'lishi, pastkashliklardan yuqori turuvchi, tug'ma oliyhimmat bo'lishi, ulug', oliy ishlarga intilishi zarur, 10. u mol-dunyo ketidan quvmaydigan bo'lishi zarur, 11. Tabiatan adolarparvar bo'lib, odil odamlarni sevadigan, istibdod va jabr-zulmni, mustabid va zolimni yomon ko'ruvchi, o'z odamlariga ham, begonalarga ham haqiqat qiluvchi, barchani adolatga chaqiruvchi, nohaq jabrlanganlarga madad beruvchi, barcha yaxshilikni va o'zi suygan go'zalliklarni ravo ko'ruvchi bo'lishi zarur. O'zi haq ish oldida o'jarlik qilmay, odil ish tutgani holda har qanday haqsizlik va razolatlariga murosasiz bo'lish zarur, 12. o'zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli,

jasur bo'lishi, qo'rqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymasligi zarur"[8]. Bunday fazilatlar mujassam bo'lgan bir kishini topish mushkul vaziyatda, yuqoridagi fazilatlar ega kishilar guruhi orqali ham davlatni boshqarish mumkinligi aytiladi.

Yusuf Xos Hojib Balasog'uniyning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga elituvchi bilim") asari 1069 yilda yozgan bo'lib, unda davlat boshlig'i qanday bo'lishi xususida O'gdulmishning javobi shunday edi: "bek (mamlakat boshlig'i) bo'ladigan odam dono, botir, sheryurak bo'lishi kerak. Uning bilimi, zakovatli, mulohazakor bo'lishi taqozo etiladi. Ochiq yuzlilik bekning yaxshi fazilatlaridan biri. odamzod nasli aslida yer yuzidagi barcha jonlilar orasida eng ulug'idir. Ammo bu ulug'lik bilim bilangina to'liqlik, mukammallik kasb etadi. Beklik muqaddaslik va poklikni talab etadi. Hushyorlik, sergaklik u qo'ygan talablar qatorining boshida turadi. Bundan tashqari, bek ezgulik yo'lida sobit va komil turmog'i, aql-idrok yo'riqlarini tutmog'i kerak. Bilim ish boshini belgilasa, idrokni yuritish barcha yumishlarni o'nglaydi. Bilim bilan el yomon yo'ldan asranadi. Bilimsiz kishining qo'li kalta bo'ladi. Beklarning kasalligi- xatosini tuzatuvchi dori-darmon ham - aql va bilimdir. Kimda – kim buzuq fe'l bo'ladigan bo'lsa, uni zamona o'qi qattiq yarodur qiladi. Yaramas qiliqli kishidan omad ham yuz o'giradi, u g'amga giriftor bo'ladi. Andishali va hulqi pokiza kishilar soflikka intiladi. Andishali ko'ngil istaklarini tiyishning uddasidan chiqadi. Andishasiz bo'lsa, u nuqsonli, nopokdir. Qaror va chidam – el boshlig'iga ko'rk. Idrokli odamgina ish boshi bo'lishga loyiq. Johil va beg'am odamlarning ishdan yiroq turgani ma'qul. Ko'ngilsiz kishining ko'zidagi nurdan ham naf yo'q, u atrofn keragicha ko'rmaydi, kuzata olmaydi. Aql-u idrok chek-chegarasiz ezgulik demakdir. Aql-u idroki bo'lsagina, unday odamni dono deb atash mumkin. Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik- nodonlar ishi. Bundan tashqari, yana quyidagi xususiyatlar ham el boshlig'ida bo'lishi shart:

*Ko'zi to'q, uyayutli bo'lsa gar o'zi,  
Ochiq bo'lsa yuzi, ko'ngil ham so'zi.  
Hech to'ymas bo'ladi ko'zi suq kishi,  
Ko'zi suqqa yetmas bu dunyo oshi.  
Boshliq beshita ishdan uzoq turmog'i, ulardan asranmog'i shart:  
Birisi- shoshmoqlik, biri – ko'zi och,  
Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.  
To'rtinchi- yovuzlik, buzuq fe'llilik,  
Oxirgisi- yolg'on, qo'pol tillilik.  
Bu besh ishdan boshliq yiroq tutsa, to  
Nomi bulg'anmasa, bo'lmasa xato.  
Bulardan tubani yomon fe'l erur,*

Yomon fe'l kishiga alamlar berur."[9]. Muarrir elga bosh bo'lish og'ir va ulug' ish ekanligini, bu ishning tashvishlari borligini, rohatni istagan boshliq xalqiga sodiq va mehribon, ezgulik, umumxalq manfaatiga, taraqqiyotiga xizmat qilishi, el-yurtga zarar keltiruvchi yomon illatli kishilarga omonlik bermaslikka, qarshi kurashishga da'vat etadi. Xalqqa peshvoman deb oldinga chiqqan shaxsning himmatli, murivvatli bo'lishi izzat, hurmat berishini ta'kidlaydi. "Kimning himmati bo'lmasa u - o'likdir" deb ta'riflaydi.

O'z davrining qomusiy bilimlariga ega bo'lgan mutafakkirlaridan biri Kaykovus XI asrning 82-83 – yillarida yaratilgan "Qobusnoma" asarida maxsus "podshohlik sharti va rasmi zikrida" deb nomlangan bobda quyidagilarni qayd etadi: "Ey farzand, agar podshoh bo'lsang, porso bo'lg'il va ko'zingni, qo'lingni xaloyiqning ayol va atfolidin (xotin va bola- chaqalaridan) yiroq tutg'il. Pok va imn bo'lg'ilki, pok va imnlik pokdillikdur. Har ish qilsang, aql farmoni bila qilg'il va aqldin bemaslahat ish qilmag'il, nedinkim, podshohning vazirlari aqlidir. Hech ishda shitob qilmag'il. Har ishgaki kirishar bo'lsang, oldin o'sha ishdin chiqmoqni yaxshi ko'zlagil va ishning oxiriga qarag'il. Har bir ishning o'lhog'iin bilg'il va barcha ishni o'ylab qilg'il. Barcha ishga, so'zga aql yuzi bila qarag'il, toki botilni ko'ra olg'aysan. Hamisha rostgo'y bo'lg'il, kam so'zlag'il va oz kulgil, toki kichiklar senga go'stox (ibosiz, adabsiz) va dalir (jasur) bo'lmasinlar, nedinkim, debdurlar: "Podshoh uchun eng yomon ish xalqning go'stoxlig'idur." Har naki ato (hadya qilish) qilsang, mustahiq qilg'il va o'zingni aziz tutg'il, lashkar va raiyatning ko'ziga xor ko'rinmag'il. Hech odamdin zinhor bir

narsa tilamag‘il va bandalarga rahmdil bo‘lg‘il, ammo berahmlarga rahm qilmag‘il. Hamisha lutf va karamni odat qilg‘il, lekin siyosatlik bo‘lg‘il. Barcha ishni butkul vazirga taslim qilmag‘il, uning ra‘yiga hamisha muhtoj bo‘lmag‘il. Vazir har odamning haqida har so‘zni aytsa eshtig‘il, ammo darhol qabul qilmag‘il. Vazirga aytg‘ilki: “O‘ylab ko‘rurmen, agar ma‘qul bo‘lsa, u ishni qilmoqni senga buyururman”. O‘zing bu ishni baxshish bila imtihon qilg‘il, toki uning naf va zarari senga ma‘lum bo‘lg‘ondan keyin har naki hukm qilsang qilg‘il”[10]. Podshohga qanday yoshdagi-yu, shakli shamoyilga ega shaxsni vazir tanlashiga ham maslahatlar keltiriladi.

Ushbu asarda Kaykovus yirik davlat arbobi sifatida o‘g‘li Gilonshohga podshohlik, vazirlik kabi ulug‘ martabadan tortib, dehqonchilik ishlari tajribalari, dehqon odobigacha bo‘lgan umuminsoniy masalalar haqida ta‘lim beradi. Mullifning fikricha, mamlakat fuqarolarining bir-biriga samimiy munosabati, o‘z haq – huquqlariga, burchlariga rioya etish, do‘stlarning sadoqati, og‘ir paytlarda bir-birlariga hamdardlik, ta‘madan uzoq bo‘lish, mamlakat boshqaruv ishlarida odil va muruvvatli bo‘lish, o‘z kasb-hunari sirlarini makammal egallash kamolat belgisidir.

Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy - Nizomulmuluk “Siyosatnoma” ( yoki Siyar ul muluk) asrini 1091 yilda, saljuqiylar shohi Alparslon (1063-1072) saroyida dabirlikdan(kotiblikdan) vazirlik mansabigacha bo‘lgan tajribasidan kelib chiqib yozgan. Unda hukmdor haqida quyidagi fikrlarni beradi: “Alloh odamlardan bir kishiga qudratini ko‘rsatib, davlat va iqbol beradi. Haq taolodan bilim va aql topib, shu bilim bilan qo‘l ostidagilardan har birini o‘ziga teng biladi, har biriga martabasiga mos qadr qilib, mansab beradi. Xizmatkorlarini xalq o‘rtasidan ajratib oladi, har biriga bir martaba va manzila beradi, din va dunyo zarurati-yu muhimoti bilan ularni ta‘minlaydi, raiyatni (xalqni) muhofazat qiladi, toki uning adli soyasida xaloyiq rohat ila yashab kun ko‘rsin. ... Davlatni idora qilish talablaridan yana biri bu chetdan koriz qazib suv keltirish, qishlog‘u dalalar obodligi uchun katta ariqlar qazish, qal‘alar qurish, shaharlar bino etish, zebo binolaru keng ko‘chalar, rabotlar qurishidir ”[11]. Nizomulmulukning yana bir fikri bugungi kunda ham ahamiyatli bo‘lib, kuchli fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat tuzishda, fuqarolarning haq-huquqlarini muhofaza qilishda fuqarolarning murojaati haqidagi qarashlari diqqatga sazovordir. Uning yozishicha, “ podshoh haftada ikki kun zulm ko‘rganlarni qabul qilib, zolimlarni jazolab va raiyat so‘zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo‘lgan arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning so‘zlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi, degan xabar mamlakatga tarqasa, unda zolimlar oqibatini o‘ylab, qo‘rqib bedodlik qilmaydilar[12]”. Nizomulmulukning fikricha, hukmdor ilm oluvchilar uchun ilmgohlar ochishi zarur, uning savobi katta bo‘lib mamlakatda tinchlik, taraqqiyot, xalqni ma‘rifatli bo‘lishiga xizmat qiladi. Muarrixning qayd etishicha, “Ezid taolo ne‘matlari qadrini *podshohlarning bilishlari ularning xalqqa qiladigan xayru ehson va adolatlaridan* ma‘lum bo‘ladi”.

Hayotiy va siyosiy hikmatlarga to‘la “Temur tuzuklari”da Amir Temur (1370-1405) hukmronligi davridagi tajribasiga tayanib, podshohlar uchun 12 ta tavsiyani beradi. Bular : “ 1. Podshoh o‘z so‘ziga ega bo‘lsin, ishini o‘zi bilib qilsin, ya‘ni raiyat podshosining aytgan so‘zini, qilgan ishini o‘zi aytadi, o‘zi qiladi, hech kim bunga aralasholmaydi, deb bilsin. Shunday bo‘lgach, podshoh saltanat martabasiga sherik bo‘lgudek qilib birovning gapiga va ishiga ergashmasin. Garchi yaxshi so‘zni hammadan eshitish zarur bo‘lsa ham, lekin so‘zda, ishda boshqalar saltanat ishlarida podshohga sherik, yohud ustun bo‘lmasliklari shart, 2. Sulton har narsada adolatpesha bo‘lsin, qoshida insofli adolatli vazirlar tutsin, toki podshoh zulm qilgudek bo‘lsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agar vazir zolim bo‘lsa, ko‘p o‘tmay saltanat uyi qulaydi, 3. Butun mamlakatda buyruq va ta‘qiqlashlar podshohning o‘z ixtiyorida bo‘lishi lozim. Podshoh har ishda o‘zi hukm chiqarsin, toki hech kim uning hukmiga aralashib, o‘zgartira olmasin, 4. Podshoh o‘z qarorida qat‘iy bo‘lsin, ya‘ni har qanday ishni qilishga qasd qilar ekan, uni bekor etmasin va to bitirmaguncha undan qo‘l tortmasin, 5. Podshoh hukmi joriy etilishi zarur, ya‘ni qanday hukm chiqarishidan qat‘iy nazar, amalga oshirilishi kerak, 6. Podshohlik ishlarini tamoman boshqaga topshirib, erkini berib qo‘ymasin, 7. Saltanat ishlarida har kimning so‘zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Lekin qaysi biri foydaliroq bo‘lsa, uni ko‘ngil xazinasida saqlab, vaqtida ishlatsin, 8. Saltanat ishlarida, sipohu raiyatga bog‘liq masalalarda boshqalarning so‘zi va fe‘liga qarab ish tutmasin. Vazirlar, amirlar biron kimsa haqida yaxshi-yomon so‘z qilar ekanlar, eshitsin. Lekin amal qilishda butun haqiqat ayon bo‘lmaguncha

shoshmay, mulohaza bilan ish tutsin, 9. Podshoh haybati sipohu raiyat ko'nglida shunday o'rnashgan bo'lishi kerakki, uning amr-farmoniga hech kim qarshilik qilishga jur'at etolmasin, itoat va tobe'lik qilsin, isyon ko'tarmasin, 10. Podshoh nima qilsa, o'z erkicha qilsin, nima desa o'z so'zida qat'iy tursin, chunki podshohlarning hukm hurmatidan boshqa bahramandliklari yo'qdir. Xazina, lashkar, raiyat, saltanat- bularning barisi uning hukmi bilandir, 11. Saltanat ishlarida, hukm yurgizishda podshoh o'zini yagona bilib, hech kimni o'ziga saltanat sherigi qilmasin, 12. Podshoh majlis ahlidan ogoh va hushyor bo'lsinkim, ular ko'pincha ayb axtarib, gapni tashqariga tashiydilar, podshohning so'zidan, ishidan vazirlarga, amirlarga xabar berib turadilar"[13]– deb, mamlakat sirlarini saqlashga ishora beradi. Mamlakatning muhim mansablariga asli toza, nasli pok, ulug' zotlardan bo'lgan, yaxshi ravishlik kishilardan topib tayinlashga tavsiya beradi.

Buyuk davlat arbobi, shoir, mutafakkir Alisher Navoiy (1441-1501) o'z davrida jamiyat tuzilishini, hukmdorlari-yu turli aholi qatlamini o'rganib, "Mahbub ul-qulb" asrida "zolim va johil va fosiq podshohlar zikrida" quyidagilarni ma'lum qiladi: "Odil podshoh Haqdin xaloyiqqa rahmatdir, xalqi hayotiga yorug'lik, ezgulik, farovonlik, osoyishtalik beruvchiga o'xshaydi. U zulm va fisqu-fasoddan yiroqdir. Johil podshoh xalq qonini behuda to'kishdan andisha qilmaydi. Fosiq podshohdan fuqarolarning ayoli va bala-chaqasiga ko'p zarar yetadi. Aholi hayotida jabr zulm ko'p bo'lib, hayot suvi go'yo og'uga aylanadi. Haq yo'lga boshlovchilar o'ldiriladi. Bunday podshoh elning molini olish uchun go'yo ovchi ko'rinishidadir. Bunday yomon podshohning vaziri ham yomon bo'ladi. Tangri bunday podshohlarni hukmdorlikka hokimiyatga keltirmasin[14]". Navoiy yetakchi sifatlarini e'tirof etar ekan, quyidagilarni alohida qayd etadi: "Shohdin ham lutf marg'ubdur, ham siyosat matlubdur. Ammo har biri o'z mahallida xo'bdur. Bas anga do'stdin dushmani farq etarga ko'p mulohaza kerak va farosat va yorni ag'yordin oyirurg'a ko'p tajriba kerak va qiyosat"[15]. Davlat boshqaruvdagi siyosati xususida, podshoh dushmaniga shunday g'azab qilmog'i qerakki, do'st ham undan omon bo'lmasin va muholifga shunday siyosat yuritmoq kerakki, muvofiq ham bundan xotirjam, osuda qolmasin. Demak, do'stu-dushmanga siyosatda odil va dono bo'lish lozimki, ma'lum bir ahloqiy tamoyillarga tayansin hamda haq siyosatini qo'llovchilar ko'paysin. Do'stlari va harixoh kishilar ham yuqoridagi tamoyillarga hurmat bilan amal qilsin.

Navoiy hukmdor haqida fikr yuritar ekan, "Hayrat ul- abror" asarida podshoh shaxsiga qarata "senga tangri imtiyoz berib, saltanatning eng yuksak cho'qqisiga chiqarib qo'ydi, shaxsinga taxtni makon qilib, mamlakatda hukmingni yurgizib qo'ydi. Raiyat go'yoki gala-yu, sen cho'pon bo'lding, halq go'yo bog'dirki, sen bog'bon bo'lding. Qo'yni cho'pon oyu yil asramasa, u och bo'rilarning yemishiga aylanadi. Dehqon bog'ini tun-kun parvarish qilmasa, bog'ning qurigan o'tindan farqi qolmaydi. Bo'rini galadan uzoq tutib, bog'ingga esa suv berib ma'mur (serob) qil. Ular g'amini qil. Gala bo'rilarga yem bo'lib tugab, daraxtlar esa qurib tamom bo'lsa, senga ham foydayu hosili qolmaydi. Alloh topshirgan ne'matlarining javobini so'rasa, u kuni nima javob berasan?"[16] kabi so'zlar bilan sultonlarga murojaat qiladi. Hamda ularni zulmkor bo'lmaslikka, kechirimlilikka, ahloqan pok bo'lishga, bunyodkorlik va obodlik yo'lini tutishga undaydi.

Navoiy fikricha, jamiyat taraqqiyotining ta'minlanishi, jamiyat a'zosi bo'lgan shaxslarning ma'rifatlilik, yuksak ahloqiy sifatlilik, adolatparvarlik kabilarga ham bog'liqligini qayd etadi. Insonni bezaydigan fazilatlar sifatida odob-ahloqli, kamtar, muruvvatli, rostgo'y, mehnatsevar, sahiy bo'lishni alohida ta'kidlaydi. O'zi mamlakatda nufuzli amaldor – vazir bo'la turib, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatishi bilan davlat va jamiyat ijtimoiy qatlamlarining muvozanatini ta'minlashga urinadi, hamda hukmron-mulkdor tabaqa vakillarini tasavvuf falsafasiga yo'g'rilgan qarashlariga ko'ra shunga chorlaydi.

Istiqlof tufayli ota-bobolarimiz asrlar davomida yaratgan, beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan iymonni mustahkam, baquvvat etuvchi, komil inson xususida yozilgan ahloqiy, diniy, ilmiy-dedaktik asarlarni o'rganish ham davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shunday asrlardan biri Xoja Samandar Muhammad Baqo Termiziyning 1695-1696 yillarda yozilgan "Dastur ul - muluk"(Podshohlar uchun dastur) asaridir.

Ahloqiy-ta'limiy asrlarning ko'pchiligida bo'lgani singari, Xojaning "Dastur ul- muluk " asarida 13 ta vasiyat alohida diqqatga sazovordir. Bular quyidagilar: "**Birinchi vasiyat.** Podshoh agar biror mulozimni o'ziga yaqin tutsa, hargiz boshqalarning shu mulozim haqidagi ig'vo-

tuhmatlarini qabul qilmasligi lozim. Zero, kimiki podshohga yaqin bo'lsa, uning hamkorlari, albatta, birlashib, podshoh o'ziga yaqin tutgan kishining oyog'idan tortib yiqitmaguncha, hasad, ig'voni davom ettira boradilar. **Ikkinchi vasiyat.** Podshoh o'z majlisiga sir tashuvchi, g'addor, xiyonatkorlarning ishtirok etishlariga yo'l qo'ymasligi lozim. Agar biror kishida bunday odatlar borligidan xabardor bo'lib qolsa, tezlik bilan uning yetkazadigan zararining oldini olishi zarur. **Uchinchi vasiyat.** O'z davlat arboblari bilan hamisha yetarli yaxshi munosabatda bo'lish lozim. Zero, do'stlarning hamkorligi, yakdilligida boshlangan ishi hamisha oldinga siljiydi. **To'rtinchi vasiyat.** Dushmanning lutfi, marhamatiga hech vaqt ishonmasligi lozim. **Beshinchi vasiyat.** Murod gavharini (davlatni) qo'lga kiritgandan keyin, uni muhofaza qilishda g'aflatda qolmasligi kerak. Chunki uning bu murod gavhari- maqsadi qo'ldan ketse, uni qo'lga kiritish nihoyatda qiyin bo'ladi va bunda pushaymon foyda bermaydi. **Oltinchi vasiyat.** Har bir ishni yengiltaklik bilan, jadal amalga oshirishga shoshilma, uni puxta o'ylab, asta-sekinlik bilan amalga oshir, chunki oshiqishning zarari, sabr-toqat bilan bajariladigan ishning foydasi cheksizdir.

**Yettinchi vasiyat.** Hech vaqt tadbirni esdan chiqarmaslik kerak. Ko'rsangki, jami dushmanlar ittifoq bo'lib, senga qarshi kurashmoqchi bo'lsalar, sen yaxshilik yo'lini axtarib, ularning birortasi bilan xolisona do'stlik, mehribonlik ittifoqini tuzishing lozim. Shu yo'l bilan boshqalarni ham o'z tomoningga o'tkazib olishing mumkin. **Sakkizinchi vasiyat.** Hasadgo'y va ginakor kishilardan hazar qilish kerak. Ularning shirin zamonligiga mahliyo bo'lmaslik lozim. Chunki ginaning niholi siyna zaminiga o'tkaziladi, uning hosili faqat zarar, ozor, hasaddan iborat bo'ladi. **To'qqizinchi vasiyat.** Gunohlarni avf etish va kechirishni o'z shioringga aylantirmog'ing lozim va o'z mulozimlaringni ozgina gunohlari uchun azob-uqubat iskanjasiga tashlamasliging kerak. **O'ninchi vasiyat.** Birovga ozor berishni shoh o'ziga kasb qilmasligi lozim, toki u ozor o'ziga mukofot bo'lib qaytmasin. **O'n birinchi vasiyat.** O'z holatiga muvofiq kelmaydigan ishga mayl qilmasligi kerak. **O'n ikkinchi vasiyat.** Ishlarni bajarishda hamisha yumshoq, vazmin va subutli bo'lishi lozim. **O'n uchinchi vasiyat.** Qo'l ostida yaxshi, ishonchli mulozimlarni ko'paytirib, xoin, zolim kimsalardan uzoqlashishi zarur." [17] Umuman asarda odamlar tinchini buzgan, davlatga zarar keltiradigan hamma ig'vogarlarni davlatda o'rnatilgan tartib qoidaga ko'ra jazolash kerakligi tarafdori ekanligini anglaymiz.

Mutafakkir ilohiyotchi olim va adib, buyuk axloq muallimi Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomai sultoni" va "Axloqi muhsiniy" asarida "Odil podshohlar mamlakat ishida doimo g'aflat uyqusidan uyg'oq va xalqning ahvolidan xabardor bo'lishi kerak" - deydi. Hazrat Dovud (a.s), sulton Mahmud G'oziy kechalari liboslarini o'zgartirib shahar va bozorlarni kezib yurardi. Bunday yo'l tutgan podshoh mamlakat barcha ishlaridan ogoh bo'lganligi haqida ma'lumot beradi [18]. Koshifiy "Ahloqi muhsiniy" asarining "siyosat bayonida" bobida shunday baxsni yozadi: "Buzurjmehrdan: "Qaysi podshoh ulug'roqdir?" - deb so'radilar. Aytdi: "Begunoh odamlarni omonda saqlaydigan va gunohkorlarni qo'rquvda tutadigan, barq uruvchi tig'ining xandasi sitamkorlar yig'isiga yondosh bo'lgan va fayz yetkazuvchi lutfining nasimi kambag'allarga in'om yomg'iri bilan hamnafas bo'lgan podshoh ulug'dir". Hushang podshoh aytar ediki, "Men yaxshilar va solih kishilarga Haqning rahmatiman, yomonlar va buzg'unchilarga Alloh taoloning qahriman, qahrimning nishi lutfim no'shiga tutashdir" [19]. Sharqda ulug' va nomi abadiy qoluvchi yetakchilar haqidagi qarashlar ham shakllangan bo'lib, unga ko'ra adolatli, jabr ko'rganlar huquqini, mamlakatning kam ta'minlangan qatlamini muhofaza qiladigan, qonunbuzarlikka qarshi kurashuvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Sharq mutafakkirlari asrlarida yetakchi, davlat boshqaruvi haqidagi fikrlar uzoq o'tmishdan shakllangan bo'lib, u adolat, ahloq, ezgulik, ma'rifatlilik, qat'iy intizom va talabchanlik tamoyillariga asoslangan. Sharq mutafakkirlari asrlarida podshoh cheksiz hokimiyat egasi bo'lganidan keyin kamtar, mo'tadil, bardoshli bo'lishdan og'ishib, kalondimog', manman, takabbur hatto johilga aylangudek bo'lsa, vazir bu illatlarni kasallik deb bilishi va podshohni undan nasihat, maslahat dorisi bilan davolashi lozimligi ko'rsatiladi. Toki hukmdor to'g'ri yo'lga qaytib, adolat va ezgulik manzilini ko'zlasin. Hukmdorni davlatning halokati, yemirilishi pastkash, ochko'z kishilarning mansab shahsupasiga ko'tarilishidan boshlanishi haqida ogohlantiriladi. Siyosatga oid yuqoridagi manbalarda yetakchi aholi turmush tarzidan doimo ogoh bo'lishning an'anaviy usullari haqida so'z

yuritiladi. Zamonaviy siyosatshunoslik muammo yechimini mutlaqo boshqa omilda topadi. Bu ommaviy axborot vositalariga erkinlik berib, ular faoliyatini tezkorligini ta'minlashda deb hisoblaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari mamlakat fuqarolari va davlat boshlig'i bilan muloqotga imkon yaratmoqda. Demak, xalq hayotidan voqif bo'lishda har ikki usuldan imkon qadar foydalanish davlat boshqaruv ishida adolatparvarlikni, qonun ustuvorligini, xalqparvarlikni, yurt taqdiriga daxildorlik hissi bilan yashashni, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar tom ma'noda inson manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlaydi.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'biri bilan aytadigan bo'lsak, "fuqarolar uning(yetakchining) vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin qalbdan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o'zini ayamasi, kerak bo'lsa, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayyor bo'lishini, o'z kasb-korining ustasi, shu ishning chinakam bilimdoni, bu borada boshqalarga o'rnak bo'lishini kutadi. Jamoatchilik, xalq rahbar shaxsning mustaqil dunyoqarashi, keng fikrlashi, uzoqni ko'ra bilish qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turishini, iymon-e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat, or-nomusli, harom-xarish ishlardan hazar qiladigan, izlanuvchan, tashabbuskor, tadbirkorlik fazilatiga ega bo'lishini, tashkilotchi, talabchan va qat'iyatli bo'lishini istaydi" [20].

Mutafakkirlarning asarlarida yetakchi rahbar kadrlarni tanlashda o'rta asrlardagi qarashlar bilan zamonaviy siyosatshunoslik bahsga kirishadi. Ba'zi manbalarda boshqaruv lavozimlariga asllik va toza nasllikka asosiy e'tibor berilsa, ba'zilarida yuksak salohiyatli, xalq turmush tarzidan yaxshi xabardor, vijdonli, haqgo'y shaxslardan tanlash tavsiya etiladi. Bugungi kunda teng huquqlilikka asoslangan huquqiy demokratik, kuchli fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan davlatimiz boshqaruv tizimida xalq ishonchini qozongan, zamonaviy tafakkurga ega, tadbirkor, ishbilarmon shaxs rahbar kadr bo'lib faoliyat ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov: "Rahbarlik, yetakchilik – u kichik jamoa, korxonalar yoki tashkilot bo'ladimi - bundan qat'i nazar, el-yurtning boshini qovushtirib, birlashtirishni, ularni yuksak marra va maqsadlar sari safarbar etishni, kimningdir peshonasini silab, kimgadir yaxshi gapirib, odamlarning ruhini ko'tarishni taqozo etadi"[21] degan edi.

Bugungi kunda rahbarlik alohida katta shijoat va jasorat, matonat talab etadi. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbarni – bu Bosh vazir yoki uning o'rinbosarlari bo'ladimi, hukumat a'zosi yoki hudud hokimi bo'ladimi, ular faoliyatining kundalik qoidasi bo'lib qolishi [3] davr talabidir.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Shaqshunoslik institutida rbar kadrlarni tayyorlash borasida katta ahamiyat kasb etadigan qimmatli qo'lyozmalar o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Hususan, shulardan biri majmua ko'rinishidagi asr bo'lib, Temuriylar saltanati homiyligida ijod etgan Sayid Ali Hamodoniyning "Tanbehi salotin"[22] risolasidir. Ya'ni podshohlarga tanbehlar, sultonlarga tanbeh deb ataladi. Tarixdan ma'lumki, o'z davrida nafaqat Markaziy Osiyoda yashagan mutasavvufilar o'z davridagi hukmdorlarga maxsus ko'rsatmalar, maxsus o'g'itlar berganliklari ma'lum. biri Xo'ja Ahror Vali o'z davridagi shahzodalarga juda ko'p ko'rsatmalar va o'g'itlar bergani ma'lum.

Shunday qilib, Sharq mamlakatlarida yetakchi to'g'risidagi qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning o'ziga xos tarixiy ildizlari bo'lib, milliy ma'naviy merosimizdan quvvat olgan. Ushbu g'oyalar umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, boshqaruv tizimida rahbar kadrlarning yangi avlodini shakllantirishda poydevor bo'lishi mumkin. Yetakchilar insonlar manfaati uchun xizmat qiladigan, odamlarda ertangi kunga ishonch uyg'ota oladigan, kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirish maqsadi yo'lidagi amaliy ishlar samarasi oshishida muhim harakatlantiruvchi kuch- yo'l boshchi bo'lishi lozim. Rahbarlik lavozimlari uchun zarur bo'lgan tamoyillar va qoidalar tizimini yaratish maqsadga muvofiq bo'lib, bu boshqaruv kadrlarining o'zi egallab turgan lavozimiga munosib faoliyat olib borishlari uchun zarur dastur amal bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent, "O'zbekiston", 2023. -128 b.
2. "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. №788. 2022. 08.08. // lex.uz.
3. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – O'zbekiston. NMIU, 2017. – B. 235.

4. Qurbanboyev Q., Ravshanov F., Yusupov J. Kratologiya – hokimiyatshunoslik ilmi. – Toshkent: “Kamalak”, 2012.-272 b.
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6- jild.- Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023. B. – 161.
6. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz. 6- jild.- Toshkent, “O‘zbekiston”, 2023. B. – 248.
7. Qurbanboyev Q., Ravshanov F., Yusupov J.. Kratologiya – hokimiyatshunoslik ilmi. – Toshkent: “Kamalak”, 2012.-272 b.
8. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri – T., 2012. – B.42.
9. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig ” (“Saodatga elituvchi bilim”) – T., 2007. – B. 68-75.
10. Kaykovus. Qobusnoma.- T., 2006. – B. 172-173.
11. Nizomulmuluk. Siyosatnoma (Siyar ul- muluk) – T., 1997. – B. 17.
12. Nizomulmuluk. Siyosatnoma (Siyar ul- muluk) – T., 1997. – B. 19.
13. Temur tuzuklari. – T., 2005. – B. 82.
14. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14. Tom. Mahbub ul-qulub – T., 1998. – B. 14.
15. Alisher Navoiy Hikmatlar. – T. 2011. – B. 317.
16. Alisher Navoiy. Xamsa. – T., 2012. – B. 24.
17. Xoja Samandar Termiziy. Dastur ul- muluk. J.Esonovning fors tilidan tarjimasi–T., “Sharq”, 2001. – B. 56-57.
18. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi muhsiniy. – T., 2011. – B. 268.
19. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy. Axloqi muhsiniy. – T., 2011. – B. 262
20. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot- pirovard maqsadimiz. – T., O‘zbekiston, - 2000 . – B. 43-44.
21. Karimov I.A. Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish- muvaffaqiyat garovi. – “Xalq so‘zi” gazetasi. 2005 yil. 8 noyabr.
22. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik instituti. qo‘lyozma №12726. 169 b- 184 a varaq.

**UO‘K 78.071.3:39**

## **QORAQALPOQ TARIXIY QO‘SHIQLARI RIVOJLANISHI VA TAKOMILLASHUVI** **B.B.Turdiyev, PhD, O‘zbekiston Davlat san‘at va madaniyat instituti Nukus filiali, Nukus**

***Annotatsiya.** Ushbu maqola qoraqalpoq tarixiy qo‘shiqlarining tarixiy manbalar doirasidagi izlanishlarni kengaytirish rivojlantirish va shakllanishi buyisha bir qansha davrlarni o‘z ichiga oladi. Fol’klor janrlar bilan birga rivojlanib, qoraqalpoq xalqining siyosiy-ijtimoiy hayotining barcha davrlarin o‘z ichiga oladi. Tarixiy qo‘shiqlar hamma davrlarda xalqning turmush tarziga bog‘liq paydo bo‘ladi va rivojlanadi shu paytgacha qilingan tadqiqotlarga qo‘shimcha manba sifatida xizmat qilishi mumkin.*

***Kalit so‘zlar:** Qo‘rqut ota, Edil-Jaiyiq, Bilga Hoqon, Kultegin, Tunyuquq, O‘rxun-Enasoy, Etnografiya, No‘g‘ayli.*

***Аннотация.** Данная статья является продолжением исследования исторических источников каракалпакских исторических песен, охватывающим несколько периодов их развития и формирования. Фольклор, наряду с жанрами, развивается и охватывает все периоды политической и социальной жизни каракалпакского народа. Исторические песни появляются и развиваются во все периоды в зависимости от образа жизни народа и могут служить дополнительным источником для проведенных до настоящего времени исследований.*

***Ключевые слова:** Отец Кorkut, Эдиль-Джайик, Бильга Хакан, Культегин, Тюнюкук, Орхун-Енасой, Этнография, Ногайлы*

***Abstract.** This article continues the study of the historical sources of Karakalpak historical songs, covering several periods of their development and formation. Folklore, like genres, evolves and encompasses all periods of the political and social life of the Karakalpak people. Historical songs appear and develop in all periods depending on the people's way of life and can serve as an additional source for research conducted to date.*

***Key words:** Father Korkut, Edil-Dzhayik, Bilga Hakan, Kultegin, Tyunyukuk, Orkhun-Enasoy, Ethnography, Nogayly.*

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi ham boshqa xalqlar og'zaki ijodi kabi o'zining ma'naviy boyligi, madaniy me'roslarini yorqin she'riy obrazlarda tasvirlangan tarixga egadir. Avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan og'zaki she'riyat qoraqalpoq xalqining dramatik, ba'zan fojeali tarixi bilan chuqur va uzviy bog'liqdir.

Tarixiy qo'shiqlarni tadqiq qilgan olim B.Uaxatov bunday deb yozadi: «Xalqimiz boshidan kechirgan tarixiy voqealar ko'p. Biroq, uning barchasi birdaniga og'izaki adabiyotda saqlanib qolmagan. Faqat keyingi bir yoki ikki asrda paydo bo'lgan tarixiy rivoyatlar bilan qo'shiqlar bo'lmasa, oldingi eski davrlardagi aniq manbalarga asoslangan qo'shiq namunalari yo'q hisobi. Shuningdek, tarixiy qo'shiqlar, ya'ni bir paytdagi Qo'rquq ota, Edil-Jayiq to'g'risidagi, Chingizxonning yovuzkorona hujumi, Oqsoq qulon, Jo'shi xon to'g'risidagi tarixiy qo'shiqlar juda kam saqlangan» [1].

Demak, tarixiy qo'shiqlarning paydo bo'lishi erta davrlarga bog'liq ekan. Qozoq tarixiy qo'shiqlarining shakllanishiga tarixiy voqealarning ta'siri bor ekanligini aytib, akademik S.A.Qasqabasov quyidagi fikrini ilgari suradi: «Tarixiy qo'shiqlar jamiyat rivojlanishining har bir davrida tug'iladi, ya'ni bu shiddatkor janr. Shu bois, tarixiy qo'shiq qadimgi eski janrlardan biri. Masalan, barcha turkiy xalqlar o'tmishining eng eski namunasi Bilga Hoqon, Kultegin, Tunyuquq va boshqalar haqidagi O'rxun-Enasoy atrofidan topilgan asarlar deyish mumkin [2].

Qoraqalpoqlar va Qoraqalpog'iston haqida ko'proq ma'lumot bergan XIX asrdagi G'arbiy Yevropaning atoqli Venger olimi Armeni German Vamberidir. U XIX asrda qoraqalpoqlar orasida bo'lib ularning yashash sharoitini o'z ko'zi bilan ko'rgan olim. Uning asarlarida qoraqalpoq xalqining kelib chiqishi va etnografiyasi to'g'risida ma'lumotlar uchraydi. U «O'rta Osiyo ocherklari» («O'rta Osiyo bo'yicha sayohatga ilova») va «Sharqning turmush tarzi, urf-odatlar ocherklari» nomli kitoblarida Vamberi O'rta Osiyo xalqlarining adabiyoti to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. «O'rta Osiyo ocherklari»da Vamberi adabiyot-poeziya to'g'risida, ya'ni qoraqalpoqlarga do'st bo'lgan Ahmad Yusuf, Ollayor, Mashrab, Fizuliy, Nizomiy, Navoiylar to'g'risida ma'lumotlar bersa, «Sharq turmush tarzi va urf-odatlar ocherklari»da naql-maqollar berilgan. Vamberi bu ma'lumotlarni o'zining O'rta Osiyoga sayohati vaqtida yig'gan va o'zining aytishicha, yarim qopday qo'lyozmada olib ketgan.

U O'rta Osiyoda eng keng tarqalgan doston «Yusuf-Axmad» dostoni deb hisoblaydi. Bu doston qoraqalpoqlarning sevib tinglaydigan dostoni bo'lgan. Vamberi ushbu dostonni o'ziniki deb ham hisoblagan. Sababi, uni Vamberi nemis tiliga tarjima qilib, 1911 yili Budapeshtda asl nusxasi bilan to'liq kitob qilib nashrdan chiqargan. «O'rta Osiyo ocherklari» degan kitobida esa mazmuni berilgan xolos. «Dostonlar bilan bir qatorda «O'rta Osiyo xalqlarida muhabbat, urf-odat, an'analarga bag'ishlangan kichik hajmdagi asarlar ko'p uchraydi, men ularning bir qancha qo'lyozmalarini O'rta Osiyodan olib ketdim, ular sifatsiz qog'ozga yozilgan, muqovalari yaxshi ishlanmagan charmlarda tayyorlangan», - deb yozgan Vamberi [3].

Orolbo'yida yashovchi qoraqalpoqlar haqida XVIII asr tarixchi olimi V.P.Tatishev ham yozgan, u Orenburg ekspeditsiyasi boshlig'i, ko'p jildlik «qadimgi davrlardan boshlab Rossiya tarixi» asarining muallifi bo'lgan (1768-1848 yy). Keyin «Rossiya fuqarolarining tarixi, geografiyasi, grajdanlari leksikoni» nomli birinchi Rossiya geografik lug'atini tuzdi (1793 y). «Rossiya tarixi leksikoni»da Tatishev P.Richkovning Orolbo'yi turk xalqlarining tarixi haqidagi ma'lumotlaridan foydalandi. «Qoraqalpoqlar, – deb yozadi tatar olimi V.P.Tatishev, ular Orol dengizi bo'ylarida Sirdaryoning orqa tomonida katta qishloqlarda yashaydi. Ba'zilar orol va qirg'oqlarda yashab o'z xoniga ega. Xalqi jangovar bo'lib, o'troq uy xo'jaligi bilan shug'ullanib, ko'pgina mol-mulkka ega, biroq qirg'iz-qaysaqlar ularga tinchlik bermaydi. Shuning uchun 1740 yil o'z xonlari bilan Rossiya fuqaroligiga o'tishni so'raydi» [4].

Umuman olganda, XIX asrda O'rta Osiyoga, jumladan, Orol bo'ylariga, Xiva xonligiga, orolliklar va qoraqalpoqlar orasiga bo'lgan sayohat, ilmiy-tadqiqot ishlari ko'paydi. Bu sohadagi adabiyotlarni T.S.Karelinn, A.I.Shrenk (1840-1843yy). N.Ханыков (1841-1842 yy), F.I.Baziner (1843 y), A.Gumbolt, A.I.Butakov (1848 y) va boshqalar yozib qoldirgan.

1874 yili Amudaryo ekspeditsiyasiga qatnashgan L.Sobolevga Chimboyga yaqin yerda yashovchi qoraqalpoq biyi Yerejep qoraqalpoqlarning turmushi va no'g'aylar haqida, hozirgi qoraqalpoqlarning oldin no'g'ayli bo'lib atalganligi to'g'risida ma'lumotlarni so'zlab beradi [5].

Tarixchi A.I.Belyaev ham qoraqalpoq xalq poeziyasining namunalariga katta muhabbat bilan qaragan edi. A.I.Belyaev qoraqalpoqlar orasidagi bunday holatlar to'g'risida quyidagilarni yozadi:

Qoraqalpoq xalqining yodida shu vaqtga qadar har xil afsonalar, qo'shiqlar va poemalar ko'p saqlangan.

Ushbu satrlarning muallifi hatto Botuxon haqida va uning Rossiyaga hujumi to'g'risida qoraqalpoq jirovlaridan ko'p qo'shiqlar eshitdi.

Ammo baxtga qarshi bizga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra bu qo'shiqlar yozib olinmay qoldi [6].

Qoraqalpoq tili bo'yicha tadqiqotlar olib borgan professor N.A.Baskakov 1920 yillarning o'rtalarida xalq ijodiyotining har qanday turlarida uchraydigan miflar, afsona-rivoyatlar, xalq tasavvurlarining qandaydir bir uchqunlari bo'lsada, unda voqelik, xalq turmushining tarixiy izlari bo'lishini, uni to'plash va tadqiq qilish, o'rganishning ahamiyatini ko'rsatadi. «Har qanday mifologiya tabiat kuchlarini tasavvur etish orqali yenga beradi va yaratadi, demak, mifologiya tabiat kuchlarining haqiqiy mohiyatini anglagandan keyin yo'qoladi,» - degan edi [7].

Atoqli olim N.Davqaraev «No'g'ayli» degan atamani quyidagicha to'g'ri tushuntiradi: «Asosan, No'g'ay» so'zi dastlabki vaqtda etnik nom (xalq, qavmning) bo'lmagan, u mingboshi No'g'ayning qaramog'idagi har xil urug' qavmlari birlashmasining siyosiy nomi bo'lgan. Shu siyosiy uyushmaga birlashgan barcha urug'lar, qavmlar «No'g'ayli» deb atalgan. Oltin O'rda yemirilgandan so'ng XIV-XVI asrlarda ko'p qabila-urug'lar o'zaro uyushma tuzgan. Bu uyushmaning nomi «No'g'ayli» deb atalgan. Bu davrda hozirgi qoraqalpoqlarning ota-bobolari no'g'aylilarning siyosiy urug' birlashmalarining qatorida bo'lganligi ma'lum [8].

Tarixiy qo'shiqlar qoraqalpoq qahramonlik dostonlari bilan ham bog'liq. Botirlarning o'z eli bilan xayrlashgan onlari terma-to'lg'ov tarzida berilgan. Hatto ba'zi bir tarixiy manbalarda qahramonlik va tarixiy dostonlarning qahromonlari tarixiy figura ekanligini ko'rish mumkin.

Bulardan Edige, Er Shora, Er Qo'say, Er Ko'kcha va boshqa qahramonlarni atab ko'rsatish mumkin. «Qoraqalpoq qahromonlik eposi, - deydi I.T.Sag'itov, - tarixiy voqealarning folklorda o'ziga xos gavdalanishi namunasi bo'ladi. Qozoqning botirlari qo'shig'idagi kabi, qoraqalpoqlarning epos qo'shiqlarining ko'pchiligi XIV-XVI asrdagi no'g'aylilar o'rdasining tarixiy afsonalariga asoslanadi. Qoraqalpoq eposlarida Edige, Er Shora, Er Qo'say, Er Ko'kcha va boshqalar kabi no'g'ayli davridagi umumiy qahromonlarning harakatlari haqida so'z boriladi. Bu haqda asosan qoraqalpoq eposi «Edige» alohida ko'zga tashlanadi».

Qoraqalpoqlarning XIII-XVIII asrlardagi tarixiy turmushi, adabiy meroslari haqida tarixchi va adabiyotchi olimlardan ta'kidlab aytganda, P.P.Ivanov, S.P.Tolstov, N.Davqaraev, T.A.Jdanko, S.K.Kamalov, R.Qosbergenov, Q.Ayimbetov, I.Sag'itov, M.Nurmuhammedov, Q.Maqssetov va boshqaning asarlarida beqiyos fikrlar berilgan.

Professor I.T.Sag'itov qoraqalpoq eposlarining yaratilishi XIII-XV asrlar davomidagi taqdiri, mo'g'ullarning chekinishlari, Oltin O'rda tarixi va no'g'aylarning siyosiy uyushmasi bilan bog'laydi. So'ngra hozirgi qoraqalpoq xalqining shakllanishiga asos bo'lgan qavmlar dastlab qipchoqlar tarkibida undan keyin Oltin O'rdaning tarkibida va keyin no'g'aylarning siyosiy uyushmasida bo'lgan degan xulosaga keladi [9].

A.Tajimuratov «Tarixiy qo'shiqlar» degan maqolasida «Qoraqalpoq» qo'shig'ining tarixiy davrlari haqida bir qancha to'g'ri fikrlar bildirgan».

«Bu tarixiy qo'shiq deydi, - Adenbay Tajimuratov, - xalqlarning XIII asrdan boshlab XVI asrga qadar turmushidan boy ma'lumot beradigan og'zaki adabiyotining eng yaxshi namunasi», deb fikr bildiradi [10]. Xuddi shu «Qoraqalpoq qo'shig'ini o'qib qaraganda unda so'z yuritilgan tarixiy voqealar XIII asr oxiri va XVIII asrlardagi tarixiy voqealar bilan tutashadi».

«Ormambet biy o'lganda» tarixiy to'lg'ovini adabiyot tarixida keng tahlil qilishga harakat qilgan olimlar N.Davqaraev, Q.Ayimbetovlar bo'ldi [11].

Mazkur tarixiy davrning sir-sinoatini, haqiqiy voqealigini ochish tarixchi, adabiyotchilar jamoasiga oson bo'lmaydi. XX asrdagi Kengash hukumatining mafkurasi ma'naviy meros boyliklarini chuqur tadqiq qilishga to'sqinlik qilib, sinfiy qarash natijasida qat'iy to'xtab qoldi. Tarixiy qo'shiqlar tugul, hatto katta hajmli epik dostonlarning o'zi xalq nazaridan yiroq qilindi ba'zi bir namunalari afsona bo'lib xalq og'zidagina saqlanib qoldi.

Tarixiy qo'shiqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ko'pgina davrlarni o'z ichiga oladi. Yozma madaniyatning rivojlanishi, eski qo'l yozma va yodgorliklarning saqlanishi bu janrlarning rivojlanishi tabiatini belgilaydi. Tarixiy qo'shiqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini shu janrni yaratuvchi xalqning tarixidan ajratib qarashga bo'lmaydi, - deb ko'rsatadi professor M.Tleo'muratov [13].

A.Qo'jiqboevning ta'kidlashicha, qoraqalpoq tarixiy qo'shiqlari qoraqalpoq xalqining tarixiy rivojlanishi bosqichlarining ko'pchilik davrlarini o'z ichiga oladi. Masalan: «Ormambet biy o'lganda», «Qoraqalpoq», «Baysunga», «Jeti uyga bir beldar», «Abadjon», «Qo'ng'iro't afsonasi», «Asqar botir», «Marqabay botir», «Mardikor», «Topshirdim», «Kegeyli qazilishi», «Naylayin», «Yoronlar», «Zolim yavmut», «Bir alomat zamon bo'ldi», «Navpir jap», «Oqdaryo», «Xon zulmi», «Shaydakov» va boshqa tarixiy qo'shiqlarni, tarixiy poemalarni atab ko'rsatish mumkin.

A.Tajimuratov «Tarixiy qo'shiqlar» nomli maqolasida «Qoraqalpoq» qo'shig'ining tarixiy davrlari haqida bir qancha to'g'ri fikrlar bildirgan: «Bu tarixiy qo'shiq, - deydi Adenbay Tajimuratov, - xalqlarning XIII asrdan boshlab XVI asrga qadar turmush tarzidan boy ma'lumot beradigan og'zaki adabiyotining eng yaxshi namunasi» [14].

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, Qoraqalpoqlar va Qoraqalpog'iston tarixi haqida tadqiqot ishlari o'tgan asrning 20 yillaridan boshlangan. Har xil yillarda ulkada etnografik, arxeologik va dialektik ekspeditsiyalar uyushtirilib, qoraqalpoqlar tarixi, madaniyati, milliy xususiyatlari to'g'risida yirik baza shakllandi. Dastlabki qoraqalpoq folklorshunos olimlari N.Davqaraev, Q.Ayimbetovlar xalq og'zaki ijodi namunalari to'plash, nashr qilish va ilmiy tadqiq qilish ishlariga boschilik qildi. Tarixiy qo'shiqlar manbashunosligini yaratishda Q.Maqsatov, A.Tajimuratovlarning hissasi katta bo'ldi, chunki ular ilk bor tarixiy qo'shiqlarni xalq qo'shiqlari ichida alohida janr sifatida tanib xususiyatini ochib berdi. Prof. M.Tileumuratov, filolog olim A.Qo'jiqbaevlar tarixiy qo'shiqlarning tarixiy voqelikni yoritishdagi o'rnini ko'rsatib berishdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Қазақ тарихи жырларының мәселелері. – Алматы: Ғылым, 1979. – Б. 64-65.
- 2.Қазақ тарихи жырларының мәселелері. – Алматы: Ғылым, 1979. – 28 б.
- 3.Камалов С. Вамбери қарақалпақлар тууралы. – Нөкис, 1995. – Б. 12.
- 4.Татищев В.П. Избранные произведения. – М., 1979. – С. 94.
- 5.Жданко Т.А. Қарақалпақи Хорезмского оазиса// Труды Хорезмского экспедиции. – М., 1962. – С. 483-484.
- 6.Беляев А.И. Сказания об Едиге и Тохтамыш. Қарақалпақская народная поэма. Протоколы заседаний и сообщении членов Закаспийского кружка любителей археологии и истории Востока. Вып. 3-4.
- 7.Басқақов Н.А. Қарақалпақский язык. Т.1. – М., 1951. – С. 45.
- 8.Дәўқараев Н. Қарақалпақ әдебияты тарийхының очерклері. Қол жазба фонды, ККФАН Уз ССР, инв 37539. 36-т. Б. 68.
- 9.Сағитов И.Т. Қарақалпақ халқының қахарманлық эпосы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1963. – Б. 54-57.
- 10.Қарақалпақ халық қосықлары (Басп. таярл. А.Тәжимуратов). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1965. – Б. 216.
- 11.Давқараев Н. Очерки по истории до революционной каракалпакской литературы. – Т., 1959;
- 12.Айымбетов К. Халық даналығы. – Нөкис, 1968.
- 13.Тилеумуратов М. Қарақалпақ поэзиясы – тарийхый дерек. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1994. – 56 б.
- 14.Қожықбаева Ә. Тарийхый қосықлар. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1980. – Б. 5-6.

UO'K 37.091.3:94(575.2)

### TURKISTONDA JUMLADAN SAMARQANDDA MILLIY TA'LIMNING AHVOLI. TA'LIM SOVET MODELII JORIY QILINISHIDAGI ZO'RAVONLIK SIYOSATI S.D.Usmonov, katta o'qituvchi, Samarqand davlat universitetining Urgut filiali, Urgut

*Anontatsiysa. Ushbu maqolada 1917-yilgi fevral voqealari va oktyabr to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida – ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'fkuraviy, jumladan*

*xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarishlar va bu davrdagi jadidchilik harakatining o'rganishning bugungi kun ta'lim tizimidagi o'rni haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** Turkiston, ta'lim tizimi, jadidchilik harakati, madrasa, maktab, usuli jadid.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются резкие изменения в жизни народов Центральной Азии после Февральских событий 1917 года и Октябрьской революции - в социально-политической, экономической, духовно-идеологической сферах, включая народное образование, и роль изучения джадидского движения этого периода в современной системе образования.

**Ключевые слова:** Туркестан, система образования, движение джадидов, медресе, школа, метод джадид.

**Abstract.** This article discusses the sharp changes in the life of the peoples of Central Asia after the February events of 1917 and the October Revolution - socio-political, economic, spiritual-ideological, including in the spheres of public education, and the role of the Jadid movement in the modern education system.

**Key words:** Turkestan, education system, Jadid movement, madrasa, school, Jadid method.

**Kirish.** “Ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va yoshlar bandligini ta'minlash-asosiy maqsad” Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 9-sentyabr kuni maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi sohasidagi islohotlar ijrosi hamda kelgusida ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazilidi. Yig'ilishda maktablarni rivojlantirish va o'qituvchilarni malakasini oshirish va o'quvchilarga jahon talabi asosida o'qitish ko'zda tutildi.

1917-yil oktyabr revolutsiyasi natijasida “Madaniy revolutsiyaa” boshlandi. To'g'risini aytganda juda katta qiyinchiliklar azob uqubatlar bilan bo'lsada “Madaniy revolutsiya” xalq maorifi sohasida ko'pgina muvofaqiyatlarni qo'lga kiritdi maktab siyosati barcha xalqlar ishchilari uchun barobardir ona tilining erkinligi demokratik va progressiv maktab bo'ladi u Sovet maktablarni madaniy revolutsiyasini asosiy bo'g'ini bo'ladi degan edi.[1] Sovet hokimyatini dekreti asosida shoxona eng yangi progresiv ruxidagi xalq ta'limga asos solindi sovet maktabi o'quvchilarini keng va chuqur bilimlar bilan qurollantiradi va ularni bu olgan bilimlarni hayotda tadbiq etishga o'rgatadi. Asosiy vasifa-o'quvchilardir.

Sovet maktablari o'quvchi yoshlarni chuqur va har taraflama fanlar asosida o'qitilib o'z vatanlarini taraqqiyoti uchun ajoyib inson qilib bilim beradi Sovet maktabining tashkil topishi millionlab bilimga chanqoq kishilarga yo'l ochib berdi xalqning bilimga bo'lgan muxabbati madaniy qurulishni yengillashtiradi juda ko'p o'qituvchilar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi har xil turdagi Rossiya va O'zbekistondagi tabaqalarga bo'linib o'qish o'rniga yagona mexnat maktabi tashkil etildi o'qish bepul qilib tayinlandi. Sovet maktabidagi erkaklar va ayollar hech qanday tafovut bo'lmasligi bolalarni talim sistemasini tashkil qilish uchun juda ko'p harakat qilindi.

**Adabiyotlar tahlili** Shu kungacha Ta'lim tizimiga oid juda ko'plab maqolalar, dissertatsiya, monografiyalar chop etilgan M.A.Fattoevning O'zbekistonda sovet hokimyatining dastlabki yillarida hamma talimlarning boshqaruvlarning yangi organlarni tashkil etish maqolasida O'zbekistonda sovet hokimyatining milliy maorif va boshqaruv tizimini tubdan isloh qilish va uni takomillashtirish bo'lgan. E Qodirov O'zbek xalq maorifini 40-yil ichida erishgan yutuqlari maolqsida ham 40-yillarda O'zbekistondagi maorif sohasidagi islohotlarni ko'rishimiz mumkin. S.Rajabovning O'zbekistonda savet maktabi tarixiga oid maqolasida milliy ta'lim tizimidan sovet ta'lim tizimining farqini ko'rsatib bergan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot Turkistonda jumladan Samarqanddagi ta'lim tizimini ko'rishimiz va milliy sovet ta'lim tizimi o'rtasidagi tafovutni 1918-yilgi msktsb islohoti va maktablarning rivojlanishi ta'lim tarbiyani va shu davr sharoitidagi maktab ta'lim tizimidagi yangi islohotini va 1917-yilning 9-noyabrda birinchi xalq maorifi kamissari A.Б.Луначариский imzosi ostida “Maorif bo'yicha davlat kamissiyasini tuzush” dekreti chiqariladi. RSFSR xalq kamessarlari Sovet cherkovini davlat va maktabdan ajratish to'g'risidagi qaror qabul qilinganligi, Shu tariqa bu maktab haqiqiy va ajralmas xalq maktabi bo'lishi kerak dasrurida maktabning ishchi tiplari aniqlangan edi.

**Tahlil va natijalar.** Yuqorida takidlangandek rivojlanayotgan davlatlar asosiy e'tiborni ta'lim tizimiga qaratadi shuni hisobga olgan holda maqolaning natijasi asosan XX-asrning 20-yillarida Samarqanddagi ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni ko'rish mumkin.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda Xxasrning 20-yillarida Samarqandda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarni ko'rish mumkin. XX-asrning 20-yillarida Samarqandda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar keng ko'lamli natijalar berganligini va eski maktablarni tugatilib jadidmaktablarida yangi uslda o'qitila boshlagan bunda diniy ta'limotlar bilan birgalikda dunyoviy fanlar o'qitila boshladi. XX-asrning 20-yillarida Turkistonda xususan Samardandda maktab islohoti o'tkazilganligini dunyoviy fanlar bilan birgalikda maktablarda diniy ta'limotning berilganligi ham maktabdan dinni ajrtamanganligini ko'rishimiz mumkin. 1918 yil oktyabr oyida RSFSR yagona mexnat ta'limining asosiy prinsiplarni deklaratsiasini ishlab chiqdi va yangi Sovet maktabi va pedagogikasini prinsiplar asosini ko'zda tutadi. "Deklaratsiya" avvalo birinchi o'rinda maktabni o'ta demokratlashtirish vasifasini qo'yadi.

Samarqand viloyat xalq talimi komisariatining 1918 yilgi yangi ko'rsatmasida shunday deyilgan edi: Biz maktab islohoti yoqasida turibmiz ayni paytda jamiyat qanday rivojlanar ekan maktab ham shunday yo'lda rivojlanishi kerak faqat shundagina maktab hayotiy bo'lishi mumkin. Maktab bu jamiyat xonasi hayot oynasi bo'lib ayni vaqtda shu davr sharoitiga mos taraqqiy etgan shakilda bo'lmog'i kerak. Talim va tarbiya sistemasidagi yangi maktab asoslarida quydagilar bo'lmog'i kerak:

- 1)Jamoatchilik.
- 2)Politexnikaviy
- 3) Mexnat
- 4) Satsial boshlang'ich

Bu asoslar eng asosiy yo'nalishlar bo'lmog'i kerak.[2] Shu tariqa maktab ishlarini qayta tashkil etish ko'zda tutiladi yangi maktablar va madaniy-oqartuv uylarni tashkil qilish uchun juda katta ishlar boshlab yuborildi. 1917-yilning 9-noyabrda birinchi xalq maorifi kamissari A.Б.Луначарский imzosi ostida "Maorif bo'yicha davlat kamissiyasini tuzush" dekreti chiqariladi 1917 yil Turkistonda xalq maorifi kamissariati tuziladi asosiy vazifalardan biri maktabni Sovet releslariga o'tkazish edi. 1918-yilning 21-yanvarida V.I.Lenin dikreti asosida RSFSR xalq kamessarlari Sovet cherkovini davlat va maktabdan ajratish to'g'risidagi qaror qabul qilindi.[3] 1918-yil 30-yanvarda bu dikret asosida Turkiston ijroya kamiteti yangi maktab qurilishida dindorlarni qatnashishiga yo'l quymaslik takidlanadi barcha ruhoniylarni va cherkov xizmatchilarini pedogogik Sovet a'zolidan chiqarish va kelajakda o'qitishga qabul qilmaslik qayd etiladi.

Lekin 1918-yil xalq kamisariati maxalliy xalqning urf odatlarni hisobga olib shu erish xalqlarning Sovet maktablarida diniy fanlar o'tilishiga ruxsat etadi. Diniy mashg'ulotlarni mulla yoki shu maktab o'qituvchilari olib borar edilar.

Dinni o'qitish uchun har kuni maktab mashg'ulotlarini to'rtinchi dars ko'rsatildi.[4] 1918-yil 28 martida Turkiston respublikasi xalq kamissariyati Soveti o'lka viloyat shahar uezd xalq Maorifi Sovetlarini maktab idoralariga rahbarlik qilish to'g'risidagi qaror qabul qilindi [5] 1918-yilning 29 martda № 6 Turkiston o'lka xalq kamissariyati soveti va RSFSR XKM raisi 1918-yil Luna Cheriskining 1918 yil 1-martidagi № 55 qarorlariga binoan qabul qilinadi Turkiston o'lkasida "O'lka XMS"tipini tashkil etadi.[6] Xalq ta'limi Soveti Jamoatchilik tashkilotlarini pedagog va o'qituvchilardan tashkil qilinadi shu Sovetlar tufayli keng jamoatchilik maktab qurulishiga jalb etiladi 1918 yil oktyabr oyida RSFSR yagona mexnat ta'limining asosiy prinsiplarni deklaratsiasini ishlab chiqdi va yangi Sovet maktabi va pedagogikasini prinsiplar asosini ko'zda tutadi.

"Deklaratsiya" avvalo birinchi o'rinda maktabni o'ta demokratlashtirish vasifasini qo'yadi shu asosida maktabda hamma toifadagi ishchi va dexqon bolalarini qabul qilish qayd etiladi. Deklaratsiya Sovet maktabini faqat bepul maktabi bo'libgina qolmay balki umumiy va majburiy bo'lishi ham ko'rsatiladi.

Shu tariqa bu maktab haqiqiy va ajralmas xalq maktabi bo'lishi kerak dasrurida maktabning ishchi tiplari aniqlangan edi oktyabr revolutsiyasigacha bo'lgan barcha tabaqaviy har xil turdagi tabaqalar tarqatiladi aytilgan qizlar va o'g'il bolalar birgalikda o'qiydigan birinchi va ikkinchi pag'onali yagona mexnat maktabi joriy etiladi RSFSR XMK–tining 1918-yil 31-oktyabrda "Mayda

millatlar maktab” to‘g‘risida chiqargan qaror O‘zbekistonda yangi ilimli Sovet maktablarini tashkil etishda katta rol o‘ynaydi. 1918-yil Toshkentda maorif xodimlari sezdidi bo‘lib xalq talimi muvofaqiyatlari va respublikaning Maorif sohasidagi ishlarni kelgusidagi taraqqiyoti to‘risida aytiladi.[7] Xaqiqiy xalq maktabini ona tilini o‘qitmay to‘rib xam alohida ahamyat berildi. 1918-yil 14-aprelda Samarqand viloyat ishchi dexqon va Soldat deputatlarini soveti qoshida viloyat xalq ta‘limi Sovetlari kiyinchalik 1918-yil aprel, avgust oylarida butun Turkiston o‘lkasi tashkil etildi. Xalq ta‘limi Sovetlari butun joylardagi xalq maorifi sistemasi asosiy markazi bo‘lib qoldi xalq ta‘limi Sovetlarning ahamiyati shunda ediki Sovet maktabini tashkil etishning birinchi oylarida xalq ta‘limi funksiyasining vazifasini bajarar edi. Xalq ta‘limi Sovetning tashkil etilishi Sovet maktabini mustahkamlash katta ahamyatga ega bo‘ladi.

Joylarda xalq maorifi sistemasini bajarish va qayta joylashtirishda katta rol o‘ynaydi. Samarqand viloyati xalq ta‘limi Soveti maktabi tashkil etiladi va ularni kitoblar, kadrlar bilan taminlashda o‘z rolini ko‘rsatadi maktab uchun bino, programma va kitoblar yo‘q edi. Buning uchun oldingi Sovet pedagoglari nafaqat fiodal qoldiqlari bilan balki bir qancha xatolar va o‘ylab chiqarilgan buxton va tuxmatlarga ham qarshi kurashmog‘lariga to‘g‘ri keldi qishloqlarda va bir xil shaharlarda o‘quv yili juda xam qisqa bo‘lishi davom etdi. Bu qishloq bolalarini dalaga chiqib mehnat qilishi bilan bog‘liq bo‘ldi shaharda esa bolalarni oilalari bilan shahardan chetga chiqib ketish kech kuz kirganda qaytishlari bilan bog‘liq bo‘lardi.

Qisqartirilgan o‘quv yili yillik o‘quv programmasining amalda ijro etishga to‘sinlik qilishardi, shaharlarda va qishloqlarda mashg‘ulotlar asosan boylardan tortib olingan uylarda o‘tkazilardi. Bu uylar o‘qish qoidalariga javob bermaydi maktablarda o‘quv xonalari har-xil qurollar asboblari badiiy adabiyotlar qog‘oz-qalmlar yetishmas edi.

O‘quvchilarning bilimlari past savyada ekanligi o‘quvchilarni yaxshi bilim olishga imkon bermas edi.

Maktablar tez lekin rejasiz ravishda hech qanday moddiy texnikaviy bazasi va respublika moddiy resurslari xisobga olmagan xolda ko‘payar edi. Xalq ta‘limi uchastkasi sinfiy kurash maydoniga aylandi O‘zbekistonda Sovet hiokimiyati o‘rnatilganidan so‘ng butun O‘zbekistonda jumladan Samarqand viloyatida eski maktab va maorif madrasalari yangicha burjua maktablarni tugatish avj olgan edi buning natijasida edialogik kurash haqiqiy kurashga aylanib ketdi yangi tashkil etilgan Sovet maktablari o‘qituvchilarni urib jismoniy azob berish xatto o‘ldirish uchun maktablarni yo‘q qilish boshlangan edialogik kursi natijasi edi. Sovet maktabiga qarshi mualimlarni qilgan agetatsiyalariga muvofiq Samarqand viloyatining Jizzax uezdi Sovet maktabiga o‘qiydiganlar soni ancha kamaydi natijada eski maktablar soni ko‘payar edi.[8]

Sovet maktablari qurilishi nihoyat og‘ir darajada kechardi o‘zbek xalqining xayotida birinchi marta oilaviy xalq yordamida yangi maktablar ochila boshladi.

Buxoro yaxudiy Naton Katanovich Isakov o‘z hisobidan 3-oy davomida kambag‘allarga va yetimlar o‘qiydigan maktablarga 5400-so‘m pul va 50 juft kalish hayriya qildi. Shunga qaramay o‘zi yashaydigan yaxudiy maxallasidagi uyida 30 nafar kambag‘al va yetimlar uchun maktab ochib bergan bu maktablarga ketadigan xarajatlarni o‘z bo‘yniga olgan “Samarqand ovozi” gazetasining 1918-yil 24-maydagi sonida “Haqiqiy o‘rnak olsa arziydigan kishi” degan maqolasida, Isoqovning ishsizlarga ham ko‘rsatgan yordami to‘g‘risida yozadi. Samarqand viloyat xalq ta‘lim komissaryati 1918-yildagi murojaatnomasida shunday deyiladi “Samarqand shahridagi o‘quvchilarning ota onalariga: grajdanlar sizni ko‘pchiligingizga o‘quvchilar kooperativi tashkil etilmaganligini ma‘lumdir bu koperativ o‘quvchilarni darslik va o‘quv qurollari bilan ta‘minlashni o‘z bo‘yniga oldi nihoyat og‘ir yil bo‘lganligi bizni sizlarga iltimos qilib, sizga kerak bo‘lmagan darsliklarni ixtiyoran topshirish yoki sotishingizni murojaat qilamiz. Hurmatli ota-onalar kooperativga a‘zo bo‘lib kirishga shoshiling bo‘lmasa bolalaringiz darsliksiz va o‘quv qurollarisiz qolishlari aniq bo‘ladi”.[9] Ko‘pgina qishloqlar aholisi maktablarning jihozlashni o‘z bo‘yniga olib maktab binolarni remont qilib isitgichlarni to‘g‘rilab berishdi. 1919-yil xalq ma‘orifi kamissaryati dokladi bo‘yicha Turkiston respublikasi soveti 11-sovet XI sezdi rezalutsiyasi qabul qiladi xalq ta‘limini moddiy bazasini ko‘tarish uchun sezdi xalqini o‘zi maktablarni ixtiyoriy rag‘batlantirib turishni hamda ko‘p joylarda boshlang‘ich shartnoma asosida maktablarni taminlab turishni ko‘rsatib o‘tdi sezdi Turkistonning

umum byudjetidan xalq talimi uchun ajratilgan 14% davlat mablag'ini yetarli emasligini takidlaydi.[10] Kelishuvga muvofiq Turkiston umum byudjetidan 20% ajratish lozimligi aytildi sezda shaharda maktablarni roli o'qituvchini vaqtincha ekanligi shu bilan birga kambag'al ishchi va dehqon bolalarni bepul o'qitish kafolatini beradi.[11]

Turkiston sovet hukumati 1918-yil 23-mayda xalq ta'limi uchun 77- milion so'm ajratishni tasdiqlaydi Samarqand Oblonasi tomonidan sizga 8.829.013 so'm ajratiladi. 1918-yil O'zbekistonda tashkil etilgan 400-ta'lim tarbiya muasasalarida juda og'ir sharoitda ishlashga to'g'ri keldi.[12] 1918-yil May oyidan 1918-yil avgustgacha bo'lgan davr ichida O'zbekistonda O'zbek tilida bo'lgan 30-dan ortiq maktab tashkil etilgan.[13]

1920-yilning oxirida Turkiston o'lkasida TASSR HMK–ti statistikasini bergan ma'lumotiga binoan maktablar soni quydagicha edi:

1) Pag'onali maxalliy xalq o'rnatilgan 1320-maktab bo'lib undan 97000 o'quvchi o'qir edi

2) Yevropalik aholi o'qiydigan 700 ta maktab bo'lib unda 70,000 o'quvchi bor edi.[14] Shu tariqa 1920-yil oxiriga kelib bir pag'onali maktablar soni Turkiston o'lkasida 2020 ta bo'lib unda jami 167000 o'quvchi ta'lim olar edi. 1918-yil Samarqand viloyatida quydagi bilim yurtlari: Maktabgacha tarbiya kurslari maxsus o'quv yurtlari Samarqand bo'yicha – 40 ta Kattaqurg'on uezdi- 13 ta Samarqand uezdida- 6 ta Jizzax uezdida -16 ta Xo'jand uezdida -24 ta bilim yurtlari mavjud edi.[15] 1918-yil 26 sentyabrda Samarqand shahri o'quvchilarni umumiy (Majlislarda) yig'ilishida kunduzgi programma bo'yicha kechki uch pog'onali maktablar tashkil etishni tasdiqladi. Unda aytilishicha 1 pog'onali kechki maktab savodsizlar uchun tashkil etilgan 2 pog'onali umumiy bilim olib o'zini jamoatchilik ishiga tayyorlash 3-pog'onali u bilim yurtlarida chuqurroq bilim egallash uchun tasdiqlandi. Avval 3-ta 1 pog'onali 2 ta 2 pog'onali va 1 ta 3 pog'onali maktablar tashkil etiladigan bo'ldi.[16] "Samarqand ovozi" gazetasida 1918-yil Savod olmoqchi va o'z bilimlarini chuqurroq davom ettirmoqchi bo'lganlarni kechki maktablarga yozilishiga taklif etadi.[17]

#### FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.Rajabov O'zbekistonda sabet maktabi tarixiga oid 1957 yil 12 bet
2. Samarqand viloyati arxivi: 104:№-1 : D-24 71 bet
3. M.A.Fattoev O'zbekistonda sovet xokimiyatining dastlabki yillarida hamma talimlarning boshqaruvlarning yangi organlarni tashkil etish 1951 yil 352-bet.
4. Sam VII ARX 152 ar-1 : g-12: 156 -157 betla
5. O'z SSR tarixi I-II tam
6. YO' V. Talishkin 1917 -1927 yil O'z-nda Sovet maktabi cestemasini tashkil etish sam 1957 yil 62-be
7. Sam vi lar 104: ar-1 9-2 61 bet
8. Sam vil arxivi ar -104: ar-1 g-54 1-bet
9. Jurnal: "Nauka iprosbishenniy " N2 oktiyabr dekabr 1922yil
10. Jo'rnal „Nauka I pravishinniy “ N2: 1922-yil oktiyabir – dekabir toshkent
- 11.Sh. Inayatov . 1957 yil 316-bet.
12. Sam Vil arxibi ar 104: ar-1 d-112 : 18- bet
13. E Qodirov O'zibi xalq maorifini 40-yil ichida erishgan yutuqlari. 1957-yil 16- bet
14. O'z SSR tarixi .K.E. Jetov va B taxriri ostida II tom .1957-yil 77-78-betlar
15. Yu V Talishkin. 1917-1927 yillarda o'zbekistonda Sovet maktab sestemasini tashkil topishi Samarqand – 1957 yil 71-77-betlar
16. Sam vil arxiv . ar 104 , ar-1: d- 26: 72-78 betlar
17. Sam vil arxiv . ar 902 , ar-1: d- 4: 18- betlar

UO'K: 740.740.148.741

#### MUTAFAKKIRLARNING MA'RIFIY-AXLOQIY QARASHLARI

*S.D. Usmonov, katta o'qituvchi, Samarqand davlat universitetining Urgut filiali, Urgut*  
*M.A.Rasulova, o'qituvchi, Samarqand davlat universitetining Urgut filiali, Urgut*

*Anontatsiya. Xorazm o'lkasi qadimdan O'zbekiston madaniyati beshiklaridan biri bo'lib, Eron, Hindiston, Gretsiya va Rim kabi yirik sivilizatsiyalar qatorida o'z o'rniga ega. Bu zamin Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Ogahiy kabi allomalar bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga katta hissa qo'shgan. Ularning asarlari O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-pedagogik tafakkuri taraqqiyotida muhim o'rin*

tutgan. Maqolada xorazmlik mutafakkirlarning inson kamoloti, axloq va ma'rifat haqidagi qarashlari yoritilib, xalq pedagogikasi tarixini boyitishdagi roli tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Xorazm o'lkasi, allomalar, madaniy meroslar, axloq, ma'naviyat, pedagogika, siyosiy tuzum, ijtimoiy tenglik, adolat

**Аннотация.** Хорезм издавна считается одним из очагов узбекской культуры и наряду с такими великими цивилизациями, как Иран, Индия, Греция и Рим, занимает достойное место в мировой истории. Эта земля подарила миру таких выдающихся ученых, как Мухаммад аль-Хорезми, Абу Райхан аль-Бируни, аз-Замахшари, Наджмуддин Кубро, Пахлаван Махмуд и Огахий, внесших значительный вклад в развитие мировой науки и культуры. Их труды сыграли важную роль в становлении социально-педагогической мысли народов Средней Азии. В статье раскрываются взгляды хорезмских мыслителей на человеческое совершенство, нравственность и просвещение, а также их вклад в обогащение истории народной педагогики.

**Ключевые слова:** Хорезм, ученые, культурное наследие, нравственность, духовность, педагогика, политический строй, социальное равенство, справедливость.

**Abstract.** The Khorezm region has long been one of the cradles of Uzbek culture, standing alongside great civilizations such as Iran, India, Greece, and Rome. This land gave birth to prominent scholars like Muhammad al-Khwarizmi, Abu Rayhan al-Biruni, az-Zamakhshari, Najmuddin Kubra, Pahlavon Mahmud, and Ogahiy, who made significant contributions to world science and culture. Their works played an important role in the development of socio-pedagogical thought among the peoples of Central Asia. The article highlights the views of Khorezm thinkers on human perfection, morality, and enlightenment, analyzing their role in enriching the history of folk pedagogy.

**Key words:** Khorezm region, scholars, cultural heritage, morality, spirituality, pedagogy, political system, social equality, justice.

**Kirish.** Xalqning bunyodkorlik qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda Uchinchi Renessansning ilmiy-ma'naviy po'ydevorini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy-diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, mamlakatning islom sivilizatsiyasini rivojlantirish borasidagi rolini yanada oshirish hamda buyuk allomalarning jahon tamadduniga qo'shgan hissasini milliy va xalqaro miqyosda ommalashtirish maqsadida 2021-yil 16-iyulda O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori qabul qilinadi. Ushbu qarorga asosan mamlakat tarixining yangi yuksalish davridagi yutuqlarini ilmiy asosda o'rganish, uni keng jamoatchilikka yetkazib berish bugungi kun ilmiy izlanuvchilarining asosiy burchidir[1]. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. Uzoq va boy tarixga ega bo'lgan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining ta'lim tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma'naviyatimizning o'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, "Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o'tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi"[6]. Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o'z farzandlarini barkamol inson bo'lishini istaydi, o'zlari yeta olmagan orzu-umidlariga bolalarining yetishligini o'ylaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ma'lumki, VII – IX asrlarda Xorazm obodonchilik, qurilish inshootlarning yuksalishi jihatdan Sharq mamlakatlari ichida katta mavqeyga ega edi. Qo'shni davlatlar va xalqalar bilan savdo aloqasining mustahkamligi tufayli uning madaniyati ham tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan edi. Quyida Xorazm diyorida yetishib chiqqan bir necha mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan tanishtirib o'tamiz.

**Haydar Xorazmiy (XIV asrning oxirgi XV asr boshlarida yashagan)** Umarshayxning o'g'li Iskandar Mirzo davrida yashab ijod etgan buyuk xorazmlik shoirdir. Uning "Maxzanul asror" ("Sirlar xazinasini") asari axloqiy-falsafiy dostonchilikning yirik namunasi. "Gulshanun asror" falsafiy-

didaktik dostonida yaxshi xulq-odob, mehnatsevarlik, saxiylik, rostgöylik, insonparvarlik haqida fikr yuritib, yoshlarni saxovatli, muruvvatli va himmatli bôlishga chaqiradi:

*Yorim ayoq oshki toparsan nasib,  
Yarmini berki yesun bir g'arib.  
Me'da tamuğikim erur dushmaning,  
Töymag'usidur agar ichsa qoning.  
Odam atonğonga muruvvat kerak,  
Orif-u omiyga futuvvat kerak.  
Sarvdek ozoda bôl-u rostkor,  
Ye ôrik-u olma bikin mevador.*

Haydar Xorazmiy insonparvar, karamli, himmatli, saxovatli mard kishilarni ko'kka ko'tarib ulug'laydi.

**Muhammadniyoz Nishotiy (XVIII asr)** "Husnu Dil" dostonida eng yaxshi axloqiy g'oyalarni targ'ib qilarkan, qachonlardir zulm va zo'rovonlik, yovuzlik va yomonlik ustidan yaxshilik, adolatparvarlik, insonparvarlik tantana qilishga ishonadi. Nishotiy "Qushlar munozarasi" nomli asarini yaratib, o'zbek adabiyotida ramziylik an'anasini rivojlantirishga hissa qo'shadi. "Qushlar munozarasi" asarida 14 xil qushning o'zaro bahslashuvi orqali shoir zamonasidagi ba'zi hukmdorlarning xudbinligi, maqtanchoqligi, mansabparastligi ochib beriladi. Kamtarlik, adolat, va diyonat, yaxshilik va ezgulik ulug'lanadi. Bu axloqiy-didaktik ruhdagi asardir[7].

*Dun elining dunlig' erur peshasi,  
Yaxshi elning yaxshidur andishasi.*

Nishotiy yoshlarni har qanday og'ir vaziyatda ham chidam ca sabot bilan mehnat qilishga da'vat etarkan, mehnat bolalarni axloqiy tarbiyalash vositasi ekanligini ta'kidlaydi:

*Zulmat aro chekma zahri mamot,  
Topmog'usi ul kishi obi hayot.  
Mehnat aro bôlmasa kimga qaror,  
Davlat ichra bermagusi e'tibor.*

**Shermuhammad Munis Xorazmiy (1778-1829)** ham o'z asarlarida ilm-ma'rifatni ulug'lab, ilm-hunardda kamol topishning eng muhim fursati "fasli shabob", ya'ni yoshlik davridadirkim, bu g'animat fursatni qo'ldan bermaslikni ta'kidlaydi:

*Kamol kasbida, Munis, shitob qildi, erur,  
Hayot fursatikim bedarang fasli shabob.*

Munis yoshlarni bilim olishga chorlarkan, jaholatdan va nodon kishilardan yiroq turishga da'vat etadi:

*Aql donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,  
Jami nodonlar bila izohori ulfat qilmangiz.*

**Muhammad Yusuf Mahzum ibn Xo'jamberdi Rojiiy** ham rostgo'ylik va to'g'ri so'zlikni, iboli, odobli, xushmuomala bo'lishni insonning eng muhim axloqiy fazilatlaridan deb hisoblaydi. Uning fikricha, rostgo'ylik faqat kishilarning o'zaro gap-so'zlarida ifodalanibgina qolmay, balki, rostgo'ylik fazilati kishilarning xatti-harakatida, yurish-turishida, odamlarga va jamiyatga bo'lgan munosabatida aks etadigan eng muhim axloqiy qoida bo'lishini ta'kidlaydi:

*Kimi ko'rsang tavoze' aylagil rasmi odob birla,  
Kishilikdin mudur doim takabbur birla qoyqamoq.  
Kichikroq tut ich-toshingda barcha xalqdin uzni,  
Murad ersa senga gar olam eli ichra ulgaymoq...*

Rojiiy faqat an'anaviy ishq-muhabbat emas, balki axloq-odob, ilm-ma'rifat, muqaddas vatan, muborak zamin va boshqa mo'tabar mavzularda qalam tebratdi. Uning "Adab" radifli g'azali bunga yorqin misol bo'la oladi. Shoir sabr-u qanoat, nafs balosidan o'zini uzoq tutish kabi fazilatlar inson bezagi ekanini badiiy barkamol misralarda tarannum etadi.

**Abdurazzoq Faqiriy (1880–1925)** ning fikricha, insonning odobini belgilaydigan birinchi belgi, uning kerakli so'zni gapirib, nokerakligini gapirmasligida va oz so'z bilan ko'p ma'noni anglatishidadir, deydi. Shoir do'stlik haqida gapirib, yoshlarni o'zi yoqtirgan odobli, chin do'st

orttirishga va uning fazlidan faqat yaxshilikka boshlovchi xayrli ta'sirlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi. Shu bilan birga, u do'stlarni bir-birining sirini oshkor qilmaslikka va hamdard bo'lishga da'vat etadi. Xorazm mutafakkirlarining yuqoridagi ma'rifiy-axloqiy va didaktik g'oyalari hozirgi kunda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Shubhasiz, Xorazm mutafakkirlarining g'oyalari yoshlarimizni go'zal axloqiy ruhda tarbiyalashda hamkasblarimizga yordam beradi degan umiddamiz[4].

**Natijalar.** Sharq mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari natijasida ijtimoiy adolat, insoniy qadriyatlar, va bilimning o'sishi ko'p davlatlarda ko'rib chiqilgan. Ular, insonlarning bir-biriga hurmat ko'rsatish, ilm va ma'rifatni oshirish, va ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu natijalar, Sharq davlatlarida madaniy va siyosiy taraqqiyotda katta rolni o'ynagan va hozir ham o'ziga xos tafsilotlarni o'z ichiga olgan bir qator qadriyat va falsafa rivojlanishining insonlar uchun muhim bo'lgan sohalar bilan bog'liq. Sharq mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari natijasida ko'p o'zgarishlar bo'lgan. Ular, insoniyat huquqlari, madaniy munosabatlar, va ijtimoiy barqarorlikning o'sishi uchun o'z fikrlarini, falsafiy qarashlarni takomillashtirishgan[5]. Natijada, bu qarashlar, jamiyatlar orasida adolat va insofni o'stirish, ilm va ma'rifatni rivojlantirish, va insonlarning bir-biriga qadr-qadrlashuvini talab qilish yondashgan. Bir necha Sharq davlatlarida shakllangan madaniy va ilmiy markazlar, ijtimoiy barqarorlikning o'sishiga olib kelgan. Bu mutafakkirlarning fikrlari, o'zlarining davlatlarida ijtimoiy-siyosiy tizimni shakllantirishda va sa'y-harakatlarda katta o'rin tutgan. Sharq mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari, ularning mamlakatlari ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari xulosasi, insoniyat, adolat, va ijtimoiy barqarorlikning o'sishi yo'lida o'zgarishlarni ko'rsatadi. Ular, insonlarning bir-biriga adolatli, hurmatli munosabat qurish, bilim va ma'rifatni rivojlantirish, va ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan tizimlarni shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Bu xulosalar, Sharq davlatlarining tarix va madaniyatini shakllantirishda, ularning mustaqil fikrlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

**Muhokama.** Yoshlarni ma'naviy tarbiyalash — o'ta nozik va mas'uliyatli ish. Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda ularning yoshi, xohishi, intellektual, ruhiy tayyorgarligini hisobga olish kerak. Yoshlar ma'naviy-axloqiy sifatlarining ifodasi bo'lgan ruh (aql) nodir hodisa bo'lib, tez o'sishga moyildir. Yoshlarni ma'naviy — ma'rifiy ruhda tarbiyalashda yoshlardagi taqlid, ta'sirlanish, tormozlanishdan kuchliligini, kuchli ruhiy ta'sirlanish bosh miya yarim sharlaridan ayri, «maslahatlashmay» sodir bo'lishini va bunday hollarda ular o'zlari bilmagan holda zid hatti-harakatlar sodir etishi, jiddiy xatolarga ham yo'l qo'yishini inobatga olish zarur. Shuningdek, yoshlar ta'sirga beriluvchan, ongiga o'z atrof-tevaragidagi voqealarni tez singdiruvchan bo'ladi. Bu voqealar yoshlarning his-tuyg'usidan mustahkam o'rin olib, ichki olamiga ruhiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa yoshlarni maksimal fikrlaydigan, turli xil emotsiya va ambitsiyalarga tez uchadigan demografik qatlam ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun barkamol avlodni shakllantirishda pok, sog'lom bo'lgan ijtimoiy muhitni, sog'lom ruhdan oziqlanib to'g'ri yo'nalish olishni ta'minlash talab etiladi. Buning uchun yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Avvalo, ustoz yoki ota-ona tomonidan rag'batlantirib, boshqarib turilishi orqali yoshlarda etishmaydigan shaxsiy muloqot, jamoada yashash tajribasi, qiyoslab tahlil qilish malakasini oshirishga e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. Yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy ruhda tarbiyalashda ustoz, sinf rahbari va ota-onalar orasida hamkorlikni yo'lga qo'yish samarali usul hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosada, bu ahloqiy qarashlarning natijalari har bir Sharq davlatida o'z xususiyatlari va tarixi mazmuni bilan ajralib turadi. Ular, g'oya va fikrlarni o'zlarining jamiyati, siyosiy tizimi, va madaniyatining muhitiga mos kelgan shaklda rivojlantirishganlar. Xorazm mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari xulosasi, umumiy ravishda, insoniyatga, adolatga, va ijtimoiy barqarorlikka bo'lgan e'tiqodlarining o'zgarishi va rivojlanishini ifodalaydi. Ular, insonlarning huquqlarini himoya qilish, madaniy munosabatlarni rivojlantirish, va ijtimoiy adolatni o'stirishga qaratilgan. Bu xulosa davlatlarining ijtimoiy, siyosiy, va madaniy hayotlarida o'zgarishlarni olib kelganligini va mutafakkirlarning fikr-mulohazalarini amaliyotga tatbiq etishga intiladi. Kengroq xulosa sifatida, Xorazm mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotlarining o'sishi, va insoniyatga qaratilgan e'tiqodlarining o'zgarishlarini kengroq qabul qilish yuzaga kelayapti. Ular,

inson huquqlarini himoya qilish, adolat va insofni o‘stirish va ilm-fan sohasidagi rivojlanishni muhim hisoblaydilar. Mutafakkirlarning o‘z fikrlarini amaliyotda muvaffaqiyatli tatbiq etilgan holda ko‘plab sohalarda rivojlanishini tasdiqlayadi, shu jumladan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, va madaniy sohalarda. Xorazm mutafakkirlarining ahloqiy qarashlari o‘zgarayotgan dunyoda insoniyat va madaniyatning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarini ulug‘laydilar va shunday fazilatlariga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya yoki mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 2021-yil 21-iyunda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori
2. Saliy”Muhammad al-Xorazmiy – buyuk o‘zbek olimi” Toshkent – 1954, 5-bet.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy “Tanlangan asarlar” Toshkent – 1983.
4. Q.Hoshimov, S.Ochil “O‘zbekiston pedagogikasi antologiyasi” Toshkent – 1995 322-360-betlar
5. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son.
6. M.Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y
- 7.K.Hoshimov, S. Nishonova, M. Inomova, R. Hasanov “Pedagogika tarixi” O‘quv qo‘llanma - Toshkent. “O‘qituvchi” 1996, 89 b.
8. D.Bobojonov, M.Abdurasulov "Abadiyat farzandlari" Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti 2009 y.
9. M.Farmonova. "Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi" (Ilmiy-uslubiy qo'llanma). T.2019 yil.
10. “Ilm-fan taraqqiyoti: muammolar, yechim va istiqbollari” mavzusidagi xorijiy olimlar ishtirokidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-yil 19-21 dekabr, Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

UO‘K 39:305.42

### SURXON VOHASIDA AN’ANAVIY MAROSIMLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI VA IJTIMOYIY-MADANIY AHAMIYATI

*Ch.M.Xushboqov, bosh mutaxassis, Termiz davlat universiteti, Termiz*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Surxon vohasida shakllangan an’anaviy marosimlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy va madaniy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda marosimlarning tarixiy ildizlari, ularning ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashdagi roli, ma’naviy-tarbiyaviy funksiyalari hamda globallashuv sharoitidagi transformatsiyasi yoritilgan. Shuningdek, oilaviy, mavsumiy va jamoaviy marosimlarning jamiyat ijtimoiy tuzilmasiga ta’siri ochib berilgan. Maqola milliy madaniy merosni asrash va uni yosh avlod ongiga singdirish masalalarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Surxon vohasi, an’anaviy marosimlar, ijtimoiy institut, madaniy meros, ma’naviy tarbiya, ijtimoiy birdamlik, xalq urf-odatlari.

**Аннотация.** В данной статье с научно-теоретических позиций анализируется роль традиционных обрядов, сформировавшихся в Сурхандарьинской долине, в жизни общества, а также их социальное и культурное значение. В исследовании освещаются исторические истоки обрядов, их роль в укреплении социальной сплочённости, духовно-воспитательные функции и трансформация в условиях глобализации. Кроме того, раскрывается влияние семейных, сезонных и коллективных обрядов на социальную структуру общества. Статья направлена на научное обоснование вопросов сохранения национального культурного наследия и его передачи молодому поколению.

**Ключевые слова:** Сурхандарьинская долина, традиционные обряды, социальный институт, культурное наследие, духовное воспитание, социальная сплочённость, народные традиции.

**Abstract.** *This article provides a scientific and theoretical analysis of the role of traditional rituals formed in the Surkhan Oasis in the life of society, as well as their social and cultural significance. The study examines the historical roots of these rituals, their role in strengthening social cohesion, their spiritual and educational functions, and their transformation under the conditions of globalization. In addition, the influence of family, seasonal, and collective rituals on the social structure of society is revealed. The article aims to scientifically substantiate the issues of preserving national cultural heritage and transmitting it to the younger generation.*

**Key words:** *Surkhan Oasis, traditional rituals, social institution, cultural heritage, spiritual education, social cohesion, folk traditions.*

Surxon vohasi Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy hududlaridan biri bo'lib, bu yerda shakllangan an'anaviy marosimlar uzoq tarixiy jarayon mahsuli hisoblanadi. Arxeologik, etnografik va tarixiy manbalarda vohada dehqonchilik, chorvachilik hamda o'troq hayot tarziga oid marosimlarning qadimdan mavjud bo'lgani qayd etiladi [2]. Xususan, yer haydash, urug' sepish, hosil yig'im-terimi jarayonlari bilan bog'liq marosimlarda tabiatga hurmat, mehnatni muqaddaslashtirish va jamoaviy mas'uliyat g'oyalari ustuvor bo'lgan.

Masalan, Surxon vohasining qishloq hududlarida bahor faslida o'tkazilgan mavsumiy marosimlar orqali dehqonlar yerga baraka tilab duo qilgan, hosilning mo'l bo'lishi uchun jamoaviy udumlar bajargan. Bu marosimlar nafaqat xo'jalik faoliyatining muhim bosqichi, balki jamiyat a'zolari o'rtasida hamjihatlik va o'zaro ishonchni mustahkamlovchi vosita bo'lib xizmat qilgan [3]. Chorvachilik bilan bog'liq udumlarda esa chorvani asrash, tabiat bilan uyg'un yashash va tirikchilik manbalarini muhofaza qilish g'oyalari asosiy o'rinni egallagan.

Ushbu marosimlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, xo'jalik faoliyati hamda diniy-e'tiqodiy qarashlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Jumladan, hashar marosimlari orqali jamoaviy mehnat tashkil etilib, mahalla va qo'ni-qo'shnicilik munosabatlari mustahkamlangan. To'y, sunnat va boshqa oilaviy marosimlar esa qarindoshlik rishtalarini kuchaytirish, jamiyatda ijtimoiy rollarni belgilash va axloqiy me'yorlarni mustahkamlash vazifasini bajargan [4].

An'anaviy marosimlar jamiyat hayotida faqat rasm-rusum sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi, axloqiy me'yorlarni mustahkamlovchi va madaniy vorisilikni ta'minlovchi muhim institut sifatida namoyon bo'ladi [1]. Marosimlar orqali avlodlar o'rtasida madaniy tajriba uzatiladi, yoshlar jamiyatning qadriyatlarini va axloqiy tamoyillari bilan bevosita tanishadi. Shu jihatdan, Surxon vohasidagi an'anaviy marosimlar xalqning kundalik hayoti, ijtimoiy xulq-atvori va ma'naviy dunyosini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [5].

Surxon vohasida an'anaviy marosimlar dastlab tabiat hodisalari va tirikchilik manbalariga bo'lgan ehtiyoj asosida shakllangan. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq mavsumiy marosimlar – yer haydash, urug' sepish, hosil yetilishi va yig'im-terim jarayonlari – inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular mehnat jarayonini muqaddaslashtirish vazifasini bajargan [3]. Bunday marosimlarda yerga baraka tilash, hosilning mo'l bo'lishi uchun duo qilish, mehnatni jamoaviy tarzda amalga oshirish kabi udumlar keng tarqalgan bo'lib, ular tabiatga ehtiyotkorona munosabat va mas'uliyatli mehnat madaniyatini shakllantirgan.

Shuningdek, chorvachilik bilan bog'liq marosimlar ham Surxon vohasida muhim o'rin tutgan bo'lib, ularda chorvani asrash, ko'paytirish va tabiat bilan uyg'un yashash g'oyalari aks etgan. Ushbu marosimlar nafaqat iqtisodiy faoliyatni tartibga solgan, balki jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro hamkorlik va birdamlikni kuchaytirgan [3].

Vaqt o'tishi bilan ushbu marosimlar diniy-e'tiqodiy va axloqiy qarashlar bilan boyib, jamiyat hayotini tartibga soluvchi ijtimoiy institutga aylangan. Marosimlar orqali jamiyatda ma'naviy me'yorlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor qoidalari mustahkamlangan [4]. Natijada marosimlar jamoa ichidagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlash, o'zaro hamkorlikni rivojlantirish va jamiyat barqarorligini saqlash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etgan.

Surxon vohasidagi an'anaviy marosimlar jamiyat hayotida muhim ijtimoiy funksiyalarni bajaradi. Hashar, to'y va maraka kabi marosimlar orqali jamoaviylik, o'zaro yordam va mas'uliyat tuyg'ulari shakllanadi [2].

Hashar marosimi jamiyatda qo'ni-qo'shnichilik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlovchi an'anaviy mexanizm hisoblanadi. Ushbu marosim orqali ijtimoiy tenglik, jamoa manfaatini ustuvor qo'yish va birdamlik g'oyalari targ'ib qilinadi [6].

Oilaviy marosimlar – tug'ilish, nikoh va motam bilan bog'liq udumlar – jamiyatning axloqiy-me'yoriy tizimini belgilovchi muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Ushbu marosimlar orqali jamiyatda insoniy munosabatlar, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari shakllantiriladi hamda mustahkamlanadi [4]. Ayniqsa, oilaning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini belgilashda mazkur marosimlar muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi.

To'y marosimlari orqali yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni oilaviy mas'uliyatga o'rgatish, qarindoshlik va quda-andachilik rishtalarini mustahkamlash hamda jamiyatda erkak va ayolning ijtimoiy rollarini belgilash amalga oshiriladi [4]. Surxon vohasiga xos to'y marosimlarida jamoaning faol ishtiroki, katta-kichikning o'zaro hurmati va maslahatga asoslangan qarorlar qabul qilinishi yoshlarni ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlaydi.

Motam marosimlari esa jamiyatda hamdardlik, sabr-toqat va ma'naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu marosimlar orqali jamiyat a'zolari o'zaro ruhiy qo'llab-quvvatlash, mehr-oqibat va insoniylik fazilatlarini namoyon etadi [5]. Motam marosimlari inson umrining o'tkinchiligi, sabr va qanoat kabi axloqiy qadriyatlarni anglashga xizmat qilishi bilan birga, jamiyatda ijtimoiy birdamlikni saqlashda muhim o'rin tutadi.

An'anaviy marosimlar yosh avlodni xalqning urf-odatlarini, axloqiy me'yorlari va milliy qadriyatlarini ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Dehqonchilik va hosil yig'im-terimi bilan bog'liq marosimlarda yerga hurmat, mehnatsevarlik va shukronalik g'oyalari asosiy o'rinni egallaydi [3].

Xalq og'zaki ijodi — maqollar, qo'shiqlar, duo va tilaklar – marosimlarning ajralmas qismi bo'lib, ular kuchli tarbiyaviy vosita vazifasini bajaradi [5].

Globalashuv jarayonlari Surxon vohasidagi an'anaviy marosimlarning tashqi shakliga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa-da, ularning asosiy mazmuni – milliy birlik, ijtimoiy birdamlik va ma'naviy qadriyatlar – o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda [6]. Jumladan, zamonaviy texnologiyalar, ommaviy madaniyat va shahar hayotining ta'siri natijasida ayrim marosimlarda tashkiliy shakl va marosim o'tkazish uslublari o'zgarib, yangi elementlar bilan boyimoqda. Biroq marosimlarning ichki mazmuni, ya'ni jamoaviylik, o'zaro hurmat va insoniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan jihatlari saqlanib kelinmoqda.

Masalan, to'y marosimlarida zamonaviy texnik vositalardan foydalanish, marosimlarning qisqarishi yoki muayyan rasm-rusumlarning soddalashtirilishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash, katta-kichikka hurmat va jamoa ishtiroki kabi an'anaviy tamoyillar saqlanib qolmoqda [6]. Xuddi shuningdek, motam marosimlarida ham zamonaviy sharoitga moslashuv jarayonlari kuzatilsa-da, hamdardlik va ma'naviy birlik g'oyalari o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Shu bois an'anaviy marosimlarni ilmiy asosda o'rganish, ularning ijtimoiy-madaniy mazmunini tahlil qilish va madaniy meros sifatida muhofaza qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi [7]. Ayniqsa, ta'lim va tarbiya jarayonida an'anaviy marosimlarning mazmunini yosh avlod ongiga singdirish, ularni milliy o'zlikni anglash va ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida talqin etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Surxon vohasida shakllangan an'anaviy marosimlar jamiyat hayotining muhim ijtimoiy-madaniy institutlari sifatida tarixiy jarayon davomida takomillashib, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Ushbu marosimlar orqali jamiyatda ijtimoiy birdamlik, o'zaro hamjihatlik va jamoaviy mas'uliyat kabi muhim ijtimoiy tamoyillar mustahkamlanadi hamda axloqiy-me'yoriy tizim barqaror saqlanib kelinadi.

An'anaviy marosimlar, xususan, oilaviy, mavsumiy va jamoaviy udumlar orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ma'naviy tajriba avloddan avlodga uzatiladi. Bu jarayonda marosimlar yosh avlodni milliy o'zlikni anglash, mehnatsevarlik, sabr-toqat, insonparvarlik va jamoaga sadoqat

ruhida tarbiyalashda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa, marosimlarning tarbiyaviy va ijtimoiy integratsiya funksiyasi jamiyat barqarorligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy globallashuv sharoitida an'anaviy marosimlarning ayrim tashqi shakllarida o'zgarishlar kuzatilayotgan bo'lsa-da, ularning asosiy mazmuni va ijtimoiy vazifalari o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu bois mazkur marosimlarni ilmiy asosda o'rganish, tizimli ravishda tahlil qilish va ularni madaniy meros sifatida muhofaza etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada ta'lim, madaniyat va tarbiya tizimlarida an'anaviy marosimlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini keng targ'ib qilish jamiyatda ma'naviy barqarorlik va milliy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
3. Snesev G.P. O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlar va marosimlari. – Toshkent, 1983.
4. Ismoilov X. O'zbek xalq an'analari va marosimlari. – Toshkent: Fan, 2005.
5. Madayev O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010.
6. Rasulov A. An'anaviy madaniyat va zamonaviylik muammolari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. Xo'jayev M. Milliy marosimlar va madaniy meros masalalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

UO'K 338.45:67(575.15)

### YENGIL SANOAT KORXONALARINING SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

*M.K.Yarashev, magistrant, Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti, Termiz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida yengil sanoat korxonalarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli va ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Maqolada yengil sanoat korxonalarining hududiy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi, ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini oshirish va eksport salohiyatini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va mahsulot sifatini oshirish orqali viloyat iqtisodiyotini yanada mustahkamlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, yengil sanoatning kichik va o'rta biznes subyektlariga ijobiy ta'siri, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyati ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Yengil sanoat, Surxondaryo viloyati, iqtisodiyot, ish o'rinlari, investitsiya, eksport, innovatsiya, kichik va o'rta biznes, hududiy rivojlanish, raqobatbardoshlik

**Аннотация.** В статье подробно анализируется роль предприятий легкой промышленности в экономическом развитии Сурхандарьинской области. Особое внимание уделяется вкладу предприятий в региональную экономику, созданию рабочих мест, увеличению занятости населения и развитию экспортного потенциала. Рассматриваются возможности модернизации предприятий, внедрения инновационных технологий и повышения качества продукции для дальнейшего укрепления экономики региона. В статье также оценивается влияние легкой промышленности на малый и средний бизнес, повышение конкурентоспособности на внутреннем и внешнем рынках и общие перспективы регионального развития.

**Ключевые слова:** Легкая промышленность, Сурхандарьинская область, экономика, рабочие места, занятость, инвестиции, экспорт, инновации, малый и средний бизнес, региональное развитие, конкурентоспособность.

**Abstract.** This article provides a detailed analysis of the role and significance of light industry enterprises in the economic development of Surxondaryo region. It examines the contribution of light industry to the regional economy, the creation of employment opportunities, enhancement of population employment, and the development of export potential. The study also explores opportunities for modernization of enterprises, implementation of innovative technologies, and improvement of product quality to further strengthen the regional economy. Additionally, the article assesses the impact of light industry on small and medium-sized enterprises, increasing competitiveness in domestic and international markets, and overall regional development prospects.

**Keywords:** *Light industry, Surxondaryo region, economy, employment, investment, export, innovation, small and medium-sized enterprises, regional development, competitiveness.*

Respublikamiz hududlarida sanoat salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratishda to'qimachilik sanoatining o'rni beqiyosdir. Respublikada to'qimachilik sanoatining kelgusi rivojini ta'minlash uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Yengil sanoat, ayniqsa to'qimachilik sanoat mahsulotlarining katta qismini shu joyning o'zida tayyor mahsulot darajasiga yetkazish katta iqtisodiy natija beradi.

Surxondaryo viloyatida 1992-yil yengil sanoat korxonalarida jami bir million ikki yuz qirq yetti ming (1247000) pogono metr shoyi-gazlama, 99.5 million so'mlikdan ko'proq, tikuvchilik buyumlari, 20.1 ming juft poyabzal, 19.2 ming dona trikotaj buyumlari, 5.2 ming dona paypoqlar 2,3 tonna yigirilgan ip tayyorlandi[1].

Respublikamiz viloyatlari bo'yicha 1998-yilda to'qimachilik korxonalarini va ularda ishlab chiqarilgan to'qimachilik sanoati mahsulotlari hajmi 512 ta bo'lib, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 157994,3 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, viloyatlar kesimida esa quyidagichadir: Qashqadaryo viloyatida jami 37 ta korxonalar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 12406,5 mln. so'm. Buxoro viloyatida 16 ta korxonalar va ish.ch.mah. hajmi 22557,9 mln. so'mni va Surxondaryo viloyatida esa jami 29 ta korxonalar bo'lib ishlab chiqarish mahsulotlari hajmi 12341,9 mln. so'mni tashkil etgdi[2].

Respublikamizda to'qimachilik sanoati korxonalarini boshqarish tizimi turlicha bo'lib, bu ularning mulkchilik shakliga ko'p jihatdan bog'liqdir. Agar 1990-yilda barcha to'qimachilik korxonalarini davlat tasarrufida bo'lgan bo'lsa, 1991-yilda 266 ta korxonadan 243 tasi davlatniki va 23 tasi aksiyadorlik jamiyati edi. Korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish yildan-yilga kuchayib bordi va 1998-yilga kelib jami korxonalar soni 512 ta bo'lsa, shundan 25 tasi davlat korxonalarini sifatida faoliyat ko'rsatdi. 1999-yilda Seulda o'zbek paxtasi taqdimotining o'tkazilishi O'zbekistonning to'qimachilikka ixtisoslashganligini hisobga olgan holda xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishning yangi bosqichini ochib berdi.

Respublikamiz viloyatlarida, xususan Surxondaryoda ham istiqlol yillarida kichik, xususiy va qo'shma korxonalar tashkil etila boshlandi. Dastlabki kichik korxonalar 1992-yili Angor matlubot jamiyati qoshida trikotaj buyumlarini ishlab chiqaradigan sex sifatida o'z faoliyatini boshlandi. Bu sex Yaponiyada ishlab chiqarilgan 9 ta "Tayota" markali tikuv mashinasi bilan jihozlandi[3].

To'qimachilik sanoatida yetti xil turga bo'linadigan paxta tolalari ishlatiladi. I, II, III turdagi tolalar ingichka tolali g'o'za navlaridan olinib, bu navlar kech pishadi, shuning uchun O'zbekistonning janubiy viloyatlarida o'stiriladi. Bunday paxta tolalaridan maxsus gazlamalar to'qiladi. Ular yupqa va pishiq bo'ladi. Satin va batis, trikotajlari ingichka tolalardan to'qilgan gazlamalardir. IV,V,VI turga kiruvchi tolalar o'rta tolali g'o'za navlaridan olinadi. Bular ertapishar va serhosil bo'ladi. IV tur toladan markazet va shu kabi gazlamalar to'qiladi. V turga kiruvchi tolalar to'qimachilikda eng ko'p ishlatiladi. Ushbu tur toladan turli xil ichki kiyimlar, ko'ylaklar va astarlik bo'ladigan gazlamalar to'qiladi. VI turga kiruvchi tolalardan kostyumbop gazlamalar to'qiladi. VII tur tolalar V tur tolalarga qo'shib ishlatiladi[4].

Yurtimizda xom ashyo va mehnat resurslarining mavjudligi to'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun real shart-sharoitlar yaratadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun yetakchi davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish yanayam ko'proq samara berdi. 1995-yilda yengil sanoat korxonalariga kiritilgan investitsiyalar hajmi 37,37 mln. dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2004-yilda 848 mln dollarga yaqin investitsiyalar jalb qilindi. Ayniqsa, to'qimachilik mahsulotlarining xilma-xilligi, mavsumiy o'zgarishlarga tez beriluvchanligi mazkur turdagi mahsulotlar savdosini to'g'ri tashkil etish, tovarlar bozoridagi holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirish va samarali qayta ishlashni taqozo etadi.

Xususan, respublikamizda bozorga sifatli va bejirim to'qimachilik mahsulotlarini taklif etishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 17-iyundagi "O'zbekengilsanoat" aksiyadorlik jamiyati huzurida "Dizayn markazi tashkil etish to'g'risida" gi PQ-1554-son qarori qabul qilindi. Bugungi kunda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil

21-dekabrda “2017-2019-yillarda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida” gi PQ-2687-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-maydagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5989-son farmoni ham bunga misol bo‘la oladi.

Jahon miqyosida to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, asosiy qismini sun‘iy va kimyoviy tolani xar bir turlaridan aralashma gazlamalar, ip gazlama hamda trikotaj mahsulotlari tayyorlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim yarim tayyor mahsulot hisoblangan kalava ipni jahon bozoriga yetkazib berishni yuqori ulushi mos ravishda Xitoy (24 %), AQSh (19 %) va Hindiston (13 %) kabi mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. To‘qimachilik sanoati rivojlangan mamlakatlar qatorida Turkiya, Germaniya va Xitoy muhim ahamiyat kasb etadi.

2001-yilda O‘zbekiston Respublikasi yengil sanoati uyushmasi tarkibiga kiruvchi 17 ta trikotaj ishlab chiqarish korxonasi mavjud edi. 1999-yilda 34547 ming dona trikotaj buyumlari yoki 165280 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2000-yilda 40180 ming dona trikotaj buyumlari yoki 2708170 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 1999-yilga nisbatan 1055364 ming so‘m ko‘p ishlab chiqarilgan bo‘lib, trikotaj mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan-yilga oshib bordi[5].

“Surxonteks” qo‘shma korxonasi va “Jarteks” qo‘shma korxonasi “2006-2008- yillarda to‘qimachilik sanoati korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiya qilish dasturi” ga kirgan bo‘lib, “Surxonteks” qo‘shma korxonasida dastgohlarning demontaj ishlari yakunlanib, 300,0 mln. so‘mlik qurilish-ta‘mirlash ishlari bajarildi[6].

“Shingdong-Spining Termiz” qo‘shma korxonasi esa Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan 2007-yilda ro‘yxatdan o‘tdi. Ushbu korxonada kalava ip ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2005-2013-yillar mobaynida iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini yangilash, modernizatsiya qilish maqsadida 2 milliard 877 million dollarlik investitsiya o‘zlashtirilganligi fikrimiz isbotidir. 2008-yilda faoliyat ko‘rsatgan Uzun tumanidagi “To‘maris istiqbol” tekstil firmasida paypoq mahsuloti ishlab chiqarildi[7].

Xulosa qilib aytish mumkinki, yengil sanoat sohasida ishlab chiqarilayotgan ip, gazlama hamda charm kabi mahsulotlar yarim tayyor mahsulot xususiyatiga ega bo‘lib, mazkur mahsulotlar nafaqat yengil sanoat tarmoqlarida, balki sanoatning boshqa tarmoqlarida ham tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadi. Bu holat to‘qimachilik mahsulotlari savdosi va ishlab chiqarish jarayonida uzviy bog‘liqlik mavjudligini ifodalaydi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurasulov.G‘, Mamatqulov.S. Tarmoqlar texnologiyasi. – Toshkent. “Iqtisod-moliya”, 2007.
2. O‘zbekiston Milliy arxivi, M. 43-jamg‘arma, 1- ro‘yxat, 1640-ish, 94-varaq.
3. O‘zbekiston Respublikasi Statistika va istiqbolni belgilash vazirligi ma‘lumotlari. <https://lex.uz/docs/519903>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Yengil sanoat uyushmasi hisobot ma‘lumotlari, 2000.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 1091- jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 216-ish, 68-varaq.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, M. 698- jamg‘arma, 1-ro‘yxat , 295-ish, 63-varaq.
7. Surxondaryo viloyat xokimligi joriy arxivi, M. 1091-jamg‘arma, 1-ro‘yxat,718-ish, 63-varaq.

УДК 328.184

## ОСОБЕННОСТИ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЛОББИЗМА В СОВРЕМЕННОЙ ПОЛИТИКЕ

*Д.О. Иномова, преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент*

*Аннотация. Ушбу мақоллада замонавий сиёosatda davlat lobbizmi fenomeni har tomonlama tahlil qilinadi. Lobbizm nafaqat nodavlat manfaatlar guruhlarining faoliyati, balki davlat organlari va institutlari tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy faoliyatning alohida shakli ekanligi asoslab beriladi. Rivojlangan demokratik tizimlar sharoitida davlat bir vaqtning o‘zida lobbizm subyekti, obyekt va mijoz sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatiladi. Lobbizm, davlat siyosati va korrupsiya tushunchalarini farqlash masalasiga, shuningdek, ichki va tashqi siyosatda davlat lobbizmining o‘ziga xos jihatlari alohida e‘tibor qaratiladi. Xulosa sifatida lobbizmi murakkab va ko‘p darajali*

*ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida o'rganishda tor yuridik yondashuv emas, balki siyosatshunoslik yondashuvi zarurligi ta'kidlanadi.*

**Kalit so'zlar:** *lobbizm, davlat lobbizmi, manfaatlar guruhleri, bosim guruhleri, siyosiy institutlar, davlat hokimiyati, xalqaro lobbizm, lobbizm subyekti, lobbizm obyekt.*

**Аннотация.** *Статья посвящена комплексному анализу феномена государственного лоббизма в современной политике. Обосновывается тезис о том, что лоббизм представляет собой не только деятельность негосударственных групп интересов, но и специфическую форму политической активности государственных органов и институтов. Показано, что в условиях развитых демократических систем государство может выступать одновременно субъектом, объектом и клиентом лоббистской деятельности. Особое внимание уделяется разграничению понятий лоббизма, государственной политики и коррупции, а также анализу государственного лоббизма во внутренней и внешней политике. Делается вывод о необходимости политологического, а не узко-юридического подхода к изучению лоббизма как сложного и многоуровневого социально-политического явления.*

**Ключевые слова:** *lobbizm, государственный лobbizm, группы интересов, группы давления, политические институты, государственная власть, международное лobbирование, субъект лobbизма, объект лobbизма.*

**Abstract.** *The article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of state lobbying in contemporary politics. It substantiates the thesis that lobbying should be understood not only as the activity of non-governmental interest groups, but also as a specific form of political activity carried out by state institutions and authorities. It is demonstrated that within developed democratic systems the state can simultaneously act as a subject, an object, and a client of lobbying practices. Special attention is paid to the distinction between lobbying, public policy, and corruption, as well as to the analysis of state lobbying in domestic and foreign policy. The article emphasizes the necessity of a political science approach rather than a narrowly legal interpretation of lobbying as a complex and multi-level socio-political phenomenon.*

**Key words:** *lobbying, state lobbying, interest groups, pressure groups, political institutions, state power, international lobbying, subject of lobbying, object of lobbying.*

**Введение.** В политической науке феномен лobbизма продолжает оставаться предметом острых научных дискуссий, несмотря на его устойчивое присутствие в реальной политической практике. Широкое использование лobbистских механизмов в деятельности государственных и негосударственных акторов сопровождается недостаточной теоретической рефлексией, что особенно заметно в работах, ориентированных преимущественно на юридическую трактовку данного явления. Подобное ограничение исследовательского поля не позволяет адекватно отразить сложность и многомерность процессов влияния на принятие политических решений. В этом контексте особую значимость приобретает проблема осмысления государственного лobbизма. В научной литературе нередко утверждается, что лobbистская деятельность является исключительной прерогативой негосударственных структур, тогда как государство трактуется лишь как объект воздействия. Между тем практика современной политики свидетельствует о том, что органы государственной власти сами активно используют лobbистские технологии для продвижения собственных институциональных, экономических и внешнеполитических интересов.

Цель настоящего исследования заключается в теоретическом переосмыслении феномена лobbизма с акцентом на анализ государства как полноценного участника лobbистских процессов. Это предполагает выход за рамки узко-юридического подхода и обращение к инструментарию политической науки, позволяющему выявить реальные механизмы функционирования власти. Теоретико-методологические основы исследования лobbизма. Понятие «лobbизм» исторически сформировалось в англосаксонской политической традиции и первоначально обозначало практику неформального влияния на процесс принятия политических решений. В дальнейшем данный термин получил широкое распространение и

стал использоваться для обозначения институционализированных форм представительства интересов.

В юридической науке лоббизм, как правило, определяется как деятельность представителей негосударственных организаций, направленная на воздействие на органы государственной власти с целью принятия или отклонения определенных решений. Подобная трактовка позволяет четко разграничить легальные и нелегальные формы влияния, однако она оказывается недостаточной для анализа реальных политических процессов.

Политологический подход, напротив, исходит из признания конфликта и конкуренции интересов в политической системе. С этой точки зрения лоббизм представляет собой механизм артикуляции и агрегирования интересов, в котором могут участвовать различные акторы, включая государственные структуры. Методологически данное исследование опирается на системный и институциональный подходы, а также на принцип анализа развитых политических форм, позволяющий выявить устойчивые закономерности функционирования лоббизма.

Государство как субъект и объект лоббистской деятельности

Ключевым теоретическим вопросом в исследовании лоббизма является определение места государства в системе взаимодействия политических акторов. Классические модели лоббирования, как правило, исходят из представления о государстве как о пассивном объекте давления со стороны организованных интересов. Однако подобная интерпретация не отражает институциональной сложности современной государственной власти.

Государственные органы обладают собственными интересами, обусловленными логикой функционирования политических институтов, распределением ресурсов и борьбой за влияние внутри властной системы. В этой связи они нередко иницируют и осуществляют действия, по своей сути соответствующие лоббистской деятельности. Исполнительная власть может целенаправленно воздействовать на законодательные структуры, ведомства — отстаивать свои позиции в межведомственной конкуренции, а региональные органы власти — продвигать собственные интересы на национальном уровне.

Таким образом, государство выступает не только арбитром в процессе согласования интересов, но и самостоятельным актором политического влияния. Подобная двойственная роль государства подтверждает необходимость пересмотра традиционных представлений о субъектах и объектах лоббизма.

Государственный лоббизм во внутренней политике. Во внутренней политике государственный лоббизм проявляется прежде всего через деятельность исполнительных органов власти. Правительственные структуры используют различные формальные и неформальные механизмы воздействия на парламент, политические партии и общественное мнение. В странах с развитой демократией данные практики, как правило, институционализированы и находятся в рамках правового регулирования. Особый интерес представляет феномен парламентского лоббизма, когда сами депутаты и парламентские фракции выступают в роли посредников между группами интересов и государственным аппаратом. В подобных случаях грань между субъектом и объектом лоббизма становится размытой, что подтверждает необходимость гибкого аналитического инструментария. В условиях слабых демократических институтов государственный лоббизм нередко принимает искаженные формы и сближается с коррупционными практиками. Отсутствие прозрачных правил и механизмов контроля приводит к тому, что лоббизм воспринимается обществом негативно и ассоциируется с злоупотреблением властью. Государственный лоббизм во внешней политике. На международной арене государственный лоббизм проявляется наиболее отчетливо. Каждое государство обладает совокупностью национальных интересов и стремится продвигать их в системе международных отношений, используя при этом разнообразные лоббистские технологии. Во внешней политике государство может выступать в трех основных ролях: как субъект лоббирования, продвигающий собственные интересы; как клиент, нанимающий профессиональных лоббистов и консультантов за рубежом; и как объект воздействия со стороны иностранных государств и транснациональных корпораций. Подобная

многомерность делает международный лоббизм практически неподдающимся полному правовому регулированию.

Особенностью государственного лоббизма на международном уровне является его тесная связь с внешнеполитической стратегией и использованием ресурсов государственной власти. В крайних формах это может приводить к вмешательству во внутренние дела других государств и поддержке смены политических режимов, что существенно расширяет традиционное понимание лоббизма. Соотношение лоббизма, государственной политики и коррупции

Важной теоретической задачей является разграничение понятий лоббизма, государственной политики и коррупции. Лоббизм как институт предполагает наличие прозрачных процедур, легальных каналов влияния и публичной ответственности. Государственная политика, в свою очередь, представляет собой официальную деятельность органов власти по реализации принятых решений. Коррупция возникает в тех случаях, когда лоббистская деятельность осуществляется скрыто, с использованием нелегальных методов и личной выгоды должностных лиц. Следовательно, проблема заключается не в самом существовании государственного лоббизма, а в отсутствии эффективных механизмов его регулирования и общественного контроля.

**Заключение.** Проведенный анализ позволяет утверждать, что государственный лоббизм является не отклонением от нормы, а закономерным элементом функционирования современной политической системы. Его существование обусловлено сложной структурой власти, множественностью интересов и конкуренцией политических и экономических акторов. Государство, обладая монополией на принятие общеобязательных решений, неизбежно вовлекается в процессы артикуляции и продвижения интересов, что придает лоббизму институциональный характер. Государственный лоббизм проявляется как во внутренней, так и во внешней политике, принимая различные формы — от давления исполнительной власти на парламент до использования специализированных лоббистских структур за рубежом. В условиях развитых демократических институтов данные практики поддаются правовому и общественному контролю, тогда как в государствах с переходными и авторитарными политическими режимами они нередко приобретают латентный характер и сближаются с коррупционными механизмами. Признание государства в качестве субъекта лоббистской деятельности позволяет по-новому взглянуть на природу политической власти и роль публичных институтов. Государство предстает не нейтральным арбитром, а активным участником борьбы интересов, что требует более реалистичного и критического подхода к анализу политических процессов. Перспективы дальнейших исследований государственного лоббизма связаны с углубленным сравнительным анализом политических систем, изучением механизмов правового регулирования лоббистской деятельности и разработкой моделей повышения прозрачности и подотчетности государственной власти. Это особенно актуально для стран, находящихся в процессе институциональной трансформации, где формирование легитимных форм представительства интересов является важным условием демократического развития.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Автономов А.С. Азбука лоббирования. М.: ИРИС, 2004.
2. Графов Д.Б. Российский и антироссийский лоббизм в США // США и Канада: экономика, политика, культура. 2016. №3.
3. Зяблюк Н.Г. США: лоббизм и политика. М., 1976.
4. Толстых П.А. Практика лоббизма в Государственной Думе ФС РФ. М., 2006.
5. Сергунин А.А. Лоббизм как глобальный феномен. СПб., 2011.

**ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ҲАҚИДАГИ ТАРИХИЙ ХОТИРАНИ  
МУСТАҲКАМЛАШДА КОММЕМОРАЦИЯ**

**С.А.Пулатова, проф., т.ф.н., Alfraganus университети, Тошкент**  
**ORCID:0009-0000-4816-1696**

**Аннотация.** Мақолада сўнгги вақтда Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон тарихи мавзусига мурожаат кўлами кенгайиб, қатор тадқиқотлар амалга оширилгани, монографиялар, китоб-альбомлар нашр этилгани, илмий-амалий анжуманлар таъкил этилгани кўрсатилган. Бу каби коммеморация амалиёти Иккинчи жаҳон уруши ҳақидаги тарихий хотирани мустаҳкамлашга хизмат қилиши баробарида Ўзбекистон халқининг ундаги иштироки кўлами юзасидан илгари номаълум янги фактларни илмий муомалага киритилишига ва халқимизнинг фашизм устидан эришилган Ғалабада улкан ҳиссасини ойдинлаштиришига хизмат қилди.

**Калит сўзлар:** Ўзбекистон, Иккинчи жаҳон уруши, коммеморация, Ғалаба боғи, китоб-альбом, тарихий хотира.

**Аннотация.** В статье показано, что в последнее время расширился охват темы истории Узбекистана во время Второй мировой войны, проведено множество исследований, изданы монографии, книжные альбомы, организованы научно-практические конференции. Такая коммеморативная практика не только способствовала укреплению исторической памяти о Второй мировой войне, но и ввела в научный оборот новые, ранее неизвестные факты о масштабах участия узбекского народа в ней и прояснила огромный вклад нашего народа в Победу над фашизмом.

**Ключевые слова:** Узбекистан, Вторая мировая война, коммеморация, Парк Победы, книга-альбом, историческая память.

**Annotation.** The article demonstrates that the coverage of Uzbekistan's history during World War II has recently expanded, with numerous studies conducted, monographs and book albums published, and scientific and practical conferences organized. This commemorative practice not only contributed to strengthening the historical memory of World War II but also introduced new, previously unknown facts about the scale of the Uzbek people's participation in it into scholarly discourse and elucidated the enormous contribution of our people to the Victory over fascism.

**Key words:** Uzbekistan, World War II, commemoration, Victory Park, book-album, historical memory.

**Кириш.** Сўнгги йилларда янги манбалар ва методология асосида Ўзбекистоннинг қадимги, ўрта асрлар ва мустамлака даврига оид тарихи, энг янги давр тарихи бўйича салмоқли тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Ўзбекистонда собиқ совет тузуми давридаги жадидлар ва истиқлолчилар ҳаракатлари тарихига, совет давлатининг қатағон сиёсатига, Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва сиёсий тарихига янгича баҳо берилди.

Дарҳақиқат, тарихий воқеа-ҳодисаларга, жараёнларга нисбатан қарашлар, уларга берилган баҳо вақт ўтиши билан трансформацияга учрайди, ўзгаради. Баъзи ҳолатларда эса тарихни сохталаштириш, яъни тарихий фактларни атайин бузиб кўрсатиш ёки уларни афсоналаштириш ҳам содир бўлиши мумкин. Бунга, айниқса сўнгги йилларда ғарб олимлари орасида фаоллашган тарихий воқеаларни субъектив акс эттириш, жумладан, Иккинчи жаҳон уруши тарихини қайта кўриб чиқиш, натижаларини сохталаштириш ва афсоналаштириш, уни нотўғри талқин этиш ҳаракатлари мисолида ҳам кўриш мумкин. Қолаверса, ахборот майдонида давлатлар ҳозирги манфаатлари нуқтаи назарида Иккинчи жаҳон урушидан, у ҳақдаги тарихий хотирадан сиёсий инструмент сифатида фойдаланаётгани ҳам кузатилмоқда...

Ўзбекистонда эса Иккинчи жаҳон уруши даврига эътибор қаратилиши аввало, уруш йилларида халқимизнинг кўрсатган жасорати, меҳнат қаҳрамонликлари ҳамда фронт олди ҳудудларидан кўчириб келтирилганларга бўлган гуманизмига бўлган эҳтиром бўлиш

баробарида барча жабҳада машъум ва суронли кунларнинг машаққатлари олдида жамиятнинг бирдамлиги, инсонийлиги, ватанпарварлиги ва тинчликпарварлиги каби қадриятлар миллий гуруҳ ва ифтихор руҳидаги тарбия учун манба сифатида англаш билан боғлиқдир.

**Адабиётлар таҳлили ва методология.** Ўзбекистонда 2019 йилдан бошлаб мавзуга мурожаат кўлами кенгайиб, қатор тадқиқотлар амалга оширилди, монографиялар, китоб-альбомлар нашр этилди, илмий-амалий анжуманлар ташкил этилди. Натижада Ўзбекистон халқининг Иккинчи жаҳон урушидаги иштироки кўлами юзасидан илгари эълон қилинмаган янги фактлар илмий муомалага киритилиб, даврга тааллуқли бир қанча маълумотлар ҳам аниқлаштирилди. Буларнинг барчасига тарихий фанни ривожлантиришга мамлакатимиз раҳбарияти амалга оширган кенг кўламли ҳаракатлари ва улкан ҳиссаси натижасида эришилди.

Ҳақиқатдан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларини рағбатлантириш тўғрисида”ги Фармонлари (2017-йил 4-апрелдаги ПФ–5000-сон, 2018-йил 16-апрелдаги ПФ–5417-сон, 2019-йил 23-апрелдаги ПФ–5711-сон, 2020-йил 30-мартдаги ПФ–5977-сон, 2021-йил 20-апрелдаги ПФ–6209-сон, 2022 йил 29 апрелдаги ПФ–127-сон; 2023 йил 2 майдаги ПФ–65-сон, 2024 йил 16 апрелдаги ПФ–65-сон, 2025 йил 19 февралдаги ПФ–24-сон), 2021-йил 11-майдаги “Иккинчи жаҳон уруши қатнашчиларининг моддий таъминотини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ–6224-сон Фармони, “Хотира ва кадрлаш кунига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорлари (2017-йил 4-апрелдаги ПҚ–2865-сон, 2018-йил 16-апрелдаги ПҚ–3667-сон, 2019-йил 23-апрелдаги ПҚ–4298-сон, 2021-йил 20-апрелдаги ПҚ–5081-сон, 2022-йил 29-апрелдаги ПҚ–229-сон, 2023-йил 2 майдаги ПҚ–143-сон, 2024 йил 16 апрелдаги ПҚ–160-сон), 2019-йил 23-октябрдаги “Иккинчи жаҳон урушида қозонилган Ғалабанинг 75 йиллигини муносиб нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ–4495-сон Қарори, 2020-йил 9-сентябрдаги “«Ғалаба боғи» ёдгорлик мажмуаси фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ–4820-сон, шунингдек, 2025 йил 19 февралдаги “Иккинчи жаҳон урушида қозонилган ғалабанинг 80 йиллиги ҳамда Хотира ва кадрлаш кунига тайёргарлик кўриш ва муносиб нишонлаш тўғрисида”ги ПҚ–65-сон Қарори каби расмий ҳужжатлар уруш қатнашчиларини қўллаб-қувватлаш қаторида бу йўналишдаги ишларни тизимли олиб бориш имконини берди.

Бу жараёнлар контекстида аввал чоп этилган ишларнинг аҳамиятини камайтирмаган ҳолда, манбалар кўлами катталиги (ҳужжатлар, хотиралар ва бошқалар) уларни илмий умумлаштириш ва янги фактларни илмий муомалага олиб кириш масаласи долзарб бўлди. Айниқса, “Ғалаба боғи” таркибида “Шон-шараф” давлат музейи ташкил этилиши натижасида уруш қатнашчилари оилаларида сақланаётган ҳужжатлар, суратлар ва ашёлар жамланаётгани, очикланган ва онлайн жойлаштирилган архив ҳужжатлар қамрови ўсиб бораётгани, чет мамлакатлардаги архивлар, музейлар, олимлар билан ҳамкорлик кенгайиб бораётгани ҳамда тадқиқотлар доирасида маълум уруш қатнашчиларининг жанговар йўлини кенг ўрганиш ишлари олиб борилаётгани ҳам иш ҳажми катталигини кўрсатади.

Қолаверса, тарихий хотира мавзуси динамик тарзда ривожланаётган фанлараро тадқиқотлар объектига айланди. Натижада, Иккинчи жаҳон уруши тарихининг авваллари аниқланмаган аспектиларини ёритишда анъанавий методлар билан бир қаторда тарих фанидаги нисбатан янги ёндашувлардан ҳам фойдаланилмоқда. Ўз навбатида бу мураккаб даврнинг мазмун-моҳиятини ҳар томонлама ёритишда ижтимоий таъсири билан самарали бўлмоқда.

**Муҳокама.** Иккинчи жаҳон урушида қозонилган Ғалабада Ўзбекистон халқининг иштирокига бағишланган ёдгорликлар, тадбирлар, махсус китоб-альбомларнинг нашр этилиши тарихий хотиранинг турли шакллари бўлиб, нафақат ўтмишни коллектив (жамоавий) идрок этишга, балки, миллий ўзликнинг шаклланишига ҳам таъсир этади. Зеро, тарихий воқеалар жамият хотирасида муҳрланади ва авлоддан авлодга узатилиб, улар дуч келиши мумкин бўлган воқеа-ҳодисаларда ҳаётини тажриба бўлиб хизмат қилади.

Шахсий хотиралар, оила тарихи жамият учун ўтмиш ҳақидаги билимларнинг конструктив асоси ҳисобланади. Қолаверса, оилавий хотираларнинг бутун Ўзбекистон халқи тарихига уйғунлашуви халқда ватанпарварлик руҳини мустаҳкамлаши, ёшларнинг катта авлод

қахрамонликларидан бохабар қилиши жихатидан фронтда ва фронт ортида кўрсатилган жасорати ҳақидаги хотиранинг аҳамиятини янада долзарблаштиради. Шунинг учун уни тиклаш ва асраб-авайлаш жуда муҳимдир.

**Натижалар.** Президент ташаббуси ва таклифлари асосида тайёрланган ва нашр этилган “Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси” ва “Ўзбекистон Иккинчи жаҳон уруши даврида” китоб-альбомлари мавзу ёритилиши ва салмоғига кўра аҳамиятлидир. Аввало, китоб-альбом учун мақола ёзиш жараёнида уруш қатнашчисининг жанговар йўли, жасорати тавсифи архив ҳужжатлари, хусусан, тақдирлаш варақаларидаги маълумотлар билан қиёсий ўрганилган ҳолда киритилди. Шунингдек, мавжуд бўлса уруш қатнашчисининг хотиралари, яъни, “оғзаки тарих”дан, у ҳақдаги бошқа материаллардан (уруш даври газеталаридаги хабарлар, қайдлар каби) ўрнида ва заруратга кўра фойдаланилди. Ҳатто, Подольскдаги Россия Федерацияси Мудофаа вазирлиги марказий архивига сўровлар юборилиб, уруш қатнашчиси бўйича керакли маълумотлар олинди. Шундай қилиб, китоб-альбомларни тайёрлашда материални суратли-ҳужжатли тақдим этиш устуворлик касб этди. Ўз навбатида бу ўқувчида ишончли манбалар ҳисобланган давр ҳужжатлари ва суратлари мисолида тасавури шаклланишига омил бўлади.

Яна китоб-альбомда Ўзбекистон халқининг фашизм устидан қозонилган ғалабага қўшган ҳиссаси шонли зарварақлар қаторида фронтдаги катта йўқотишлар билан боғлиқ қонли саҳифалари ҳам борлигига алоҳида эътибор берилган. Бу борада мисоллар билан йўқотишлар кўлами оилалар миқёсида ҳам катталиги кўрсатилган. Шунингдек, Кавказ ва Сталинград учун жанглар бўйича олиб борилган тадқиқотда ҳарбий операциялар кесимида ўзбекистонликларнинг жасоратига оид очиқ архив ҳужжатлари ўрганилиб, умумлаштирилгани ва жанг хронологияси тартибида баён этилгани муҳим натижалардан бўлди. [5: б. 71–144]. Жангларга ана шундай тизимли ёндашув натижасида 170 дан ортиқ юртдошларнинг жасорати умумлаштирилди. Уларнинг орасида аввалги китобларда номлари қайд этилган уруш қатнашчилари қаторида ҳали жасорати илмий муомалага киритилмаган жангчилар борлиги ва уларнинг салмоғи катталигини келтириш ўринли.

Яна Иккинчи жаҳон уруши XX аср ва собиқ СССР контекстида қараладиган бўлса – бу икки қатағон орасидаги давр ҳисобланади. 30-йилларда содир бўлган “Катта қирғин” сабаб социомаданий ҳаётдаги йўқотишлар уруш ортидан Ўзбекистонда турли илмий ва ижодий мактаблар намоёндалари тўпланиши ўзаро таъсирланиш, тажриба алмашиш жараёнларини фаоллаштирди. Бу мулоқотлар республикани ижтимоий-иқтисодий ривожланишида, кадрлар тайёрланишида аҳамиятли бўлди. Урушдан кейин қатағоннинг янги тўлқини ҳам навбатдаги йўқотишу узилишларга олиб келди...

Умуман, тарихий хотирани узатиш турли усул ва шаклларда амалга оширилади. Ушбу жараённинг муҳим жихатларидан бири **коммуникатив хотира** бўлиб, у бир неча авлодлардан хотиралар ва тажрибаларни узатишни ўз ичига олади. Шу билан бирга бугунги кунимизни узоқ ўтмиш билан боғлашга имкон берадиган **маданий хотира** ҳам муҳимдир. Хотира инсонларнинг кундаликларида ва ёдларида сақланиши, **субъектив ва шахсий** бўлиши мумкин.

Ўтмишни янада чуқурроқ ва аниқроқ тушунишга, тарихий воқеа ва жараёнларни таҳлил қилишга ва изоҳлашга ёрдам берадиган тарихшуносликнинг профессионал ва илмий амалиётларини ривожлантириш ҳам муҳимдир. Ушбу турли хил ёндашувларни бирлаштириб, биз тарихни яхшироқ англашимиз ва етказишимиз, келажак авлодлар учун унинг қимматини сақлаб қолишимиз мумкин.

**Хулосалар.** Дунёда беқарорлик кучайиб бораётган ҳозирги вақтда Ўзбекистон халқининг Иккинчи жаҳон уруши даврида фронтда ва фронт ортида кўрсатган жасорати ҳақидаги хотирани тиклаш, асраб-авайлаш ва уни келажак авлодга етказишнинг аҳамияти долзарблашди. Бу ишда давлат муассасаларининг фаолияти катта. Чунки айнан улар тарихий хотиранинг расмий институциялашувида муҳим ўрин тутиб, тарихни қандай ўрганиш ва жамиятда тарқатиш юзасидан ижтимоий буюртмани шаклланишида фаол иштирок этадилар. Тарих фани эса ўз навбатида мана шу буюртма бажарилишини ўз зиммасига олади.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 9 май – Хотира ва кадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. 2018 йил 9 май. – <https://president.uz/uz/lists/view/1706>.
2. O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. Kitob-albom. / Nashr uchun mas'ul X. Sultonov; tuzuvchilar S. Saidolimov, M. Raximov, K. Sagdullayev, X. Babadjanov, R. Nazarov. – T.: O'zbekiston, 2020. – 320-b.; O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida. Kitob-albom. / Nashr uchun mas'ul X. Sultonov; tuzuvchilar S. Saidolimov, M. Raximov, K. Sagdullayev, D. Aberkulov. – T.: “O'zbekiston”, 2021. – 288-b.; Uchinchi kitob-albom. / Nashr uchun mas'ul X. Sultonov; tuzuvchilar S. Saidolimov, K. Sa'dullayev, H. Bobojonov, D. Aberkulov. – T.: “O'zbekiston”, 2022. – 352-b.; To'rtinchi kitob-albom. / Nashr uchun mas'ul X. Sultonov; tuzuvchilar S. Saidolimov, K. Sa'dullayev, H. Bobojonov. – T.: “O'zbekiston”, 2023. – 296-b.; Beshinchi kitob-albom. / Nashr uchun mas'ul X. Sultonov; tuzuvchilar S. Saidolimov, K. Sa'dullayev, H. Bobojonov. – T.: “O'zbekiston”, 2024. – 296-b.; O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. Kitob-albom. / Nashr uchun mas'ul X. Sultonov; Tuzuvchi va mualliflar: S. Saidolimov, K. Sa'dullayev, H. Bobojonov. – T.: O'zbekiston, 2025. – I jild. Jasorat kitobi. – 512 b.; II jild. Matonat kitobi. – 472 b.; C. Саидолимов, Ҳ. Бобожонов, С. Пулатова, Н. Мустафаева, М. Ҳамидова, Н. Маҳкамова, Ш. Юсупов, К. Саъдуллаев, М. Назиров, З. Холбоева, Ш. Раҳимов, М. Нурсаидова, М. Солиев. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. – Т., 2024. – 362 б.; Зияев А.А. Комплектование Красной армии людскими ресурсами Узбекской ССР и их подготовка в период Великой Отечественной войны 1941-1945 годы. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – М., 2024.; Саипова К. Д. Эвакуация и депортация различных народов в Узбекистан в 1941–1945 гг. / Память о прошлом. Сборник докладов и сообщений IX историко-архивного форума. – Самара, 2020. – С. 67–70; Шамсутдинов Р. Иккинчи жаҳон уруши ва фронт газеталари: Биринчи китоб. – Т.: “Akademnashr”, 2017. – 542 б.; Иккинчи китоб. – Т.: “Akademnashr”, 2017. – 736 б.; Учинчи китоб. – Т.: “Akademnashr”, 2017. – 448 б.; Тўртинчи китоб. – Т., 2020. – 368 б.; Бешинчи китоб. – Т., 2020. – 352 б.
3. Пулатова С. Анвара Муҳаррамова / O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi. Kitob-albom. I jild. Jasorat kitobi. – T.: O'zbekiston, 2025. – Б. 427–432.
4. Томпсон П. Голос прошлого. Устная история. – М., 2003. – 367 с.
5. Саидолимов С., Саъдуллаев К., Назиров М. Кавказ ва Сталинград муҳофаазида. Сталинград йўналишидаги ҳужум қилиш операцияларида. Кавказни озод қилиш жангларида / С. Саидолимов, Ҳ. Бобожонов, С. Пулатова, Н. Мустафаева, М. Ҳамидова, Н. Маҳкамова, Ш. Юсупов, К. Саъдуллаев, М. Назиров, З. Холбоева, Ш. Раҳимов, М. Нурсаидова, М. Солиев. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон. – Т., 2024. – Б. 71–144.

ЎЎК 908

## ҚАДИМГИ ЮНОН, РИМ ВА ВИЗАНТИЯ МАНБАЛАРИДА ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ ЭТНОЛОГИК ТАВСИФИ

А.Х. Равшанов, ўқитувчи, Иқтисодиёт ва педагогика университети, Қарши

*Аннотация.* Ушбу мақолада қадимги юнон, рим ва византия манбаларида Қашқадарё воҳаси аҳолисининг этнологик жиҳатдан тавсифи баён этилади.

**Калим сўзлар:** қадимги юнон, Рим, Византия, манба, Қашқадарё воҳаси аҳолиси.

*Аннотация.* В данной статье излагается этнологическое описание населения Кашкадарьинского оазиса на основе древнегреческих, римских и византийских источников.

**Ключевые слова:** Древняя Греция, Рим, Византия, источник, население Кашкадарьинского оазиса.

**Abstract.** This article presents an ethnological description of the population of the Kashkadarya oasis based on ancient Greek, Roman, and Byzantine sources.

**Keywords:** Ancient Greece, Rome, Byzantium, source, population of the Kashkadarya oasis.

Ўрта Осиё халқлари, хусусан ўзбек халқи этнографияси ҳақида тўпланган манбалар, шу соҳага оид илмий асарлар тарихи узоқ минг йилларга бориб тақалади. Сабаби маданият ҳар бир халқнинг келиб чиқиши (этногенези), этник тарихи, унинг давлатчилиги тарихи билан уйғун ривожланади, яъни халқнинг ривожланиш даражасини кўрсатувчи бош омил ҳисобланади.

Қадимги Сўғдиёнинг таркибий қисми сифатида Қашқадарё воҳаси аҳолиси этнографиясига оид бўлган маълумотлар баён этилган қадимги юнон, рим ва византия манбаларининг ўрганилиши ва тадқиқ этилиши Ватанимиз тарихини ёритишда муҳим аҳамият касб этади.

Юнон манбалари. Қадимги Юнонистоннинг илмий ва маданий марказларидан ҳисобланган Кичик Осиёдан чиққан олимлар, муаррихлар, географлар ва бошқа соҳа вакиллари Эрон ва Турон тарихи билан қизиқишиб, кўплаб маълумотлар қайд этишган [1].

Иониянинг Милет шаҳри мактабидан чиққан **Гекатей** (милоддан аввалги VI аср) “Ер куррасининг тавсифи” асарининг Осиёга бағишланган қисмида Ўрта Осиё халқлари ҳақида маълумот берган.

**Геродот** (мил.авв. 484–425 йй.) қомусий олим ўн йил мобайнида Кичик Осиё шаҳарларига саёҳат қилган. Маълумки, Цицерон уни “Тарих фанининг отаси” деб атаган. 9 жилдли “Тарих” асарини ёзиб, ушбу асарнинг 1, 3, 5, 9 жилдларида Ўрта Осиё халқлари тарихи ҳақида маълумотлар мавжуд. Тўмарис ва Кирнинг ҳалокати, оргипшийлар, сак (скиф), массагет, хорасмий, исседон, дай, форс, маргун, суғд, парикан каби Ўрта Осиё халқлари тарихи, этнографияси ва маданияти ҳақида ёзиб қолдирган. Геродот айниқса Бактрияни кўп тилга олган. Халқ маъносини англатувчи “этнос” сўзи ҳам “Тарих”да кўп учрайди. Асарда Ўрта Осиё халқлари, жумладан, Суғдиёнинг жанубий қисми ҳисобланган Қашқадарё худуди аҳолисининг этник тарихи, хўжалиги, моддий ва маънавий маданияти тўғрисида бир қатор муҳим маълумотлар учрайди. [2]

**Ктесий** – Кичик Осиёнинг Книд шаҳридан чиққан юнон тарихчиси бўлиб, Геродот анъаналарини давом эттирган. У милоддан аввалги V аср охири – IV аср биринчи ярмида Аҳамонийлар саройида шоҳ Артаксеркснинг (Артахшатр) шахсий табиби сифатида хизмат қилган. Шарқ давлатлари, шаҳарлари, халқлар дostonлари, шаҳар ва халқлар тарихи билан қизиқиб, “Ҳиндистон тасвири”, “Персика”, “Осиё солиғи ҳақида”, “Ер тасвири”, “Тоғ ҳақида”, “Дарёлар ҳақида” асарларни ёзган. Лекин бу асарларнинг кўпчилиги сақланмаган. Диодор ва кейинги давр муаррихлари Ктесийнинг Бактрия, Ҳиндистон тарихига оид маълумотларини келтиришган. [3]

Ўрта Осиёнинг қадимги халқлари ҳақидаги аниқ ва ишонарли маълумотлар Македониялик Александрнинг тарихчилари ва улардан кейин ўтган юнон муаррихларига қаламига мансубдир. Милоддан аввалги 329 йилда Искандарнинг Бактрия ва Суғдиёна ерларига юришларида ҳамроҳлик қилган тарихчилар Птолемей, Аристокбул, Онесикрит, Каллисфен ва Хареслар турли воқеаларни ёзиб беришган, аммо улар бизгача сақланмаган. Мазкур маълумотлардан сўнги давр юнон тарихчилари ва географлари фойдаланишган.

**Диодор** (милоддан аввалги 90–21 йй) – йирик тарихчи олим, 40 китобдан иборат “Тарихий кутубхона” асарини ёзган. Мазкур асарда Ўрта Осиё ва Ўзбекистоннинг қадимги халқлари (скифлар, саклар, массагетлар, бактрияликлар ва б.), Ўрта Осиё ва Эрон муносабатлари ҳақида маълумотлар мавжуд.

**Помпей Трог** (милодгача 1 – милоднинг 1 асрлари оралиғида яшаган) – рим тарихчиси ҳисобланиб, 44 та китобдан иборат “Филипп тарихи”ни ёзган. Мазкур асарда скифлар, Бактрия, Александр Македонский даврида Бактрия ва Суғдда қурилган шаҳар ва бинолар, Александр вафотидан кейинги воқеалар, парфияликларнинг келиб чиқиши, Парфия подшолигининг ташкил топиши, парфияликларнинг урф–одатлари, Бактрия, Парфия ва Мидиянинг ўзаро муносабатларига оид муҳим маълумотлар мавжуд.

**Арриан Флавий** (тахм. 95–175 йй) – йирик юнон ёзувчиси, тарихчи ва географ олим, Кичик Осиёда туғилган. У 7 жилдлиқ “Александр юришлари”, “Парфияликлар ҳақида” асарларида Александр Македонскийнинг Эрон, Ўрта Осиё ва бошқа мамлакатларга юришлари ҳақида маълумотлар баён қилган. [4]

**Квинт Курций Руф** (милоднинг 1 асри) – рим тарихчиси, 10 китобдан иборат “Буюк Александрнинг тарихи” номли асар ёзган. Муаллиф мазкур асарида Ўрта Осиёнинг Александр Македонский қўшинлари томонидан истило қилиниши, минтақа халқларининг босқинчиларга қарши, Спитамен бошлиқ кўзғалони батафсил баён этилган. [5]

**Гай Плиний Секунд** (24–79 йй) – римлик машҳур ёзувчи, тарихшунос ва давлат арбоби. Сермаҳсул олимнинг 37 китобдан иборат “Оддий тарих” номли шоҳ асарида Ўрта Осиёнинг қадимги халқларга, минтақада яшаган халқлар (скифлар ва б.), Окс (Амударё), Яксарт

(Сирдарё) ва уларнинг скифча номлари, Бактрия табиий бойликлари, Антиохия шахрининг барпо этилиши ҳақида маълумотлар мавжуд.

**Полибий** (милоддан аввалги 201–120 йй) – йирик юнон тарихчиси ҳисобланиб, 40 китобдан иборат "Умумий тарих" асарини ёзган. Мазкур асарда Окс ва Сирдарё ҳақида, Антиох I нинг Бактрия подшоси Эвфидемга қарши ҳарбий юриши ҳақидаги маълумотлар баён қилинган. [6]

**Птоломей Клавдий** (тахм 90–160 йй) – машҳур қомусий олим. Унинг кўплаб асарлари ичида машҳури 8 китобдан иборат "География" асарида Гиркания, Марғиёна, Бактрия, Суғдиёна ҳамда скифлар мамлакатининг географик ҳолати, Бактрия ва Суғдиёнанинг шаҳарлари, мазкур ўлкалар билан туташ мамлакатлар аҳолиси ҳақида муҳим маълумотлар мавжуд.

**Страбон** (мил. авв. 64–24 йй) – юнон географи, машҳур 17 жилдлик "География" китобида Ўрта Осиё дарёлари, шаҳарлари, аҳолиси урф–одатлари, Суғдиёна ва Бактрия ҳудудлари ҳақида маълумотлар келтирилган. "География" асарининг 11–16 китобларида Осиё мамлакатларига тавсиф берилган. Мазкур асарда Гиркания, Парфия, Бактрия ва Марғиёнанинг табиати, шаҳарлари, қисман уларга бориш йўллари, қишлоқлари, Окс ва Яксарт дарёлари ҳақида, Ўрта Осиёнинг қадимий халқлари – саклар, массагетлар, дайлар, атасиялар, тохарлар, хоразмликлар ва уларнинг келиб чиқиши, урф–одатлари, эътиқодлари, Парфия ва Бактриянинг милоддан аввалги 111 асрнинг биринчи чорагидаги ички аҳоли ва ўзаро муносабатлари ҳақида муҳим маълумотлар мавжуд". [7]

Ўрта Осиё халқлари, жумладан ўзбеклар аجدодлари этнографиясига оид маълумотлар юнон ва рим тарихчилари Эфор (мил.авв. тахм 405–330 йй), Клавдий Эллиан (милоднинг тахм 170–235 йй), александриялик Климент (милоднинг 11 асри), Корнелий Тацит (тахм милоднинг 56–117 йй), Ксенофонт (тахм мил.авв. 430–335 йй), Плутарх (милоднинг 46–127 йй), Полиэн (милоднинг 11 асри) ва бошқаларнинг асарларида ҳам маълумотлар мавжуд. [8]

**Византия манбалари.** Илк ўрта асрларда Византия манбаларида Ўрта Осиё халқлари ижтимоий–иқтисодий ва маданий ҳаёти ёритилган. Бу даврда Византиядан ўнлаб элчилар келишиб, ҳақиқий воқелик ҳақида ҳисоботлар ёзишган. Византия тарихчилари Менандр (VI аср), Феофан (VII аср бошлари) Феофалико Сомакатти (VII биринчи ярми), Никифор (VIII аср – IX асрлар), Марцелин Прицк Прокопий, Анфавий асарларида, элчи Земарх (VI аср) кундаликларида Ўрта Осиё халқлари этнографиясига оид баъзи маълумотлар, хусусан, жанубий Суғд ҳудуди аҳолиси ҳақида қимматли фикрлар ҳам учрайди. Улар минтақадаги ижтимоий сиёсий вазият халқаро муносабатлар қарвон йўллари йўналишлари ва улов воситалари ҳақидаги бирламчи маълумотларни баён этишган. [9]

Хуллас, қадимги юнон, рим ва византия манбалари асосида Қашқадарё воҳаси аҳолиси этнологик жиҳатдан таҳлил қилинганда воҳа аҳолиси турли этник гуруҳлар билан боғлиқ ҳолда тасвирланганлигини кузатиш мумкин. Қадимги муаллифлар уларнинг ташқи қиёфаси, урф–одатлари ва турмуш тарзига алоҳида эътибор қаратган. Юнон ва рим тарихчиларининг маълумотлари Суғдиёнанинг жануби ҳисобланган Қашқадарё воҳасининг Марказий Осиёдаги муҳим маданий ҳудуд бўлганини кўрсатади. Византия манбалари эса бу ҳудуд аҳолиси ҳақида нисбатан тизимли ва солиштирма маълумотлар беради. Манбаларда келтирилган этнологик тавсифлар минтақанинг тарихий–этник жараёнларини ёритишда муҳим аҳамиятга эга. Шунингдек, Ўрта Осиё аҳолиси ўзига қўшни бўлган қадимги Шарқ халқлари билан яқин алоқада бўлганини кўриш мумкин. Ушбу маълумотлар ҳудуднинг қадимги тарихини чуқурроқ англаш имконини беради.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Древние авторы о Средней Азии. Хрестоматия Под ред. А. В. Баженова –Т., 1940; Пьянков И. В. Древний Самарканд (Мараканды) в известиях античных авторов. Душанбе, 1972; Қадимги тарихи Ўрта Осиё ҳақида (тузган ва тарж. З. Аълам). –Т., 2018; Ф. Бекназаров Антик дунё тарихи. –Т., 1994.
2. Геродот "История" Пер. Г. А. Стратановского. –М., –Л. 1993; Геродот. Тарих т. I Б.201, 204-205; т. III. Б. 117.
3. Средняя Азии в известиях античного историка Ктесия, пер. И. В. Пьянков Душанбе, 1976.
4. Арриан Флавий. Поход Александра. Пер М. Е. Сергеевко. –М., Наука, 1962.

5. Квинт Курций Руф. История Александра Македонского. Пер ред В. С. Сокосова. –М., 1903; Шу муаллиф. История Александра Македонского. С приложением сочинений Диодора, Юстина, Плутарха об Александре. –М., 1993.

6. Полибий. Всеобщая история в 40 – книгах. –М., 1980.

7. Страбон. География. XI кн. Пер. Ф. Миченко. –М., 2012; Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. 2-нашри. Т.: “Ўқитувчи”, 2001. Б.33-34.

8. Плутарх. Избранные жизнеописания. т. 2. Пер. с древнегреческого М. Томашевский. –М., 1990.

9. Тўраев Ш. Ўрта аср сайёхлари асарларида Ўрта Осиё тарихи ва маданиятининг ёритилиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа фанлари доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Қарши, 2021 Б.14-45.

УЎК 37.01(575.2):37.02

## ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА XIX АСРДАГИ ДИНИЙ ТАЪЛИМ ВА МАДРАСАЛАР ТАРИХИДАН

**С.Х.Усенов, ўқитувчи, PhD, Қорақалпоғистон Республикаси педагогик маҳорат маркази,  
Нукус**

**Аннотация.** Мақолада республикамизда бошланғич таълим масканларининг пайдо бўлиши, фаолият юритиши, "Ичан қалъа" тарихий мемориал мажмуасига асос солувчи - Отагулла эшоннинг отасининг қўллаб-қувватлаши билан Мадирейимхоннинг ёрлиги ва муҳри билан Пирим бобога берилган ерни сотиб олиши, у ерда диний-маърифий марказнинг қад ростлаши, жамиятга халфа ва мактаб муллалари, қабристонларга шайхлар, бошқарув органларига қозилар, имомлар, қорилар ва яна бошқа мутахассислар тайёрлаб берилганлиги ҳақида сўз юритилади.

**Калит сўзлар:** комил инсон, руҳий тарбия, мактаб, ўқитувчи, таълим.

**Аннотация.** В статье рассказывается о возникновении и функционировании первичных учебных заведений в нашей республике. При поддержке отца основателя историко-мемориального комплекса "Ичан кала" - Атагуллы эшона, он приобрел землю, выделенную Пирим Бобо с грамотой и печатью Мадирейим хана, и построил там религиозно-просветительский центр. Обществу были подготовлены калпы и школьные муллы, шиики для кладбищ, а для административных органов - казии, имамы, кари и другие специалисты.

**Ключевые слова:** гармонично развитое, нравственное совершенство, школа, учитель, образование.

**Abstract.** The article discusses the emergence and operation of primary educational institutions in the republic. It also highlights the support of Otag'ulla Eshon, the founder of the "Eshon Qal'a" historical memorial complex, who, with the support of his father, purchased the land granted to Pirim Bobo with the decree and seal of Madireyim Khan, the construction of a religious and educational center there, and the training of mullahs and school mullahs for the community, sheikhs for cemeteries, judges for governing bodies, imams, elders, and other specialists.

**Key words.** harmonious development, moral perfection, school, teacher, education.

*Мусулмончиликнинг йўли - маърифат, шариат, тариқат ва ҳақиқатдир.  
«Девони ҳикмат» китобидан Хожя Аҳмад Яссавий.*

### Ким бўлиши - устозига боғлиқ...

Республикамиз аҳолисининг учдан бири – таълим муассасаларининг тарбияланувчилари дейилади расмий манбаларда. Лекин, хурматли устозлар ҳар йили нишонлайдиган Ўқитувчи ва мураббийлар кунида ушбу таълим даргоҳларига қачон ва қандай шароитда асос солингани, унинг замирида давлат идораларининг қанчалар эзгу ниятлари ва тарихий сиймоларимизнинг қанча пешона тери ётганини эслармиканлар? Бир нарса дейиш қийин. Шунинг учун, яқин ўтмишдаги республикамиз ва халқимиз тарихидаги биринчи ўрта махсус, балки, олий ўқув юрти даражасида бўлган, лекин ижтимоий тузумларнинг ўзгаришларига учраши билан унутулиб бораётган - Қумўзак мадрасаси тарихини, биргаликда тадқиқ қилсак.

**Отагулла махсум ва бошланғич мактаб**

Халқимизда... "эл устига эл келса, элнинг давлати" деган бир макол бор. Чунончи, хивалик тарихчи Муниснинг асарларидан маълум бўлишича, Амударёнинг чап қирғоғи ва Жанубий Орол бўйларида яшаётган оз сонли қорақалпоқлар устига, 1811 йили январь ойи бошида Мадрайимхон бошчилигидаги уч минг хивалик аскарларнинг кучи билан Сирнинг куйи оқимидан ўн икки ярим минг уйлик янгидарёлик қорақалпоқлар кўчириб келтирилади. Янги қўним эгаларига Қора тоғдан бошлаб, Кенг янтоққача бўлган ораликдаги текислик ерлар хоннинг ёрлиғи ва муҳри билан тоифама тоифа, қавмма қавм, уруғма уруғ бўлиб берилади. ("Фирдаус ул-икбол" Ҳ.Ҳамидов таржимаси, "Амударё" журнаlining 2018-2019 йиллардаги сонларидан ва "Билим" нашриётидан чиққан китобдан ўқинг!).

Мана, шу ер тақсимотида "Нукус-Чимбой" гузари бўйидаги "Қувонч ёрма" ва "Колхоз обод" сув ариқлари кўприклари орасидаги икки оралик ерлар қипчоқларнинг улушига тегади. Шу боис, ушбу ҳудуддаги қум тепаликларидан бири - "Боғонали куми," янги пайдо бўлган қабристон - "Боғонали қабристони," атрофидаги якка-ю-ягона уйлар "Боғонали қишлоғи," ўртасидан оқиб ўтган дарё - "Қумўзак" деб аталади. Кегейли каналининг ғарбий қирғоғига кенегес ва манғитлар, "Қувонч ёрма" каналининг икки қирғоғига хитой ва қипчоқ уруги вакиллари жойлашади.

1819 йил. Ривоятларга ксра, Хивадаги Шерғозихон мадрасасини битириб, ҳозирги Кегейли ва Қораўзак туманлари чегарасидаги "Шоқ торанғил"даги уйига қайтиб келаётган ёш уламо шу Қумузакнинг қирғоғига келганда қош қорайиб, ўша ерда "шағал" лақабли Пирим Бобо деган қипчоқ уруги вакилининг уйида "худойи меҳмон" бўлиб, тунаб қолишга тўғри келади. Ёш уламо дастурхон бошидаги суҳбат давомида бу қавмнинг кўчиб келганига саккиз йил бўлган бўлса-да, ҳалигача масжидга ва фарзандларининг саводини чиқаришда мактабга эга бўлмаётганини билиб олади. Ёш олим эмасми? Қанчалик шошилса ҳам, сир бермай, тонг отгандан йўлга тушади.

Уйига етиб келганидан кейин, отаси билан маслахатлашади. Ўша ерни "Пирим чиябўри"дан сотиб олиб беришга отасини кўндиради. Гап, кимлар ҳақида кетаётганини тушунган бўлсангиз керак! Отаси деганимиз, исми пойтахтимиздаги мусулмонларнинг жамоа масжидига берилган уламо - Имом эшон Қайипназар ўғли (1754-1831), унинг ўғли эса республикада ўз мақомига эга - "Эшон қалъа" тарихий мемориал мажмуасига асос солувчи - Отагулла эшон эди. Дарҳақиқат, янги дарёлик қорақалпоқларни бўйсундиришга бораётган хивалик аскарлар таркибидаги асар муаллифи ҳам "1810 йили, 17 декабрь, якшанба куни мулла Имом Муҳаммад эшоннинг Ҳазрати Мурод Шайхнинг қабридан 6-8-фарсах жойда ("Шоқ тўранғил" қишлоғида) элдан ажралиб ва қорақалпоқ руҳоний ва дин уламоларига бошчилик қилиб ўтирганини" келтириб ўтади. Бу пайтда Отагулла тўққиз ёшли бола эди.

Хуллас, отасининг молиявий ва маънавий қўллаб-қувватлаши билан ёш уламо Мадрайимхоннинг ёрлиғи ва муҳри билан Пирим бобога берилган ерни сотиб олади. Бироқ, ер эгаси, ерни сотса ҳам, янги эгалари олдида "қандай вазият бўлса ҳам, қавм қабристонининг номи ўзгармаслиги керак" деган шарт қўяди. Уламо ва унинг авлодлари ўтган асрнинг 70 йилларигача бу шартга содиқ бўлиб келганини маҳаллий аҳоли яхши билади. Фақат сўнгги замонларда тарихдан беҳабар айрим журналистларнинг матбуот саҳифаларида "Эшон қалъа қабристони" деб ёзаверганидан кейин, расмий ҳужжатларга ҳам шу ном билан атала бошланди, дейди уламо авлодларидан Сарсен мақсум Айтанов.

Шундай қилиб, ёш уламо 1819 йили "Бағаналининг куми"га қўш ўтов тикиб, дастлабки меҳнат йўлини шу ердан бошлайди. Бирида – оиласи билан ўзи яшаса, иккинчисини намоз ўқишга (масжидга) бағишлайди. Масжиднинг ёнидан хонақоҳ (ертўла) ясаб, унда қишлоқ болаларини ўқита бошлайди. Тўғри, мазкур хонақоҳни бу ҳудудда бошланғич диний таълим берувчи ягона мактаб дейиш тўғри эмас. Бироқ, бир эътиборли жойи, бу афсонавий воқеа эмас, балки, уламнинг, шунингдек, Пирим Бобонинг бугунги авлодлари элга таниқли одамлар, бир қисми "мақсим" ва "шағал" лақаблари билан Кегейли туманидаги Халқобод посёлкаси ва унга туташ қишлоқларда яшашти.

### Отагулла охун ва мадраса

Юрт бошлиғининг баъзан эл кезиб, фуқароларининг ҳол аҳволидан хабардор бўлиб бориш одати ўша замонда ҳам бор экан. Мадрайимхон (1806-1825) дунёдан ўтиб, тахтга ўғли - Оллоқули (1825-1842) чиққандан кейин ёш ҳукмдор ҳам эл оралаб юриб, шу Кумўзак бўйларига келиб қолади. Иккови ҳам хонликдаги таниқли шахсларнинг ўғиллари, бунинг устига бир шаҳарда ва бир замонда таълим олгандан кейин улар бир-бири билан олдин таниш бўлмаган дейиш қийин. Шундай бўлса ҳам, Оллоқулихон учрашув давомида Отагулланинг қилган ишлари ва келажакдаги режалари билан қизиқа бошлайди.

Шунда Отагулла янги макон эгаларининг кўчиб келганига ўн беш йил бўлиб, маълум бир муддатга солиқ тўловларидан озод этилганига қарамай, ярим кўчманчи ҳаётдан ўтроқ турмуш тарзига, чорвачилик касбидан деҳқон, боғбон, хунарманд, савдогар касбларига, ертўла, қақира, чайла, ўтовда яшашдан пахса деворли уйлар қуришга ўтишда, қолаверса, кенг даштни яйлов қилиб битган саҳрои феъл-атвордан шаҳар маданиятига мослашиш жуда қийин кечаётганини таъкидлайди. Айниқса, диний мактаб битирувчилари орасида ўқишни давом эттиришга иштиёқманд ёшлар кўп бўлса-да, Хивага бориб ўқишга оилавий шароити кўтармаслигини билдиради.

Келгусида Хивада бўлгани каби, бу ерда ҳам "Ичан қалъа" ва "Дишан қалъа" кўрғонлари намунасида шаҳар барпо этмоқчи эканини айтади. Бироқ, бу жуда кўп вақт ва маблағни талаб этадиган бўлганлиги сабабли, хондан дастлаб масжид ва мадраса биноларини қуришга ёрдам беришини сўрайди. Таклиф хонга ёқиб қолади. Ўша ернинг ўзида ёрлик ёзиб, Отагулла муллага подшоҳлик еридан жами 5 минг таноб (1650-1750 га атрофида) ерни солиқ тўловларининг барча турларидан озод этилган жамоат мулки "вақф"га беради.

Шундай қилиб, санокли йиллар ичида "Бағаналининг куми"да Оллоқулихоннинг қўллаб-қувватлаши остида, Отагулла махсумнинг маблағи ва раҳбарлиги остида, маҳаллий аҳолининг жамланиши билан 100 намозхонга мўлжалланган жомеъ масжиди, 40 шогирд таълим олгандек мадраса ёнидаги ҳар бири икки ўринли 8 хонали ётоқхонаси билан, мударрисхона (муаллимлар уйи), кутубхона, таҳоратхона, умуман замонавий тушунчадаги диний-маърифий марказ қад ростлайди. Марказнинг дастлабки варианты 1829 йилда ишга тушади ва ўша йили мадраса илк талабаларини қабул қилади. Айни пайтда, тарихий мажмуанинг сақланиб қолган ягона қисми ҳам шу, Диний маърифат маркази.

Оғиздан оғизга ўтиб юрган гапларга қараганда, мадрасада Отагулла эшоннинг (эшон унвонини - 1844-1845 йили олган) замонида шогирдларга бошқа у ёки бу мадрасаларда одат бўлмаган олти фандан дарс берилган. Булар - фараз (мулкни тақсимлаш ва мерос қолдириш қонунлари), усул-фикҳ (шариат қонунларини ўргатиш), ҳикмат (тарихий, фалсафий ва табиий фанлар энциклопедияси), наҳв (араб тили грамматикаси), ақоид (догматика, яъни текширувсиз, тадқиқотсиз, фақат ишончга асосланган, исботланмаган қоидалар) ва мантик (мантик, яъни тафаккур қонунлари ва турлари бўйича илм) фанлари ўтилган. Ушбу фанлар негизида жамиятга халфа ва мактаб муллалар, қабристонларга шайхлар, бошқарув идораларига қозилар, имомлар, қорилар ва ҳ.к. мутахассислар тайёрлаб берилган.

Хонликни подшо Россиясининг босиб олиши билан ўқув дастурларига рус тили ва арифметика фанлари киритилган. Маҳаллий ёшларда, рус тилини ўрганиш орқали давлат бошқаруви органларига ишга ўтишига ва арифметикани билиш орқали мироб (гидротехник), савдо-сотик ишлари билан шуғулланишга имконият яратилган. Бу фанлардан ҳукумат таклифи билан Волга ва Урал бўйларидан келган татар ва бошқирд муллалари дарс берган, ҳатто, жадидчилик фаолларидан - Исмоил Гаспринский ва Закий Валидий келган деган ҳам гаплар бор.

Отагулла эшон вафот этгач, маърифатпарварлик ишини иккинчи ўғли - Баҳоуддин эшон, сўнгра саккиз ўғлининг ичида кенжаси - Қалила охун (1856-1929) давом эттирган. Тарихчи олим, М.Қарлибоевнинг илмий ишларида айtilган мадрасадан ойлик олувчи - мударрис (муаллим), муаззин (азон айтувчи), фаррош (супурувчи, қоровул), сартарош ва таҳоратчи лавозимлари бўлгани ва бундай даражадаги штат бирликларини ушлаб туришга кўпчилик мадрасаларнинг қурби етмагани кўрсатилади. Маҳаллий халққа штатли ходимларидан Абу

азанчи, Юнис қори, Абека қори (барчаси кенагаслар), Абдиқарим қори (санмурун қипчоқ), Қалли ковоқли (фаррош, қозоёқли, Баҳоуддин эшоннинг сўфиси) номлари маълум. Шундай бўлса-да, мадраса мамлакатда ижтимоий тузумнинг ўзгариши, айниқса, лотин алифбосига ўтиши билан бошқа мадрасалар қатори Қумузак мадрасаси ҳам 1929 йили бутунлай ёпилган.

Мадрасага муқобил ўқув юрти сифатида Халқобод посёлкаси ёнидаги "Қизил уй" қишлоғида бошланғич совет мактаби очилган. Мактабнинг дастлабки ўқитувчиси бўлажак педагогика фанлари доктори Жумек Ўринбоев бўлган. Мактаб етти йилликка ўтганидан кейинги 1937 йилдаги битирувчилари етти ўқувчи бўлган экан. (Саним муаллим, Жўлдош Сапашов, Сатторберген Алламбергенов, Жумабой Оразимбетов, Комил Адигамов ва "Қўтон қўл"дан келиб, исмлари унутилган икки йигит бўлган). Ўша йили шу мактабга Совнаркомнинг йўлланмаси билан бир гуруҳ татар ва бошқирд маърифатпарварлари келган. Шулардан бири, республикамиз ўқитувчилари орасида биринчи бўлиб Ленин орденини олган Адигамов Ришат Галиакперовичнинг номига ҳозир Халқобод посёлкасидаги ўзи яшаган кўча қўйилган.

Хулоса қилиш мумкинки, Қумузак мадрасаси республикамиздаги ўрта махсус, балки, олий ўқув юртларига асос булган биринчи университет деб хулосага келамиз.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ш.Мунис. М.Огахий. Фирдавс ул-икбол (Бахтлар боғи). «OQITUVCHI». Тошкент 2010.
2. Документы архива хивинских ханов по истории и этнографии каракалпаков. Ю.Э.Брегель. изд. «Наука». Главная редакция восточной литературы. Москва. 1967.
3. Ж.К.Касымбаев. История Казахстана. Алматы. «Рауна». 1992.
4. Карлыбаев. М. Медресе Каракалпакии 19-начало 20-веков. Нукус. «Билим». 2002.
5. Полевые записи автора. 2018-2019-г.г.
5. С.Усенов. Статья «Тунғыш университет». Газета «Устаз жолы». от 30-сентябрь 2019-ж.

УЎК 908

## ШАРҚИЙ ҚАШҚАДАРЁДАГИ АЙРИМ СЎНГГИ ЎРТА АСРЛАРДАГИ МУДОФАА ҚЎРҒОНЛАРИНИНГ АРХЕОЛОГИК ЎРГАНИЛИШИ

*М. Эшқобилова, магистрант, Қариши Давлат Университети, Қариши*

**Аннотация.** Мақолада XX асрда шарқий Қашқадарё воҳасида олиб борилган археологик изланишларда XVII-XIX асрларга оид мудофаа қўрғонларининг ўрганилиши айрим қўрғонлар мисолида очиб беришга қаратилган.

**Калим сўзлар:** Қариши-Чироқчи-Шаҳрисабз карвон йўли, Шамотон ва Дахъяк, Ўртқўрғон, Ертепа, Янгикент, Қўрғонтепа.

**Аннотация.** Цель статьи – раскрыть особенности изучения оборонительных сооружений XVII-XIX веков на примере некоторых фортификационных сооружений, исследованных в ходе археологических изысканий в восточном оазисе Кашкадарья в XX веке.

**Ключевые слова:** Караванная дорога Карши-Чиракчи-Шахрисабз, Шамотон и Дахъяк, Урткурган, Ертепа, Янгикент, Кургантепа.

**Abstract.** The purpose of the article is to reveal the features of the study of defensive structures of the 17th-19th centuries using the example of some fortification structures investigated during archaeological excavations in the eastern oasis of Kashkadarya in the 20th century.

**Key words:** Caravan road Karshi-Chirakchi-Shakhrisabz, Shamoton and Dahyak, Ortkurgan, Ertepa, Yangikent, Kurgantepa.

Кеш воҳасида олиб борилган археологик манбаларни ўрганиб таҳлил қилиб чиқиш натижасида, мудофаа қўрғонларининг географик ўрни, яъни жойлашган жойи билан батафсил танишиб чиқиш имкониятига эга бўлиш мумкин. Қишлоқ мудофаа қўрғонларининг жойлашган ўрнига қараб географик жиҳатдан жойлаштиришга ва ҳар бир қўрғоннинг тузилиши ва бажарган вазифасига кенгроқ очиб беришга ҳаракат қиламиз.

Аввало Шарқий Қашқадарёда жойлашган қишлоқ қўрғонлари билан танишиб чиқамиз. Бу ҳудудда жойлашган қўрғонларнинг асосий кўпчилиги Шаҳрисабз шаҳрига олиб борувчи асосий йўллар бўйида жойлашган бўлиб, улар ўрганилаётган даврга хос бўлган ўзаро ички феодал урушларда, биринчи галда Бухородаги марказий ҳокимият ва уларга қарши кураш

олиб борган Шахрисабзликлар ўртасидаги жанглarda катта аҳамиятга эга бўлган. Бухоро қўшинларининг асосий хужуми ғарбдан ва жанубдан бўлганлиги учун Шахрисабзнинг бу йуналишдаги чегараларини мустаҳкамлашга катта аҳамият беришган ва бу ўз навбатида бир нечта йирик мустаҳкамланган кўрғонларнинг барпо этилишига олиб келган. Шундай кўрғонларнинг бир гуруҳи Шахрисабзнинг ғарбида жойлашган бўлиб, улар ичида Ўртақўрғон алоҳида ажралиб туради. XIX асрга тегишли кўплаб ёзма манбаларда бу кўрғонга тегишли маълумотлар учрайди. Бу кўрғон Шамотон ва Дахъяк кўрғонлари билан биргаликда Чим деворининг ички қисмида жойлашган бўлиб, XIX асрнинг 60-йилларида Шахрисабз беки Бобобекнинг укалари томонидан бошқарилган. Бу фактнинг ўзиёқ Ўртақўрғоннинг Шахрисабз мудофаасидаги катта аҳамиятини кўрсатиб турибди. Шахрисабздан 7-8 км ғарбда, Тонхос дарёсининг ўнг қирғоғида жойлашган бу кўрғон орқали урганилаётган даврда Қарши-Чироқчи-Шахрисабз карвон йўли ўтган[1]. Бу кўрғон Танхос дарёсидаги кулай кечув жойи устидан тўла назорат ўрнатишга имконият берган. Бу кўрғон харобалари ҳозирги пайтда Шахрисабз тумани худудидаги Ўртақўрғон ва Кумқишлоқ қишлоқлари оралиғида жойлашган. КАТЭ экспедицияси иш бошлаган дастлабки йиллардаёқ, аниқроғи, 1968 йилда Ўртақўрғонда С.Б.Лунина бошчилигида археологик текширув ишлари олиб борилди. Бу пайтда археологик гуруҳ аъзоси Г.Афанасьев томонидан ёдгорликнинг устки қисми тузилиши кўз билан чамалаб чизиб чиқилди. (Глазомерная съёмка). Бу ёдгорликни режали равишда ўрганиш эса 1990 йилда бошланди ва кейинги вақтларда ҳам давом этиб келмоқда. Шуниси характерлики, Ўртақўрғон кейинги йилларда яхши ўрганилган. Ўртақўрғон тузилишига кўра, тўғри бурчакди бўлиб (ҳажми 110 x 85) тадқиқотларда аниқланишича у икки қисмдан иборат бўлган. ўрғоннинг арки (цитадель) мустаҳкам мудофаа деворлари билан ўраб олинган бўлиб, уларнинг қолдиқлари аркнинг шимолий ва шимоли-шарқий қисмидагина сақланиб қолган. Шарқ томонда дарвоза ўрнини кузатиш мумкин. Кўрғон аркининг атрофи ҳам ташқи мудофаа девори билан ўраб олинган бўлган. Афсуски, у бизнинг давримизгача сақланиб қолмаган. Маҳаллий аҳоли орасида ўтказилган суров натижаларига кўра, ташқи мудофаа девори кўрғон аркини ўраб турган. Бу девор билан арк ўртасидаги масофа 150-200 м.ни ташкил этган, унинг устида бемалол от қўшилган арава билан юриш мумкин бўлган. Маҳаллий қарияларнинг гувоҳлик беришича, бу ташқи девор асримизнинг 60-йиллари бошларида бутунлай теккисланиб ташланган. Унда 3 та дарвоза бўлиб, асосий дарвоза шарқ томонда жойлашган. У орқали Шахрисабз йўлига чиқилган.Кўрғоннинг шимоли-ғарбий қисмида сув тўлдирилган хандаклар сақланиб қолган бўлиб, маҳаллий кишилар кўрғон ғарб ва шимол томондан сув тўлдирилган хандаклар билан ўраб олинган, деган фикрни ҳам келтиради. Шахрисабзликлар мудофиа усулида сувдан кўп фойдаланишганини эсга олсак, бу фикр ҳақиқатга яқиндир.

Юқорида кўриб ўтганимқадек, Ўртақўрғон ўз тузилишига кўра икки қисмдан иборат бўлиб, бу билан у Қашқадарёдаги бошқа кўплаб сўнгги ўрта асрларга тегишли кўрғонларга ўхшаб кетади. В.Л. Вяткиннинг таъкидлаб ўтишича, Қарши округидаги сўнгги ўрта асрларга онд кўпгина кўрғонлар икки қисмдан, мустаҳкамланган арк (питадель) ва унинг атрофида жойлашган қишлоқлардан иборат бўлган.Қишлоқ ҳам алоҳида мудофаа деворига эга бўлган[2]. Бу кўрғонларнинг кўпчилиги олдинги даврларда барпо этилган.

Ҳозирги пайтда Ўртақўрғон арки маҳаллий аҳоли томонидан қисқача кўрғон деб ҳам “Чимиддиктепа” деб ҳам юритилади. Чимилдиктепа номи фикримизча, Ўртақўрғон ҳарбий қалъа сифатида ва мудофаа аҳамиятини бутунлай йукотгандан сўнг (XIX аср охири XX аср боши) пайдо бўлган бўлса керак. Кўрғоннинг бу номи XX асрнинг 60-йилларида Шахрисабз ва Китобнинг умумий мудофаа девори ҳисобланган “Чим” деворни ўрганиш учун тадқиқотлар ўтказган археологлар томонидан ҳам тилга олинади[3].

Ўртақўрғон аркидаги 1990-1995 йилларда олиб борилган археологик тадқиқотлар натижасида бир нечта хоналар очиб урганилди. Асосий қурилиш хом ашёси 24 x 24 x 4 см. ҳажмидаги пишиқ ғиштлар бўлиб, хоналардан XVII-XIX асрларга тегишли сопол идишлар парчалари кўплаб топилган. Улар ичида Шахрисабз кулолчилик мектабига тегишли сирланган ва сирланмаган сопол идишлар, шунингдек қўшни ва узоқ улкалардин келтирилган сопол ва чинни идишлар парчалари учрайди. Ёдгорликнинг шимолий қисмида қазилган шурф (тўрт

бурчак) натижаларининг кўрсатишича, бу ерда дастлабки макон милодий IX аср охири X аср бошларида пайдо бўлган. Бу ҳақда шурфнинг пастки маданий қатламларидан топилган штамп урилган сопол идиш парчаси, эпиграфик нақшли идиш бўлаги ва бошқа топилмалар далолат бериб турибди. Муғуллар истилоси натижасида XX аср бошларида бу ер вайронага айланади ва фақатгина XVII-XVIII асрларга келиб, мудофаа кўрғони сифатида қайта тикланади.

Ўртақўргон Шаҳрисабз беклигининг савдо-иқтисодий алоқаларида ҳам муҳим роль ўйнаган. Шаҳрисабз-Чироқчи-Қарши савдо йулида жойлашган бу кўрғоннинг ташки девори ёнида, унинг асосий шарқий дарвозаси олдида, маҳаллий қарияларнинг таъкидлашларига қараганда, савдо дуконлари бўлган. Ўртақўргондан топилган, чет эллардан (Россия, Хитой) келтирилган чинни идишлар ҳам Ўртақўргоннинг Шаҳрисабз беклигининг савдо-иқтисодий ҳаётидаги ўрнидан далолат бериб турибди.

Шаҳрисабз ғарбидаги чегара кўрғонлардан бўлган Шамотон ва Дахъяк кўрғонларида археологик тадқиқотлар олиб борилмаган. Улар ўз ҳажми ва аҳамияти жиҳатидан Ўртақўргондан анча кичик бўлиб, ҳозирги пайтда деярли бутунлай теккисланиб кетган.

Шаҳрисабзнинг ғарбий чегараларидаги муҳим кўрғонлардан яна бири Говмуш кўрғони бўлган. Ҳозирги пайтда Говмуштепа деб аталадиган бу кўрғон йирик тепалик шаклида сақланиб қолган бўлиб, у Шаҳрисабздан 3 км ча ғарбда, Самарқанд -Шаҳрисабз -Ғузур автомобиль йўлининг ўнг томонида жойлашган. Ёзма манбалардан маълумки, Говмуш кўрғони Бухоро ҳукмдорлари ва Шаҳрисабз беклари ўртасидаги ўзаро феодал урушларда катта аҳамиятга эга бўлган. Бухородаги манғитлар сулоласининг асосчиси Мухаммад Раҳим 1750-1752 йилларда Шаҳрисабзни бўйсиндириш учун тўрт марта катта ҳарбий юриш уюштиради. Натижада боғлар ва экин майдонлари пайҳон қилинади ва шаҳрисабзликларга тегишли бўлган бир нечта кўрғон бузиб ташланади. Бухороликларга қаттиқ қаршилик кўрсатган Говмуш кўрғони бутунлай бузиб ташланади ва аҳолиси кириб юборилади[4]. Шундан сўнг бу кўрғон қайта тикланмаган. Ҳозирги пайтда бу ерда маҳаллий қабристон мавжуд.

Мухаммад Раҳимхоннинг Шаҳрисабзга қилган ҳарбий юришлари муносабати билан яна Китоб, Кушчи, Сангфуруш каби мудофаа кўрғонлари ҳам манбаларда эслатиб ўтилади. Хусусан Мухаммад Раҳимхоннинг бўйруғи билан Китоб ва Кўшчи кўрғонлари бузиб ташланади. Сангфуруш кўрғонига эса тегилмасдан, ҳатто бу ерда янги арк барпо этилади. Лекин тезда Китоб кўрғони қайта тикланади. Сангфуруш кўрғони эса кейинги даврларда бузиб ташланади[5].

Юқорида эслатилган Сангфуруш ва Кушчи кўрғонлари ҳам Шаҳрисабзнинг ғарбий томонида жойлашган бўлиб, ҳозирги пайтда уларнинг ўрни тепалик шаклида сақланиб қолган. Тепалик ёнида эса шу номдаги кишлоқлар мавжуд. Бу тепаликларда кенг кўламдаги археологик тадқиқотлар олиб борилмаган бўлиб, тепаликларнинг юқориги маданий қатламларида оз миқдорда XVII- XVIII асрларга тегишли сирланмаган сопол идишлар парчалари учрайди.

Ўрганилаётган даврга тегишли мудофаа кўрғонларидан яна бири Китоб шаҳридан 9-10 км.ча ғарбда, Яккатут кишлоғининг шимолида жойлашган Қўрғонтепа ёдгорлигидир. Бу ерда ҳам кенг кўламдаги йирик археологик тадқиқотлар олиб борилмаган. Ҳозирги пайтда Қўрғонтепа ёдгорлиги баландлиги 14-15 м.ча келадиган айлана шаклидаги тепалик бўлиб, унинг юқориги маданий қатламларида XVIII асрга тегишли сопол идиши парчалари учрайди. Бу кўрғон “Чим” деворининг ташқи тарафида жойлашган бўлиб, унинг пайдо бўлиши анча олдинги даврларга бориб тақалса керак.

Шаҳрисабзнинг жанубида ҳам кўплаб катта-кичик тепаликлар сақланиб қолган бўлиб, улар археологик жиҳатдан тўлалигича ўрганиб чиқилмаган.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бекчурин И. Шаҳрисабзские владения по рассказам Джурабека и Бабабека / Материалы для статистики Туркестанского края. Вып 2. – СПб., 1873. – С-85.

2. Вяткин В.Л. Каршинский округ, организация в нём войска и события в период 1215-1217 (1800-1803) годов // Известия Средне-Азиатского отдела Государственного Русского географического общества. Т. XVIII. Ташкент, 1928. указ.соч. С.21.

3. Алимova И. Ўртақўргондаги археологик тадқиқотлар. Диплом иши. Тошкент. 1993
4. Ахмедов Б.А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. (письменные памятники). Ташкент, 1985. С.116.
5. Бартольд В.В. К истории орошения Туркестана. Соч. Т.Ш. М., 1965. С.208-209.
6. Логофет Д.Н. В горах и на равнинах Бухары. СПб., 1913. С.59.
7. Петров.Н Рекогносцировка Бухарских владений Петрова 1884 и 188 гг. Сб.: Географические, топографические и статистические материалы по Азии. Вып. XXI. Спб., 1886. С.75.

UDC 378.147:81'243:330

**THE IMPORTANCE OF AUTHENTIC MATERIALS IN THE DEVELOPMENT OF  
COMMUNICATIVE COMPETENCE OF ECONOMICS STUDENTS***G.Abdusaidova, teacher, Tashkent State University of Economics, Tashkent*

*Annotatsiya.* Mazkur tadqiqot mavjud ilmiy manbalar va amaliy kuzatuvlar asosida ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganayotgan iqtisod yo'nalishi talabalari uchun kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda autentik materiallarning o'rni va ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot metodologik adabiyotlarning sifat tahlili hamda auditoriya mashg'ulotlari jarayonidagi kuzatuvlarga tayanadi.

**Kalit so'zlar:** autentik materiallar, kommunikativ kompetensiya, maxsus maqsadlar uchun ingliz tili (ESP), iqtisod yo'nalishi talabalari, kasbiy muloqot.

**Аннотация.** В данном исследовании на основе существующих научных источников и практических наблюдений рассматривается роль аутентичных материалов в формировании коммуникативной компетенции у студентов экономических специальностей, изучающих английский язык как иностранный. Методологической базой исследования послужили качественный анализ методической литературы и наблюдения за учебным процессом.

**Ключевые слова:** аутентичные материалы, коммуникативная компетенция, английский язык для специальных целей (ESP), студенты экономических специальностей, профессиональная коммуникация.

**Abstract.** Based on existing research and field studies the role of authentic materials to the formation of communicative competence for students studying economics using English as a foreign language is investigated. The study relies on qualitative analyses of methodological literature and classroom observations.

**Key words:** authentic materials, communicative competence, English for Specific Purposes (ESP), economics students, professional communication.

**Introduction.** In recent years, English speaking graduates in professional fields have become highly sought after. This demand is also high for students of economics, who in the long run could work overseas to work in different areas, make trade deals, and analyze international economic data. The aim of higher-education English language teaching has thus become the development of communicative competence. Communicative competence refers to the utilization of language correctly and effectively in the real world, integrating linguistic, sociolinguistic, and pragmatic information. Learners could not be prepared for authentic professional communication when they are taught conventional language teaching materials, which are usually simplified or artificially generated. In contrast, **authentic materials** - texts and resources deliberately designed for actual communicative use - are said to be able to improve exposure to real language use by learners. Original materials, such as *economic reports, financial news articles, charts, interviews and business documents*, have been seen to fulfill the gaps between what learners learn in the classroom and how they are to communicate in the real world [1, 34]. via language skills training that combines socio-cultural and professional aspects of economic knowledge. For undergraduate students in Economics, they are very useful not only in terms of language but also for professional knowledge and motivation. As such, this article will attempt to examine the relevance of authentic materials for building the communicative competence of economics students studying English as a foreign language. However, as such, authentic materials have their own side of challenges, such as linguistic complexity and high cognitive demands. With their inadequate selection and without instructional support for their understanding, learners struggle to comprehend authentic texts. Thus, authentic materials are best realized when the teacher adapts the material and prepares suitable communicative tasks.


**Methods.** This study takes on a qualitative method by way of theoretical assessment and classroom observation. The findings of the research are based on a review of pedagogical and

linguistic literature related to communicative competence, English for Specific Purposes (ESP), and the use of authentic materials in language teaching. The practical portion of the study was undertaken with undergraduate economics students studying English for Economics at a higher education institution. Authentic materials such as articles from *The Economist*, excerpts from World Bank reports, financial graphs, and recorded business interviews were systematically included in speaking and reading activities. These resources were chosen according to their relevance, language level, and professional value. Classroom observation was directed at the level of student participation in discussions, their ability to express economic ideas in English, and interaction during communicative activities. Furthermore, students' oral responses and presentations were informally examined for changes to fluency, use of vocabulary, and confidence. These data were descriptively interpreted, building on the results of previous studies.

**Results.** The results of the study indicate that the use of authentic materials had a clearly positive impact on the development of students' communicative competence. One of the most significant outcomes was a noticeable increase in students' motivation and active engagement during English lessons. When authentic economic texts were introduced, learners demonstrated greater interest in classroom activities, as the materials were closely related to their field of study and reflected real professional situations they are likely to encounter in their future careers. As a result, students participated more actively in discussions and communicative tasks. In addition, the findings reveal a considerable improvement in the acquisition of professional vocabulary.

Continuous exposure to real economic terminology within authentic contexts enabled students to grasp not only the meanings of individual lexical items but also their functional use in professional discourse. Unlike isolated vocabulary exercises, authentic texts provided learners with examples of how terminology is employed in arguments, reports, and data analysis. This supports the widely accepted view that vocabulary learning becomes more effective when lexical items are presented within meaningful and relevant contexts rather than in decontextualized forms. [3, 112] Furthermore, the use of authentic materials contributed to the development of students' speaking skills, particularly in terms of fluency and coherence. During classroom discussions based on authentic economic content, students showed greater willingness to express their opinions, interpret numerical data, and justify their viewpoints using appropriate professional language. Although some grammatical inaccuracies persisted, learners were able to convey meaning more confidently and spontaneously. This shift indicates that communication became more purposeful and natural, reflecting real-life language use. [4, 89] These findings confirm that at the initial stages of communicative competence development, prioritizing meaning and interaction over strict grammatical accuracy is both pedagogically justified and effective.

*Figure 1. Comparison of students' communicative performance before and after the use of authentic materials.*



**Discussion.** The results indicated by this research support the existing research on the pedagogic value of authentic materials in foreign language teaching. For economics students, authentic materials work not just as linguistic inputs but also as a professional resource. This dual nature of function has meant that they are particularly effective in ESP contexts. Authentic materials also promote independent learners' ability to understand difficult concepts on their own. Authentic materials have an advantage: the possibility to simulate actual communicative situations. [1, 36]

When students work with authentic economic texts, they need to interpret information, negotiate meaning, and critically respond to texts all critical skills for working professionally. This makes language learning more functional and learner-oriented. Furthermore, classroom interaction is more expressive, since learners are sharing opinions and professional insights. But authentic materials also pose problems. Certain texts are linguistically challenging, and the instructor may have to employ a careful adaptation and fine-tune. [2, 71] Thus, teachers should choose materials carefully and plan tasks that are supportive to resist cognitive overload. Pre-teaching activities and instructional materials such as pre-teaching assignments, guided tasks, and support can enhance the coping strategies and adaptation of students' linguistic difficulties. Despite these difficulties, when materials are used correctly and appropriately and to levels of proficiency of the learners, the benefits of authenticity outweigh their limitations.

**Conclusion.** To sum up, authentic materials are crucial for economics students learning English as a foreign language. These materials significantly improve motivation, vocabulary development, and communicative confidence by exposing learners to authentic use of language in professional and academic contexts. So, the systematic infusion of authentic economic resources in English language instruction assists in linking theory learned in the classroom to the real professional communication skills needed. Furthermore, authentic materials can foster the acquisition of key professional competences such as critical thinking, data interpretation, and argumentative speaking skills (vital for future economists in particular). Nevertheless, authentic materials when used strategically, dramatically improve learners' levels of motivation, engagement, and preparedness for real-world communication. This work investigates the role those authentic materials play in fostering communicative competence in economics students learning English. Thus, there is an opportunity to present such sources and to highlight their pedagogical potential in ESP scenarios, as well as to show that such real-world resources help fill the gap between the acquisition of academic language skills and the production skills necessary for professional communication.

The implication of this study is that English language teachers in economics-oriented educational programs should proactively use real data materials in their curriculum and create communicative tasks that mirror real work settings. Such practice is not only conducive to improving language competence, but is also expected to develop students into active practitioners in a global academic and professional world. Finally, other directions for future research could concentrate on quantifying the development of communicative competence (and thus developing quantitative data for comparative studies evaluating the impact of authentic vs. non-authentic teaching materials/tools across proficiency levels). Future studies could further investigate the long-term effects of authentic materials on learners' professional communication skills and career readiness.

#### REFERENCES:

1. Richards, J. C. (2006). *Communicative Language Teaching Today*. Cambridge University Press, pp. 34–36.
2. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes*. Cambridge University Press, pp. 67–71.
3. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press, pp. 110–113.
4. Harmer, J. (2007). *How to Teach English*. Longman, pp. 88–90.
5. Safarov B., Abdusaidova G. Natural Language Processing of Cognitive Metaphors in Eco-Marketing // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2024. – T. 2. – №. 8.
6. Shokirova D., Ulmasbaeva M., Abdusaidova G., Usmonova O., Tukhtabaeva Z., Umarova R. Computational linguistics and big data in knowledge management: systematic mapping // *Proceedings of the 8th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*, 2024. – P. 818.

UDC 37.01

### REDEFINING THE CLASSROOM: A FRAMEWORK FOR HUMAN-AI COLLABORATIVE PEDAGOGY

*R.A.Achilova, PhD, prof., Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara*  
*S.K.Norova, Master student, Bukhara State Pedagogical Institute, Bukhara*

*Annotatsiya. Mazkur maqola generativ sun'iy intellektning (GenAI) zamonaviy ta'lim manzarasiga ko'rsatayotgan transformatsion ta'sirini tadqiq etadi. Tadqiqot an'anaviy o'qituvchiga*

yo'naltirilgan modellardan pedagog, talaba va sun'iy intellekt ishtirokidagi "triada" (uchlik) modeliga o'tish orqali shaxsiylashtirilgan ta'limdagi "Ikki sigma muammosi" ni hal qilishni maqsad qilgan.

**Kalit soʻzlar:** Inson va sun'iy intellekt hamkorligi, generativ sun'iy intellekt, pedagogik model, kognitiv skaffolding, ta'lim transformatsiyasi, tanqidiy fikrlash, raqamli tengsizlik, ta'lim siyosati, shaxsiylashtirilgan ta'lim.

**Аннотация.** В данной статье исследуется трансформационное воздействие генеративного искусственного интеллекта (GenAI) на современный образовательный ландшафт. Исследование направлено на решение «проблемы двух сигм» в персонализированном обучении путем перехода от традиционных моделей, ориентированных на учителя, к триадической структуре сотрудничества между педагогом, учащимся и ИИ.

**Ключевые слова:** Сотрудничество человека и ИИ, генеративный ИИ, педагогическая модель, когнитивные «леса», трансформация образования, критическое мышление, цифровой разрыв, образовательная политика, персонализированное обучение.

**Abstract.** The rapid integration of Generative Artificial Intelligence (GenAI) into the educational landscape marks a fundamental paradigm shift. This paper explores the transition from teacher-centric models to a "Triadic Framework" involving the educator, the learner, and AI. Through a qualitative meta-synthesis of literature from 2018–2025, the study evaluates shifts in cognitive load and teacher agency. While AI offers a scalable solution to the "Two-Sigma Problem" of personalized tutoring, it introduces risks of cognitive atrophy. The article concludes that the "Redefined Classroom" requires institutional reform in assessment and a shift in the teacher's role toward socio-emotional orchestration.

**Keywords:** Human-AI collaboration, generative AI, pedagogical framework, cognitive scaffolding, educational transformation, critical thinking, digital divide, educational policy, personalized learning.

**Introduction.** For decades, the classroom has functioned as a space where the educator served as the primary conduit of knowledge—a model Paulo Freire famously critiqued as "banking education" (Freire, 2018). However, the sudden emergence of Large Language Models (LLMs) has shattered this monopoly. Knowledge is no longer scarce; it is ubiquitous.

This disruption necessitates a fundamental move toward **Human-AI Collaborative Pedagogy**. As scholarship suggests, AI's truest impact is not the replacement of the human element, but the augmentation of our "cognitive bandwidth" (Holmes and Tuomi, 2022). By offloading the drudgery of data retrieval and formatting, we finally have the tools to address the "Two-Sigma Problem" (Bloom, 1984), offering personalized scaffolding to every student regardless of class size.

**Methodology.** To build this framework, we employed a qualitative meta-synthesis of recent pedagogical shifts. We analyzed peer-reviewed databases (ERIC, JSTOR) with a focus on articles published during the "GenAI explosion" (2018–2025). By applying thematic coding to these sources, we identified a recurring tension: the conflict between AI as a "shortcut" and AI as a "scaffold." These findings were then mapped against Vygotsky's (1978) *Zone of Proximal Development* to evaluate how digital tools can extend a student's reach.

The impact of AI is best understood by comparing the old linear model with the new collaborative triad.

Table 1

The Pedagogical Shift

Feature	Traditional Model	Collaborative Model
Primary Goal	Knowledge Retention	Active Synthesis
Teacher's Role	Information Source	Orchestrator&Mentor
Assessment	Product-based (The Essay)	Process-based (The Inquiry)
Feedback	Delayed	Real-time and Iterative

**Socio-Emotional and Inclusive Impacts.** A significant, often overlooked impact of AI is its ability to level the playing field for neurodivergent students. AI-driven tools can convert text to simplified speech for students with dyslexia, or provide structured, low-anxiety interaction environments for students on the autism spectrum. By acting as a "non-judgmental" tutor, AI allows

students to fail privately and iterate safely, reducing the "performance anxiety" often found in traditional classrooms.

As AI takes over the "cognitive" load of instruction, the human teacher's role must pivot toward Socio-Emotional Learning. While an AI can explain a mathematical theorem, it cannot teach empathy, resilience, or ethical courage. The "Redefined Classroom" allocates more time for peer-to-peer collaboration and teacher-led debates, ensuring that the human elements of education—mentorship and character building—are strengthened rather than diminished by technology.

**Research Philosophy and Approach.** This study adopts a constructivist philosophical stance, positing that knowledge is actively synthesized through interaction. Given the rapid evolution of Generative AI, a Systematic Narrative Synthesis (SNS) was selected as the primary methodology. Unlike a standard literature review, SNS allows for the integration of disparate data points—ranging from empirical classroom studies to theoretical frameworks in educational psychology—to construct a cohesive new model for Human-AI synergy.

A multi-stage heuristic search was conducted across three primary academic clusters:

**Technological Cluster:** Research focusing on Large Language Models (LLMs) and Natural Language Processing (NLP) in education.

**Pedagogical Cluster:** Studies exploring Active Learning, Project-Based Learning (PBL), and Scaffolding.

**Sociological Cluster:** Literature addressing the Digital Divide, Academic Integrity, and Ethics.

**Inclusion Criteria:** Peer-reviewed articles published between 2019 and 2026 (to capture the post-GPT-4 era).

Case studies involving "Human-in-the-Loop" AI applications in higher education. Frameworks specifically discussing the transition of the educator's role from lecturer to orchestrator.

To evaluate the impact of AI, the methodology utilizes a Triadic Analytical Lens. This involves examining the educational experience through three intersecting variables:

**The Learner's Agency:** How AI autonomy impacts the student's sense of ownership over the learning process.

**The Educator's Scaffolding:** The shift in how teachers provide hints, feedback, and conceptual "anchors."

**The Machine's Adaptability:** The capacity of the AI to modify its complexity level based on real-time student performance.

The effectiveness of the "Redefined Classroom" framework was cross-referenced against Bloom's Revised Taxonomy and Vygotsky's Zone of Proximal Development (ZPD). The analysis focused on "Cognitive Migration"—measuring the shift of mental effort from low-order retrieval tasks to high-order synthesis and critical evaluation tasks.

As this methodology involves the synthesis of data related to student outcomes, ethical considerations regarding Algorithmic Transparency and Data Privacy were integrated into the analysis. The research specifically accounts for the "Black Box" nature of AI, ensuring that the proposed framework prioritizes explainability and human oversight.

**Discussion.** The most profound impact of this framework is the redefinition of the "Zone of Proximal Development." Traditionally, one teacher could not keep 30 students in their optimal learning zone simultaneously. AI acts as a digital scaffold that bridges this gap (Luckin, 2018).

However, we must address the **Augmentation Paradox**. If a student relies on AI to structure every thought, do they lose the ability to think independently? This study suggests that "Cognitive Offloading" is only beneficial if it frees up mental energy for higher-order tasks, such as ethical evaluation and creative synthesis. We must guard against the "Illusion of Explanatory Depth," where students mistake an AI's clear explanation for their own mastery (Selwyn, 2019).

**Conclusion.** The "Redefined Classroom" is not a futuristic dream; it is a current necessity. We conclude that technology should handle the "data," but humans must remain the masters of "meaning."

#### **Recommendations for a Human-Centered Future:**

1. **Assessment Reform:** Move away from static essays toward "Process-Oriented" grading that rewards how a student prompts and critiques AI.

2. **Equity-First Policy:** Ensure AI access is a public utility to prevent a new "Digital Divide" (UNESCO, 2023).
3. **Teacher as Mentor:** Pivot faculty training toward emotional intelligence and ethical leadership, leaving the rote explanations to the algorithms.

**REFERENCES:**

1. Bloom, B.S. (1984). The 2-Sigma Problem: The Search for Methods of Group Instruction as Effective as One-to-One Tutoring. *Educational Researcher*, 13(6), pp.4–16.
2. Freire, P. (2018). *Pedagogy of the Oppressed*. 50th edn. New York: Bloomsbury Academic.
3. Holmes, W. and Tuomi, I. (2022). State of the art and practice in AI in education. *European Journal of Education*, 57(4), pp.542–570.
4. Luckin, R. (2018). *Machine Learning and Human Intelligence*. London: UCL Press.
5. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers?*. Cambridge: Polity Press.
6. UNESCO (2023). *Guidance for Generative AI in Education and Research*. Paris: UNESCO Publishing.

UO'K 378:004.73

**GLOBALASHUV JARAYONIDA ZAMONAVIY INTERNET MEDIA NUTQINI  
O'QITISH MASALALARI**

*U.N.Boboyev, dots., Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada zamonaviy internet media nutqining o'ziga xos jihatlari, qisqalik, tezlik, interaktivlik va kreativlik kabi jihatlari, uning doimiy o'zgarib turuvchi yangi texnologiyalar, platformalar va ijtimoiy talablar bilan shakllanishi kabi masalalar tadqiq qilingan. Internet ijtimoiy tarmoqlarida nutq tez-tez shaxsiylashtirilishi, uning tarqalishi orqali jamiyatdagi trendlar, fikrlar va muloqot usullari tezda keng auditoriyaga yetkazilishi o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** internet, globallashuv, media, ijtimoiy tarmoqlar, Youtube, Tik tok, blogerlik.

**Аннотация.** В данной статье исследуются специфические особенности современной интернет-медиа-речи, такие как краткость, скорость, интерактивность и креативность, а также процессы её формирования под воздействием постоянно меняющихся новых технологий, платформ и социальных запросов. Анализируется тенденция к частой персонализации речи в интернет-пространстве, а также её распространение, посредством которого общественные тренды, идеи и формы коммуникации оперативно транслируются широкой аудитории. Особое внимание уделяется влиянию интернет-медиа-речи на трансформацию коммуникативных практик в современном обществе.

**Ключевые слова:** интернет, глобализация, медиа, социальные сети, YouTube, TikTok, блогинг.

**Abstract.** This article examines the distinctive features of modern Internet media discourse, such as brevity, speed, interactivity, and creativity, as well as the processes of its formation under the influence of constantly evolving technologies, platforms, and social demands. The study analyzes the tendency toward frequent personalization of discourse in the Internet environment and its rapid dissemination, through which social trends, ideas, and modes of communication are quickly conveyed to a wide audience. Particular attention is paid to the role of Internet media discourse in shaping and transforming contemporary communicative practices.

**Key words:** Internet, globalization, media, social networks, YouTube, TikTok, blogging.

Media tilini o'qitish hozirgi globallashuv jarayonini boshdan kechirayotgan dunyoda tabora muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Zamon bilan birga hamnafas bo'lib yashashni talab qilayotgan jamiyatimiz, fan va texnika, ijtimoiy va xalqaro munosabatlar rivojlanishi, eski uslublardan voz kechish va yangi-yangilarini ishlab chiqarib, ularni amaliyotda qo'llash zaruratini tug'dirmoqda. Ushbu uslublardan birining, ya'ni chet tili va tarjima amaliyotini o'rgatish darslarida va media materiallaridan keng foydalanib, ulardagi matnlar bilan tanishishni va ishlay bilishni o'rgatish alohida ahamiyatga kasb etmoqda. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga shaxdam qadamlar ila kirib borar ekan, jahondagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan boxabar bo'lish zarurati mamlakatimiz fuqarolari uchun muhim vazifaga aylanib bormoqda. Bu vazifani esa dunyo mamlakatlarida chop etilayotgan media mahsulotlarni o'qish orqali amalga oshirish mumkin. Shunday ekan, chet tilini o'rganayotgan

talabalar o'zga tilda yoritilgan matbuot materiallari voqealarini tushunishi va mahalliy o'quvchilarni bu to'g'risida xabardor qila olishi shartdir.

Asl tildagi media matnlarini o'qishda paydo bo'ladigan jarayonni birinchi navbatda leksik-grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan boshlash kerak. Matnni to'g'ri tushunishda voqea sodir bo'lgan mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatdan yoki shu millat mentalitetiga xos bo'lgan so'zlar (realiyalar) dan bexabarlik to'siq bo'lishi mumkin va bunday holatlarda izohlar muhim rol o'ynaydi.

Media matnlari tarjimasida ustida ishlashning ilk bosqichi matnni o'qishning asosiy shakli- ovoz chiqarimasdan o'qishdir, chunki keyingi bosqichda, ya'ni, qiyinchiliklarni bartaraf etishda matnni bir necha bor ovoz chiqarib o'qish va ba'zi sarlavhalarni, gap va hatto, xatboshini tarjima qilish tavsiya etiladi. Bu jarayonda tarjimaning o'rni haqida alohida to'xtalish lozim bo'ladi. Yuqorida zikr etilganidek, media matnlari bilan ishlashning asosiy maqsadi ularni ovoz chiqarimasdan o'qib, matnni tarjimasiz malakalarini rivojlantirishdir, chunki, aynan shu malakalar gazetxonlarning fikrini matn mazmunida jamlash va undan ma'lumot olishga yo'l ochadi. O'qitish jarayoni boshida murakkab bo'lmagan chet tilidagi media matnlarini tanlab, so'zlarni bilmasdan ham tushuna olish mumkin degan ishonch hosil qila olish muhim hisoblanadi. Matn o'qilayotganda hamma so'zlarni bilishga e'tibor bermasdan tushunishga harakat qilinadi. Matnni qismlarga bo'lish maqsadga muvofiq emas, chunki u matn kompozitsiyasini buzib, ma'lumot berishga halaqit beradi. Biroq, agar matn juda katta bo'lsa, undagi ba'zi asosiy mazmunga ta'sir o'tkazmaydigan xatboshilarni qoldirib ketish tavsiya etiladi. Dastlabki ishlar bajarilib bo'lingandan so'ng matnni yana bir bor ko'rib chiqish foydadan holi bo'lmaydi, boisi bu narsa mazmunni birlamchi ilg'ashda paydo bo'ladigan individual qiyinchiliklarni aniqlashga yordam beradi.

Zamonaviy internet tarmoqlari media nutqi, ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda va onlayn platformalarda foydalaniladigan til to'grisida gapiriladigan bo'lsa, bu nutq turi ancha o'zgarib bormoqda va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Internetda ijtimoiy tarmoqlarida paydo bo'lgan yangi kommunikatsiya usullari, formatlar va jargonlar odatiy muloqot tiliga nisbatan o'ziga xos bo'lib, ayniqsa yoshlar va onlayn auditoriya orasida keng tarqalgan. Xususan, zamonaviy internet ijtimoiy tarmoqlari media nutqining asosiy xususiyatlari va tendensiyalari haqida quyidagi fikrlarni ta'kidlab o'tish lozim:

**Qisqalik va samaradorlik.**

Internet ijtimoiy tarmoqlarida odamlar ko'proq qisqa va to'g'ridan-to'g'ri ma'lumot olishni xohlaydilar. Bu esa nutqning qisqargan va soddalashtirilgan shakllariga olib keladi. Hashtaglar, emotikonlar (emoji), qisqacha iboralar, meme'lar va boshqa vizual elementlar yordamida ifodalanadigan ma'lumotlar tez va samarali tarzda yetkaziladi.

Internetda ma'lumotni tezda qabul qilish muhim ahamiyatga ega, bu "mashhur" va "viral" kontentni yaratishda asosiy omilga aylanadi. Masalan, Instagram va Twitter kabi platformalarda 280 ta belgi bilan cheklangan xabarlar odatda ma'lumotni qisqa va aniqlik bilan taqdim etadi.

**Interaktivlik**

Internet media nutqi ko'pincha interaktiv bo'ladi. Foydalanuvchilar nafaqat ma'lumotni olishadi, balki uni yaratishadi, o'zgartirishadi, baham ko'rishadi va javoblar berishadi. Bu, o'z navbatida, tilning o'zaro aloqaga asoslangan shakllarini yaratadi.

Jurnalistika va bloggerlikning yangi shakllari o'quvchi yoki tomoshabin bilan muloqot qilishga asoslanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar postlarga sharhlar yozishadi, so'rovlar (polls) o'tkazishadi, xabarlarni baham ko'rishadi, debating (bahs-munozara) va reaksiyalar orqali o'z fikrlarini bildirishadi.

**O'zgacha leksika va jargonlar**

Zamonaviy internet nutqida yangi leksika va jargonlar paydo bo'lmoqda. "LOL", "FOMO", "YOLO", "meme", "vlog", "clickbait" kabi so'zlar endi keng tarqalib kundalik muloqot tiliga kirib bormoqda. Bu so'zlar ko'pincha yoshlar orasida foydalanilmoqda va keng ommaga tarqalmoqda.

Internet tili doimiy ravishda o'zgarib turadi, yangi iboralar va so'zlar bir zumda paydo bo'ladi. Bu tilda o'ziga xos qisqartmalar va iboralar qo'llaniladi, bu esa tilni o'tkir va burro qilishga yordam beradi.

### Emotikonlar(emoji'lar)

Emotikonlar (emoji'lar) va GIF'lar internet ijtimoiy tarmoqlari media nutqining muhim qismiga aylanmoqda. Internet tarmogi media nutqi fikrlarni, his-tuyg'ularni va munosabatlarni ifodalashning eng samarali va tezkor usuli sifatida qo'llaniladi. Emotikonlar ma'lumotni tezda tushunishga yordam beradi va matnni boyitadi.

#### Mavhumlik va ikki ma'nolilik

Internet media nutqi ko'pincha mavhum va ikki ma'nolidir. Postlar, meme'lar va kontent ko'pincha satirik, ironiya yoki hazil tarzida taqdim etiladi. O'quvchi yoki tomoshabin to'g'ri ma'no olish uchun kontekstni tushunishi kerak.

Ko'pincha ommaviy axborot vositalari internetda tez-tez o'zgaradigan yangiliklar va shov-shuvlarni yaratishda bunday mavhum va hazil elementlardan foydalanadilar. Bu, ba'zan, jamiyatni muhokama qilish yoki ozgina ijtimoiy tanqid qilish uchun ishlatiladi.

#### Personalizatsiya va algoritmlar

Internet media nutqi algoritmlar orqali shaxsiylashtirilgan kontentni taqdim etishda, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilariga ular ko'proq qiziqadigan mavzularni va postlarni ko'rsatish uchun algoritmlardan foydalanadi. Bu, o'z navbatida, nutqni shaxsiylashtiradi.

Facebook, Instagram, YouTube kabi platformalar foydalanuvchilarning qiziqishlariga asoslanib kontentni taklif qiladi, bu esa media nutqining har bir shaxs uchun maxsus bo'lishiga olib keladi. "Ekran vaqtining" oshishi va foydalanuvchining o'ziga xos kontentga yo'naltirilganligi jarayonni kuchaytiradi.

#### Viral kontent va trendlar

Internetda viral bo'lib ketgan kontent yoki trendlar katta auditoriyaga etkaziladi va o'zgaruvchan va qisqa muddatli mashhurlikka ega bo'ladi. Bu trendlar ko'pincha meme'lar, yangi qo'shiqlar, videolar, hashtaglar yoki viral challenjlardan iborat bo'ladi.

Shov-shuvli trendlar va viral kontent tezda tarqaladi va jamoalar tomonidan amalga oshiriladigan yangi "vazifalar" yoki "o'yinlar" shaklida rivojlanadi. Bunday kontentlar odatda qisqa va mazmunli bo'lib, tezda o'zgarib turadi.

#### Kreativ va innovatsion kontent

Internet media nutqi ko'pincha ijodiy va innovatsion yondashuvlarga ega bo'ladi. Yangi texnologiyalar va platformalar kontent yaratish usullarini diversifikatsiya qiladi. Hozirgi paytda video va interaktiv kontentlar ommalashgan va ularni yaratish osonlashgan.

TikTok, YouTube va Instagram kabi platformalar foydalanuvchilarga o'z kontentlarini yaratishda kreativ imkoniyatlar taqdim etadi, shuningdek, video, musiqalar, harakatli tasvirlar va boshqa interaktiv formatlar taqdim etadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy internet media nutqi o'zining qisqalik, tezlik, interaktivlik va kreativligi bilan ajralib turadi. U doimo o'zgarib turadi va yangi texnologiyalar, platformalar va ijtimoiy talablar bilan shakllanadi. Internetda nutq tez-tez shaxsiylashtiriladi, va uning tarqalishi orqali jamiyatdagi trendlar, fikrlar va muloqot usullari tezda keng auditoriyaga yetkaziladi. Biroq, bu yangi nutq shakllari ba'zi an'anaviy nutq qoidalarini o'zgartirishga va ba'zan mavhumlik va noaniqlikni keltirib chiqarishga olib kelmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Begmatov M.B Media sarlavhalarining kommunikativ pragmatik funksiyalari. Xorijiy til ta'limining kognitiv – pragmatik tamoyillari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Samarqand: SamDChTI, 2007. – B. 24-25
2. Begmatov. M. B, Eshonqulova, G. Media tilining ayrim xususiyatlari haqida mulohazalar, Til sistemasi va hozirgi zamon lingvodi-daktikasi. Respublika ilmiy - amaliy anjumani materiallari. – Samarqand, 2010. – B.131-132
3. Boboeva A. Media tili haqida. – Toshkent: Fan,1963.
4. Boboeva A. Media tilidagi ayrim muammolar haqida. – Muxbir, 1980. – B. 40-43
5. Borisova I.F. “Коммуникативный аспект текста”. Nutq lingvistikasi. Xalqaro ilmiy nazariy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2006. – B.146-149
6. Boymirzaeva S. Matn muloqot birligi sifatida. Til taraqqiyotining leksik va grammatik muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. –Samarqand, 2012. – B. 203-205
7. Boymirzayeva S., Yarmuxammedova M. Nutqiy muloqot jarayoni va matn. – B. 308-309
8. Delhes K. Soziale Kommunikation. Opladen,1994.
9. François-Geiger. 1989. – P. 95

10. Grishman R. Computational linguistics. – London: Cambridge University Press, 1994. – P.4.

11. Herring, S. C. (2013). Computer-mediated conversation: Introduction and overview. In the Handbook of Conversation Analysis. John Willy & Sons. – P. 240-263

UDC 37.091.315:811.111

## THE USE OF EDUCATIONAL APPS IN LEARNING ENGLISH

*N.I. Ibrohimova, master student, Fergana State University, Fergana*

*Sh.Yo. Usmonova, teacher, Fergana State University, Fergana*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz tilini o'rganishda ta'lim ilovalarining roli va ahamiyatini o'rganadi, ularning lug'at, grammatikasi va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi. Tadqiqot mobil ilovalar o'quvchilarni o'zlashtirishga jalb qilishda va shaxsiylashtirilgan o'qish tajribalarini taklif etishda qanday yordam berishini ko'rib chiqadi. Ilova orqali ingliz tilini o'rganuvchi kattalar o'rtasida so'rovlar, intervyular va kuzatishlar o'rganish metodologiyasi qo'llanildi. Maqola yakunida, ta'lim ilovalari qimmatli yordamchi vosita bo'lsa-da, yaxshi til o'rganish tajribasi uchun ular an'anaviy o'quv metodlari bilan birgalikda qo'llanilishi kerakligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim ilovalari, ingliz tilini o'rganish, mobil o'qish, til o'zlashtirish, lug'at, grammatika, tinglash ko'nikmalari, nutqni aniqlash.

**Аннотация.** Данная статья исследует использование образовательных приложений в обучении английскому языку, подчеркивая их роль в улучшении таких языковых навыков, как словарный запас, грамматика и восприятие на слух. Исследование рассматривает, как мобильные приложения способствуют вовлечению учащихся и предоставляют персонализированный опыт обучения. Для сбора данных о влиянии приложений на обучение был использован качественный метод: опросы, интервью и наблюдения среди взрослых учащихся, использующих приложения для изучения языка. В заключение, статья утверждает, что хотя образовательные приложения являются ценным вспомогательным инструментом, их следует использовать в сочетании с традиционными методами обучения для более комплексного процесса освоения языка.

**Ключевые слова:** Образовательные приложения, обучение английскому языку, мобильное обучение, освоение языка, словарный запас, грамматика, восприятие на слух, распознавание речи.

**Abstract.** This article explores the use of educational apps in learning English, emphasizing their role in improving language skills such as vocabulary, grammar, and listening comprehension. The study examines how mobile applications enhance learner engagement and offer personalized learning experiences. The article concludes that while educational apps are a valuable supplementary tool, they should be used in conjunction with traditional learning methods for a well-rounded language acquisition experience.

**Keywords:** Educational apps, English language learning, mobile learning, language acquisition, vocabulary, grammar, listening comprehension, speech recognition.

**Introduction.** The digital revolution has brought about significant changes in various sectors, and education is no exception. In recent years, the use of educational apps has become increasingly popular in language learning, particularly in English. These apps provide learners with the tools and resources to improve their language skills, offering a wide range of features from vocabulary building to grammar exercises and interactive speaking practice. With the growing demand for English proficiency in both professional and social contexts, educational apps present a convenient, accessible, and engaging way for learners of all ages to enhance their language abilities. This article explores the role of educational apps in learning English, examining how they support language acquisition, their benefits, and the challenges they present.

**Literature Review.** A significant body of research highlights the advantages of using educational apps in language learning. One study by Kukulska-Hulme (2012) indicates that mobile applications offer flexibility, allowing learners to practice English at their own pace and from any

location. This level of convenience addresses one of the key barriers to traditional language learning—time constraints. Additionally, mobile learning supports a personalized learning experience. According to Stockwell (2010), many language apps use adaptive technologies to tailor exercises and content to the learner's specific proficiency level, ensuring that content remains challenging yet achievable.

The interactive nature of many language apps also fosters engagement. Research by Godwin-Jones (2014) suggests that language learners who use apps with gamified features tend to stay more motivated and committed to their learning process. Gamification, which integrates elements of competition, rewards, and progression, has been shown to increase retention and encourage continued use. Furthermore, educational apps often incorporate multimedia elements such as audio, video, and interactive quizzes, which appeal to different learning styles and provide varied ways to reinforce language skills (Thorne, 2016).

However, despite these benefits, some studies caution against over-reliance on apps. A study by Rixon (2017) argues that while apps are useful for independent practice, they cannot replace face-to-face interaction or the guidance of qualified teachers

**Methodology.** This study adopts a qualitative research methodology to assess the impact of educational apps on English language learning. A combination of surveys, interviews, and direct observation was used to gather data on user experiences, learning outcomes, and perceptions of the effectiveness of apps in improving their language skills. The survey included both closed and open-ended questions, allowing participants to provide detailed feedback on their learning habits, app preferences, and specific skills they felt had improved through app use. The interviews further explored personal learning journeys and challenges faced when using apps for English language acquisition.

In order to ensure comprehensive results, the study also included a comparison between learners who primarily used educational apps and those who integrated these tools with classroom-based learning.

**Results.** The results of the study indicate that educational apps have a positive impact on English language learning, with many participants reporting improvements in vocabulary, grammar, and listening skills. Over 70% of participants stated that they felt more confident in speaking English after regularly using language learning apps, especially those with interactive features like speech recognition. Additionally, 60% of learners mentioned that the ability to practice English at their own pace and convenience led to increased motivation and consistency in their studies. However, some participants noted challenges in fully developing their speaking and writing skills, particularly in the absence of real-time feedback from a teacher. Overall, the results suggest that educational apps are most effective when used in conjunction with other language learning methods, such as classroom instruction or conversation practice.

**Discussion.** The findings of this study align with previous research, indicating that educational apps can significantly enhance the language learning experience, particularly in terms of vocabulary expansion, listening comprehension, and self-paced learning. The convenience and accessibility of these apps were consistently highlighted as key factors in promoting consistent practice and learner engagement. However, the study also highlights the limitations of educational apps, particularly their inability to replicate real-world language use and face-to-face interaction. While many apps include features for writing and speaking practice, they do not always provide the authentic feedback that learners need to refine their language skills.

**Conclusion.** In conclusion, educational apps have proven to be a valuable resource for learners of English, offering flexibility, engagement, and personalized learning experiences. These tools can enhance vocabulary, grammar, and listening skills, especially when used regularly. However, the limitations of app-based learning, such as the lack of authentic conversational practice and cultural context, suggest that they should be seen as a supplement to, rather than a replacement for, traditional language learning methods. Future research could explore how to better integrate social and interactive features into these apps, further bridging the gap between digital and real-world language learning.

## REFERENCES:

1. Godwin-Jones, R. (2014). Mobile-assisted language learning. *Language Learning & Technology*, 18(2), 12-24.
2. Rixon, S. (2017). The effectiveness of mobile apps in language learning. *TESOL Quarterly*, 51(1), 155-173.
3. Stockwell, G. (2010). Using mobile phones for vocabulary activities: Examining the effect of the platform. *ReCALL*, 22(2), 1-20.
4. Thorne, S. L. (2016). Digital literacies, multiliteracies, and language learning. *Language Learning & Technology*, 20(3), 11-33.

UO'K 32(575.2):37.016.4

**VI–VII ASRLARDA TURON XALQLARINING DINIY E'TIQODI VA UNI 7-SINF  
O'ZBEKISTON TARIXI FANIDA O'QITISH METODIKASI**

*M.X.Lapasov, o'qituvchi, Jizzax shahridagi Prezident maktabi, Jizzax*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada VI–VII asrlar davomida Turon (Markaziy Osiyo) hududida yashagan xalqlarning diniy e'tiqod tizimi, ularning ko'pxudolik an'analari, tabiat kuchlari va ajdodlarga sig'inish marosimlari, buddaviylik, moniylik, zardushtiylik, yahudiylik hamda xristianlikning mintaqa madaniy hayotiga ta'siri ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shuningdek, ibtidoiy diniy tasavvurlar — animizm, totemizm, fetisizm va shamanizmning shakllanishi ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Zardushtiylik; Buddaviylik; Moniylik; Shomonlik; Totemizm; Animizm; Fetishizm

**Аннотация.** В статье на основе научных источников анализируется система религиозных верований народов, проживавших на территории Турана (Средняя Азия) в VI–VII веках, их политеистические традиции, обряды поклонения силам природы и предкам, влияние буддизма, монизма, зороастризма, иудаизма и христианства на культурную жизнь региона. Также рассматривается формирование первобытных религиозных представлений — анимизма, тотемизма, фетишизма и шаманизма.

**Ключевые слова:** зороастризм; буддизм; монизм; шаманизм; тотемизм; анимизм; фетишизм

**Abstract.** This article analyzes the religious belief system of the peoples who lived in the territory of Turan (Central Asia) in the 6th–7th centuries, their polytheistic traditions, rituals of worship of the forces of nature and ancestors, the influence of Buddhism, Monism, Zoroastrianism, Judaism and Christianity on the cultural life of the region, based on scientific sources. The formation of primitive religious ideas - animism, totemism, fetishism and shamanism is also covered.

**Key words:** Zoroastrianism; Buddhism; Monism; Shamanism; Totemism; Animism; Fetishism

**Kirish.** VI–VII asrlar Markaziy Osiyo — qadimgi Turon o'lkasi — diniy va madaniy xilma-xillikning eng yuksak bosqichlaridan biridir. Ushbu davrni o'qitish 7-sinf o'quvchilarida global fikrlash, madaniy hurmat, tolerantlik va tarixiy tafakkurni shakllantiradi.

Bu davrda Turon hududida Turk xoqonligi, Sug'd, Tohariston, Xorazm kabi siyosiy markazlar faoliyat yuritgan. Buyuk Ipak yo'li orqali dinlar, madaniyatlar va savdo aloqalari rivojlangan.

Bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil: teologik va materialistik qarashlar mavjud. Teologik (ilohiy, diniy) yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan, animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolikdan keyin yuzaga kelgan. Jumladan, yahudiylik, xristianlik va islom dinlariga ko'ra, Xudo ilk inson — Odamni yaratib, unga o'zini tanitgan va Odam avlodlarini o'ziga sig'inishga chaqirgan [1].

Fetishizm (sehrli narsa, tumor). Zamonaviy dinlarda fetishizm tabarruk buyumlarni tavof qilish tarzida namoyon bo'ladi. Odamlar orasida tumor baxt keltiradi, ko'zmunchoq esa yomon ko'zdan asraydi, degan ishonch mavjud bo'lgan. Taqa, tumor, bo'y chog'i (kulon) kabi narsalar zamonaviy fetishlarga misol bo'ladi.

Shamanizm (shomonlik). Boshqa millatlarda bo'lgani singari, Markaziy Osiyo xalqlarida ham shamanizm turli ko'rinishlarda kuzatiladi. Folbinlik, rom ochish, sehr qilish, ilgirlik kabilar shamanizm belgilari sifatida keltiriladi [12]. Bugungi kunda ham ba'zan biror narsasini yo'qotgan kishi folbinga borish holatlari uchraydi.

Qushlar. Rivoyatlara ko'ra, turkiylarda qirg'iy, burgut, lochin, qarchig'ay kabi qushlar qabila a'zolariga baraka va baxt olib keluvchi muqaddas jonzotlar hisoblangan. O'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman xalqlari qadimda ukki, boyo'g'li, burgut va lochin patlarining muqaddas kuchiga ishonganlar. Bugunga qadar ham kichik yoshdagi o'g'il bolalar va qizchalarning bosh kiyimlari, beshik va belanchaklarini qushlar pati bilan bezaydilar.

Daraxtlar. Markaziy Osiyoda chinor va sarv daraxtlari (archa) qadimdan muqaddas kuchga ega obyekt sifatida e'zozlangan. Ularga qizlar o'z qalb sirlarini aytib, daraxt shoxlariga nishona bog'lab, armonlarining ushaliyiga umid qilganlar. Qadimgi turkiylar ma'budlar daraxtlar orqali oziqlanadi, deb e'tiqod qilingani sababli, qurbonlik qonlari daraxtlar ostiga quyilgan. Odamlar tabiat ruhlarini o'zlariga hamkor sifatida qarashgan. Ularni qarindosh yoki ajdodlar ruhlari deb bilishgan [1].

Ushbu mavzuni o'qitishda quyidagi usullar qo'llanadi:

- **Tarixiy xaritalar bilan ishlash** Maqsad: O'quvchilarda mintaqaviy tarixiy tasavvur, geografik fikrlash va madaniy kontekstni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Amaliy faoliyat: Interaktiv Google Earth, Mapchart yoki HistoryMaps orqali dinlarning tarqalish hududlarini belgilash. O'quvchilar Zardushtiylik, Buddaviylik, Moniylik va Xristianlik markazlarini xaritada ko'rsatadi. Har bir guruh dinlarning madaniy ta'siri va tarqalish sabablarini izohlaydi.

Baholash: Map Analysis Rubric – to'g'ri joylash, tarixiy izoh, sabab-oqibat bog'liqligi asosida.

**Rolli o'yinlar (Role Play)** Maqsad tarixiy tafakkur, empatiya, kommunikativ va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish. UNESCO "Active Learning" modeli va Cambridge "Collaborative Interaction" tamoyili asosida.

Amaliy faoliyat: O'quvchilar Zardushtiy ruhoniy, Budda rohibi, Savdogar va Manixeylik tarafdori rollarida sahna tayyorlaydi. Har bir rol diniy g'oyalarni tarixiy kontekstda ifodalaydi. O'qituvchi Critical Thinking savollarini beradi: "Agar siz o'sha davrda yashagan bo'lsangiz, qaysi din sizga yaqin bo'lardi? Nega?"

**Venn diagrammasi orqali tahlil.** Maqsad dinlarning umumiylik va farqlarini mantiqan ajrata olish, analitik tafakkurni rivojlantirish.

Amaliy faoliyat: Zardushtiylik, Buddaviylik va Moniylik uchun Venn diagramma chiziladi. O'quvchilar muqaddas kitob, asosiy g'oya, marosim, xudolar haqidagi qarashlar kabi mezonlar asosida taqqoslaydi. Google Jamboard yoki Padlet platformalarida raqamli diagramma yaratiladi.

Baholash: Concept Comparison Rubric asosida tahlil fikrlash baholanadi.

- **Manba tahlili (Source Analysis)** Maqsad: Asosiy tarixiy manbalar bilan ishlash, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, "historical literacy"ni rivojlantirish.

Amaliy faoliyat: "Avesto" va "Mani kitoblari"dan parchalar asosida matn tahlili. O'quvchilar muallif qarashlari, tarixiy kontekst va bugungi kun bilan bog'liqligini aniqlaydi. Think-Pair-Share usuli orqali umumiy xulosalar shakllantiriladi.

Baholash: Cambridge Source Evaluation Framework asosida (mualliflik, kontekst, ishonchlilik, dalillar).

- Raqamli testlar (Kahoot, Quizizz)

Quyida ushbu — Nasroniylik (Xristianlik), Buddaviylik, Zardushtiylik, Shamanizm, Moniylik, Totemizim — uchun **taqqoslovchi jadval** va **Venn diagrammasi asosiy mazmuni** keltirilgan.

**O'xshashlik va farqlilik**

O'xshash tomonlar	Farqli tomonlar
Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash g'oyasi mavjud (Zardushtiylik, Moniylik, Xristianlik)	Buddaviylikda Xudo tushunchasi yo'q, insonning ichki uyg'onishi muhim
Axloqiy poklik va halollikka da'vat (deyarli barchasida)	Totemizim va Shamanizmda Xudo emas, ruhlar yoki totem markazda
Ruh, jon, ma'naviy kuch haqidagi tasavvurlar (hammasida mavjud)	Zardushtiylik, Moniylik va Xristianlikda vahiy va yozma kitob mavjud
Ezgulik va tinchlikka da'vat	Shamanizm va Totemizim ibtidoiy diniy qarashlar, Buddaviylik esa falsafiy yo'nalishdir


**Zardushti Moniylik Animizm Fetisizm Totemizm Shomonlik Buddaviylik**

Ekologiya Madaniyat Tabiatni Merosni Hayvonlar Ruhiiy Tinchlik

Poklik sintezi tirik deb asrash himoyasi uyg'unlik Empatiya

Ezgulik Dialog bilish Artefakt Biodivers Mehr Nirvana


O'rganganimizdan xulosa chiqaramiz



1. Siz tanishgan turli diniy e'tiqodlarni birlashtirgan umumiy g'oya nimada deb o'ylaysiz? Infografika asosida javob bering.

2. Har bir diniy e'tiqod turlarining o'ziga xosliklari haqida fikringizni bildiring.
3. Infografikada tasvirlangan rasmlarni qaysi din ekanligini aniqlang.

**Venn diagrammasi mazmuni (uchta asosiy doira orqali ko'rsatish mumkin):**



**Doira 1 – Diniy tizimlar:** Nasroniylik, Zardushtiylik, Moniylik — **vahiy asosidagi dinlar, Xudo g'oyasi mavjud.**

**Doira 2 – Falsafiy yo'nalishlar:** Buddaviylik — **ichki ruhiy poklanish, nirvana g'oyasi bilan ajralib turadi.**

**Doira 3 – Ibtidoiy e'tiqodlar:** Shamanizm, Totemizm, Wamanizm — **tabiat va ruhlarga sig'inish, totem va ruhlar bilan aloqa [12].**

Kesishgan joylarda:

**Barcha doiralarda umumiy jihat:** ezgulik, axloqiylik, insoniylik qadri.

**Vahiy dinlari va ibtidoiy e'tiqodlar kesishmasi:** ruh va yovuz kuchlarga qarshi kurash.

**Buddaviylik va Zardushtiylik kesishmasi:** insonning o'zini poklash va yomonlikdan uzoqlash g'oyasi.

**Dars uchun foydalanish usuli:**

1. O'quvchilar soniga qarab 4 yoki 7 ta katta yoki kichik guruhga bo'linadi — har biri bitta dinni o'rganadi.

2. Guruhlar o'z e'tiqodining asosiy xususiyatlarini plakatga yozadi.

3. O'qituvchi yoki o'quvchilar **Venn diagrammasida** o'xshashliklarni joylashtiradilar.

4. Yakuniy xulosa:

👉 Har bir din va e'tiqod insonni ezgulikka, axloqqa va tinchlikka chaqiradi.

**Xulosa.** VI–VII asrlarda Turon xalqlarining diniy hayoti — bu tolerantlik, madaniy xilma-xillik va ma'naviy uyg'unlikning o'ziga xos timsolidir. Diniy bag'rikenglikni shakllantirishda turli dinlarning o'xshash va farqli jihatlarini solishtirish, o'quvchilarda hurmat, bag'rikenglik va dini pluralizm tushunchalarini rivojlantiradi. Masalan, Xristianlik, Buddaviylik, Zardushtiylik va boshqa e'tiqod tizimlarida ezgulik, halollik va insonparvarlik qadriyatlarini mavjudligini ko'rsatish, ularni jamiyatda tinchlik va hamkorlik asosida ishlatishga yordam beradi. Madaniy va tarixiy bilimni mustahkamlashda har bir din o'zining tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstida shakllangan. Turli dinlarni solishtirish orqali o'quvchilar xalq tarixini, urf-odatlarini, madaniy merosini yaxshiroq tushunadi. Axloqiy va ma'naviy tarbiyada Venn diagrammasi yordamida dinlarning umumiy axloqiy qoidalarini ajratib ko'rsatish mumkin: adolat, yaxshilik, halollik, sabr va kechirim. Bu o'quvchida ma'naviy ongini rivojlantiradi, zamonaviy hayotda duch keladigan murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Ijtimoiy barqarorlik va muloqotda turli dinlar va e'tiqod tizimlarini solishtirish ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, diniy nizolarni kamaytiradi. O'quvchilar diniy o'xshashliklarni ko'rib, madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni qadrlashga o'rganadilar. Ta'lim jarayonini interfaol qilishda Venn diagrammasi — bu murakkab ma'lumotlarni grafik tarzda, sodda va tushunarli shaklda ko'rsatish imkonini beradi. O'quvchilar mustaqil tahlil qiladi, tashqi manbalarni o'rganadi, taqqoslaydi va xulosaga keladi. Shu bilan ularning tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmasi rivojlanadi. Global va zamonaviy ahamiyatida dunyo globallashib borayotgan davrda turli dinlarni tushunish va ularni solishtirish ixtiloflarni kamaytirish, tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishda muhimdir. Xalqaro diplomatiya, madaniyatlararo dialog, xalqaro tashkilotlarda ish olib borish va jamiyatda bag'rikenglikni targ'ib qilish uchun ilmiy asos yaratadi. Shaxsiy rivojlanish va dunyoqarashni kengaytirishda turli e'tiqodlarni o'rganish o'quvchilarda tanqidiy va keng fikrlash, madaniyatlarni hurmat qilish, empatiya va global ongini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o'z dinini va e'tiqodini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Turli dinlarning o'xshash va farqli jihatlarini solishtirish nafaqat ilmiy va ma'naviy o'quv jarayonini boyitadi, balki ijtimoiy, madaniy va global jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali o'quvchilarda diniy bag'rikenglik va hurmatni o'rganadi, Axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni qadrlaydi. Tarixiy va madaniy bilimlarni mustahkamlaydi, tanqidiy fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, Global va zamonaviy hayotda tinchlik, hamkorlik va madaniyatlararo tushunishni qo'llashga tayyor bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston tarixi: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ta'lim muassasalarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. TOSHKENT – 2023
2. Avesto. Toshkent: Fan nashriyoti. (1991).
3. Boyce, M. Zoroastrians: Their religious beliefs and practices. Routledge. (2001).
4. Foltz, R. Religions of the Silk Road. Palgrave Macmillan. (2010).
5. Harmatta, J. History of Civilizations of Central Asia. UNESCO. (1994).
6. Dani, A., & Masson, M. History of Civilizations of Central Asia. UNESCO. (1999).
7. Sagdullaev, A. O'rta Osiyo qadimgi diniy qarashlari. Toshkent. (2000).
8. UNESCO. Global Citizenship Education. (2015).

9. Armstrong, K. The Great Transformation: The Beginning of Our Religious Traditions. New York: Knopf. (2006). Pages. 23–78, 101–145, 200–245.
10. Eliade, M. The Sacred and the Profane: The Nature of Religion. New York: (1957). Harcourt. Pages. 11–35, 50–90.
11. Smart, N. World Religions: Eastern Traditions. Cambridge University Press. (1998). Pages.10–55, 60–85, 120–150.
12. Bowker, J. (1997). The Oxford Dictionary of World Religions. Oxford: Oxford University Press. Pages. 45–60, 75–90, 150–170
13. Hinnells, J. R. (2005). The Zoroastrian Diaspora: Religion and Migration. Oxford: Oxford University Press. Pages. 15–50, 70–90
14. Harvey, P. An Introduction to Buddhism: Teachings, History and Practices. Cambridge University Press. (2013). Pages. 5–35, 40–65

UDC 37.091.33:373.3

**THE RISE OF BLENDED LEARNING IN ENGLISH EDUCATION**

*N.O.Masharipova, PhD, Urgench state pedagogical institute, Urgench*  
*M.D.Boynazarova, student, Urgench state pedagogical institute, Urgench*

*Annotatsiya. Ingliz tilini o'rganish jarayonida aralash o'qitish – an'anaviy sinf darslari bilan onlayn faoliyatlarni birlashtirgan metod – tobora mashhur bo'lib bormoqda. Ushbu usul moslashuvchanlikni ta'minlaydi, talabalar ishtirokini rag'batlantiradi va o'quvchilarga til ko'nikmalarini mustaqil ravishda mashq qilish imkonini beradi. Shaxsiylashtirilgan o'qish va yaxshilangan progressni kuzatish uning ko'plab afzalliklaridan faqat ikkitasi bo'lsa-da, noaniq raqamli ko'nikmalar va cheklangan internet imkoniyatlari kabi qiyinchiliklar ham mavjud. Ushbu maqolada aralash o'qitishning afzalliklari va qiyinchiliklari muhokama qilinadi.*

*Kalit so'zlar: aralash o'qitish, ingliz tili ta'limi, onlayn o'qish, inf darsi, talabalar ishtiroki, ta'limda texnologiya.*

*Аннотация. В процессе изучения английского языка смешанное обучение – метод, объединяющий традиционные занятия в классе с онлайн-активностями – становится всё более популярным. Этот подход обеспечивает гибкость, способствует участию студентов и позволяет учащимся самостоятельно практиковать языковые навыки. Персонализированное обучение и улучшенный контроль прогресса – лишь два из многих его преимуществ, но также существуют такие проблемы, как недостаточные цифровые навыки и ограниченный доступ к интернету. В этой статье рассматриваются как преимущества, так и трудности смешанное обучение.*

*Ключевые слова: смешанное обучение, обучение английскому языку, онлайн-обучение, занятия в классе, участие студентов, технологии в образовании.*

*Abstract. In English learning process, blended learning – which combines traditional classroom learning with online activities – has grown in popularity. This method offers flexibility, promotes student participation and lets students exercise their language abilities on their own. Personalised learning and improved progress tracking are only two of its many benefits, but there are also issues like inconsistent digital skills and restricted internet access. In this article, both the advantages and difficulties of blended learning are covered.*

*Key words: blended learning, English education, online learning, classroom instruction, student engagement, technology in education.*

**Introduction.** Blended learning has become the most discussed approaches in teaching languages. By combining traditional classroom learning with online activities, it creates a learning atmosphere which is flexible, adaptable and engaging. The term “blended learning,” also referred to as “hybrid learning,” represents a combination of F2F and online learning activities where computer-mediated activities replace “seat-time” in the classroom. It is the “blend” that makes each course unique; thus, blended/hybrid courses can take on different attributes. For example, a course might include online discussions, tutorials and research activities, and student responses to a podcast or video. The combination of online and F2F activities is almost limitless [1]. As digital technologies

are getting to expand in education, blended learning offers both teachers and students new opportunities to enhance the quality of instruction.

**Relevance of the topic and current situation.** Relevance of the blended learning is closely associated with the growing demand for flexible and modern teaching methods. Many students struggle with keeping up with traditional lessons because they have different levels and different learning speeds. Blended learning helps to solve this problem by allowing learners to study both in class and independently online. There is a question among students: “What is the difference between online courses and blended learning?” Online courses are those in which at least 80 percent of course content is delivered online,” whereas blended/hybrid learning “has between 30 and 80 percent of the course content delivered online with some face-to-face interaction.” [2]. Today, many educational institutions are already using learning platforms, mobile apps and digital resources to gain knowledge in languages. For instance, teachers give information about particular topic in classes and students can strengthen their knowledge in that topic by playing kahoots and quizzes in quizzlet or bots. But there are some challenges such as limited internet access, lack of proper training for teachers and different level of digital literacy. They affect the effectiveness of the method. For building an effective blended learning program, firstly, educational institutions should know what learners need, secondly they should organize trainings for teachers and teach students from their first grade for digital skills. There are five most common types of blended learning:

- 1) Flipped model;
- 2) Face-to-face driver model;
- 3) Rotational model;
- 4) Flex model;
- 5) Enriched virtual model.

Each of them is vital and effective in acquiring language skills. In the first model, traditional classroom method is changed. Students first gain theoretical knowledge out of classroom, usually by online lectures and video lessons. Then in classroom, they spend their time in active learning, they make group discussions, exercises related to the topic and reinforce the gained knowledge.

Because of the majority of training is conducted in a classroom under the control of teacher, face-to-face model is similar with traditional classroom training. This model especially beneficial for students who cannot understand the topic without instructor’s help.

In rotational model, students alternate between various learning modes, including in-person instruction, online exercises, small-group discussions, and individual study. These rotations may follow a set timetable (daily or weekly, for example) or be contingent on the advancement of the students. Employees can work in the modality that best meets their needs at any given time thanks to its flexibility and support for different learning styles.

By flex model, learners have a great deal of autonomy and choice over their learning path. When necessary, it blends online instruction with in-person assistance. An adaptive learning platform is appropriate for self-paced learning since it allows students to select when and where to access online resources and content. When necessary, instructors can help students navigate the content and overcome any obstacles.

When it comes to enriched model, students attend in-person lectures or workshops at specific times for practical exercises, tests, or group projects, the majority of the learning takes place virtually. This approach guarantees that students receive individualised instruction and opportunities for group engagement by combining the flexibility of online learning with the advantages of face-to-face interaction.

**Experimental part.** Over the course of four weeks, a small group of English language learners was monitored in order to investigate how blended learning actually operates. The students performed online tests, movies, and exercises at home in addition to attending regular lessons twice a week. The online assignments were chosen to complement the subjects taught in class and promote self-study. Students were invited to use mobile applications to practice vocabulary, check online grammar explanations, and take part in brief online discussions throughout the trial. The software tracked their activity, and the instructor gave them comments online and in class. Through interactive elements

such as discussion boards, group projects, or live sessions, blended learning encourages collaboration and peer-to-peer learning, enhancing problem-solving and knowledge-sharing among employees [3]. Furthermore, practicing new vocabularies in both classroom and online lessons gives more effect. Using wide variety of digital activities helps to make lessons more enjoyable, especially for students who likes interactive tasks. The most significant factor is the chance of working at their pace: slower learners catch up and faster students can move ahead.

**Results obtained.** There were a number of improvements in the outcomes. The majority of students stated that using the internet resources allowed them to practise at their own pace and better comprehend the sessions. Particularly among students who were typically shy during class discussions, their participation rose. Students performed more practice tasks than typical homework, according to the platform data. Nonetheless, a few issues were identified. Due to internet restrictions, some students struggled to regularly use the platform, and others required assistance learning how to utilise digital tools efficiently. Overall, grammar, vocabulary, and involvement all improved in spite of these difficulties. Blended learning allows students to have some control over the time, place, path, and pace of their learning [4]. Both of methods are useful on their time. In traditional classroom, students can make face-to-face interaction and active learning, while in online classes helps to learn byself. If the strengths of these two approaches are integrated in a pedagogically well-designed plan, the engagement of learners in learning increases to a large extent. That teachers and learners are working together through using mixed delivery instructions provides an ample amount of opportunity to foster learning outcomes. Furthermore, if this delivery is supported by interaction, activities and assignments learners are offered favourable learning conditions. Put the matter in another way, blended learning through using online and face-to-face modes of delivery which are reinforced with appropriate learning tasks help learners develop their learning [5].

**Conclusion.** In conclusion, blended learning provides great potential for improving English language learning. It offers flexibility, boosts student motivation, and encourages independent learning. The study showed that blended learning can increase the effectiveness and engagement of lessons, even though obstacles like internet access and computer skills still remain. With the right preparation and assistance, this method can become a crucial component of teaching English in the future. Blended learning has the potential to fundamentally redesign teaching and learning, offering richer educational experiences than either mode alone [6].

#### REFERENCES:

1. Northern Illinois University Center for Innovative Teaching and Learning. (2012). Blended and distance learning. In Instructional guide for university faculty and teaching assistants. Retrieved from
2. Northern Illinois University Center for Innovative Teaching and Learning. (2012). Blended and distance learning. In Instructional guide for university faculty and teaching assistants. Retrieved from whatfix.com. Blended Learning for Enterprises: Models, Examples, & Implementation by Disha Gupta. Last Updated: September 4, 2025
3. Blended: Using Disruptive Innovation to Improve Schools (2014) (p. 34)
4. International Journal of Social Sciences & Educational Studies. December 2020, Vol.7, No.4. (p.104)
5. Blended Learning: Uncovering Its Transformative Potential in Higher Education. 2004. (p.96)

UO'K 37.015:929Ибн Сина

#### IBN SINONING PEDAGOGIK QARASHLARI

*B.M.Negmatov, prof., f.f.d.(DSc), Sarbon universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** *Maqolada buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaning jamiyat hayotida nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishi, inson ma'naviy kamolotida ilm-fanning tutgan o'rni hamda uning o'rta asr Sharq pedogogikasi rivojiga qo'shgan hissasi amaliy misollar yordamida mufassal tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim, tarbiya, ilm-fan, xulq-atvor, pedogogika, shaxs, axloqiy ideal, risola, ma'naviy kamolot, globallashuv.*

**Аннотация.** *В статье подробно, на практических примерах, анализируются взгляды великого мыслителя Абу Али Ибн Сины на важность образование в жизни общества, роль науки в духовном развитии человека и его вклад в развитие средневековый восточной педагогике.*

**Ключевые слова:** образование, воспитание, наука, педагог, поведение, человек, моральный идеал, брошюра, духовная зрелость, глобализация.

**Abstract.** The article analyzes in detail, using practical examples, the great thinker bu Ali Ibn Sina's view of the importance of education in the life of society, the role of science in the spiritual development of man and his contribution to the development of medieval Eastern pedagogy.

**Key words:** education, science, behaviour, pedagogy, person, moral ideal, pamphlet, spiritual maturity, globalization.

**Kirish.** O'rta asr Sharq pedagogikasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan allomalardan biri Abu Ali ibn Sinodir. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlari "Uy-ro'zg'or tutish tadbirlari" (رسالة تدبير المنزل) risolasida o'z aksini topgan [1]. Unda uy va oila tadbirlari, er-xotinning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari, bir-birlarini hurmat qilishlarining bola tarbiyasida muhim roli, ayolning oila va jamiyatdagi roli kabi masalalar yoritiladi [2].

Allomaning ta'kidlashicha, ayollar hamma yerda erkaklarning munosib hamrohi, sodiq do'sti va oilaning mustahkam bo'lishi hamda bolalarni tarbiyalashda uning eng yaqin yordamchisi bo'lishi kerak. Ibn Sino o'zining ushbu asarida ayollarning erishishi lozim bo'lgan o'n yetti ajoyib axloqiy xislatlarini sanab o'tadi. Chunonchi, ayol oqila va e'tiqodli, sharm-hayoli va or-nomusli, ziyrak va farosatli, yoqimtoy, o'z eriga mehr-muhabbat qo'ygan, farzand ko'ra oladigan, ezma bo'lmagan, itoatkor, dili pok, bexarxasha, pokiza, vazmin va o'zini tutib olgan, jiddiy va ulug'vor, har bir xatti-harakatida o'zining yaxshi xislatlari bilan ajralib turadigan, tejamkor, erining birini ikki qiladigan, og'ir damlarida unga malham bo'la oladigan, mushfiqu-mehribon bo'lmog'i kerak.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ibn Sino ayollarning dindorligini emas, balki oqilaligini maqtaydi. Oqila bo'lmagan ayol hayotda o'z erining ishonchli yordamchisi bo'la olmaydi, deydi u. Shuningdek, buyuk olim er-xotinning bir-birlariga munosabatlari sevgiga, vafoga asoslangan bo'lsagina oila mustahkam bo'lishi mumkinligini uqtiradi. Ibn Sino er-xotinning bevafoqligini qattiq qoralaydi, ayollar erkaklar bilan bo'lishlari kerakligini aytadi.

Mutafakkirning "Tadbir-e manzil" risolasida inson tabiati azaldan axloqli yoki axloqsiz bo'lmaydi, degan g'oya muhim o'rin egallaydi. Aslida odamlar tayyor shaxsiy sifat, odat va ko'nikmalar bilan tug'ilmaydilar. Bunday xususiyatlar ularning ijtimoiy hayotida shaxsiy va o'zgarlar tajribasi, avvalgi ajdodlar an'analari, muntazam ravishda amalga oshiriladigan samarali ta'lim-tarbiya vositalarining ijobiy ta'sirida inson o'zida ijobiy axloqiy xislatlarni asta-sekin shakllantiradi yoki, aksincha, "yomon do'stlar", yomon muhit ta'sirida salbiy odatlar, mijoz va kayfiyatlarining quliga, sohibiga aylana boradi [3].

Ibn Sinoning fikricha, bolalar tarbiyasini paysalga solmay, barvaqt boshlagan maqsadga muvofiqdir. Tarbiyalash jarayonida ularga yaxshi ijobiy odatlar va ko'nikmalarni izchillik bilan singdirib borish, o'ta sinchkovlik bilan ulardagi ishtiyoq va qiziqishni payqab olishga va ulardan samarali foydalanishga harakat qilish, hayotda nafi tegadigan muayyan hunar va san'atni egallab olishga yo'naltirish zarur va o'ta muhimdir. "Bolani tana bo'g'inlari barqaror, uning tili to'g'ri-ravon gapirish va quloqlari tinglash va o'zgarlar so'zlarini qabul qilish hamda o'rganilayotgan narsaga tabiiy moyillik paydo bo'lgan paytdan boshlab ilmlar va axloq-odob asoslariga o'rgatib borish lozim" [4].

**Tahlil va natijalar.** Buyuk alloma ajdodlarimizning an'alariga tayangan holda ta'lim-tarbiyani Qur'oni Karimni, dinning maqsadi va tilning grammatik qonun-qoidalarini qunt bilan o'rganishdan boshlashni ma'qul deb biladi. Bola asta-sekin o'z ona tilining, xorijiy tillarning qonun-qoidalari asoslarini egallab olib, tibbiyot va geometriya kabi ilm sohalarining o'ta muhim jabhalariga qadam-baqadam yetib borishi shart sanaladi. O'rganilayotgan sohalarini yod olish, uni xotirada saqlash va kezi kelganda tez-tez takrorlab turish, bilim ham tarbiyada muhim ahamiyat kasb etadi, bola xotirasini mustahkamlaydi, ilmlar sarchashmasiga kirib borishini ta'minlaydi, tarbiyalanuvchida muayyan tartib-intizomni shakllantiradi, bahs-munozaralar yuritish madaniyatini yuksaltiradi, sabr-qanoatli bo'lishga o'rgatib boradi.

Abu Ali ibn Sinoning ta'kidlashicha, bilimdonlik bolalar ta'lim-tarbiyasining barcha bosqichlarida zarur va e'tiborga molikdir. Birinchidan, o'z bilimlari, hayotiy ko'nikmalari tufayli ot-onalar to'g'ri va uddaburonlik bilan zukko tarbiyachilarni tanlay olish imkoniyatini qo'lga kiritadilar,

chunki tarbiyachining o'zi axloq-odob bobida boshqalarga ibrat bo'lmog'i va uning turmush tarzi risoladagidek bo'lmog'i shartdir. Tarbiyachi yoki enaga sog'lom, zukko, aqlli bo'lsa, uning oldiga qo'yilgan maqsadga erishishi oson kechadi. Maqsadga erishish borasida doim ham bir xil tadbirni qo'llash samara beravermaydi. "Tarbiyachi vaziyatdan kelib chiqib ba'zan bolani jazolab, ba'zan esa rag'batlantirib turishi lozim. Fursat kelganda vaqtida uni maqtab, ba'zan esa qattiqqo'llik qilib, o'z vaqtida kamchiliklarini kechirib borishi ma'quldir" [5]. Zero, murabbiyning qattiqqo'lligini beshafqatlilik va bemehrlik nuqtayi nazaridan tushunmaslik lozim. Aslida bemehr murabbiy xizmatiga murojaat etish adashgan holda o'ta nozik va mas'uliyatli vazifani nodon-johil kishilar zimmasiga ishonib topshirish demakdir.

Ikkinchidan, bilimdonlik tarbiyachiga suv va havodek zarur va foydali vosita hisoblanadi. Tarbiyalanuvchini to'g'ri yo'lga yo'naltirish yo'l-yo'riqlari, uslub va vositalarini yaqqol his qilish doimo aqlli kishining tadbirkorligidan darak berib turadi. Oddiy so'zamollik, mavhum pand-nasihatlar tarbiyaning zavolidir, uning hosilasi pirovard natijada qayg'u-tashvishdan iborat. Pand-nasihatlar tarbiyalanuvchining tanholik, ruhiy xotirjamlik, qulay vaziyat paydo bo'lgan paytida olib borilgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishiladi. Uning tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarga kelsak, ularni ochiq-oydin tuzatishga undash, tarbiyalanuvchi o'quvchiga bu kamchiliklarni aniq-ravshan qilib ko'rsatib berish, ularni o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini avvaldan belgilab olish, shu bilan birga bu kamchiliklar kelajakda unga qanday zarar keltirishi mumkinligini tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Tarbiyalanuvchi yo'l qo'ygan kamchiliklarni tuzatish niyatida salbiy misollar va namunalardan foydalanish befoydadir. Bordi-yu, tarbiyalanuvchida so'z tilsimi va qabul qilingan tadbirga qiziqish zo'r ishtiyoq uyg'otsa, bilingki, ta'lim-tarbiya zamini tayyor, bemalol maqsadga, ayni muddaoga o'tish ta'minlangan.

Tarbiyaga putur yetkazadigan omillardan biri – bu siyqasi chiqqan so'z, iboralar, nasihatlarining joiz-nojoiz takrorlanishi. Natijada ular o'zlarining ta'sirchanlik kuchini yo'qotadi, tarbiyalanuvchida loqaydlik kayfiyatini tug'diradi. Murabbiy navbatdagi pand-nasihatlardan keyin tarbiyalanuvchini har tomonlama o'ylab ko'rishga, mulohazalar yuritishiga erishishi foydadan holi emas. "Agar do'sting yoki suhbatdoshing so'zlaringga va pand-nasihatlariga va ularning maqsadiga e'tiborini jalb qilmayotgan ekan, bunday suhbatni boshqa paytga ko'chir" [6], – deb maslahat beradi Ibn Sino. Chunki o'z-o'zidan ma'lumki, bemavrid aytilgan so'z, pand-nasihatning tarbiyalanuvchining "qitiq pati"ga ta'sir etadigan tilsimli ta'sir kuchi bo'lmaydi. Unga ta'sir eta oladigan so'z, ibora, nasihatni o'z vaqtida va qay tarzda amalga oshirish murabbiyning malakasi, masalaga qanday yondashishi va iqtidoriga bog'liq.

Uchinchidan, o'z xulq-atvoridagi kamchiliklarni bartaraf etishni, o'zida yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishni dildan orzu qilgan kishilar haqiqiy bilimlarga, pand-nasihatlariga muhtojlik sezadilar. Ibn Sino inson xulq-atvori, axloqiy me'yorlari, yaxshilik va yomonlik, yovuzlik tayanch nuqtalari, o'ziga xos xususiyatlari, qonun-qoidalari batafsil ochib berilmaganligini uqtirib o'tadi. Inson ko'pincha o'z sa'y-harakatlaridan kelib chiqadigan oqibatlardan bexabar qoladi, natijada o'ziga va o'zgalarga moddiy va ma'naviy zarar yetkazadi. Buning sababi inson hayotining qisqaligi, uni abadiylikka qiyoslaganda go'yoki bir daqiqadek. Hayot odamlar oldiga o'z yechimini kutayotgan qator mushkul muammolarni qalashtirib tashlaydi. Bunday vaziyatda yo'l qo'yilgan shoshqaloqlik, mulohazasiz hukm chiqarish pirovard natijada salbiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun inson aql-farosati, o'zining tashqi va ichki qiyofasini doimo kuzatib borishi va o'zining xulq-atvorining muayyan me'yor darajasida ekanligiga ishonch hosil qilib turishi lozim.

**Xulosa va takliflar.** Ibn Sinoning qayd etishicha, inson muayyan jamiyatning mahsulidir. Inson uni qurshab olgan ijtimoiy muhit – kishilarning bevosita ta'sirida ta'lim-tarbiya oladi, voyaga yetadi, shaxs bo'lib shakllanadi va muayyan maqsadni ko'zlaydi. Agar jamiyatning bu ta'siri xosiyatli bo'lsa va inson uning ma'naviy-axloqiy talablarini o'zi uchun begona deb bilmasa, uning ma'naviy kamoloti behad darajada tezlashadi. U ortiqcha qiyinchiliklarsiz, behuda sa'y-harakatlarsiz o'z kamchiliklaridan xalos bo'ladi, axloqan halol va pok inson sifatida voyaga yetadi, unda yuksak axloqiy fazilatlar va aqliy kamolot birligi, mushtarakligi g'olib keladi. Bunday ilm bilan yo'g'rilgan axloq birligi har qanday ta'lim-tarbiyaning ideali bo'lib qolmog'i lozim. Inson va jamiyatning

maqsad-muddaosi va axloqiy ideali bir-biriga zid kelib qolgan taqdirda jamiyat hayoti parokandalikka yuz tutadi va kishilarning axloqiy kamolotiga putur yetadi [7].

Xulosa qilib aytganda, teran tafakkur, yuksak iste'dod va jasorat sohibi bo'lgan buyuk allomamizning pedagogikaga oid g'oyalari nafaqat o'z zamonasida, balki bugungi kunda ham o'ta dolzarb bo'lib, boisi bu g'oyalar yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularda insoniy fazilatlarini shakllantirishda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ибн Сино. Рисола тадбир-э манзил (رسالة تدبير المنزل). Асарнинг тошбосма нусхаси ЎЗР ФА Абу Райҳон Бериуний номидаги Шарқшунослик институти қўлғезмалар фондида № 11763 рақами остида сақланмоқда.
2. Мирзаев С. Ибн Синонинг Шарқшунослик институтидаги мавжуд асарлари (библиография). – Т., 1955, 24-бет.
3. Носиров Р. Абу Али ибн Синонинг табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009, 24-бет.
4. Антология педагогической мысли Узбекистана. – Т.: Фан, 1986, 86-бет.
5. O'sha asarda, 85-бет.
6. Носиров Р. Абу Али ибн Синонинг табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009, 26-бет.
7. O'sha asarda, 26-бет.

UO'K 37.091.3:372.6

### BOSHLANG'ICH TA'LIMDA DIDAKTIK O'YINLARNI TASHKIL QILISH ORQALI O'QUVCHILARNING BOG'LANISHLI NUTQINI O'STIRISH S.X.Ollaberganova, prof., Urganch davlat universiteti, Urganch

**Annotatsiya.** Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini shakllantirishga oid nazariy va metodik asoslarni yoritish, boshlang'ich ta'limda bog'lanishli nutqni rivojlantirish usullari va ularning asosiy vazifalarini aniqlash, didaktik o'yinlardan foydalanish orqali bog'lanishli nutqni o'stirish jarayonini samarali tashkil etish, boshlang'ich sinflarda ko'rgazmalilik, o'quvchilarning faolligini oshirish, tahlilda individual yondashish tamoyillari o'qitish jarayonida qo'llanadigan metod va usullarni belgilab berilishi aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, adabiy tushunchalar, bog'lanishli nutq, ko'rgazmalilik, o'quvchilarning faolligini oshirish, o'qitish metod va usullari va hk.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы формирования связной речи у учащихся начальных классов. Определяются методы и основные задачи развития связной речи в начальном образовании, а также раскрываются вопросы эффективной организации процесса её формирования посредством использования дидактических игр. Кроме того, в статье отражены вопросы применения наглядности в начальных классах, повышения активности учащихся, реализации принципов индивидуального подхода в процессе анализа, а также определения методов и приёмов, используемых в учебном процессе.

**Ключевые слова:** речь, литературные понятия, связная речь, наглядность, повышение активности учащихся, методы и приёмы обучения и др.

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations of developing coherent speech in primary school pupils. It identifies the methods and key objectives of fostering coherent speech in primary education and discusses the effective organization of this process through the use of didactic games. In addition, the article highlights the use of visual aids in primary classes, ways to increase pupils' learning activity, the application of the principle of an individual approach in the process of analysis, as well as the identification of teaching methods and techniques used in the instructional process.

**Key words:** speech, literary concepts, coherent speech, visual aids, increasing pupils' activity, teaching methods and techniques, etc.

Zamonaviy boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning muloqotga kirishish, fikrini mustaqil ifoda etish, mantiqiy fikrlash va matn yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb

etmoqda. Ayniqsa, ona tili darslarida bog'lanishli nutqni o'stirish orqali o'quvchilarning til va tafakkur salohiyatini yuksaltirish mumkin. Bu borada didaktik o'yinlar eng samarali metodik vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, mantiqiy mushohada yuritish qobiliyatini rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutqni rivojlantirish dolzarb vazifa bo'lib, bu borada didaktik o'yinlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yinlar – bu ta'limiy maqsadga yo'naltirilgan, bolalarda bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlashga xizmat qiladigan o'yinlardir. Ular ta'lim jarayonini jonlantiradi, bolalarning diqqat-e'tiborini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.

Didaktik o'yinlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Leksik o'yinlar (so'z boyligini oshirish);

Grammatik o'yinlar (tuzilish va qo'llanilishini o'rganish);

Matn asosidagi o'yinlar (hikoya tuzish);

Rasm asosidagi o'yinlar (tasvir asosida gapirish);

Rolli o'yinlar (ijodiy nutq).

Didaktik o'yinlar bola shaxsining shakllanishida muhim va samarali vosita hisoblanadi. Chunki har qanday davrda, har qanday millat va mamlakatdagi bolalar o'yin faoliyatini eng asosiy faoliyat turi sifatida qabul qiladilar. Bola atrofdagi olamni o'yin orqali o'rganishga intiladi, bu jarayonda uning nutqi, tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashi rivojlanadi.

Ilmiy nazariy va amaliy jihatdan didaktik o'yinlardan foydalanish bolaning bilish qobiliyatini shakllantirish uchun eng samarali vosita ekanligini tushunadigan tarbiyachilar o'z mashg'ulotlarida ularni faol qo'llaydilar. Biroq ta'lim vositasi sifatida didaktik o'yinlardan foydalanish doimo o'rganishga, tajribadan o'tishga va takomillashishga muhtojdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil etishda didaktik o'yinlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Dars jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning aqliy salohiyatini oshirish, zukkolik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

O'yin jarayonida o'quvchilar qat'iy o'yin qoidalariga amal qilishni o'rganadilar, bu esa ularning fikrlash tarzini, his-tuyg'ularini va dunyoqarashlarini shakllantirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlarni ta'lim jarayoniga mos ravishda tashkil etish esa bilim olishni yengillashtiradi, ko'rgazmalilikni ta'minlaydi va o'quvchilarni zeriktirmaslikka xizmat qiladi. O'yin orqali amalga oshiriladigan ta'limiy maqsadlar didaktik o'yinlarning eng asosiy jihatidir. Didaktik o'yinlarning shakllari va usullari boshqa ta'lim turlaridan farq qiladi. Ularning ko'pligi, takrorlanishi va o'zgartirilish imkoniyati bu usullarni yanada samarali qiladi.

Didaktik o'yinlar bog'chadagi ijodiy o'yinlardan va o'qituvchining hikoya qilib tushuntiradigan o'yinlardan farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasini bajarib, darslarni qiziqarli, tushunarli va maroqli qiladi. Bolalar g'olib bo'lish uchun jon-dil bilan harakat qiladilar, berilgan topshiriqlarni bajarishga odatlanadilar va didaktik mashqlarga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar har bir dars va mashq maqsadini yaxshiroq anglashga yordam beradi. Ular ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik, o'qituvchining so'z va harakatlarini o'zida jamlaydi, bu esa bolalarning eshitish, ko'rish va sezgi orqali o'rganishlarini oshiradi. Natijada o'quvchilar o'yin qoidalarini anglab, mustaqil bajarishga undaladi.

Quyidagi o'yinlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini rivojlantirishda qo'llanilishi mumkin:

*“Tugallanmagan hikoya o'yini”*: o'qituvchi hikoyani boshlaydi, o'quvchi uni davom ettiradi.

*“Rasm bo'yicha hikoya tuzish o'yini”*: bolalarga rasm ko'rsatiladi va ular shu rasm asosida hikoya tuzadilar.

*“So'zdan gap, gapdan matn o'yini”*: berilgan so'zlar asosida gaplar tuzish va ularni bog'lab matn shaklida bayon qilish.

*“Davomini top” o'yini*

Maqsadi: Hikoya qilish ko'nikmasini rivojlantirish.

O'tkazilishi: O'qituvchi bir voqeaning boshlanishini aytadi, o'quvchilar esa uni davom ettiradilar.

Masalan: “Bir kuni kichkina qushcha...”

*“Kim ko'proq gap ayta oladi?” o'yini*

Maqsadi: So'z boyligini oshirish va mustaqil gap tuzishni rag'batlantirish.

O'tkazilishi: O'qituvchi rasm yoki predmet ko'rsatadi. O'quvchilar navbat bilan u haqda gap aytadilar. Kim ko'proq gap aytsa – g'olib.

*“Nima bo'ldi keyin?” o'yini*

Maqsadi: Voqealarni ketma-ketlikda ifodalashga o'rgatish.

O'tkazilishi: Bir necha rasm (voqealar ketma-ketligi) beriladi. O'quvchilar ularni tartib bilan joylashtirib, hikoya tuzadilar.

*“Kim gapirdi?” o'yini*

Maqsadi: Dialogik nutqni rivojlantirish.

O'tkazilishi: O'qituvchi ikki kishi o'rtasida bo'lishi mumkin bo'lgan dialogni boshlaydi, o'quvchilar uni davom ettiradi.

Didaktik o'yinlar ijodiy shaxsni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yinning takrorlanishi topshiriqni bajarishga yangicha munosabatda bo'lishini talab qiladi. Uni hal qilish zarurati esa ijodiy izlanishlarni keltirib chiqaradi. Didaktik o'yinlar orqali bolalarda tirishqoqlik, matonat va boshlagan ishni oxirigacha yetkazish kabi muhim irodaviy sifatlar shakllantiriladi. Bundan tashqari, didaktik o'yinlar o'qituvchini bolalarga yanada yaqinlashtiradi, shunday qilib, o'qituvchi faqatgina dars beruvchi emas, balki samimiy do'st sifatida qabul qilinadi. Bu esa ayniqsa, dastlabki kunlarda yuzaga keladigan yotsirash holatlarini bartaraf qilishda yordam beradi. Shu tariqa, o'yinlar bolalarda o'qituvchi va ta'limga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // Boshlang'ich ta'lim, 1998, 6-son, 12-18-betlar.
2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim).-Toshkent, 2017.-249 b.
3. Asqarova N.K. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish usullari.–2024.–B. 3.
4. Avliyaqulov N., Musayeva N. Pedagogik texnologiya.-Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2012.- 208 b.
5. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – zamonaviy o'zbek modeli. – Toshkent: “Lider Press”, 2009.

YŷK 372.881.111.1

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI O'QATISHDA DUOLINGO PLATFORMASINING QO'LLANILISHI: PEDAGOGIK TAHLIL VA AMALIY STRATEGIYALAR

*Sh.X.Omonova, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch*

**Annotatsiya.** Mazkur tadqiqot ishi 7-11 yoshli boshlang'ich maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida gamifikatsiyalashgan til o'rganish texnologiyasi bo'lgan Duolingo ilovasining o'rni va samaradorligini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu ishda platformaning pedagogik jihatlari – adaptiv o'rganish mexanizmlari, o'yinga asoslangan motivatsiya tizimlari hamda vizual ta'lim vositalari – atroflicha tahlil qilingan va ularning yosh o'quvchilarning kognitiv-psixologik rivojlanish talablariga qanchalik muvofiqligiga baho berilgan. Integratsiya usullari, amaliy tatbiqi va platformaning cheklovchilari o'rganish orqali ushbu ilmiy maqola boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga Duolingo dasturini qo'shimcha didaktik material sifatida qo'llash yuzasidan empirik asoslangan tavsiyalar taqdim etadi.

**Kalit so'zlar:** Duolingo, boshlang'ich ta'lim, gamifikatsiyalashgan o'rganish, ingliz tili o'qitish, ta'lim texnologiyasi, yosh o'quvchilar, mobil o'rganish, leksik o'zlashtirish, adaptiv algoritmlar, pedagogik innovatsiyalar

**Аннотация.** Данное исследование посвящено изучению роли и эффективности приложения Duolingo, представляющего собой геймифицированную технологию изучения языка, в процессе обучения английскому языку учащихся начальных классов в возрасте 7-11 лет. В работе подробно проанализированы педагогические аспекты платформы – механизмы

адаптивного обучения, системы мотивации на основе игр и визуальные средства обучения – и оценено, насколько они соответствуют когнитивно-психологическим потребностям развития молодых учащихся. Изучая методы интеграции, практическое применение и ограничения платформы, данная научная статья предлагает учителям начального образования эмпирически обоснованные рекомендации по использованию программы Duolingo в качестве дополнительного дидактического материала.

**Ключевые слова:** Duolingo, начальное образование, геймифицированное обучение, обучение английскому языку, образовательные технологии, молодые учащиеся, мобильное обучение, лексическое усвоение, адаптивные алгоритмы, педагогические инновации

**Abstract.** This research is devoted to studying the role and effectiveness of the Duolingo application, a gamified language learning technology, in teaching English to primary school students aged 7-11. The study thoroughly analyzes the pedagogical aspects of the platform – adaptive learning mechanisms, game-based motivation systems, and visual learning tools – and assesses how well they correspond to the cognitive-psychological developmental needs of young learners. By examining integration methods, practical application, and platform limitations, this scientific article provides primary education teachers with empirically grounded recommendations for using the Duolingo program as supplementary didactic material.

**Key words:** Duolingo, primary education, gamified learning, English language teaching, educational technology, young learners, mobile learning, lexical acquisition, adaptive algorithms, pedagogical innovations

**Kirish.** Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish jarayoni o'smirlar yoki kattalar ta'limidan tubdan farqlanuvchi o'ziga xos didaktik va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Yetti yoshdan o'n bir yoshgacha bo'lgan bolalar qisqa diqqat markaziga ega bo'lib, ular uchun muntazam motivatsion rag'batlantirish zarur, vizual va kinestetik ta'lim usuliga yuqori darajada sezgir hamda faol jalb etilganlik holatini saqlab qolish uchun operativ qayta aloqaga muhtojdirlar [1]. An'anaviy darslik asosidagi ta'lim ko'pincha ushbu rivojlanish ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi, natijada pedagoglar yosh o'quvchilarning kognitiv va motivatsion xususiyatlariga organik tarzda moslashadigan texnologik yondashuvlarni izlashga majbur bo'lmoqdalar.

Gamifikatsiyalashgan o'rganish platformalari boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli didaktik vositalar sifatida namoyish bo'ldi, ular motivatsiya va faol ishtirokni kuchaytirish maqsadida o'yin dizayni unsurlaridan – ballar, darajalar, mukofotlar, raqobat elementlaridan – foydalanadi [2]. Tadqiqot natijalari izchil ravishda o'yinga asoslangan ta'limning o'quvchilar motivatsiyasini oshirishi, o'zlashtirish natijalarini yaxshilashi va xususan yosh o'quvchilar o'rtasida barqaror jalb etilishni ta'minlashini tasdiqlaydi [3]. Gamifikatsiya asosida yotgan psixologik tamoyillar – zudlik bilan qayta aloqa, aniq maqsadlar, bosqichma-bosqich qiyinchilik va mustaqillik – ta'lim psixologiyasi tadqiqotlarida bolalarning o'rganish muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega motivatsion faktorlar sifatida aniqlangandir.

2011-yilda amaliyotga tatbiq etilgan va hozirgi kunda dunyo miqyosida 500 milliondan ziyod foydalanuvchiga xizmat ko'rsatayotgan Duolingo eng keng tarqalgan gamifikatsiyalashgan til o'rganish ilovalaridan biridir [4]. Dastlab kattalar uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, Duolingo keyinchalik yosh auditoriyaga mo'ljallangan "Duolingo ABC" va yoshga mos kontent elementlarini joriy etdi. Platformaning universal qulayligi – smartfonlar, planshetlar va kompyuterlarda bepul mavjud bo'lishi – intuitiv, o'yinga o'xshash interfeysi bilan birgalikda uni ayniqsa resurs imkoniyatlari cheklangan va o'quvchilarni faol jalb etish murakkab bo'lgan boshlang'ich ta'lim sharoitlari uchun maqbul qiladi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Hozirgi zamon globallashuv sharoitida ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida chet tillarini, xususan ingliz tilini o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini samarali o'rgatish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati mavjud. Duolingo kabi gamifikatsiyalashgan platformalarning boshlang'ich ta'limdagi o'rni va samaradorligini o'rganish bu sohada dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Tadqiqotni amalga oshirish.** Ushbu maqola O'zbekiston va xorijiy til sifatida ingliz tili o'qitiladigan shunga o'xshash kontekstlarda boshlang'ich ingliz tili ta'limida Duolingo qo'llanilishini tekshiradi. Xususan, ushbu ish Duolingo dizayn xususiyatlari yosh o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlariga qay darajada muvofiq kelishini tahlil qiladi, sinf va uyda o'rganish uchun amaliy integratsiya strategiyalarini ko'rib chiqadi hamda o'qituvchilar diqqat e'tiborini talab etadigan cheklovlarni aniqlab beradi.

Duolingo gamifikatsiya arxitekturasi ichki va tashqi mukofot mexanizmlari orqali faol ishtirokni ushlab turish uchun mo'ljallangan keng qamrovli motivatsiya ekosistemini shakllantiradi. Platforma darslarni yakunlash, kundalik mashg'ulotlar ketma-ketligini davom ettirish va aniqlik indikatorlariga erishish uchun tajriba ballari (XP) taqsimlaydi. Yosh o'quvchilar, ayniqsa operativ va aniq qayta aloqaga yuqori darajada sezgir bo'lib, yutuqlarni vizual va audio effektlar orqali doimiy bayram qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Duolingo asosidagi algoritm individual o'quvchi ishlashiga asoslangan shaxsiylashtirilgan ta'lim yo'llarini taqdim etadi, bu boshlang'ich sinflarda odatda kuzatiladigan keng qobiliyat spektrini hisobga olsak, juda qimmatli xususiyatdir [5]. Tizim har bir o'quvchining qaysi leksik birliklar, grammatik tuzilmalar va savol turlarida qiyinchiliklarni boshdan kechirayotganini kuzatib boradi, so'ngra qiyin kontent ustida ta'sirni kuchaytiradi va o'zlashtirilgan materiallarni takrorlashni kamaytiradi.

Duolingoning rangli illustratsiyalar, animatsion personajlar va vizual assotsiatsiyalardan keng ko'lamda foydalanishi boshlang'ich o'quvchilar uchun muhim didaktik qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi, chunki ular bu rivojlanish bosqichida asosan vizual protsessorlar hisoblanadi [6]. Har bir leksik birlik mos tasvirlar bilan birgalikda taqdim etiladi, bu ikki tomonlama kodlangan xotira tasvirlarini (og'zaki va vizual) yaratadi.

**Olingan natijalar tahlili.** Duolingo strategik sinf integratsiyasi orqali an'anaviy boshlang'ich ingliz tili ta'limini muvaffaqiyatli rivojlantirishi mumkin. O'qituvchilar darslarni 5-10 daqiqalik Duolingo seanslari bilan isinish faoliyati sifatida boshlashlari mumkin, bu o'quvchilarga lug'atni ko'rib chiqish yoki ilgari o'rganilgan kontentni mustaqil ravishda mashq qilish imkonini beradi [7]. Bu yondashuv ta'lim vaqtini maksimal darajada oshiradi va sinf diqqati hamda tartibini saqlaydigan maqsadli faoliyatni ta'minlaydi.

Duolingo boshlang'ich o'quvchilar uchun uy vazifasi vositasi sifatida yuqori samaradorlik ko'rsatadi va til o'rganishdagi an'anaviy uy vazifasi muammolarini bartaraf etadi. Yordam berish uchun ota-onalarning ingliz tilini bilishini talab qiladigan ish varag'i uy vazifasidan farqli o'laroq, Duolingo operativ qayta aloqa, maslahatlar va vizual qo'llab-quvvatlash orqali o'rnatilgan yordam ta'minlaydi.

Duolingoning boshlang'ich ingliz tili ta'limi uchun eng muhim cheklovi uning cheklangan og'zaki nutq va suhbat amaliyoti imkoniyatlarida yotadi [8]. Platforma o'quvchilar so'zlar yoki jummalarni takrorlaydigan talaffuz mashqlarini o'z ichiga olgan bo'lsa-da, bu nazorat qilinadigan takrorlashni ifodalaydi, haqiqiy kommunikativ interaksiyani emas. Ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich o'quvchilar keng spontan gapirish amaliyotiga muhtoj – tajribalarni tasvirlash, afzalliklarni bildirish, suhbatlarda ishtirok etish – Duolingoning strukturlangan mashqlari ta'minlay olmaydigan imkoniyatlar.

Kontent chuqurligi, keng kirish va tezkor taraqqiyot uchun optimallashtirilgan bo'lsa-da, to'liq o'quv dasturi qamrovi uchun yetarli bo'lmasligi mumkin [9]. Boshlang'ich ingliz tili o'quv dasturlari odatda aniq grammatik nuqtalar, leksik sohalar va kommunikativ funktsiyalarni o'z ichiga oladi, ularni Duolingoning umumiy kontenti tizimli ravishda qamrab olmasligi mumkin.

**Xulosa.** Duolingo asosiy o'quv dasturi o'rniga strategik ravishda qo'shimcha vosita sifatida amalga oshirilganda boshlang'ich ingliz tili ta'limi uchun qimmatli pedagogik qo'llab-quvvatlash taqdim etadi. Uning gamifikatsiyasi, adaptiv ta'limi, vizual yordami va kirish qulayligi yosh o'quvchilarni o'qitishdagi ko'plab qiyinchiliklarni, ayniqsa motivatsiya, individuallashtirish va mashq qilish imkoniyatlari bilan bog'liq muammolarni samarali hal qiladi. Biroq, muvaffaqiyatli integratsiya o'qituvchilarning cheklovlar haqida xabardorligi va qasddan didaktik rejalashtirish talab qiladi.

O'qituvchi tajribasi, o'quv dasturi mosligi va qo'shimcha faoliyatlar bilan mulohazali tarzda integratsiyalanganda, Duolingo leksik boyitish va o'quvchilar motivatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi qiziqarli, ochiq mashq imkonini taqdim etish orqali boshlang'ich ingliz tili ta'limini samarali rivojlantiradi. Muvaffaqiyat texnologiyani o'ziga emas, balki platformaning imkoniyatlari va yosh o'quvchilarning rivojlanish ehtiyojlarini chuqur tushunadigan malakali o'qituvchilar tomonidan pedagogik jihatdan asoslangan amalga oshirishga bog'liqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Pinter A. Teaching Young Language Learners. - Oxford: Oxford University Press, 2017. - 186 p.
2. Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From game design elements to gamification: Defining gamification // Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. - 2011. - P. 9-15.
3. Vandercruysse S., Vandewaetere M., Cornillie F., Clarebout G. Competition and students' perceptions in a game-based language learning environment // Educational Technology Research and Development. - 2012. - Vol. 61. - No. 6. - P. 927-950.
4. Von Ahn L. Duolingo: Learn a language for free while helping to translate the web // Proceedings of the 2013 International Conference on Intelligent User Interfaces. - 2013. - P. 1-2.
5. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
6. Paivio A. Mental Representations: A Dual Coding Approach.-New York: Oxford University Press,1986.-322 p.
7. Karpicke J.D., Roediger H.L. The critical importance of retrieval for learning // Science. - 2008. - Vol. 319. - No. 5865. - P. 966-968.
8. Blake R.J. Current trends in online language learning // Annual Review of Applied Linguistics. - 2011. - Vol. 31. - P. 19-35.
9. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. - Cambridge: Cambridge University Press, 2001. - 260 p.

UO'K 37.02

### SMARTFONLARDAN FOYDALANISH VA UNING UYQU HAMDA O'QUV FAOLIYATIGA TA'SIRI

*G.R. Rizamamatova, talaba, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Turon universiteti talabalari orasida smartfonlardan foydalanish darajasi, undan foydalanish maqsadlari hamda smartfon qaramligining uyqu sifati va o'quv faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot natijalari smartfonlardan uzoq vaqt davomida foydalanish uyqu sifatining pasayishi va o'quv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil asosida umumlashtirildi.

**Kalit so'zlar:** smartfon, smartfon qaramligi, uyqu sifati, o'quv faoliyati, talabalar.

**Аннотация.** В данной статье изучены уровень использования смартфонов среди студентов Университета Турон, цели их использования, а также влияние зависимости от смартфонов на качество сна и учебную деятельность. Результаты исследования показали, что длительное использование смартфонов приводит к снижению качества сна и оказывает негативное влияние на учебную успеваемость. Полученные данные были обобщены на основе статистического анализа.

**Ключевые слова:** смартфон, зависимость от смартфона, качество сна, учебная деятельность, студенты.

**Abstract.** This article examines the level of smartphone usage among students of Turon University, the purposes of smartphone use, and the impact of smartphone addiction on sleep quality and academic performance. The research findings revealed that prolonged smartphone use leads to a decline in sleep quality and has a negative effect on academic performance. The collected data were summarized using statistical analysis.

**Keywords:** smartphone, smartphone addiction, sleep quality, academic activity, students.


**Kirish.** So'nggi yillarda smartfonlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar ta'lim, aloqa, axborot izlash va bo'sh vaqtni tashkil etishda smartfonlardan keng foydalanmoqda [1-4,6,9]. Biroq smartfonlardan haddan tashqari foydalanish turli psixologik va fiziologik muammolar, xususan uyqu buzilishi, diqqatning pasayishi

hamda o'quv faoliyatining susayishiga olib kelishi mumkin. 1-bosqich talabalari oliy ta'lim muhitiga moslashish jarayonida bo'lib, bu davrda raqamli texnologiyalardan foydalanish intensivligi yuqori bo'lishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, mazkur tadqiqotda aynan ushbu guruh talabalari orasida smartfonlardan foydalanish xususiyatlarini va uning uyqu sifati hamda o'quv faoliyatiga ta'sirini aniqlash dolzarb hisoblanadi [5,7,8,10].

**Tadqiqot materiallari va usullari.** Tadqiqot Qashqaryo viloyatining Turon universitetida tahsil olayotgan 1-bosqich talabalar orasida o'tkazildi. Unda jami 89 nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlarning 50,56 foizi erkaklar, 49,43 foizi ayollarni tashkil etdi. Ma'lumotlar maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma yordamida to'plandi. So'rovnoma quyidagi yo'nalishlarni qamrab oldi: kunlik smartfondan foydalanish davomiyligi; smartfondan foydalanish maqsadlari; uyquga ta'sir ko'rsatkichlari; smartfon qaramligi va o'quv faoliyatiga ta'siri. Tadqiqotning maqsadi – Turon universiteti 1-bosqich talabalari orasida smartfonlardan foydalanish darajasi, foydalanish maqsadlari va smartfon qaramligining uyqu sifati hamda o'quv faoliyatiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Olingan ma'lumotlar foiz ko'rsatkichlari asosida statistik tahlil qilindi va ilmiy xulosalar chiqarildi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari talabalarning smartfonlardan faol va uzoq vaqt foydalanishini ko'rsatdi. Respondentlarning 41,57 foizi kuniga 3–5 soat, 25,84 foizi esa 5 soatdan ortiq vaqt davomida smartfondan foydalanishini bildirgan. Talabalarning qariyb uchdan ikki qismi kuniga kamida 3 soat smartfon ishlatishi aniqlandi.

Smartfondan foydalanish maqsadlari tahliliga ko'ra, respondentlarning 44,94 foizi smartfondan o'qish maqsadida foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlar 40,44 foizni tashkil etib, talabalarning katta qismi bo'sh vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishini ko'rsatdi. Aloqa (10,11 foiz) va o'yinlar (4,49 foiz) nisbatan kam ulushga ega bo'ldi.



1-rasm. Smartfondan foydalanish bo'yicha taqsimlanishi

Uyquga ta'sir ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, respondentlarning 64 foizi uyqudan oldin smartfondan foydalanadi. 50,56 foiz talaba smartfon uyquga ketish vaqtini kechiktirishini tan olgan. 61,79 foiz respondent esa uyqu vaqtida telefonni yonida saqlashini bildirgan. Smartfonlardan foydalanish uyqu sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini respondentlarning 64 foizi qayd etdi. Shuningdek,

44,94 foiz talaba smartfonsiz bir kun o'tkazish qiyinligini bildirgan. Respondentlarning 56,17 foizi smartfon qaramligi o'quv samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tan olgan.

**Muhokama.** Olingan natijalar smartfonlardan haddan tashqari foydalanish talabalarning uyqu sifati va o'quv faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Uyqudan oldin smartfondan foydalanish melatonin gormoni ajralishining kamayishiga olib kelib, uyquga ketish jarayonini sekinlashtiradi.

Smartfon qaramligi talabalarning diqqatini chalg'itib, mustaqil ta'limga ajratilgan vaqtni qisqartiradi. Bu esa o'quv materiallarini chuqur o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi va akademik ko'rsatkichlarning pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida talabalarga smartfonlardan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar orasida smartfonlardan foydalanish darajasi nihoyatda yuqori bo'lib, ularning kundalik hayotida smartfonlar asosiy axborot, muloqot va ko'ngilochar vosita sifatida muhim o'rin egallaydi. Biroq olingan ma'lumotlar smartfonlardan haddan tashqari va maqsadsiz foydalanish salbiy oqibatlariga olib kelishini tasdiqladi. Xususan, kechki va tungi vaqtlarda smartfondan uzoq vaqt foydalanish uyqu davomiyligi va sifatining pasayishiga, natijada esa talabalar diqqat-e'tibori, xotirasi va umumiy o'quv samaradorligining susayishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Bu holat talabalarning akademik natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning bilim olish jarayonida samaradorlikni kamaytiradi.

Shu munosabat bilan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarda raqamli gigiyena ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Jumladan, smartfonlardan foydalanish vaqtini me'yorlashtirish, ayniqsa uyqudan oldin elektron qurilmalardan foydalanishni cheklash, shuningdek, o'quv jarayonida smartfonlardan faqat ta'limiy maqsadlarda oqilona va samarali foydalanishni targ'ib etish zarur. Bundan tashqari, talabalarga vaqtni boshqarish, o'z-o'zini nazorat qilish va raqamli muhitda sog'lom xulq-atvorni shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, smartfonlardan ongli va me'yorida foydalanish talabalarning nafaqat sog'lig'ini saqlash, balki ularning akademik muvaffaqiyatini oshirishda ham muhim omil hisoblanadi. Shunday ekan, mazkur yo'nalishda tizimli profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish kelgusidagi ilmiy izlanishlar hamda ta'lim siyosati uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2018. – 384 с.
2. Бойко В.В. Психология зависимости. – СПб.: Питер, 2019. – 256 с.
3. Котова И.Б., Шиянов Е.Н. Психология личности. – М.: Академия, 2020. – 288 с.
4. Lemola S., Perkinson-Gloor N. Electronic media use before bedtime and sleep disturbances. – Journal of Youth Studies, 2019. – Vol. 22. – P. 1–15.
5. Савельева М.А. Влияние гаджетов на учебную деятельность студентов. – М.: Наука, 2021. – 198 с.
6. Поляков А.В. Информационные технологии в образовании. – М.: Юрайт, 2020. – 312 с.
7. Назаров Б.Р. Raqamli texnologiyalar va yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 220 b.
8. Karimov A.A. Talabalar uyqu sifati va akademik samaradorligi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – 180 b.
9. World Health Organization. Public health implications of excessive screen time. – Geneva, 2019.
10. Hazratova H.N. Provision of some mineral substances to primary school students // Universum: химия и биология Научный журнал Издается ежемесячно с ноября 2013 года Является печатной версией сетевого журнала Universum: химия и биология. 6(120) Июнь, 2024, Част 2 Москва 2024, 64-67 стр.

UDC 37.02

## METHODOLOGICAL APPROACHES TO STUDYING SPEAKING IN ACADEMIC ENGLISH: A NEUROLINGUISTIC VIEW

*Yu. Saydibragimova, teacher, Uzbekistan State World Languages University, Toshkent*

**Annotatsiya.** Akademik ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish lingvistik bilimlar, kognitiv jarayonlar va neyrologik mexanizmlarning o'zaro ta'siri natijasidir. An'anaviy metodologik yondashuvlar asosan kommunikativ kompetensiya va nutq natijalarini baholashga qaratilgan bo'lib, nutq ishlab chiqarishning neyrokognitiv asoslarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Mazkur tadqiqot akademik nutqni o'rganishda neyrolingvistik yondashuvlarning

*metodologik imkoniyatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda ingliz tilini akademik maqsadlarda o'qitish, ikkinchi tilni o'zlashtirish va neyrolingvistika sohalaridagi ilmiy ishlarga tayanilgan holda integrativ metodologik model taklif etiladi. Natijalar akademik nutq samaradorligi neyron samaradorlik, ishchi xotira hajmi hamda til birliklarining avtomatlashtirilishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari akademik ingliz tilini o'qitish va baholash metodikasini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so'zlar:** akademik ingliz tili, akademik nutq, EAP, neyrolingvistika, ikkinchi tilni o'zlashtirish, nutq ishlab chiqarish, kognitiv jarayonlar, ishchi xotira, neyron avtomatlashtirish, akademik diskurs, til baholash metodologiyasi, nutq ravonligi.

**Аннотация.** Развитие навыков устной академической речи на английском языке представляет собой сложное взаимодействие лингвистических знаний, когнитивных процессов и нейробиологических механизмов. Традиционные методологические подходы преимущественно ориентированы на оценку коммуникативной компетенции и речевых результатов, недостаточно учитывая нейрокогнитивные процессы порождения речи. В статье предлагается интегративная методологическая модель исследования академической устной речи на основе достижений нейролингвистики и теории усвоения второго языка. Результаты показывают связь успешности академической речи с эффективностью нейронной обработки, рабочей памятью и автоматизацией языковых структур.

**Ключевые слова:** академический английский язык, академическая устная речь, нейролингвистика, усвоение второго языка, когнитивные процессы, рабочая память, академический дискурс, методология оценки языка.

**Abstract:** The development of speaking competence in Academic English represents a complex interaction between linguistic knowledge, cognitive processing, and neurological mechanisms. Traditional pedagogical and methodological approaches have primarily emphasized communicative competence and discourse performance, often overlooking neurocognitive processes underlying speech production in academic contexts. This study explores methodological approaches to investigating Academic English speaking through a neurolinguistic perspective. Drawing upon contemporary research in neurolinguistics, second language acquisition, and cognitive psychology, the article proposes an integrative framework combining behavioral, experimental, and neurocognitive methodologies. The findings suggest that academic speaking proficiency is closely linked to neural efficiency, working memory capacity, and automatization of linguistic patterns. The paper argues that incorporating neurolinguistic insights into research design can significantly improve both assessment and pedagogy of Academic English speaking. Implications for future empirical research and language teaching methodologies are discussed.

**Keywords:** Academic English speaking, English for Academic Purposes (EAP), neurolinguistics, second language acquisition, speech production, cognitive processing, working memory, neural automatization, academic discourse, language assessment methodology, fluency development, neurocognitive linguistics.

**Introduction.** Academic English speaking has become a central competence in modern higher education due to globalization and increasing academic mobility. Students are required not only to demonstrate grammatical accuracy but also to construct logical arguments, present research ideas, and participate in discipline-specific discussions. Despite extensive work within English for Academic Purposes (EAP), methodological approaches to studying speaking performance remain largely focused on observable outcomes.

Traditional assessment frameworks evaluate pronunciation, fluency rate, and grammatical correctness. However, learners with comparable linguistic knowledge frequently demonstrate different speaking performance levels. Such variation indicates the influence of internal cognitive and neural mechanisms that shape speech production.

Neurolinguistics provides tools for examining how language is processed in the brain, including mechanisms of lexical retrieval, syntactic planning, and speech monitoring. Integrating

neurolinguistic perspectives allows researchers to move beyond surface performance analysis toward understanding underlying processes of academic speech production.

**Methods.** The research adopts a qualitative analytical design based on interdisciplinary synthesis of literature from neurolinguistics, second language acquisition, and EAP research.

**Behavioral methods** include oral proficiency interviews, discourse analysis, and fluency measurements such as speech rate, pauses, and lexical diversity.

**Experimental cognitive methods** involve controlled speaking tasks, dual-task experiments, and working-memory assessments used to estimate cognitive load.

**Neurolinguistic methods** incorporate EEG, ERP, fMRI, and eye-tracking technologies to observe neural activation during speech production.

Approaches were compared according to:

- ability to capture real-time processing,
- ecological validity,
- pedagogical applicability.

**Results.** Traditional performance-based assessments were found insufficient for explaining variability in academic speaking proficiency. Pauses and hesitations frequently reflect planning and cognitive processing rather than linguistic weakness.

Neurolinguistic findings indicate that academic speaking activates networks associated with syntactic encoding, lexical retrieval, and executive control. Proficient speakers demonstrate reduced neural effort, suggesting automatization.

Working memory capacity strongly correlates with the ability to construct extended arguments and maintain discourse coherence.

**Discussion.** A neurolinguistic perspective reframes fluency as neural efficiency rather than mere linguistic knowledge. Methodologically, combining behavioral observation with cognitive and neural measures provides a more accurate understanding of speaking competence. Pedagogically, repeated structured speaking practice and retrieval-based activities promote proceduralization of language and strengthen neural pathways supporting fluent speech production. Although neurolinguistic tools present practical limitations, hybrid research designs using cognitive indicators offer feasible alternatives for applied linguistic research.

**Conclusion.** The study demonstrates that Academic English speaking cannot be fully explained through traditional assessment methods alone. Neurolinguistic approaches reveal cognitive and neural mechanisms underlying fluency and discourse organization. An integrated methodological framework enhances both research accuracy and pedagogical effectiveness. Future research should focus on longitudinal studies investigating neural adaptation during academic speaking development.

#### REFERENCES:

1. Baddeley, A. (2012). *Working memory: Theories, models, and controversies*. Psychology Press.
2. Bialystok, E. (2017). The bilingual adaptation. *Psychological Bulletin*, 143(3), 233–262.
3. DeKeyser, R. (2015). *Skill acquisition theory*. Routledge.
4. Ellis, R. (2008). *The study of second language acquisition*. Oxford University Press.
5. Field, J. (2011). *Psycholinguistics: The key concepts*. Routledge.
6. Friederici, A. D. (2017). *Language in our brain*. MIT Press.
7. Gass, S., & Selinker, L. (2008). *Second language acquisition*. Routledge.
8. Hagoort, P. (2019). The neurobiology of language. *Annual Review of Neuroscience*, 42, 93–111.
9. Kormos, J. (2006). *Speech production and second language acquisition*. Lawrence Erlbaum.
10. Levelt, W. J. M. (1989). *Speaking: From intention to articulation*. MIT Press.

UDC 616.07:004.8

## GAMIFICATION IN THE STUDY OF INFORMATION TECHNOLOGY IN MEDICAL INSTITUTIONS

*N.R.Tulkinhujayeva, teacher, Andijan branch of Kokand University, Andijan*

**Annotatsiya.** *Tibbiy ta'limda axborot texnologiyalarini o'qitish ko'pincha talabalarning motivatsiyasi pastligi va mavzularning mavhumligi sababli murakkab kechadi. Ushbu tadqiqotda talabalar faolligini oshirish maqsadida Wordwall platformasi orqali gamifikatsiya usulidan*

foydalanish samaradorligi o'rganildi. Ikki oylik davrda (2025-yil noyabr–dekabr) Qo'qon universiteti Andijon filialining 183 nafar pediatriya yo'nalishi talabalari krossvordlar, viktorinalar va moslashtirish mashqlarini o'z ichiga olgan interaktiv faoliyatlarda ishtirok etdilar. Natijalar talabalarning yuqori darajadagi faolligini (98%), o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishini (87%) hamda talabalarning 56 foizi yuqori baholarga erishganini ko'rsatdi. Umuman olganda, gamifikatsiya tibbiyotda axborot texnologiyalarini o'qitishda motivatsiyani oshirish va bilimlarni mustahkamlashda samarali ekanligi isbotlandi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy ta'lim, o'qitish, gamifikatsiya, Wordwall, platforma, interaktiv.

**Аннотация.** Преподавание информационных технологий в медицинском образовании нередко сопровождается трудностями, связанными с низкой мотивацией студентов и абстрактным характером учебного материала. В данном исследовании изучена эффективность применения геймификации с использованием платформы Wordwall для повышения вовлечённости обучающихся. В течение двух месяцев (ноябрь–декабрь 2025 года) 183 студента педиатрического направления Андиганского филиала Кокандского университета приняли участие в интерактивных занятиях, включавших кроссворды, викторины и задания на сопоставление. Результаты показали высокий уровень вовлечённости студентов (98%), хорошее усвоение учебного материала (87%), а также достижение высоких оценок у 56% обучающихся. В целом, геймификация является действенным инструментом повышения мотивации и закрепления знаний при обучении информационным технологиям в медицинском образовании.

**Ключевые слова:** медицинское образование, обучение, геймификация, Wordwall, платформа, интерактивные.

**Abstract.** Teaching IT in medical education is often challenging due to low student motivation and abstract content. This study investigated the use of gamification through the Wordwall platform to enhance student engagement. During a two-month period (November–December 2025), 183 pediatric students at the Andijan branch of Kokand University participated in interactive activities, including crosswords, quizzes, and matching exercises. The results indicated high engagement (98%), strong material retention (87%), and 56% of students achieving top marks. Overall, gamification effectively boosts motivation and reinforces knowledge in medical IT education.

**Key words:** medical education, teaching, gamification, Wordwall, platform, interactive.


Modern medical education is evolving rapidly as digitalization and global health changes affect healthcare. Information technology training is particularly important because information is constantly evolving and future physicians need to develop digital skills.

However, in practice, students lack sufficient motivation to study this course. This is due to the very abstract nature of the material, the lack of a direct connection to clinical practice, and the use of traditional teaching methods.

One effective solution to this problem is gamification – the use of game elements in educational processes. This article discusses the use of the Wordwall platform as a tool to increase the interest and involvement of medical students in information technology education.

Although gamification is often confused with game-based learning, these approaches differ conceptually and pedagogically. Gamification enhances existing learning activities by adding game mechanics, whereas game-based learning relies on games as the primary medium for instruction.[1]

In medical education, gamification is particularly suitable for reinforcing theoretical knowledge, terminology, and foundational concepts. Game-based learning, by contrast, is more often applied in complex clinical simulations and virtual patient scenarios. Understanding this distinction is essential for selecting appropriate instructional strategies and tools.



Picture-1. Interface of Wordwall

Gamification is the use of game mechanics and game dynamics in a non-game context. In education, it manifests itself in the use of:

- points, rankings, and rewards systems;
- elements of competition between students;
- visualization of progress;
- game-based tasks (quests, quizzes, crosswords).

The educational value of games lies in their ability to improve students' intrinsic motivation, promote critical and clinical thinking, develop teamwork skills, and integrate theoretical material into a practical context.

Wordwall is a universal online service for creating interactive educational activities. Its advantages include:

- ease of use (no programming skills required);
- wide selection of formats (quizzes, matching, crosswords, flashcards, spinning wheel, etc.);
- automatic results checking;
- support for both individual and group work;
- adaptability: games can be used on a computer, tablet, or smartphone.


Teachers can create their own activities tailored to the specifics of medical education and use them in both in-person and remote learning.

The study was conducted over a two-month period, specifically during November and December of 2025. The screenshots below demonstrate a practical example of using this platform in an educational setting.

Each practical lesson incorporated a range of interactive templates, including crosswords, matching pairs, quizzes, word search, and anagram-based activities (Pic.1).

Pediatric students enrolled at the Andijan branch of Kokand University showed increased engagement and improved recall of lesson content.

In the interactive game presented below 183 students participated, and student activity increased to 98% compared to traditional lessons (Pic.2). In the subsequent lesson, 87% of students retained the material presented on the platform, with 56% achieving high marks and 31% demonstrating medium-level performance.



Picture-2. Matching-pair exercise.

The introduction of gaming in training scenarios propagates competitiveness. While competition is good for gaming scenarios, the organization requires its employees to cooperate (2-5).

Таблица лидеров

Ранг	Имя	Баллы
1-й	Gulrangbegim	1378
2-й	Muhammadaziz	1295
3-й	Robiya	1287
4-й	Muhlisa N	1242
5-й	Lola	1226
6-й	Asliddin	1193
7-й	Avazbek	1141
8-й	Muxlisa	1096
9-й	Davronbek	1027
10-й	Nzira	958

Picture-3. Leaderboard of participants

The ranking system and the display of results on the leaderboard fostered a competitive environment that engaged all students. From a single group of 29 students, 10 achieved top performance by completing the tasks within the allocated time and obtaining high scores. The remaining students also participated actively and provided correct answers; however, due to time limitations, they were not included in the ranking despite satisfactory academic performance.

The implementation of gamification using the Wordwall platform proved effective in addressing motivational challenges in teaching information technology to medical students. A two-month study involving 183 pediatric students at the Andijan branch of Kokand University demonstrated that interactive, game-based learning significantly increased student engagement (98%) and knowledge retention (87%) compared to traditional methods. Academic outcomes also improved, with 56% of students achieving high marks, supported by competitive elements such as rankings and leaderboards.

The success of this approach is attributed to Wordwall's user-friendly interface, diverse interactive formats, automated assessment, and compatibility with both in-class and remote learning. Overall, gamification enhances motivation and learning effectiveness in medical IT education, highlighting its potential as a scalable and practical pedagogical tool.

#### REFERENCES:

1. Landers, R. N. (2014). *Developing a theory of gamified learning: Linking serious games and gamification of learning*. *Simulation & Gaming*, 45(6), 752–768.
2. Congcong Yang and Hua Jonathan Ye and Yuanyue Feng. *Using gamification elements for competitive crowdsourcing: exploring the underlying mechanism*. *Behaviour and Information Technology*, 2021;40: 837-54.

3. Burguillo, J. C. "Using game theory and Competition-based learning to stimulate student motivation and performance". Computers & Education, 2010; 55 (2): 566–75.
4. Van Grove, Jennifer. "Gamification: How Competition Is Reinventing Business, Marketing & Everyday Life". Mashable. Archived from the original on 3 August 2017. Retrieved 12 February 2013.
5. Menezes, C. and Bortolli, R. *Potential of Gamification as Assessment Tool*. Creative Education, 2016; 7: 561-66. doi: 10.4236/ce.2016.74058.

UO'K 37.02:334.012.42

**TEKNOLOGIYA DARSLARIDA TADBIRKORLIKKA OID KO'NIKMALARNI  
MOTIVATSION TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH  
N.R. Xudoyberdiyeva, o'qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada texnologiya darslarida tadbirkorlikka oid ko'nikmalarni motivatsion texnologiyalar asosida shakllantirishning ahamiyati tahlil qilingan. Darslarni zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, motivatsion yondoshuvlar orqali o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga qiziqtirish va ularning innovatsion fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan omkoniylar yaratilgan. Tadqiqotda o'quv jarayonida yangi texnologiyalarning samaradorligini va ularning ta'limdagi rolini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, tadbirkorlik ko'nikmalari, motivatsion texnologiya, innovatsiya, ijodiy fikrlash, kombinatsiyalangan metodologiya.

**Аннотация.** В данной статье анализируется важность развития предпринимательских навыков на уроках технологий с использованием мотивационных технологий. Обогащение уроков современными технологиями, создание возможностей для заинтересованности учащихся в предпринимательской деятельности и развитие их навыков инновационного мышления посредством мотивационных подходов. Исследование демонстрирует эффективность новых технологий в процессе обучения и их роль в образовании.

**Ключевые слова:** Технологии, предпринимательские навыки, мотивационные технологии, инновации, креативное мышление, комбинированная методология.

**Abstract.** This article analyzes the importance of developing entrepreneurial skills in technology lessons based on motivational technologies. Enriching lessons with modern technologies, creating opportunities for students to be interested in entrepreneurial activities and developing their innovative thinking skills through motivational approaches. The study shows the effectiveness of new technologies in the learning process and their role in education.

**Keywords:** Technology, entrepreneurial skills, motivational technology, innovation, creative thinking, combined methodology.

**Kirish.** Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimi nafaqat ilmiy bilimlarni, balki shaxsiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan. Texnologiya darslari esa, yoshlarni nafaqat texnik bilimlar bilan ta'minlash, balki innovatsion fikrlash va tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirishga ham katta imkoniyat yaratadi. Tadbirlarni tashkil etish, resurslarni boshqarish, yangiliklar yaratish kabi ko'nikmalar o'quvchilarni muvaffaqiyatli tadbirkor qilishda muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada motivatsion texnologiyalar yordamida texnologiya darslarida tadbirkorlikni o'rgatishning samaradorligi o'rganiladi.

Bugungi jadallashuv va innovatsiyalar davrida kelajak avlodni tadbirkorlik ko'nikmalarini egallashga tayyorlash ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biriga aylandi. "... mahallalarda yangi institut sifatida joriy qilingan tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari faoliyati samarali yo'lga qo'yilsin; mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligi oshirilsin; mahalla hududida davlat-xususiy sheriklik asosida sport va madaniy inshootlar, ijodiy klublar, bandlikka ko'maklashish va o'qitish markazlari, tadbirkorlik obyektlari kabi infratuzilmani yaratish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilsin; ..." [1].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga undaydigan qulay shart-sharoitlarni yaratish turli sohalarda ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun motivatsiyani shakllantirish tizimining nomukammalligi o'quvchilar orasida yosh tadbirkorlarning huquqiy va ijtimoiy madaniyatining pastligini anglatadi. Yoshlar tadbirkorligini takomillashtirish uchun samarali motivatsiya mexanizmiga ega tizimlar samara beradi. Hozirgi vaqtda tadbirkorlik madaniyat sohasiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Iqtisodiy nuqtai nazardan rassomlar, ijodiy xizmatlar, mahsulotlar va mahsulotlarni yaratuvchilar madaniyat va san'at bozorini egallamoqda.

Motivatsion texnologiyalar sohasidagi tadqiqotlar o'quv jarayoniga faol ishtirok etishga, o'zini o'zi rivojlantirishga va innovatsion yondoshuvlarni qo'llashga qaratilgan. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi, ta'lim sohasida ham motivatsiya va texnologiyalar o'zaro chambarchas bog'liq. Xususan, motivatsion texnologiyalar orqali o'quvchilar o'zlarini eng yaxshi versiyasini yaratishga, yangiliklarga ochiq bo'lishga va samarali faoliyat yuritishga harakat qiladi. Xorijiy tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan ishlarda, o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda texnologiyalarning roli ko'rsatilgan. Masalan, Smith (2020), Johnson (2019) va Khan (2021) kabi tadqiqotchilar tadbirkorlik va motivatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni va J. Shumpeterning innovatsiyalar nazariyasi va D. Kolbning tajribaga asoslangan ta'lim modeli tadbirkorlikning nazariy asoslarini o'rgangan. Mahalliy olimlarimiz – Soliyeva Gulhayo Hoshim qizi, G'ulomova, D. T. (2020). "Texnologiya fanida ijodiy yondashuvni rivojlantirish", Shomirzaev M.X. Texnologiya fani jarayonida o'quvchilarni tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatiga tayyorlash mavzusida tadqiqot ishlari olib boranganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotda kombinatsiyalangan metodologiya qo'llanilgan. Avvalo, nazariy tahlil orqali motivatsion texnologiyalarni tushunish va tadbirkorlik ko'nikmalariga ta'sirini o'rganish maqsadida ilmiy adabiyotlar o'rganilgan. Keyinchalik, amaliy tadqiqot sifatida, texnologiya darslarida innovatsion metodlar, shu jumladan, gamifikatsiya, onlayn platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish tajribasi o'rganilgan. Ushbu metodologiya talabalar va o'qituvchilar orasidagi o'zaro fikr almashish, darsda innovatsion yondoshuvlarni qo'llash jarayonlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Texnologiyani o'qitishda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish o'ziga xos yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Bu jarayonda talabalarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullar va ijodiy qobiliyatlar asosiy rol o'ynaydi. Darslarda loyiha asosida o'qitish usulidan foydalanish samarali usullardan biridir. Bu usul imkon beradi talabalar real muammolarni hal qilish va yangi mahsulotlar yaratish. Misol uchun, talabalar asosiy narsalarni o'rganadilar kichik biznes rejalarini tuzish, mahsulot konstruksiyalarini yaratish va tadbirkorlik tamoyillari ularning ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish. Shuningdek, ular muloqot va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantiradilar ularni jamoaviy ishlarga jalb qilish orqali. O'qitishda interfaol usullardan foydalanish ham muhimdir. Rolli o'yinlar kabi tadbirlar, muammolarni hal qilish va "boshqaruv qarorlari" talabalarda mas'uliyat hissini va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida texnologiya darslarida motivatsion texnologiyalarning ta'lim sifatiga ta'siri aniqlandi. O'quvchilarning faol ishtiroki va darsga qiziqishining ortishi motivatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirildi. Gamifikatsiya elementlari, masalan, raqobatbardosh o'yinlar va interaktiv testlar, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undadi. Shuningdek, o'quvchilarning tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda onlayn biznes simulyatsiyalari va virtual tadbirkorlik loyihalari muvaffaqiyatli natijalarga olib keldi. Natijada, texnologiya darslarida motivatsion texnologiyalar yordamida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning samaradorligi ko'rsatildi. Texnologiyaning amaliy xususiyati o'quvchilarda ijodiy yondashuv va mehnatsevarlikni rivojlantirishga yordam beradi. Uchunmasalan, loyihalar va topshiriqlar orqali ular o'z imkoniyatlarini sinab ko'radilar, mas'uliyatni his qiladilar va yo'llarini izlaydilar muammolarni hal qilish. Shu munosabat bilan texnologiya rivojlanish uchun samarali platforma bo'lib xizmat qiladi tadbirkorlik qobiliyatlari. Tadbirkorlik nafaqat iqtisodiy foydali faoliyat, balki yangilarini yaratish vositasi hamdir jamiyatdagi imkoniyatlar, muammolarni hal qilish va innovatsiyalarni amalga

oshirish. Shuning uchun integratsiya Yoshlarni tayyorlashda o'quv jarayoniga tadbirkorlik elementlarini kiritish katta ahamiyatga ega.

Tajriba-sinov ishlari davomida o'quvchilarning motivatsion texnologiyalar orqali tadbirkorlik ko'nikmalarini uch bosqichda – past, o'rta va yuqori darajalarda baholandi. Boshlang'ich bosqichda o'quvchilarning ko'pchiligida tadbirkorlik ko'nikmalariga nisbatan yetarli motivatsiya mavjud emasligi, ularning tadbirkorlikka qiziqishi asosan faqat mahsulot yaratish maqsadlarda foydalanishlari aniqlandi. Tajriba davomida o'quv jarayoniga, loyiha asosida o'qitish, muammoli vaziyatlar yaratish va men tadbirkorman metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning ijodiy faolligi sezilarli darajada oshdi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot natijalari texnologiya darslarida motivatsion texnologiyalarni qo'llashning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Tadqiqotga ko'ra, motivatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarni, balki innovatsion fikrlash va tadbirkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantirishadi. Shu bois, texnologiya darslarini tashkil etishda innovatsion metodlar va motivatsion texnologiyalarni qo'llashni davom ettirish zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. Shomirzayev M. Kh. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – №. 07. – C. 217.
3. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o'qitishda yangicha yondashuv. T.: 2017 4. Shomirzayev M.X. Ta'lim texnologiyalaridan foydalanish muammolari // Zamonaviy ta'lim. – T., 2019.
5. Shomirzaev M.X. Texnologiya fani jarayonida o'quvchilarni tadbirkorlik va kichik biznes faoliyatiga tayyorlash / Ta'lim-tarbiya kontekstida fanlararo sinxron va asinxron bog'lanishlar. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – T.: Noshirlik yog'dusi, 2019. – B.176 -178.
6. Xudoyberdiyeva N.R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida motivatsion texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirish (Texnologik ta'lim misolida) // "Xalq ta'limi" 2024 yil yanvar 1- son. 92-95- betlar.
7. Xudoyberdiyeva N.R. Motivatsion yondoshuv asosida o'quvchilarning tadbirkorlikka oid ko'nikmalarini shakllantirish // "Xalq ta'limi" 2025 yil yanvar 1- son. 11- 16- betlar.
8. Xudoyberdiyeva N.R. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda motivatsion texnologiyalarning o'rni. "O'Zmu XABARLARI" 2025 yil 1/2/1. 216-217- betlar.
9. Xudoyberdiyeva N.R. The role of color and composition in fine arts // Mons Belgium. "Artificial Intelligence, Digital Tools, And The Evolution Of Teaching". 220-233- betlar.
10. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. New York: Longman.

UO'K 37.091.315:81'342

### ONLAYN TA'LIMDA FONETIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

*S.X. Yoqubova, o'qituvchi, SamDu Urgut filiali, Urgut*  
*Sh.K. Shoimova, talaba, SamDu Urgut filiali, Urgut*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani shakllantirish muammolarini kompleks tahlil qiladi. Fonetik kompetensiya til o'rganishda muhim bo'lsa-da, onlayn muhitda uni samarali o'qitishda qiyinchiliklar mavjud. Maqolada fonetikaning nazariy asoslari, birinchi va ikkinchi tilni o'zlashtirishdagi farqlar hamda texnologik yechimlarning samaradorligini tasdiqlovchi dalillar yetishmasligi ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Fonetik kompetensiya, onlayn ta'lim, talaffuz, ikkinchi til, texnologik yechimlar, auditor ko'nikmalar

**Аннотация.** Эта статья представляет комплексный анализ проблем формирования фонетической компетенции в условиях онлайн-обучения. Фонетическая компетенция играет ключевую роль в изучении языка, однако в онлайн-среде ее эффективное развитие сталкивается с рядом трудностей

**Ключевые слова:** Фонетическая компетенция, онлайн-обучение, произношение, второй язык, технологические решения, слуховые навыки,

**Abstract.** This article offers a comprehensive analysis of challenges in developing phonetic competence within online learning environments. Despite the critical role of phonetic competence in second language acquisition, its effective formation faces specific difficulties in virtual settings. The

*paper explores theoretical foundations, distinctions between L1 and L2 acquisition, and the current landscape of technological solutions, highlighting the lack of robust evidence for their effectiveness.*

**Keywords:** *Phonetic competence, online education, pronunciation, second language, technological solutions, auditory skills*

**Kirish:** XXI asr globalizatsiya va raqamlashtirish asri bo'lib, ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, onlayn ta'lim platformalarining jadal rivojlanishi an'anaviy o'qitish usullariga muqobil, moslashuvchan va keng qamrovli imkoniyatlarni yaratdi. Biroq, ushbu yangi ta'lim muhitida, til o'rganishning murakkab jihatlaridan biri bo'lgan fonetik kompetensiyani samarali shakllantirishda qator muammolar yuzaga kelmoqda. Fonetik kompetensiya nafaqat tovushlarning to'g'ri talaffuzini, balki nutqning intonatsiya, urg'u va ritm kabi prozodik xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Ikkinchi tilni o'rganuvchilar uchun, ayniqsa ona tilining fonetik tizimidan sezilarli farq qiladigan tillarda, ushbu ko'nikmalarni egallash yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga erishish uchun juda muhimdir. Onlayn sharoitda bu jarayonning o'ziga xos cheklovlari va afzalliklari mavjud bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish zamonaviy pedagogikada dolzarb vazifadir. Ushbu maqola onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslarini, asosiy muammolarini va ularni hal qilishning potentsial yo'llarini o'rganishga qaratilgan.

Fonetik kompetensiyani shakllantirish masalasi tilshunoslik va didaktika fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq qilib kelinadi. Fonetika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini o'rgansa, fonologiya ularning til ichidagi tashkil etilishi va funksiyasini, morfologik va semantik aloqalarini tahlil qiladi. Birinchi tilni o'zlashtirishda bolalar erta yoshdan yuqori fonologik sezgirlikni namoyon etadilar; ular tug'ilgandan keyin 2-3 hafta ichida /ba/ va /pa/ kabi o'xshash fonemalarni farqlay oladilar. Dastlabki unli tovushlar 3-5 haftada paydo bo'lsa, undoshlar keyingi oylarda shakllanadi. Taxminan sakkiz oylikda chaqaloqlar so'z tuzilishi, fonetik cheklovlar va o'tish ehtimollari kabi belgilardan foydalanib nutqni segmentlashni boshlaydilar. Olti yoshga kelib, bolalar odatda batafsil fonologik tasavvurga, minglab so'zlardan iborat lug'atga va asosiy morfo-sintaktik qoidalarga ega bo'lishadi. Shu bilan birga, fonologik sezgirlik tez pasayib boradi; birinchi yildan so'ng, boshqa tillarda ona tiliga o'xshash fonologik farqlarni egallash imkoniyati sezilarli darajada torayadi. Bu, ayniqsa, kattalar uchun ikkinchi tilni (L2) o'zlashtirishda talaffuz borasida ona tiliga yaqinlikka erishish qiyinligini anglatadi. Ko'pchilik kattalar L2 o'rganuvchilari urg'uni saqlab qoladilar va grammatik xatolar qilishadi, bu esa L1 o'zlashtirishda erishilgan barqaror ona tili kompetensiyasidan farq qiladi. Onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani shakllantirish jarayonida ushbu psixolingvistik cheklovlarni hisobga olish muhimdir.

So'nggi yillarda texnologik yechimlar, ayniqsa eshitish qobiliyati cheklangan shaxslarda auditor ko'nikmalarni yaxshilashda muhim o'rin egalladi. 2018-2024 yillar oralig'ida nashr etilgan 16 ta maqolani tahlil qilgan sistematik tadqiqot an'anaviy eshitish apparatlari va koxlear implantlardan tashqari audioreabilitatsiya uchun texnologik yechimlarni o'rganib chiqdi. Tadqiqot eshitish qobiliyati buzilgan odamlarda eshitish ko'nikmalarini yaxshilashga qaratilgan turli xil aralashuvlarni, jumladan, tele-salomatlik uchun ishlatiladigan smartfon ilovalaridan tortib, vibrotaktil qayta aloqa bilan jihozlangan ilg'or virtual muhitlarga qadar bo'lgan yechimlarni ta'kidlaydi. Ushbu texnologik vositalarning eshitish qobiliyati zaif shaxslar va audiologiya mutaxassisleri orasida yuqori darajada qabul qilinishi qayd etildi. Bu natijalar fonetik o'qitishda texnologiyadan foydalanishning potentsial imkoniyatlarini ko'rsatadi. Biroq, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar uchun kompyuterga asoslangan auditor o'quv dasturlari (CBATP) bo'yicha NIH tomonidan o'tkazilgan tahlil jiddiy tadqiqot kamchiliklarini ochib berdi. Tadqiq qilingan 124 ta maqola annotatsiyasidan faqat bitta tadqiqot PICOS kriteriyalariga javob bergan, bu esa samaradorlikni tasdiqlovchi dalillarning yetishmasligini ko'rsatadi. Tijorat CBATP'lari ko'plab auditor mashg'ulot jihatlarini qamrab olsa-da, ularning samaradorligi hujjatlashtirilmagan. Bu, har qanday texnologik yechimni onlayn fonetik o'qitishga tatbiq etishdan oldin, uning ilmiy asoslangan samaradorligini sinchkovlik bilan baholash zarurligini ta'kidlaydi. Auditor ko'nikmalarini O'qitish (AKO) eshitish apparatlari va koxlear implantlar kabi texnologiyalardan foydalanayotgan kattalar uchun muhim komponent hisoblanadi, chunki qurilmalarning o'zi optimal eshitish uchun yetarli emas. AKO miyani tovushlarni talqin qilishga va

og'zaki nutqni tushunishga o'rgatuvchi tizimli, takroriy tinglash mashqlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayon marafon mashg'ulotiga o'xshatiladi, unda bemorning faol ishtiroki talab etiladi. AKO ko'pincha nutq-til patologlari tomonidan taqdim etiladigan eshitishni tiklash dasturlarining bir qismidir. HearingSuccess portali, WordSuccess™ mobil ilovasi va SoundSuccess™ kabi resurslar orqali mustaqil ravishda AKO bilan shug'ullanish imkoniyati ham mavjud. Bu yo'nalishdagi yutuqlar shuni ko'rsatadiki, samarali fonetik o'qitish, ayniqsa onlayn muhitda, faqat qurilmalarga bog'liq bo'lmasdan, balki miyani o'qitishga qaratilgan tizimli mashqlarni talab qiladi.

Zamonaviy veb-asosidagi vositalar talaffuzni masofadan o'rgatishda audio yozish imkoniyatlari, tezkor fikr-mulohaza mexanizmlari va nutq shakllarining vizual tasvirlari (masalan, to'lqin shakllari va ohang konturlari) kabi asosiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Sanako Connect kabi ilg'or platformalar murakkab nutqni aniqlash algoritmlari va moslashtirilgan mashqlarni birlashtiradi. Ushbu vositalarning samaradorligi talabalarga o'z nutqlarini ona tilida so'zlashuvchilarning modellari bilan yozib olish va solishtirish, shuningdek, tovush farqlarini vizualizatsiya qilish imkoniyatini berishdan kelib chiqadi. Avtomatlashtirilgan baholash va o'qituvchilardan tezkor fikr-mulohazalar, turli qurilmalardan foydalanish imkoniyati bilan birgalikda, barqaror va moslashuvchan mashg'ulotlarni osonlashtiradi. Masofaviy mashg'ulotlarning maxfiylik talabalarining tashvishini kamaytiradi va o'zlashtirish tezligini o'zlari belgilashga imkon beradi, bu esa ularga aniq muammolarga e'tibor qaratishga va takroriy solishtirish orqali fonologik ongni rivojlantirishga yordam beradi. O'qituvchilar ushbu vositalardan tuzilgan rivojlanish yo'nalishlarini amalga oshirish, maqsadli namunaviy yozuvlar va shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazalarni taqdim etish orqali maksimal darajada foydalanishlari mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi:** Ushbu maqola onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani shakllantirish muammolarini o'rganish maqsadida nazariy tahlil va mavzuga oid adabiyotlarni sintez qilish metodologiyasiga asoslanadi. Tadqiqot fonetika, fonologiya, ikkinchi tilni o'zlashtirish nazariyalari, texnologiyaga asoslangan ta'lim va audioreabilitatsiya sohalaridagi mavjud ilmiy manbalarni kompleks o'rganishni o'z ichiga oladi. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar dan gacha bo'lgan manbalardan olingan bo'lib, ularning asosiy g'oyalari onlayn fonetik o'qitish kontekstida tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Analitik yondashuv orqali, onlayn o'qitishning o'ziga xos afzalliklari (masalan, moslashuvchanlik, maxfiylik, takroriy mashg'ulot imkoniyatlari) va cheklovlari (masalan, shaxsiylashtirilgan fikr-mulohazaning murakkabligi, texnologik cheklovlar) aniqlanadi. Muammolarni hal qilish yo'llari va istiqbolli pedagogik yondashuvlar mavjud texnologik yechimlar va o'qitish prinsiplaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, ilmiy dalillarga asoslangan yechimlarni ta'minlash maqsadida, texnologik yechimlarning samaradorligini tasdiqlovchi dalillarning yetishmasligi kabi tanqidiy jihatlarga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu metodologiya onlayn fonetik o'qitishda duch keladigan qiyinchiliklarning keng qamrovli ko'rinishini taqdim etishga va ularni yengish uchun amaliy tavsiyalar berishga yordam beradi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, onlayn ta'lim muhitida fonetik kompetensiyani shakllantirish masalasi zamonaviy lingvodidaktikaning murakkab va ko'p qirrali muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Fonetik kompetensiya chet tilni egallash jarayonida kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi bo'lib, u nutqning fonematik aniqligi, prosodik xususiyatlari hamda artikulyatsion me'yorlarga rioya etilishini ta'minlaydi. Masofaviy ta'lim formatida ushbu kompetensiyani rivojlantirish an'anaviy auditoriya sharoitlariga xos bo'lgan bevosita fonetik nazorat va korreksiya mexanizmlarining cheklanishi bilan tavsiflanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar texnologik infratuzilma sifati, didaktik materiallarning metodik moslashuvi hamda o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasidagi interaktiv aloqaning darajasi bilan bevosita bog'liqdir. Audio-vizual vositalar orqali uzatilayotgan fonetik materiallarning sifati past bo'lsa, o'rganuvchilarda noto'g'ri talaffuz stereotiplari mustahkamlanish xavfi yuzaga keladi. Shu bois fonetik kompetensiyani shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ilmiy asoslangan metodik model doirasida amalga oshirilishi zarur.

Shuningdek, onlayn ta'lim sharoitida fonetik ko'nikmalarni rivojlantirish individual yondashuvni kuchaytirishni talab etadi. Avtomatlashtirilgan talaffuz tahlili, sun'iy intellekt asosidagi

fonetik diagnostika va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini joriy etish o'rganuvchilarning metakognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi fonetik materialni uzatuvchi subyekt emas, balki o'rganuvchining nutqiy rivojlanishini boshqaruvchi va muvofiqlashtiruvchi mediator sifatida faoliyat yuritadi.

Umuman olganda, onlayn ta'limda fonetik kompetensiyani samarali shakllantirish integrativ yondashuvni, ya'ni lingvistik, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining uyg'unligini taqozo etadi. Ushbu muammoni hal etishga qaratilgan ilmiy izlanishlar masofaviy til ta'limining nazariy asoslarini boyitish bilan birga, uning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jalolov J. J. Chet tillarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. Hoshimov O'., Yoqubov I. Ingliz tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq, 2003.
3. Passov E. I. Kommunikativnoe obuchenie inostrannomu yaziku. – Moskva: Prosveshchenie, 2010.
4. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
5. Underhill A. Sound Foundations: Learning and Teaching Pronunciation. – Oxford: Macmillan Education, 2005.

УДК 372.881.161.1

### ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ПОВЫШЕНИЯ МОТИВАЦИИ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ ИНОЯЗЫЧНЫХ ГРУПП

*Ф.У.Зоирова, преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет, Джизак*

**Аннотация.** Мақоллада педагогика oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan xorijiy tilli guruh talabalariga rus tilini o'qitishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish masalalari yoritilgan. O'yin shaklidagi ta'lim metodlarining talabalarining o'quv motivatsiyasini oshirish, bilish faolligini kuchaytirish hamda nutqiy mulohazadagi psixologik to'siqlarni kamaytirishdagi o'rni tahlil qilingan. Rus tilini boshlang'ich bosqichda o'qitishda til o'yinlaridan foydalanishning metodik ahamiyati asoslab berilgan. Leksik, nutqiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'yinli mashqlar namunalari keltirilgan.

**Калит so'zlar:** o'yin texnologiyalari, ta'lim motivatsiyasi, rus tili xorijiy til sifatida, xorijiy tilli guruhlar, til o'yini, kommunikativ kompetensiya

**Аннотация.** В статье рассматриваются игровые технологии как эффективное средство повышения учебной мотивации при обучении русскому языку студентов иноязычных групп педагогического вуза. Анализируется влияние игровых форм обучения на активизацию познавательной деятельности, формирование речевой инициативы и снижение психологического барьера в процессе иноязычного общения. Обосновывается методическая целесообразность использования языковых игр на начальном этапе обучения русскому языку. Представлены примеры лексических, речевых и коммуникативных игровых упражнений, направленных на развитие языковой и коммуникативной компетенций обучающихся.

**Ключевые слова:** игровые технологии, мотивация обучения, русский язык как иностранный, иноязычные группы, языковая игра, коммуникативные навыки.

**Abstract.** The article examines game-based technologies as an effective means of increasing learning motivation in teaching Russian to students of foreign-language groups at a pedagogical university. The impact of game-based learning on students' cognitive activity, speech initiative, and reduction of psychological barriers in communication is analyzed. The methodological relevance of using language games at the initial stage of Russian language instruction is substantiated. Examples of lexical, speech, and communicative game-based exercises aimed at developing linguistic and communicative competencies are presented.

**Key words:** game-based technologies, learning motivation, Russian as a foreign language, foreign-language groups, language game, communicative competence.

**Введение.** Современная парадигма высшего образования ориентирована на формирование у обучающихся не только системных предметных знаний, но и развитых

коммуникативных компетенций, обеспечивающих успешную профессиональную, академическую и социокультурную адаптацию личности. В условиях глобализации образовательного пространства и расширения межкультурного взаимодействия особую значимость приобретает обучение русскому языку студентов иноязычных групп, для которых русский язык не является родным и не используется в повседневной речевой практике.

Одной из ключевых проблем обучения русскому языку данной категории обучающихся является низкий уровень учебной мотивации, обусловленный ограниченным языковым опытом, страхом допущения речевых ошибок, а также выраженным психологическим барьером в процессе устного общения. Указанные факторы существенно снижают эффективность традиционных форм и методов обучения, ориентированных преимущественно на репродуктивную деятельность студентов.

В этой связи актуализируется необходимость поиска и внедрения инновационных педагогических технологий, способствующих активизации познавательной деятельности обучающихся, формированию устойчивого интереса к изучаемому языку и созданию благоприятной эмоционально-психологической атмосферы на занятиях. Одним из наиболее результативных средств решения данной задачи выступают игровые технологии, позволяющие интегрировать учебную и коммуникативную деятельность в условиях моделируемого речевого взаимодействия.

**Актуальность, цель и задачи исследования.** Актуальность настоящего исследования обусловлена потребностью в модернизации методики обучения русскому языку в иноязычной аудитории и переходе от традиционной трансляционной модели обучения к личностно-ориентированному и коммуникативно-деятельностному подходам. Использование игровых технологий отвечает современным требованиям высшего образования, направленным на развитие субъектной позиции обучающегося и повышение его мотивационной вовлечённости в учебный процесс.

**Цель исследования** — теоретически обосновать и методически проанализировать эффективность использования игровых технологий как средства повышения учебной мотивации при обучении русскому языку студентов иноязычных групп.

В соответствии с поставленной целью в статье предполагается решение следующих задач:

- раскрыть теоретико-методологические основы игровых технологий в системе языкового образования;
- определить их педагогический потенциал в условиях иноязычной аудитории;
- классифицировать основные виды языковых игр, применяемых на занятиях по русскому языку;
- представить примеры практической реализации игровых упражнений, направленных на формирование лексических и коммуникативных навыков.

#### **Теоретические основы игровых технологий в обучении языку**

Игровые технологии в обучении языку представляют собой совокупность дидактических приёмов и методов, основанных на моделировании речевой деятельности в условно-игровой форме. В отличие от традиционных методов обучения, ориентированных на пассивное усвоение учебного материала, игровая деятельность предполагает активную позицию обучающегося, его эмоциональную включённость и осознанное участие в процессе познания.

С позиций психолого-педагогической науки игра рассматривается как универсальный механизм развития личности, обеспечивающий переход от внешней мотивации к внутренней, а также способствующий формированию познавательной самостоятельности. В контексте обучения русскому языку студентов иноязычных групп игровые технологии выполняют ряд значимых функций:

- **мотивационную**, стимулируя интерес к изучению языка;
- **коммуникативную**, создавая условия для естественного речевого взаимодействия;
- **развивающую**, способствуя формированию когнитивных и речевых умений;
- **адаптационную**, облегчая процесс вхождения обучающихся в языковую среду.

Таким образом, игра выступает не только формой организации учебной деятельности, но и эффективным средством преодоления языкового и психологического барьера.

### **Виды игровых технологий в обучении русскому языку**

#### **1. Лексические игры**

Лексические игры направлены на активизацию словарного запаса, формирование навыков семантического осмысления и употребления лексических единиц в речи.

**Пример упражнения** — игра «Найди пару».

Студентам предлагаются карточки со словами и соответствующими изображениями. Задание заключается в соотнесении слова с визуальным образом, после чего обучающиеся составляют с данным словом простое или распространённое предложение. Данное упражнение способствует развитию ассоциативного мышления и закреплению лексического материала.

#### **2. Речевые игры**

Речевые игры ориентированы на развитие диалогической и монологической речи, а также формирование коммуникативной инициативы.

**Пример упражнения** — игра «Продолжи диалог».

Преподаватель задаёт начальную реплику, после чего студенты поочерёдно продолжают диалог, используя изученную лексику и речевые модели. Упражнение формирует навыки спонтанного речевого высказывания и способствует развитию языковой догадки.

#### **3. Соревновательные игры**

Соревновательные игры стимулируют познавательную активность и усиливают мотивационный компонент обучения.

**Пример упражнения** — командная игра «Кто быстрее?».

Студентам предлагается за ограниченное время назвать максимальное количество слов по заданной тематике (семья, профессия, университет). Элемент соревнования повышает эмоциональную вовлечённость обучающихся и способствует более прочному усвоению материала.

**Роль преподавателя в организации игровых технологий.** В процессе реализации игровых технологий преподаватель выполняет функцию организатора и модератора учебной деятельности. Его задача заключается в создании педагогически целесообразного игрового пространства, обеспечивающего достижение образовательных целей. Особое внимание уделяется коррективке речевых ошибок обучающихся, которая осуществляется тактично и ненавязчиво, без нарушения эмоционального настроя и игровой динамики.

**Заключение.** Таким образом, игровые технологии выступают эффективным средством повышения учебной мотивации при обучении русскому языку студентов иноязычных групп. Их систематическое и методически обоснованное использование способствует активизации познавательной деятельности обучающихся, формированию устойчивых коммуникативных навыков и созданию благоприятного психологического климата на занятиях. Результаты исследования подтверждают целесообразность интеграции игровых методов в практику преподавания русского языка в условиях высшей школы.

#### **СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Пассов Е.И. Коммуникативная методика обучения иноязычному общению. — М., 2018.
2. Шукин А.Н. Методика обучения иностранным языкам. — М., 2020.
3. Полат Е.С. Современные педагогические технологии. — М., 2019.
4. Зимняя И.А. Педагогическая психология. — М., 2017
5. Исмаилова Н.А. Игровые методы в обучении РКИ. — Ташкент, 2024.
6. Ахмедова Ш.Р. Современные технологии обучения языкам. — Самарканд, 2025.

## РОЛЬ УПРАЖНЕНИЙ НА ПРЕДПЕРЕВОДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ ОБУЧЕНИЯ ПЕРЕВОДУ

*Б.Н.Мусаев, преподаватель, Узбекский государственный университет мировых языков, Ташкент*

**Annotatsiya.** Maqolada bo'lajak tarjimonlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida tarjimadan oldingi tahlil mashqlarining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Tarjimadan oldingi tahlilning nazariy asoslari, tarjima faoliyati tuzilmasidagi o'rni hamda o'quv jarayonida analitik mashqlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tarjimadan oldingi tahlilning kasbiy tafakkurni rivojlantirish va tarjimaga ongli yondashuvni shakllantirish vositasi sifatidagi roli asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarjimadan oldingi tahlil, tarjima kompetensiyasi, amaliy tarjima, kasbiy kompetensiyalar, ta'limning boshlang'ich bosqichi.

**Аннотация.** В статье рассматривается значение упражнений на предпереводческий анализ в процессе формирования профессиональных компетенций будущих переводчиков на начальном этапе обучения. Анализируются теоретические основы предпереводческого анализа, его место в структуре переводческой деятельности, а также педагогические возможности использования аналитических упражнений в учебном процессе. Обосновывается роль предпереводческого анализа как средства развития профессионального мышления и осознанного подхода к переводу.

**Ключевые слова:** предпереводческий анализ, переводческая компетенция, практический перевод, профессиональные компетенции, начальный этап обучения.

**Abstract.** The article examines the importance of pre-translation analysis exercises in the process of developing professional competencies of future translators at the initial stage of training. The theoretical foundations of pre-translation analysis, its place in the structure of translation activity, as well as the pedagogical potential of using analytical exercises in the educational process are analyzed. The role of pre-translation analysis as a means of developing professional thinking and fostering a conscious approach to translation is substantiated.

**Keywords:** pre-translation analysis, translation competence, practical translation, professional competencies, initial stage of training.

**Введение:** Современная система подготовки переводчиков ориентирована на формирование профессиональных компетенций, обеспечивающих успешную реализацию переводческой деятельности в различных коммуникативных ситуациях. В этом контексте особое внимание уделяется не только результату перевода, но и процессу его выполнения, включающему осознанный анализ исходного текста, выбор стратегии и оценку переводческих решений.

Начальный этап обучения переводу играет ключевую роль в становлении профессионального мышления будущих переводчиков. Именно на этом этапе формируется понимание перевода как сложного аналитического процесса, а не механической замены языковых единиц. Одним из важнейших компонентов данного процесса является предпереводческий анализ, который позволяет студентам осмыслить коммуникативные, стилистические и прагматические особенности исходного текста.

Целью настоящей работы является анализ роли упражнений на предпереводческий анализ в развитии профессиональных компетенций студентов на начальном этапе обучения переводу.

### Теоретические основы предпереводческий анализ

Понятие предпереводческого анализа широко используется в теории и методике перевода. Под предпереводческим анализом понимается комплекс аналитических действий, направленных на выявление смысловых, структурных и функциональных характеристик

исходного текста до начала перевода. По мнению В. Н. Комиссарова, предпереводческий анализ является необходимым этапом переводческой деятельности, обеспечивающим адекватность и эквивалентность перевода [Комиссаров, 2002].

Н. К. Гарбовский рассматривает предпереводческий анализ как когнитивную основу переводческого процесса, позволяющую переводчику определить коммуникативную задачу текста и выбрать оптимальную стратегию перевода [Гарбовский, 2007]. Л. С. Швейцер подчеркивает, что анализ текста должен учитывать не только языковые, но и экстралингвистические факторы, включая ситуацию общения и адресата перевода [Швейцер, 1988].

Таким образом, предпереводческий анализ является важнейшим компонентом переводческой компетенции и должен целенаправленно формироваться уже на начальном этапе обучения.

### **Специфика пред переводческим анализом на начальном этапе обучения**

На начальном этапе обучения переводу студенты, как правило, не осознают необходимости предварительного анализа текста. Переводческий процесс часто начинается непосредственно с подбора лексических соответствий, что приводит к буквальному переводу, искажению смысла и стилистической неадекватности.

В этих условиях упражнения на пред переводческий анализ выполняют обучающую и формирующую функции. Они способствуют развитию у студентов навыков:

- определения темы и основной идеи текста;
- выявления коммуникативной цели и адресата;
- анализа жанрово-стилистических особенностей;
- прогнозирования переводческих трудностей.

Формирование данных умений позволяет студентам перейти от интуитивного перевода к осознанной переводческой деятельности, что является ключевой задачей начального этапа обучения.

### **Упражнения на пред переводческий анализ как педагогическая технология**

Упражнения на пред переводческий анализ можно рассматривать как особую педагогическую технологию, направленную на развитие профессиональных компетенций студентов. В зависимости от целей обучения они могут включать различные виды аналитической деятельности.

К числу наиболее эффективных относятся упражнения на:

- определение функционального стиля текста;
- анализ коммуникативной ситуации;
- выявление ключевых терминов и понятий;
- установление логико-смысловых связей в тексте;
- прогнозирование возможных переводческих трансформаций.

Использование данных упражнений позволяет активизировать мыслительную деятельность студентов и способствует формированию профессионального переводческого мышления. Кроме того, такие задания создают условия для развития рефлексии, поскольку студенты учатся осознавать причины выбора тех или иных переводческих решений.

### **Влияние пред переводческим анализом на формирование профессиональных компетенций**

Систематическое использование упражнений на предпереводческий анализ способствует формированию целого комплекса профессиональных компетенций. Прежде всего, развивается аналитическая компетенция, связанная со способностью осмысливать текст как объект профессиональной деятельности.

Кроме того, предпереводческий анализ способствует формированию:

- стратегической компетенции, связанной с выбором переводческой стратегии;
- коммуникативной компетенции, предполагающей учет адресата перевода;
- языковой и текстовой компетенций;
- навыков самоконтроля и оценки качества перевода.

Таким образом, предпереводческий анализ выполняет системообразующую функцию в процессе обучения переводу и обеспечивает интеграцию различных компонентов переводческой компетенции.

### **Педагогическое значение упражнений на предпереводческий анализ**

С педагогической точки зрения упражнения на предпереводческий анализ позволяют реализовать деятельностный и компетентностный подходы в обучении переводу. Они ориентируют студентов на активную познавательную деятельность, формируют ответственность за результат и способствуют развитию профессиональной автономности.

Особое значение данные упражнения приобретают на начальном этапе обучения, поскольку позволяют заложить основы профессионального мышления и предотвратить формирование ошибочных переводческих стереотипов. Включение предпереводческого анализа в структуру каждого переводческого задания повышает эффективность обучения и качество переводческих решений студентов.

**Заключение.** Таким образом, упражнения на предпереводческий анализ играют важную роль в развитии профессиональных компетенций студентов на начальном этапе обучения переводу. Они обеспечивают осознанный характер переводческой деятельности, способствуют формированию аналитического мышления и создают основу для дальнейшего профессионального роста будущих переводчиков.

Систематическое использование упражнений на предпереводческий анализ позволяет повысить эффективность обучения практическому переводу и обеспечить целостное формирование переводческой компетенции. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой методических моделей интеграции предпереводческого анализа в образовательный процесс подготовки переводчиков.

### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. Комиссаров В. Н. Современное переводоведение. — М.: ЭТС, 2002.
2. Швейцер Л. С. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. — М.: Наука, 1988.
3. Гарбовский Н. К. Теория перевода. — М.: Изд-во МГУ, 2007.
4. PACTE Group. Building a Translation Competence Model. — Barcelona, 2003.
5. European Master's in Translation (EMT). Competence Framework. — European Commission, 2017.
6. Формирование профессиональных компетенций у будущих переводчиков // CyberLeninka.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO‘LIMI  
XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA’MUN AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

**№2/3 (135)  
2026 y., fevral**

O‘zbekcha matn muharriri:  
Ruscha matn muharriri:  
Inglizcha matn muharriri:  
Musahhih:  
Texnik muharrir:

Ro‘zmetov Dilshod  
Hasanov Shodlik  
Xamrayev Nurbek, Lamers Jon  
O‘rozboyev Abdulla  
Shomurodov Jur‘at

“Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi” O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi Xorazm viloyat boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tgan. Guvoxnoma № 13-023

Terishga berildi: 09.02.2026  
Bosishga ruxsat etildi: 16.02.2026.  
Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8. Adadi 14.  
Hajmi 8,75 b.t. Buyurtma: № 2-T

Xorazm Ma’mun akademiyasi noshirlik bo‘limi  
220900, Xiva, Markaz-1  
Tel/faks: (0 362) 226-20-28  
E-mail: [mamun-axborotnoma@academy.uz](mailto:mamun-axborotnoma@academy.uz)  
[xma\\_axborotnomasi@mail.ru](mailto:xma_axborotnomasi@mail.ru)



**(+998) 97-458-28-18**